

**JEK LONDON**

# OQ SO‘YLOQ

*Qissa*



G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2010

**84 (4 Vel)**

**L75**

**BBK 84 (4 Vel)**

## **Rus tilidan Olim Otaxon tarjimasi**

London, Jek.

Oq So'yloq: qissa/J.London; tarj. O.Otaxon. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 160 b.

Mashhur amerikalik yozuvchi Jek London asarlarida inson va tabiat muammolari o'ziga xos yo'sinda qiziqarli tasvirlanadi. «Oq So'yloq» qissasi ona tilimizda ilk bor nashr etilmogda. Dunyoga mashhur bu asar, o'ylaymizki, didi nozik kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb eta oladi.

**BBK 84 (4 Vel)**

L 4702620203  
M 352(04)-2010 2010

**ISBN-978-9943-03-330-6**

© Jek London,  
G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2010-y. (tarj.)

## KUTILMAGAN VOQEALAR JOZIBASI

Hayotda yuz bergen kutilmagan voqealar umr bo‘yi yoddan chiqmas ekan. Ne-ne voqea-hodisalar bo‘lib o‘tadi, har kuni nimadir ro‘y beradi, lekin esda qolmaydi. Ajabo, hech kutilmaganda bir nima bo‘ladi-yu, oradan qancha yillar o‘tib ham esingda turadi, bot-bot yodingga tushadi, yor-do‘srlaringga aytib berasan va bir zamonlar ro‘y bergen o‘sha oddiy voqea ma‘lum vaqtga qadar xotirangning bir chekkasida tokchalarga terilgan kitob sahifalari orasidagi gerbariy singari saqlanib turadi, aloha yana bir zamon kelib o‘zidan ogoh qilib xayolga toldiradi va yana sen yor-do‘srlaringga shu haqda jo‘sib, kuyib-pishib hikoya qilib berasan.

Men o‘z hayotimda bo‘lib o‘tgan kichkina, arzimasdek tuyulgan bir voqeani aytib bermoqchiman.

Bundan qirq yilcha muqaddam mакtabni endi tugatgan kezlarim edi, bir odam, ertalab uydan chiqib ketayotsam yo‘lda to‘xtatib bir emas ikkita kitob berdi-da, qisqa, lekin hissizgina, bu senga, o‘qirсан, dedi, men ham hayron bo‘lib, ham quvonib oldim-u muqovasiga qaradim: bittasi umrimda eshitilmagan ism-familiya — taxallus — Stendal «Qizil va qora», ikkinchisi tanishroq, ilgari bir-ikki eshitgan ism Jek London «Ajdodlar nidosi», «Oq So‘yloq» qissalari. O‘z minnatdorchiligidimi qay tariqa izhor qildim, hozir eslolmayman, lekin uya qaytib kirdim-u issiq pechkaning yoniga ko‘rpacha tashlab kitoblarni varaqlashga tushdim.

O‘sha paytlarda meni kitobga, badiiy asarga bo‘lgan qiziqishim ishqivozlikdan muhabbat, mubtalolikka o‘tib borayotgandi. O‘sha kuniyoq Stendalning romanini o‘qishga tutindim, biroq o‘n betdan nariga o‘tolmadim — ochig‘i tishim o‘tmadi, shekilli. Keyin «Oq So‘yloq» povestini boshladim-u uniyam o‘qiyolmadim, keyin so‘zboshini o‘qiyotib birdan so‘zboshida aytilgan o‘tkir, ma’noli fikrlar, yozuvchi qanday g‘oyalarni ilgari surayotgani, bu asari bilan kitobxonga nima demoqchi ekani haqida chuqur mulohazalar yana kitobni qo‘limga olishga majbur etdi.

Anchayin zerikarli, og‘ir, diqqatingni susaytiruvchi ohangda boshlangan kitob ikkinchi, uchinchi bobdan keyin qiziqarli va o‘sha so‘zboshida zikr qilinganidek, chuqur hayotiy ma‘nolarga boy, majoziy, ramziy yo‘lga o‘tardi. Onasi it, otasi bo‘ri bo‘lgan Oq So‘yloqning hayoti, uning qo‘rquvlari, sadoqati, mehrga zorligi, hayot talablariga goh bo‘ysunib, goh bo‘ysunishni istamaganligi, taqdir zarbalariga chidashi, matonati haqida shunday chiroyli, kuchli ehtiros va hayajon bilan hikoya qilinardiki, qoyil qolmay ilojing yo‘q edi. Bu ayniqsa, mardlik va sarguzashtlar haqida o‘ylab charchamaydigan o‘n to‘qqiz

yashar o'spiringa qanday ta'sir qilganini tasavvur qilish qiyin emas. Darhaqiqat, asar bir itning hayoti va ko'rgan-kechirg'anlari haqidagina emasdi. U, ta'bir joiz bo'lsa, oddiy tushunchalar, hayot va muhabbat, to'g'rilik va adolat, zulm va sadoqat haqida edi. Muallif itning har xil vaziyatda nima haqda o'yashi, nimani his qilishi mumkinligini farazan hal qiladi va uning o'sha faraz qilingan ichki olamida vujudga kelgan his-tuyg'u, ehtiros va mayl-istiklarni aks ettiradi, so'zga aylantiradi.

Oq So'yloq o'z ixtiyori bilan, o'zi xohlab vahshiyona hayot tarzini tanlamagan. Uni tabiat shunday yaratmagan, uning qismati emas – yovuzlik, atrofisidagi jamiki tirik jondan nafratlanmoq. Uni muhit, tashqi omillar shu yo'lga boshlaydi – «muhit ongni shakllantiradi».

«...Odamlar mehribonroq bo'lishganda, u sadoqatli it bo'lib o'sardi. Ammo hammasi teskari bo'lib chiqdi. Hayotda hech kim uni ayamadi, boshi alam va kulfatdan chiqmadni va oqibat u yovuz, yaxshilik yoqmaydigan vahshiy yirtqichga – o'z hamzotlarining dushmaniga aylandi». Yoki mana bu holatga e'tibor qiling: «Xushro'y Smitning xo'rashlari uni shunchalar zada qilib qo'yan ediki. oqibat u ko'r-ko'rona hamma narsadan, hatto odamlardan ham nafratlanadigan ko'yga tushdi».

Biz ming-minglab hikmatli kitoblar, o'tmishtajribalari, donolar o'giti va hayot tajribamiz tufayli hayotning achchiqligi, umrning o'tkinchiligi, xiyonatning og'irligi, zulmning gunohligi, ezungulik, mehr-muhabbat, adolat, saxovat, rahm-shafqatning inson rutbasiga yarashgulik uni yuksaltirishga qodirligini juda yaxshi bilamiz. Men ham endi-endi bilayapman, lekin o'sha 19 yoshimda bunchalik aniq odilona mulohaza yuritolmaydigan yoshimda shular haqida o'qib tagiga yetolmay, qolaversa, yon-verimda men bilan birga yashayotgan odamlarga tushuntirib berolmay qiynalardim, xuddi ishq dardiga yo'liqqan o'smir kabi chuqur xayolga tolib yuradigan bo'lib qoldim, qiynalardim, chunki men «Oq So'yloq» qissasining muallifi bergen savollar, aks ettirgan kuchli hayajonga esh voqe'a-hodisalar va ulardan chiqargan xulosalar ustida bosh qotira boshlagandim, qisqasi, o'smir qalbining sokin dunyosiga tashvish, ziddiyatli, qarama-qarshi chaqnoq xayollar, zug'umkor, sarkash iddaolar to'ma nosi bilan bostirib kirgandi. «Qanday yashamoq kerak?» Insoniyat paydo bo'lganidan beri bosh qotirib, tagiga yetolmagan savolning iztiroblarini men Jek Londonning «Oq So'yloq» qissasini o'qigandan keyingina vujudumda, qalbimda his qila boshladim.

Chindanam qanday yashamoq kerak. «Yo bolg'a bo'lib ko'taril chunon, yo shu bolg'aga bo'l sandon». Zo'r zolimga aylansa, sohibi aql haqir bo'lsa, oliyjanob odam faqir bo'lsa – dunyon ni ma asrab turibdi. Holbuki tosh gavharni sindirishi turgan gap, lekin shunday bo'imasligi uchun nima qilmoq kerak, nimadan boshlamoq kerak?!

Barcha illatlarga xotima berish mumkinmi? Yo'q! Lekin buni ramkaga solish, zulm payini qirqish mumkin. Bu ulug' mehr, rahmdillik, shafqat orqali amalga oshiriladi.

Kitobda zulm, yomonlik, adolatsizlik tufayli ashaddiy yovuzga aylangan Oq So'yloq oliyjanob, to'g'ri va halol odamlarning yurak harorati tufayli

mehribon, tanti, ezzgulikka xizmat qilishga qodir jonivorga aylandi va u shu tariqa ichki dunyosini zaharlab azob berayotgan illatlardan xalos bo'ldi. Shu bois, biz yer yuzini mehr asrab qoladi, degan kalomga ishonch hosil qilamiz: «Bu hamzotlari bilan odamlarning nafratiga duchor bo'lган va doim hamma bilan qirpichoq bo'lib yurgan Oq So'yloq juda tez, lekin bir yoqlama yetilib borardi. Bunday hayot na mehr-shafqat, na erkalashga bir ehtiyoj uyg'otardi vujudida. Bilgani birgina qonun – zo'rga itoat et, zaifni ez, xo'rла!» Mana shu Oq So'yloq asar oxirida ming balolar og'ziga kirib chiqqandan keyin ham havas qilgudek evrilishlarni boshidan kechiradi:

«...Shu muhit ta'sirida uning tiynatidagi shafqatsizlik o'rnini yumshoqlik egallay boshladи. Undan Skott Oq So'yloq tabiatida mavjud bo'lган botiniy alamining ichki qatlamlarida yashirinib yotgan, allaqachon quriyozgan yaxshilik chechaklariga mehr-muhabbat naychasi orqali obi hayot baxsh etar va niyatining ulug'ligi va beminnatligi tufayli ko'p narsalarga erishmoqda edi».

Hayotda yaxshini yomonga aylantirish, yomonni yaxshi inson qilib tarbiyalashdan ming karra osonligini hammamiz bilamiz. Jek London buning aksini amalga oshirish yo'llarini shu jonivorlar hayoti haqidagi asarida ro'yirost ko'rsatib bera oldi.

Men bu kitobni o'z farzandingga, ukangga, jiyaningga taqdim etishingni istar edim, birodar. Toki bundan 40 yil muqaddam birdan xayolchan bo'lib qolgan va hech bo'lmasa xayolan zulm va adolatsizlik bilan kurashib yuradigan, yordamga muhtoj bo'lib, odamga yordam qo'lini cho'zishni o'zicha baxt deb biladigan darajaga yeta olgan o'smir ko'yiga tushsa, zora, jamiyat ham kurashchan, ham odil, ham pok niyat bir o'smir bilan boyisa.

Aziz kitobxon, meni mana shunday fikrlashga, o'ylash va qiyinalishga sabab bo'lган kishiga bag'ishlayman ushbu kitobni. Ehtimol, u mening ko'zlarimda, mening xulq-atvorimda o'zim sezmag'an, atrofimdagilar payqamagan xislatni ilg'agandir va shuning uchun bir kun kelib shu asarni sen o'zbek kitobxoniga yetkazasan, demoqchi bo'lгандир. Kim biladi, bu bir taxmin, xayol. Lekin men bugun shuni amalga oshirdim. Agar asar tarjimasini birovga bag'ishlash joiz ko'rilsa, men bu ishimni Husan aka Dadayevga bag'ishlayman.

*Olim Otaxon*

# BIRINCHI QISM



## Birinchi bob

### O'LJA ORTIDAN

Muzlagan daryoning ikkala qirg‘og‘i bo‘ylab cho‘zilib ketgan o‘rmon yuraklarga qo‘rquv solgudek vahimali ko‘rinardi. Halizamon ko‘tarilgan shamol qoraqarag‘aylar shoxiga ingan qor choyshabini yulqib otgan, endi bu shumshuk daraxtlar yaqinlashib kelayotgan oqshom qo‘ynida bir-biriga chirmashib olgan, borliq o‘lik bir sukunat og‘ushida junjikib turardi. Qilt etgan hayot nishoni sezilmayotgan bu o‘lka shunchalar ayozli va shunchalar kimsasiz ediki, bu daryo va qoraqarag‘ayzor o‘rmon uzra charx urayotgan motamsaro, dardchil ruh odamzod yuragiga vahm solishga qodir emasdi, zero, undan yuz karra dahshatliroq, sfinks tabassumidek mudhish, bamisli mana shu ayoz mash‘um, tomirlarda oqayotgan qonni muzlatib qo‘yishiga qurbli unsiz qahqaha yangrayotgandek edi. Bu jamiki tiriklikning, hayot-mamot uchun kurashning puch va besamarligini idrok etguvchi azaliy zakovat kulgusi edi. Negiz-negizigacha muz qotgan, odam oyog‘i yetmas Shimol o‘lkasining qismati shunday edi. Lekin, shunga qaramay bu qismatga bo‘ysunishni istamagan bir nima o‘zidan ogoh etib harakat qilayotgani ko‘zga chalindi. Chanaga qo‘shilgan itlar karvonи muzlagan daryordan o‘tib bormoqda edi. Itlarning hurpaygan junlarini qirov bosgan tumshuqlaridan o‘rlayotgan bug‘ havoda muzlar va shisha kukunidek junlariga yopishardi.

Itlarga abzal urilgan, abzalga ulangan charm qayishlar orqada sudralib kelayotgan chanalarga bog‘langan edi. Temir o‘rniga ostki qismiga qalin qayish po‘stlog‘i o‘rnatilgan chanalar qorga botmasdi. Yo‘l-po‘lda uchrab turuvchi qor uyumlariga botib qolmasligi uchun chananing tumshug‘i yuqoriga qayiltirilib qo‘yilgan edi. Chanaga ensiz, uzun yashik chandib bog‘langan edi. Yana boshqa buyumlar: kiyim-kechak, bolta, qahva qaynatish uchun qumg‘on, tova ham bor edi; biroq eng avvalo chananing yarmidan ziyodini egallagan yashik ko‘zga tashlanardi.

Itlar karvonining oldida oyog‘iga serbar chang‘i bog‘langan odam zo‘rg‘a yurib borardi. Ikkinchisi esa orqada, chanalarning ortidan kelardi. Chanadagi yashikda esa bularning hamrohi yotar, u dunyo tashvishlaridan qutulgan, zero Shimol o‘lkasi uni zabun qilgan, hayot shamini so‘ndirgan, oqibatda u harakat qilish va kurashdan butunlayin mosuvo bo‘lgan

edi. Bu yerlarga xudoning qarg'ishiga uchraganlar kelardi xolos. Shimol o'lkasi hayotning ashaddiy dushmanidir, chunki hayot harakat degani. Shimol o'lkasi esa nimaiki harakat qilsa uni to'xtatishga urinadi. Uning nafasidan dengiz sari oqib borayotgan daryolar muzlaydi, zero u bu suvlarning dengizga borib quyilishini istamaydi. U daraxtlar tanasidagi tiriklik suvini so'rib oladi, provardida azim daraxt qattiq sovuq zabitidan toshdek qotadi. Biroq, inson irodasini, matonati va g'ayratini bukishda shimol o'lkasining mislsiz beshafqatligi va qahr-g'azabi ayniqsa, ko'proq sezilardi, buning yagona sababi, inson tabiatan dunyoda mavjud bo'lgan jonivorlarning eng isyonkori, u hamisha uning izm-u-ixtiyoriga qarshi bosh ko'taradi, holbuki shimol tabiatining xohish-istagi bo'yicha har qanday harakat oxir-oqibat to'xtashi shart.

Shunga qaramay chananing orqa va old tomonida, hali hayotdan rizq-u nasibasi uzilmagan ikki nafar dovyurak va bo'ysunmas odam odimlab ketmoqda edi. Ularning ikkovi ham pochapo'stinga o'ralib olishgandi. Nafas olganlarida og'iz-burinlaridan chiqayotgan bug' bir nafasda muzga aylanib aft-basharalarini qoplaganidan kipriklari-yu yonoqlari, lablarigacha ko'rinnmay ketgandi. Ular narigi dunyodan kelib arvochlarni dafn etmoqchi bo'layotgan allaqanday shaffof niqobli go'rkovlarga o'xshashardi. Biroq, u kimsalar orzu-umidlari yo'lida bor kuch-quvvatlarini sarf etish hamda noma'lum bepoyon koinot singari huwillagan, mutlaqo begona olamga – kulfatlar-u adoqsiz qiyinchiliklar makoniga qadam ranjida qilgan insonlar edi.

Ular churq etmay ilgarilab borishardi. Chor atrofni shunaqangi quyuq sukunat qoplagan ediki, uni bamisli qo'l bilan paypaslab ko'rish mumkinde tuyulardi. Dengiz tubida g'avvos vujudini suv qanchalar qiyNASA odamzodning aql-hushiga bu sukunat shunchalar azob berardi. U o'z qonuniyatining daxlsizligi va aql bovar qilmas darajada cheksiz-chegarsizligi bilan odamzod shuurining pinhoniy qatlamlariga kirib borar va xuddi siqilgan anordek u borlig'i, tabiatidagi qalbaki, o'ziga ortiqcha bino qo'yishdek noma'qul xususiyatlarni so'rib olar, shu tariqa zaif va nochor hol-jonlarini ayashdan boshqasiga yaramaydigan chivindan-da farqlari yo'qligini uqtirmoqchi bo'lardi.

Oradan ikki soatcha vaqt o'tdi. Bir tutam kun tugab borliq uzra g'irashira oqshom cho'kayotgan mahal zaifgina, uvillagan ovoz taraldi. Bu nola keskin ravishda kuchayib borib avj pardalarga chiqqanda xiyla vaqt zorlanib turdi-da, so'ng asta-sekin sukunat bag'riga singib ketdi. Agar bu ovoz zamirida vahshiyona g'azab va ochlik azoblari yangramaganda edi, kimningdir ruhi-arvohi zorlanayapti deya o'ylash mumkin edi.

Chananing old tomonida borayotgan kimsa daf'atan to'xtab o'girildida, orqa tarafda kalovlanib kelayotgan hamrohiga qaradi, ular bir-biriga bosh irg'ab qo'yishdi. Xiyol o'tmay yana boyagi nola yangradi. Ikkovi

tovushning qaysi tarafdan kelayotganini aniqlash uchun vujudi quloq bo'lib tinglab turishdi. Ovoz hozirgina ular o'tib kelgan qorli sayhonlikdan kelardi.

— Zum o'tmay bunga javoban yana o'sha tomondan, faqat xiyol so'lroqdan cho'ziq uvillash eshitildi.

— Ana xolos, ular bizni izma-iz quvib kelishayotiptimi deyman, Bill?! — dedi oldinda borayotgani. Uning ovozi g'ayritabiiy ravishda xirillab chiqdi. U arang gapirayotganga o'xshardi.

— Ular och bo'lsa kerak, — deb javob qildi sherigi. — Uch kundan oshdi, loaql bitta quyonning izini ko'rmadim.

Yo'lovchilar orqa tomondan dam-badam yangrayotgan uvillashni eshitmay qolishdan cho'chigandek butun vujudlari qulooqqa aylanib jim qolishdi.

Qosh qorayishi bilanoq, ular itlarini qirg'oqdagi qoraqarag'ayzor tomoniga haydab dam olgani to'xtadi. Chanadan tushirilgan tobut ular uchun ham stol, ham kursi vazifasini o'tardi. Gulxanning narigi tomonida g'uj bo'lib olgan itlar irillashar, tishlashar, lekin birontasi qop-qora o'rmon tomoniga qochib qolishni xayoliga keltirmasdi.

— Nima balo, gulxanni yonidan ketmay qolishdi, — dedi Bill.

Bir bo'lak muz solingan qumg'onne qo'yish uchun gulxan yonida cho'kkalagan Genri indamay bosh irg'adi. U tobutda o'tirib ovqat yeyishga tutingandan keyingina gapga tushdi.

— Jon shirin-da, baloni bilishadi. Bu yerda ularni boqishsa, u yoqda biron yirtqichga yem bo'lishlariga aqlлari yetadi. Itlarni laqillatib bo'psan.

Bill bosh chayqadi:

— Kim biladi deysan!

Sherigi unga qiziqsinib qaradi:

— Ularning farosatidan gumonsirashingni endi eshitishim.

— Genri, — dedi Bill shoshilmay loviya chaynarkan, — itlarga baliq berayotganimda bir-birini g'ajigudek bo'lishganini sezmadningmi?

— Darvoqe, doimgidan ko'proq to'polon qilishdi.

— Bilasan-a, itimiz nechta, Genri?

— Oltita.

— Xo'p... — Bill gapini davom ettirish uchun nafasini rostladi. — Menimcha ham, oltita. Shuning uchun xaltadan oltita baliq oldim, har biriga bittadan ulashdim. Bittasiga yetmadi, Genri.

— Demak, hisobdan adashgansan.

— Itlarimiz oltita, — Bill uning gapiga e'tibor bermay yana takrorladi. — Men oltita baliq oldim. Chinoqqa yetmadi. Qopdan yana bitta baliq olishimga to'g'ri keldi.

— Baribir, nima desang deyaver, lekin oltita itimiz bor, — deb so'zida turib oldi Genri.

— Genri, — deya davom etdi Bill. — Men hammasi itlar edi deyayotganim yo‘q, ammo yettita baliq ularshaganim aniq.

Genri gulxan osha itlarga qaradi-da, bittalab sanab chiqdi.

— Ana, oltita-ku! — dedi u.

— Yettinchisi qochib ketdi, o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, — dedi qat’iyan Bill. — Hozirgina yettita edi.

Genri unga achinibgina qaradi-da, xo‘rsinib qo‘ydi:

— Omon-eson yetib olaylik-da, ishqilib.

— Bu bilan nima demoqchisan?

— Demoqchimanki, tobutning kasri urib senga jin tegdi shekilli, ko‘zingga har balo ko‘rinayapti.

— Men ham shunaqamikin, deb o‘ylovdim, — dedi Bill jiddiy ohangda. — U qochib ketgan zahoti qordagi izlarga qaradim, keyin itlarni sanasam, oltita chiqdi. Ishonmasang, anavi yerda izlari bor, yur ko‘rsataman!

Genri indamasdan kavshanaverdi. Nari-beri loviyasini yeb tugatgach, qaynoq qahva ichdi va lablarini artgan bo‘lib og‘iz juftladi:

— Bundan chiqdi seningcha, bu...

Cho‘ziq, hazin uvillash yangradi-yu, uning gapi og‘zida qoldi. Genri jimgina qulq solib turdi, so‘ng qorong‘ulik tomon shahodat barmog‘i bilan ishora qilib gapini tugatdi:

— ... bu mehmon nariyoqdan tashrif buyurgan, shundaymi?

Bill bosh irg‘adi.

— O‘lasanmi, qolasanmi, bor gap shu. O‘zing eshitding itlarning dod-voyini.

Uvillashlar tez-tez eshitila boshladi, bunga javob tariqasidagi chiyillashlar uzoq-uzoqdan eshitilardi. Oxiri hammayoqni dod-voy tutib ketdi. Bu mudhish ovozlar to‘rt tarafdan kelardi, o‘takalari yorilgan itlar shunchalik gulxanga yaqin kelib qolishgandiki, sal bo‘lmasa junlari kuyib jizg‘inak bo‘layozdi.

Bill quruq shoxchani o‘t oldirib, trubka tutatdi.

— Namuncha siqilyapsan, — dedi Genri.

— Genri... — dedi Bill o‘ychan ohangda. — To‘g‘risini aytsam bizga qaraganda manovining omadi bor ekan... — Bill shunday deyaturib, o‘zları o‘tirgan tobutni chertib qo‘ydi. — Agar ajalimiz yetsa jasadimizni itlar g‘ijimasligi uchun bir uyum tosh bilan bo‘lsa ham ko‘mib qo‘yadigan biron taʼsirli odam topilmaykin!?

— Qayoqda, ikkovimizning na qarindosh-urug‘imiz, na pulimiz bo‘lmasa, — deya xo‘rsindi Genri. — Shundan-shunga olib borib dafn etishga kimning ko‘zi uchib turibdi, deysan.

— Men bir narsaga hayron bo‘laman, Genri. O‘z yurtida lord bo‘lgan yoki manaviga o‘xshab yegani oldida, yemagani ortida bo‘lgan odamga xudo qarg‘agan yerlarda pishirib qo‘yibdimi?..

— Shuni aytsang-chi. Tinchgina uyida o'tirsa-ku, keksalik gashtini surardi, — deya uning gapini quvvatladı Genri.

Bill bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin gapi og'zida qoldi. Buning o'rniga qorong'ilikka ishora qildi. Zulmat qo'ynida biron shakl-shamoyilni ajratib bo'lmazıdı. Faqat cho'g'dek yonayotgan bir juft ko'zlar ko'rınardı.

Genri ikkinchi, uchinchi ko'zlarni ko'rsatdı. Pirillab yonayotgan ko'zlar halqadek qarorgohni o'rab kelardi. Dam-badam juft ko'zlar o'rin almashtırar yoki chiroqdek lip etib o'chardi-da, bir necha soniyadan so'ng yana paydo bo'lardı.

Tobora bezotaligi oshayotgan itlar tuyqus qo'rqqanlardan gulxan yoniga odamlarning oyog'i orasiga suqilishdi. Tiqilinchda itlardan biri gulxanga yiqildi-yu, jon achchig'ida angillab yubordi, havoda kuygan jun isi anqidi. Yonayotgan ko'zlar bir daqiqa ortga chekinishdi, lekin itlar tinchigan zahoti yana avvalgi joylariga kelib olishdi.

— Aksiga olib, o'qlarning ozligini qara.

Bill trubkasini chekib bo'lib, kechki ovqatdan avval keltirib qo'yilgan qarag'ay shoxlari ustiga jun to'shak bilan choyshab solishga sheriçiga ko'maklashdi. Genri tomoq qirib maxsisini yechishga tutindi.

— O'qlaring qancha qolgan? — deb so'radi u.

— Atigi uchta, — dedi Bill. — Uch yuzta bo'lganda, dodini berardim bu kasofatlarni!

U porillab yonayotgan ko'zlar tomon musht do'laytirdi-da, maxsisini gulxanga yaqinroq surib qo'ydi.

— Bu deyman, sovuq rosa jonga tegdi-ku, a! Qachon tugarkin! — gapini davom ettirdi Bill. — Ikki hafta bo'ldi ellikdan tushmaydi. Qaydanam shu safarga chiqdim. O'lay agar biror yaxshilik chiqmaydi. Biroz behuzur bo'layapman, Genri. Tezroq borib olsak, hammasi o'tardi- ketardi. Hozir Mak-Gerri fortida, devor o'choq yonida kribbej o'ynab o'tirgan bo'lardik.

Genri yana bir nimalar deb to'ng'illagan bo'ldi-da, yotishga hozirlik ko'ra boshladı. Endi ko'zi ilinay deganda Bill uni uyg'otdi.

— Meni nima xavotirga solayotganini aytaymi, Genri? Nima sababdan itlar anovi, baliqxo'r kelgindiga tashlanishmaydiykin?

— Juda vahimachi bo'lib qolibsən, Bill, — dedi Genri uyqusirab. — Ilgari bunaqa emasding. Ko'p aljiramasdan yotib, dampingni ol, bir uylab tursang hammasi esingdan chiqib ketadi. Jig'ildoning qaynayapti, shunga betoqat bo'layapsan, shekilli.

Ikkovi bir choyshabni ustlariga yopib uyquga ketishdi. Gulxan o'cha boshladı, qarorgohni o'rab olgan cho'g'dek ko'zlar tobora yaqinlashardı.

Bitta-yarimta juft ko'zlar haddan ziyyod yaqinlashsa itlar bir-biriga suykalar, tahdidona irillashar edi. Bu safar shunaqangi qattiq irillashdiki Bill uyg'onib ketdi. U sheriçini uyg'otib yubormaslik uchun choyshab

tagidan ohista sirg'ilib chiqdi-da, gulxanga shox-shabba tashladi. Olov gurillab yona boshladi-yu, ko'zlar halqasi chekindi.

Bill g'uj bo'lib yotgan itlarga nazar soldi, keyin ko'zlarini ishqab diqqat bilan tikildi, so'ng yana o'rniqa yotdi.

— Genri! — deb chaqirdi u sherigini. — Genri!

Genri ko'zlarini ochgisi kelmay g'ingshidi:

— Nima bo'ldi?

— Hech nima, — dedi Bill, — faqat ular yana yettita bo'lib qolishibdi.

Hozirgina sanadim.

Bunga javoban Genri po'ng'illab qo'ydi-da, o'sha zahoti uyquga ketdi. Zum o'tmay uning xurragi eshitildi.

Ertalab Genri barvaqt sherigini uyg'otdi. Soat oltiga yaqinlashib qolgan bo'lsa ham kun yorishishiga hali uch soatcha vaqt bor edi. Genri qorong'ida timirskilanib nonushta hozirlashga tutindi. Bill esa o'rin-to'shakni yig'ishtirib buyumlarni chanaga orta boshladi.

— Menga qara, Genri, nechta itimiz bor deganding? — deb so'radi u kutilmaganda.

— Oltita.

— Bekorlarni aytibsan! — dedi balanddan kelib Bill.

— Yana yettita bo'p qoldimi? — deb so'radi Genri.

— Yo'q, beshta bo'pti! Bittasi gum bo'lган.

— Obbo, la'nati! — deya o'shqirdi Genri va naridan-beri tayyorlayotgan narsalarni tashlab itlarni sanashga tushdi.

— Rostdan ham beshta qopti, Bill, — dedi u birozdan so'ng. — Fetti qochibdi.

— Juftakni shunday rostlabdiki, sezmay qolibmiz. Endi dumini tutqazib bo'pti.

— Qidirishdan foyda yo'q, — dedi bunga javoban Genri. — Yamlamay yutib yuborishgan. Bu vahshiylar xomtalash qilayotganda angillashga ham ulgurmgan bo'lsa kerak.

— Fetti azaldan laqma it edi, — dedi Bill.

— Hayronman, eng laqma it ham o'z oyog'i bilan ajal og'ziga bormasdi.

Genri qolgan itlarga nazar solib, o'zicha har birining nimaga qodirligini chamalagan bo'ldi.

— Manavilar sezgirroq, unaqa hunar ko'rsatishmaydi.

— Ularni gulxan yonidan kaltak bilan ham haydolmaysan, — deya ma'qulladi Bill. — Men hamisha Fettining esi joyida emas deb hisoblaganman.

Bu Shimol o'lkasida nobud bo'lgan itga qarata aytilgan vidolashuv so'zi edi — zotan, bu nafaqat nobud bo'lgan itlar, balki odamlar sha'niga bildirilgan ta'ziyalardan zarracha farq qilmasdi.

## Ikkinchchi bob

### URG‘OCHI BO‘RI

Nonushta qilib bo‘lgach arzimagan lash-lushlarni chanaga ortishdi-da, hali atrof qorong‘i bo‘lishiga qaramay Genri bilan Bill issiqliqna gulganni tashlab ketishdi. Ular endigina yo‘lga tushganlarida, hazin uvillash eshitildi; zulmat va ayoz aro to‘rt tomondan kelardi bu mash‘um ovoz. Yo‘lovchilar jimgina borishardi. Soat to‘qqizda tong otdi.

Choshgoh payti osmonning janubiy qismi biroz qizardi. Ammo bu qizg‘ish shu‘la ko‘p o‘tmay sham yanglig‘ so‘ndi. Soat uchlargacha kun g‘ira-shira yorishib turdi-da, so‘ng huwillagan o‘lkaga yana zim-ziyotun cho‘kdi.

Yo‘lovchilarni chor atrofdan ta’qib etayotgan uvlash qorong‘i tushdi, deguncha yaqinroqdan eshitila boshladi; o‘qtin-o‘qtin bu tovush shunday yaqin kelib qolardiki, itlarning quti o‘chib talvasa ichida o‘zlarini u yoqdan, bu yoqqa otardilar.

Bir gal mana shunday talvasaga tushishlardan so‘ng Bill bilan Genri itlarni tinchitgach, Bill:

— Bu kasofatlar biron o‘lja uchrab bizni tinch qo‘yishsa yaxshi bo‘lardi, — dedi.

— Nimasini aytasan, ularning tovushini eshitishga kim zor, deysan, — deya ma‘qulladi Genri.

Shu ketgancha anchagacha churq etishmadi.

Navbatdagi qarorgohda to‘xtab, Genri endi loviya qaynatish uchun dekchaga muz parchalari solayotganda to‘satdan orqa tomondan bir nimaning qars etgani, so‘ng ketma-ket Billning qichqirgani va itlarning qattiq angillashi eshitildi. U qaddini rostlab o‘girilib qaradi-yu, qorda sakrab-sakrab ketayotgan allaqanday yirtqich sharpasiga ko‘zi tushdi. So‘ngra bir qo‘lida kaltak, ikkinchisida dudlangan yarimta baliq, nima qilarini bilmay itlar orasida turgan Billga qaradi.

— Kasofat, baribir yarmini olib qochdi, — deya qichqirdi Bill. — Lekin rosa adabini yedi! Angillaganini eshitdingmi?

— Nima ekan u? — deb so‘radi Genri.

— Yaxshi ko‘rolmadim. Ko‘rinishidan itga o‘xshaydi.

— Qo‘lga o‘rgatilgan bo‘ri emasmi ishqilib?

— Bo‘rimi, go‘rmi, nima bo‘lgan taqdirda ham qo‘lga o‘rgatilgan. Aks holda odamning qo‘lidan baliq olmasdi.

O‘sha kuni kechasi ovqatlanib bo‘lgach, trubka chekib o‘tirishganida cho‘g‘dek porlagan ko‘zlar davrasи yana ham toraydi.

— Yo‘lda biron bug‘u to‘dasiga duch kelib qolishsa zap ish bo‘lardi-da, — dedi Bill. — Qutulardik bu kasofatlardan.

Sherigi norozi ohangda bir nimalar deb to'ng'illadi, so'ng Genri olovga, Bill esa zim-ziyo tun qo'ynida yal-yal yonayotgan ko'zlarga tikilib yigirma daqiqacha jimgina o'tirishdi.

— Qaniyi hozir g'ir etib Mak-Gerriga borib qolsak... — Bill yana zorlana boshlagan edi Genri tutoqib ketdi:

— Qaniyi, qaniyi, deb ming'illayverasanmi, bo'ldi-da! Zardang qaynayapti seni, shuning uchun ming'-ming' qilayapsan. Soda ichib yubor, o'zing ham yengil tortasan, meni ham qulog'im tinchiydi.

Ertalab Genri xunobi oshib so'kinayotgan sheringining ovozidan uyg'onib ketdi. Tirsaklanib qarasa Bill o'chayozgan gulxan yonida, itlar orasida turar va g'azabdan ko'karib, hadeb qo'llarini silkitardi:

— O'v! — deb baqirdi Genri. — Nima bo'ldi?

— Frog qochibdi, — deb javob qildi Bill.

— Yo'g'-e! Bo'lishi mumkin emas!

— Nega ishonmaysan, qochibdi deyapman-ku!

Genri shosha-pisha o'rnidan turib, o'sha yoqqa yugurdi. U itlarni bir boshdan sanab chiqqach. Billga qo'shilib yana bitta itlardan mahrum qilgan bu bexosiyat o'lkani la'natlashga tushdi.

— Frog itlarning eng zo'ri edi, — dedi afsuslanib Bill.

— Yer tagida ilon qimirlasa bilardi-ya! — dedi Genri ham bosh chayqab.

Keyingi ikki kun ichida yana bir vidolashuv so'zi shu bilan tugadi.

Nonushta ularning yuraklariga sig'madi, nari-beri ul-bul yeb olgach, qolgan to'rtta itni chanaga qo'shib yo'lga tushdilar. Bugungi kunning kechagidan farqi yo'q edi. Yo'lovchilar qor bosgan kimsasiz biyobondan jimgina borishar, borliq sukunatini odamlarni izma-iz quvib kelayotgan bo'rilarning noxush uvillashlari buzzardi xolos. Qosh qorayib, kutilganidek bo'rilar to'dasi judayam yaqinlashganda uvillash deyarli yonginalaridan eshitildi, itlar yo'lovchilarning battar yuragini siqib, qo'rquvdan titrab-qaqshar, o'zlarini u yoqdan bu yoqqa otib, qayishlarini chuvatishardi.

— Qani ko'ramiz betamiz maxluqlar, endi ham qochib ko'rلaringchi, — dedi Bill mamnun ohangda navbatdag'i dam olishga to'xtaganlarida.

Yegulik hozirlayotgan Genri ishini qo'yib, uning yoniga keldi. Bill hinduchasiga qilib itlarning bo'ynidan chillak o'tkazib bog'lab qo'ygan edi. Har bir itning bo'yniga charm sirtmoq solib, sirtmoq tagidan yo'g'on, uzun tayoq o'tkazib, tayoqning ikkinchi uchini yerga qoqilgan qoziqqa qayish bilan tang'ib bog'lagan edi. Bu ahvolda itlar bo'yinbog'larini g'ajiyolmas, tayoq esa qoziqqa bog'langan qayishni ham chaynab uzishlariga yo'l qo'ymas edi.

Genri ma'qullab bosh irg'adi.

— Chinoqni faqat shu yo'l bilan ushlab turish mumkin. Qayishni g'ajib uzish uning uchun hech gap emas. Xuddi pichoq bilan kesgandek shartta uzib tashlardi. Bu ahvolda ertalabgacha birontasi qayishni uzolmaydi.

— Uzib bo'pti! — dedi Bill. — Agar bittasi yechilib ketsa ertaga qahva ichmaganim bo'lsin.

— Anavilar adabini berib qo'yishga hech vaqomiz yo'qligini bilishadi-da, — dedi yotishga hozirlanayotgan Genri, qarorgohni gir aylana o'rabi-olgan yonar ko'zlarni ko'rsatib. — Bir-ikki gumburlatsak bormi, haddilaridan bunchalik oshmasdilar. Indamagan sari, qara, yaqin kelib olishganini?! Hadeb olovga tikilavermay, anavi yoqqa bir qarasang bo'lardi. Qalay? Hov anavini ko'rdingmi?

Ikkovi gulxan ortida g'imirlayotgan g'ira-shira sharpalarni sinchkovlik bilan kuzata boshladilar. Darhaqiqat, qorong'ulik qo'ynida yarqirayotgan bir just ko'zlar tomonga diqqat bilan tikilgan odam yirtqich bo'rilar shamoyilini ilg'ashi mumkin edi.

Itlar orasida ko'tarilgan shovqinni eshitib, Genri bilan Bill o'sha tomonga yuzlanishdi. Chinoq betoqat bo'lib angillar va bog'lab qo'yilganiga qaramay, dam qorong'ilik sari talpinar, dam ortiga chekinib quturgandek tayoqni g'ajishga tushardi.

— Bill, qara! — deya shivirladi Genri.

Gulxan yoniga ko'rinishidan itga o'xshash bir yirtqich pusib yaqinlashardi. U hadiksirab, shu bilan birga odamlardan sullohlarcha ko'zini uzmay itlarga yaqinlashdi. Chinoq arqonni siltab tortgancha begona hayvonga talpinardi, hech ilojini topo流氓ach alamiga chidolmay uvillab yubordi.

— Bu tasqara zig'ircha ham qo'rqlayapti, shekilli, — deya shivirladi Bill.

— Urg'ochi bo'ri-ku, — dedi unga javoban Genri. — Endi bildim, Fetti bilan Frogga nima bo'lganini. Bo'rilar itlarni shamg'alat qilish uchun buni yuboradilar. U esa itlardan birortasini aldab chekkaroqqa olib o'tadi-yu, qolgani bo'rirlarga havola.

Olovda nimadir chirsilladi, otilib qorga tushgan bir parcha cho'g' vishillab o'chdi. Qo'rqlayapti ketgan yirtqich bir sakrab qorong'ulikka singib ketdi.

— Bilasanmi, Genri, ko'nglimga nima keldi? — dedi Bill.

— Nima?

— Bu o'sha, men palyon bilan urgan maxluq.

— Bo'lishi mumkin, — deb javob berdi Genri.

— Men demoqchimanki, — gapini davom ettirdi Bill. — U gulxanga o'rgangan ko'rinaldi, buning tagida gap bor.

— U keragidan ko‘proq narsani biladiganga o‘xshaydi, — dedi Billning gapini tasdiqlab Genri. — Uncha-muncha bo‘ri itlarning ovqatiga sherik bo‘lолmaydi. Juda makkor, tajribaliga o‘xshaydi.

— Bir zamonlar qariya Villenning iti bo‘lardi, o‘sha it bo‘rilarga qo‘shilib qochib ketgan, — deya o‘ychan ohangda gap boshladi Bill. — Men o‘sha itni juda yaxshi bilardim. Uni bug‘ular o‘tagani keladigan yaylovga kelganda, bo‘rilar to‘dasi orasida Litl-Stikda o‘zim otib o‘ldirganman. Bechora Villen yosh bolaga o‘xhab ho‘ng-ho‘ng yig‘lagan edi. Ko‘rmaganiga uch yil bo‘lgan ekan, o‘ziyam. Demak, it uch yil bo‘rilar bilan yashagan.

— Bu bo‘ri emias, it ekani aniq, uning ilgari ham odamzod qo‘lidan baliq yeb yurgani shak-shubhasiz, Bill. To‘g‘ri aytyapsan.

— Basharti nasib qilsa otaman, ana unda na bo‘ri, na itligi qoladi, oddiy o‘laksaga aylanadi, — dedi Bill. — Bo‘lar endi shuncha itdan mahrum bo‘lganimiz.

— Atigi uchta patroning bor-ku, — dedi ensasi qotib Genri.

— Bexato otsam shuning o‘zi kifoya, — dedi Bill.

Ertalab Genri barvaqt turib gulkanni gurillatib yubordi-da, nonushta hozirlashga kirishdi. Keyin xurrak otayotgan sherigini uyg‘otdi:

— Yetar shuncha uxlaganing, — dedi u Billni turtib, — uxlashini qaranglar, uyg‘otishga ko‘z qiyimaydi-ya.

Bill ko‘zini ochar-ochmas ovqatlanishga tushdi. Krujkasi bo‘shligini ko‘rib qumg‘onga cho‘zildi. Ammo qo‘li yetmadi: qumg‘on ancha narida, Genrining yonida edi.

— Menga qara Genri, — dedi u ginaxonlik bilan, — hech narsa esingdan chiqmadimi?

Genri yon-veriga ko‘z yogurtirib chiqdi-da, bosh chayqadi. Bill unga bo‘sh krujkani uzatdi.

— Senga qahva yo‘q, — dedi bamaylixotir Genri.

— Nega, tamom bo‘ptimi?

— Yo‘q, tamom bo‘lmagan.

— Oshqozoni ishdan chiqadi deb qo‘rqayapsanmi?

— Yo‘q, qo‘rqayotganim yo‘q.

Billning achchig‘i chiqib, qip-qizarib ketdi.

— Yuragimni siqmay tushuntirib gapir, nima bo‘ldi?

— Spenker qochibdi, — dedi Genri.

Bill bosgan undek bo‘shashib, o‘tirgan yerida o‘girilib itlarni sanadi.

— Nima bo‘lganikin?! — deb so‘radi u tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib.

Genri yelka qisdi:

— Qaydam. Balki Chinoq uning bo‘yinbog‘ini g‘ajib yordam berib yuborgandir, o‘zi o‘laqolsa ham uzolmasdi.

— Kasofat! — dedi Bill g‘azabini ichiga yutib. — O‘zinikini uzolmagani uzolmagan, Spenkernikini uzganiga o‘laymi.

— Bo‘lar ish bo‘pti, Spenker azobdan qutulibdi. Bo‘rilar uni paqqos tushirib hazm qilib yuborishgan bo‘lsa ajab emas. — Nobud bo‘lgan uchinchi itga Genri shunday ta’ziya bildirdi. — Qani uzat krujkangni.

Ammo Bill bosh chayqadi.

— Ichsang-chi, — deya zo‘rladi Genri qumg‘onni ko‘tarib.

Bill krujkasini tortib oldi.

— Baribir ichmayman! Itlardan bирontasi ochsa qahva ichmayman, dedimmi, tamom, ichmayman — so‘zim so‘z!

— Lekin qahvamisan qahva bo‘libdi-da! — dedi Genri uning havasini keltirib.

Ammo Bill o‘jarlik bilan qahva ichmadi, Chinoqni so‘ka-so‘ka nari-veri nonushta qildi.

— Bugun kechasi ularning hammasini alohida-alohida bog‘lab qo‘yaman, — dedi Bill yo‘lga tushganlarida.

Yuz qadamcha yurgach, oldinda borayotgan Genri chang‘isi urilib to‘xtadi-da, engashib yerdan bir nima oldi. Qorong‘ida nima ekanini bilolmay, paypaslab ko‘rdi-da, keyin orqaga uloqtirdi, u chanaga urilib Billning oyog‘i tagiga tushdi.

— Ehtimol bir kun xayringga yarar yana, — dedi Genri.

Bill hayratdan qotib qoldi. Spenkerdan bor-yo‘g‘i mana shu bo‘yniga bog‘langan bir qarich tayoqcha qolgan edi.

— Obbo kasofatlar-ey! — dedi Bill. — Hatto tayoqqa bog‘langan qayishni ham qo‘yishmabdi. Ochdan o‘ladigan ahvolga yetib qolishganga o‘xshaydi, Genri... Nimasini aytasan, bu ketishda hali bizning ham boshimizga yetishadi.

Genri uning jig‘iga tegish uchun tirjaydi.

— To‘g‘ri, bo‘rilar quvmagan-u, lekin bundan battariga duch kelib, har qalay tirik yuribman. Bill, kaminai kamtaringa bunaqa ochofat tasqaralardan o‘ntasi ham bas kelolmaydi.

— Ko‘ramiz hali, ko‘ramiz... — dedi g‘ijinib Bill.

— Bo‘pti, Mak-Gerriga borib olaylik ana o‘sanda ko‘ramiz.

— Bunga sira ko‘zim yetmayapti, — dedi qaysarlik bilan Bill.

— Nafasingni issiq qil, sen bir nimadan xafasan xolos Bill, — dedi qat‘iyan Genri. — Xinin ichishing kerak. Sabr qil, Mak-Gerriga yetib olaylik, bir xininga to‘ydiraman o‘zim.

Bill sherigining pichingiga javoban norozi ohangda to‘ng‘illadi-da, xayolga cho‘mdi.

Soat to‘qqizda kun yorishdi. Choshgohga yaqin janub ufqi qizardi, uch soatcha davom etadigan diqqinfas kun boshlandi.

Ana-mana quyosh chiqadigan mahal Bill daf‘atan chanadagi miltig‘ini olib:

— Genri, sen ketaver, men nima gapligini bilib kelaman, — dedi.

— Chanadan uzoq ketma! — deya qichqirdi ortidan Genri. — Bor-yo‘g‘i uchta o‘qing bor. Yana bir baloni boshlab yurma!

— Ana xolos! Endi nega g‘ingshib qolding? — deb so‘radi g‘olibona ohangda Bill.

Genri indamadi, ortiga, hozirgina sherigi ko‘zdan yo‘qolgan qorong‘ulik qo‘yniga xavotir ichida qaray-qaray yo‘lda davom etdi.

Oradan bir soat o‘tgach, Bill chanani quvib yetdi.

— Juda ko‘payib ketishibdi, — dedi u, — hammayoqda izg‘ib yurishibdi, lekin bizni ham ko‘zdan qochirmay qadam-baqadam ergashib kelishyapti. Chamasi qochib ketolmasligimizga ishonch hosil qilishgan.

— Ya’ni, ular bizni qochib qutulolmaydi deb o‘ylasharkan-da, — dedi Genri.

Bill uning nima demoqchi ekaniga ahamiyat bermadi.

— Bir xillarini ko‘rdim — qoq suyak! Uchta itimizni aytmasa, anchadan beri ularga hech narsa uchramagan shekilli. Juda ko‘pchilik, uchta it urvoq ham bo‘lmagan. Shunchalik oriqlab ketishganki, qovurg‘alari sanalib turibdi. Qisqasi, sillasi qurigan hammasini. Meni aytdi dersan, bu ahvolda qo‘rquvni ham unutishadi, ana unda hushyor bo‘lish kerak.

Bir necha daqiqadan so‘ng chananing ortida kelayotgan Genri shergini ogohlantirish uchun sekingga hushtak chaldi.

Bill o‘girilib qaradi-da, itlarni to‘xtatdi. Hozirgina ular o‘tib kelgan muyulish tomonda junlari hurpaygan oriq yirtqich yugurib kelardi. U qordagi izni iskab-iskab yengilgina yo‘rtib kelardi. Odamlarning to‘xtashganini sezib u ham to‘xtadi va tumshug‘ini ko‘tarib havoni iskadi.

— O‘sha! Ona bo‘ri! — dedi Bill.

Itlar qorda yotishardi. Bill chana oldida turgan sherigi yoniga keldi. Ikkovi bir necha kundan buyon o‘zlarini ta‘qib etayotgan hamda bir nechta itlarining boshiga yetgan g‘alati yirtqichni kuzata boshlashdi.

Shoshilmaygina atrofni ko‘zdan kechirib chiqqan yirtqich bir necha qadam oldinga yurdi. U, to chanalarga 50–60 qadam qolguncha dambadam shunday nag‘ma ko‘rsatib yaqinlashaverdi, so‘ng qoraqarag‘ay ostida to‘xtab tumshug‘ini ko‘tardi-da, o‘zidan ko‘z uzmay turgan odamlarga diqqat bilan tikildi. Uning g‘amgin nigohi nimasi bilandir itning qarashlarini eslatar, ammo bu ko‘zlarda itlarga xos sadoqat xulyosi ko‘rinmasdi. Bu ko‘zlarda ayovsiz ochlik tufayli paydo bo‘lgan g‘amg‘ussa aks etardi.

U bo‘ridan xiyla yirik edi, oriqligiga qaramay, bo‘ri zotining behad yirik surryoti ekani ko‘rinib turardi.

— O‘ziyam fildek keladi-ya, — dedi Genri. — Kattaligini qara!

— Rangi ham bo‘rinikiga o‘xshamayapti, — dedi Bill. — Qizg‘ish bo‘rini umrim bino bo‘lib uchratmagan edim. Bunisi qandaydir qizg‘ish jigarrangmi-yey!..

Bill yanglishayotgan edi. Yirtqichning rangi chinakam bo'riga xos edi. Kulrangga moyil junlari tovlanib odamni chalg'itar, uni dam kulrang, dam qizg'ish tusda ko'rsatardi.

— Sal kattaligini aytmasa, naqd chanaga qo'shiladigan tozi it, — dedi Bill. — Dumini likillatishiga o'laymi.

— Hey tozi! — deb chaqirdi u. — Qani, kel bu yoqqa... Hah noming o'chsin!

— Tariqcha qo'rqlmaydi-ya, — deb kului Genri.

Bill tovushini bir parda ko'tarib yana chaqirdi, mushtini do'laytirib po'pisa qildi, lekin yirtqich qilcha ham cho'chimay, faqat yana ham sergak tortib turaverdi. U odamlarga hamon o'sha qaqqhatg'ich ochlik tufayli g'am bosgan ko'zlar bilan tikilib qarardi. Go'yo uning qarshisida tayyor go'sht — yegulik turibdi, u esa ochlikdan qiynalayapti. Jur'ati yetgandami, hoziroq odamlarga tashlariib, ularni tilka-pora qilgan bo'lardi.

— Menga qara Genri, — dedi Bill beixtiyor shivirlab. — Atigi uch dona o'qimiz bor. Lekin buni bitta o'q bilan ham tinchitsa bo'ladi. Orasi yaqin. Bemalol bexato urish mumkin. Bir emas, uchta itning boshini yedi, bunga chek qo'yish kerakmidi! Nima deding?

Genri tasdiqlab bosh irg'adi.

Bill kishi bilmashchanadan miltiqni oldi. Ammo endi ko'taraman, degandi, ulgurolmadi, bo'ri bir sakradi-yu, qoraqarag'aylar ortiga o'tib ko'zdan yo'qoldi. Ikki o'rtoq bir-biriga qarashdi. Genri, ana xolos, degandek hushtak chalib yubordi.

— Eh, kallavaram! — dedi Bill boshiga mushtlab va miltiqni yana joyiga qo'ydi. — Itlarni qachon ovqatlantirishimizgacha biladigan bo'ri miltiq nimaligini bilmashinmi! Xudo haqqi Genri, hammasiga shu aybdor. Agar shu kasofat bo'limganda, itlarimiz tirik bo'lardi. Yo'q Genri, buni shunday qoldirib bo'lmaydi. Men uning kunini ko'rsataman. Sayhonlikda otishning iloji yo'q, darrov sezadi. Lekin uni baribir o'ldiraman. Pistirmadan otib o'ldiraman bu la'natini, mana ko'rasan.

— Faqat uzoqlab ketma, — deya ogohlantirdi Genri. — Gala-palasi bilan yopirilsa bormi, uchta o'qning boridan yo'g'i — so'qir ko'zga surmadek gap. Bu vahshiylarning ichagi surnay chalayapti hozir. Ehtiyyot bo'l Bill, bir baloni boshlab yurma!

O'sha kuni kechqurun ertaroq dam olgani to'xtashdi. Uchta it oltita itning o'rnini bosolmay chanani tez va uzoq tortolmay qiynalardi. Ular butunlay holdan toygan edilar. Bill bir-birining qayishini kemirmaslik uchun ularni alohida-alohida bog'lab qo'ygach, yo'lovchilar uxlagani yotishdi, ammo bo'rilar kechasi bilan uyqu bermadi. Bo'rilar gulxanga shunchalar yaqin kelishardiki, itlar sarosimaga tushib, o'zlarini u yoqdanbu yoqqa otishardi. Bu vahshiylarni qaytarish uchun dam-badam gulxanga o'tin qalashga to'g'ri kelardi.

— Dengizchilarning aytishicha, akulalar kema ortida suzib yurishni yaxshi ko'risharkan, — dedi Bill bir safar gulkanga o'tin tashlab, ustiga choyshab tortarkan. — Men senga aystsam, bo'rilan quruqlikda yashovchi akulalardir. Ular nima qilish lozimligini sen bilan mendan yaxshi bilişadi, sayr qilish uchun bizga ergashib kelishayotgani yo'q. Ulardan qochib qutulib bo'pmiz, Genri. Meni aytdi dersan, qutulolmaymiz.

— Niyating shunaqa sovuq bo'lsa, tamom bo'ldim deb hisoblayer, — uning gapini cho'rt kesdi Genri. — Har kimning niyati o'ziga yo'ldosh. Ikki gapning birida shunday deyapsanmi, fotihangni o'qiyer.

— Ular bizdan zo'rlarni ham tinchitishgan, — deb javob qildi Bill.

— Bo'ldi-e, hiqillayverma hadeb! Jonimga tegib ketding!

Genri zarda bilan narigi yonboshiga o'girilib oldi-yu, lekin zum o'tmay Billning nafasi ichiga tushib ketganiga ajablandi. Chunki bir og'iz achchiq gapga ham lov etib yonadigan Billga o'xshamaydi. Genri ko'zi ilingunga qadar shu haqda o'ylab yotdi. Oxiri: «Yuragiga qil ham sig'mayapti. Ertaga bir ko'nglini ko'tarib qo'ymasam bo'lmaydi», degan xayolda uyquga ketdi.

## **Uchinchi bob**

### **OCHLIK ZO'RI**

Kun xayrli boshlandi. Uyqudan turishgach, itlarning hammasi o'z o'rnida ekanini ko'rgan Genri bilan Bill yengil tortib huvillagan tim qorong'ulikda yo'lga tushdilar. Bill noxush xayollarni unutgandek borar, u hatto bir safar muyulishda itlar chanani ag'darib yuborganda ham zahrini sochmay, ularning jig'iga tegib o'ynashishga o'tdi. Hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Ag'darilgan chana daraxt bilan bahaybat tosh orasida qisilib qoldi, oqibat itlarni chanadan bo'shatishga to'g'ri keldi. Yo'lovchilar chanani ko'targani engashganlarida Genri Chinoqning qochayotganini payqab qoldi.

— Qayt orqaga, Chinoq! — deya qichqirib yubordi u jon holatda.

Lekin Chinoq to'xtash tugul, qayishlarini sudragancha g'izillab qochishga tushdi. Uni hozirgina ular o'tib kelgan yo'l ustida urg'ochi bo'ri kutar edi. Urg'ochi bo'rige yaqinlashgan mahal Chinoq hushyor tortib sekinladi, so'ng to'xtadi. Urg'ochi bo'rige ishonqiramay, lekin allaqanday suqlanib tikildi. Urg'ochi bo'ri esa bamisli dalda bergen bo'lib, ayyorona tishini ko'rsatdi-da, bir-ikki irg'ishlab qo'ydi. Chinoq shunda ham xuddi bir narsaga shaylangandek, qo'rqa-pisa unga qarab yurdi.

Chinoq tumshug'ini tekkizib iskamoqchi bo'lganda, urg'ochi bo'ri o'ynashayotgandek mug'ombirlik bilan orqaga sapchidi. U oldinga yursa urg'ochi bo'ri chekinardi. Shu tariqa Chinoqni chalg'itib, sekin-asta

ishongan tog‘i – odamlardan nariroqqa ergashtirib keta boshladi. Aloha bir nimadan xavotirlandimi, Chinoq ilkis to‘xtadi. U ortiga o‘girilib ag‘darilib yotgan chanaga, sheriklariga, o‘zini tinmay chaqirayotgan egalariga qaradi. Itning ikkilanayotganini sezgan urg‘ochi bo‘ri yoniga kelib avval tumshug‘i bilan beozorgina turtdi, suykaldi, so‘ng irg‘ishlab-irg‘ishlab yana ortiga chekina boshladi.

Xuddi shu lahzada miltiq Billning esiga tushdi. Biroq zormanda miltiq ag‘darilib yotgan chananing ostida qolgan edi. To Genri bilan yuklarni bitta-bitta olib miltiqni topguncha Chinoq urg‘ochi bo‘rining pinjiga suqlugudek yaqin borib oldi, pirovardida bunday masofadan otishga Billning yuragi dov bermadi.

Chinoq xatosini kech tushunib yetdi. U birdan ortiga o‘girilib, hang-mang bo‘lib turgan Genri bilan Bill tomon qochishga tushdi. Bir lahma o‘tar-o‘tmas o‘n ikki chog‘li oriq, och bo‘ri Chinoqning yo‘lini to‘sib chiqqani yugurishdi. Daf‘atan, urg‘ochi bo‘ri sakrab-o‘ynoqlashdan to‘xtab, irillagancha Chinoqqa tashlandi. Chinoq bir siltab, uni itqitib yubordi va orqaga yo‘l yo‘qligiga ishonch hosil qilgan bo‘lsa ham quvib kelayotgan bo‘rilar to‘dasini aylanib o‘tish umidida chanaga tomon yugurdi. Bo‘rilar daqiqa sayin ko‘payar, urg‘ochi bo‘ri Chinoqni ikki-uch qadam orqada quvib kelardi.

– Sen qayoqqa? – deya o‘shqirdi Genri shappa o‘rtog‘ining yelkasidan ushlab.

Bill uning qo‘lini siltab tashladi.

– Qo‘yvor! – dedi u. – Bekorga xomtama bo‘lishmasin, endi bitta ham itni bermayman!

U miltig‘ini ko‘tarib daryo o‘zanini qoplagan zich butazor sari yugurdi. Bill eng qisqa masofani mo‘ljallab itning oldidan to‘sib chiqmoqchi edi. Kuppa-kunduzi miltig‘i bor odam bo‘rilarni haydab, itni bemalol qutqarib qola olardi.

– To‘xta, Bill! – deb ortidan qichqirib qoldi Genri. – Bekor qilyapsan!

Genri nima qilarini bilmay chanaga o‘tirdi va buyog‘iga nima bo‘ladi, degandek kuta boshladi. Uning boshqa iloji ham yo‘q edi. Bill ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan, Chinoq esa dam butalar, dam yakkam-dukkam o‘sgan qoraqarag‘aylar oralab ko‘rinib qolardi. Genri itning kuni bitganini fahmladi. Itning o‘zi falokatni sezar, ammo oldidan to‘sib chiqishga urinayotgan bo‘rilar to‘dasidan katta doira yasab qochish uchun jon-jahdi bilan yugurardi. Afsuski Chinoqning bo‘rilardan qutulib, chana yoniga yetib kelishi dargumon edi. Bo‘rilar ana-mana itga yetib olishi aniq. O‘sha tomonda, daraxtlar bilan butazor ortidagi qor bosgan sayhonlikda bo‘rilar galasi Chinoq bilan Billga to‘qnash kelishlarini Genrining ko‘ngli sezardi.

Hammasi u kutganidan ham tezroq ro'y berdi. Dastlab o'q ovozi yangradi, so'ngra ketma-ket yana ikki marta o'q uzildi. Genri shu bilan Billning o'qi tugaganini fahmladi. Zum o'tmay itning angillagani va o'kirgan odam ovozi eshitildi. Genri og'riq va qo'rquvdan ingrayotgan Chinoqning angillashi, hamda yaralangan bo'rining uv tortganini eshitdi.

Shu bilan irillash ham, angillashlar ham tugadi. Kimsasiz borliq uzra yana sukunat cho'mdi.

Genri chanada juda uzoq o'tirdi. Uning o'sha yoqqa borishidan hech qanday ma'ni yo'q: bamisli Bill bilan bo'rilar uning ko'z o'ngida to'qnashgandek, hammasi oydek ravshan edi. U faqat bir marta sapchib o'rnidan turdi-da, qo'liga boltasini oldi, o'sha zahoti shashtidan qaytib holsiz joyiga o'tirdi va javdirab yana o'sha tomonga tikilib qoldi, oyog'i ostida yotgan itlar esa qo'rquvdan o'zlariga kelolmay, tinmay qaltirashardi.

Nihoyat, u xuddi urib chalajon qilib tashlangan odamdek arang o'rnidan turib, yo'l taraddudini ko'rishga tushdi. U abzallardan birini yelkasi aralash bog'lab, itlarga qo'shilib chanani sudrab ketdi, biroq ko'p yurolmadi, qosh qoraymasdan dam olgani to'xtadi, odatdagidan ko'proq shox-shabba yig'ib keldi, so'ngra itlarni ovqatlantirdi, o'zi ham ul-bul yegan bo'ldi-da, shundoqqina gulxanning yoniga o'rין soldi.

Lekin charchog'ini chiqarish nasib etmadni. Ko'zini yumushi bilanoq bo'rilar gulxan yoniga kelib olishdi. Genri ko'zlarini yirib-yirtib ochidda, ularni ko'zdan kechirdi. Bo'rilar gulxanni o'rab olishgan edi: ba'zilari yerda yotar, boshqalari cho'nqayib o'tirar, uchinchilari esa sudralib gulxan yoniga kelar yoki uning tevaragida izg'ishardi. Ayrimlari hatto mudrashardi. Ular itlar singari yotishar, dong qotib uxlashar, Genri esa uyqusi qochib ko'z yumolmasdi.

U gulxanni gurullatib yubordi, bo'rilarни yaqin yo'latmaslikning yagona yo'li shu edi. Ikkala it egasining oyoqlari ostida — biri o'ng, ikkinchisi chap tarafda javdirab, undan ko'z uzmay yotishar, bironata bo'ri yaqinlashgudek bo'lsa, baravar shovqin ko'tarar, angillar va biri olib, biri qo'yib huriy boshlardi. Itlar huriganda bo'rilar sapchib o'rnidan turib ketar, betoqatlanib irillagancha hamla qilishga chog'lanishar, so'ng yana qorga yotib birin-sirin uyquga ketishardi.

Bo'rilar halqasi tobora siqb kelardi. Ular sekin-sekin sezdirmaygina Genriga birdan hamla qilish uchun imkon berar darajada yaqin kelishga urinishardi. Shunda Genri qo'liga ilingan palyonni ularga qarab uloqtirardi. Agar palyon birorta bo'rige tegsa bormi, hammalar g'azabdan o'kirib, sarosima ichida o'sha zahoti orqaga chekinishardi.

Tongga yaqin uyqusizlikdan Genrinining ko'zlarini kirtayib qoldi. Tong qorong'usida u nonushta hozirlab, tamaddi qilib oldi, soat to'qqizlarda kun yoyilib bo'rilar nari-beri bo'lishgach, kechasi mo'ljallab qo'ygan

ishiga kirishdi. U bir nechta yosh-yosh qarag‘aylardan kesib, ularni daraxt yuqorisiga bog‘lab, shohsupa tayyorladi, so‘ng shohsupadan oshirib arqon tashladi-da, itlar ko‘magida tobutni ko‘tarib uni o‘sha yerga joyladi.

— Billning boshiga yetishdi, ehtimol men ham ularga yem bo‘larman, lekin sizga tegisholmaydi, yaxshi yigit, — dedi u o‘zicha murdaga qarata. Shundan so‘nggina, Genri yo‘lga tushdi. To Mak-Gerri fortiga yetib olmaguncha falokatdan qutulolmasligini sezgan itlar ham yukdan bo‘sagan chanani g‘izillatib sudrab ketishdi.

Bora-bora bo‘rilar hech narsadan tap tortmay qo‘yishdi, ular tillarini osiltirib, halloslab, chana bilan yonma-yon lo‘killab kelishardi. Bo‘rilar shunchalik oriq ediki, qovurg‘alari sanalib turardi, Genri ularning yiqilib qolmasdan yugurib kelayotganlarini ko‘rib hang-mang bo‘lardi.

U yo‘lda qorong‘iga qolib ketishdan qo‘rqardi. Tush chog‘i osmonning janubiy qismini yoritgan quyosh nurlari ufq uzra ham zaifgina qizg‘ish nur sochdi. Genri buni o‘zicha yaxshilikka yo‘ydi. Holbuki kunlar uzayayotgan edi. Bu o‘lkalarga yana haroratbaxsh kunlar kelayotgan edi. Lekin quyosh botishi bilanoq Genri dam olgani to‘xtadi. Qosh qoraya boshlagan, hali borliq uzra tun pardasini yoymagan edi. Genri g‘ira-shira oqshom yorug‘ida iloji boricha ko‘proq o‘tin-cho‘p terib olish payiga tushdi.

Qorong‘i quyuqlashgan sari Genrining yuragini vahm bosardi. Bo‘rilarning hech narsadan toymayotgani — holva, u qattiq toliqqandi, kechasi bilan uxmlamagani hammasidan yomon. U boltani oyoqlari orasiga qo‘yib, gulxan yonida choyshabga o‘ralgancha o‘tirarkan, uyqu bosib kelardi. Ikkala it pinjiga kirib oldi. Yarim tunda u cho‘chib uyg‘ondiyu, qarasa, uch-to‘rt qadam narida bahaybat bo‘ri turibdi. Yirtqich hafsalasizgina cho‘zildi va og‘zini karrakdek ochib esnadi. So‘ng o‘ziga tegishli naqd o‘ljaga tikilgandek Genriga qaradi.

Bunday ishonch boshqa bo‘rilarning xatti-harakatidan ham sezilar edi. Yigirmadan ziyod bo‘rining bir qismi unga suq bilan tikilar, qolganlari esa qorda tinchgina uxlashardi. Bu bo‘rilar to‘kin-sochin dasturxon atrofida yeb-ichishga ruxsat kutayotgan bolalarni esalatardi. «Bo‘rilar bazmi qachon boshlanarkin?» deya ko‘nglidan kechirdi u.

Gulxanga dam-badam shox-shabba tashlayotgan Genri daf‘atan o‘zining a’zoi badaniga o‘zgacha tarzda qarayotganini sezib qoldi. U o‘zining harakatlarini kuzatarkan, barmoqlariga qiziqsinib qaradi. Gulxan yorug‘iga tutib ketma-ket barmoqlarini bukib-yoydi, musht qilib tugdi, ko‘ziga yaqin keltirib tirnoqlarini ko‘zdan kechirdi. Barmoqlarining uchlarini goh qattiq, goh ayabgina chimchilab, nechog‘lik ta’sirchanligini o‘zicha tekshirib ko‘rdi. Ko‘ngli joyiga tushdi va birdan sog‘lom,

baquvvat jismini yaxshi ko‘rib ketdi. Keyin gulxanga yaqin kelib qolgan bo‘rilarga xavotirlanib qaradi-yu, daf’atan o‘zining joni beshikast, soppasog’, jismi ayni chog‘da bor-yo‘g‘i ochko‘z yirtqichlar suqini keltirayotgan go‘sht ekanini o‘ylab dahshatga tushdi. Nazarida ana hozir o‘ziga, yumshoqqina go‘shtga – manavi yirtqich bo‘rilar tashlanib tilkapor aqiladigandek va xuddi qorni ochganida o‘zining bug‘u va quyon go‘shtini mazza qilib yegani kabi nafslarini qondirishi mumkinligi haqida o‘ylab qoldi.

U bosinqirab ko‘zini ochganda qizg‘ish urg‘ochi bo‘ri gulxandan ikki qadam narida odam bolasinikiga o‘xshagan g‘amgin ko‘zlarini undan uzmay o‘tirardi. Oyoqlari tagida yotgan itlarning ikkovi ham angillar va irillar, ammo urg‘ochi bo‘ri ularga parvo qilmasdi. U Odamdan ko‘z olmasdi, bir necha daqiqqa Genri ham unga tikilib qoldi. Bo‘ri unchalik qo‘rqinchli emasdi. Uning ko‘zlarini bemisl g‘am-alamdan bamisli o‘t bo‘lib yonar, lekin Genri bu g‘am-kulfat bemisl ochlik tufayli paydo bo‘lganini yaxshi bilardi. U bamisli yemish edi va uni ko‘rgan bo‘rining ishtahasi qo‘zimoqda edi. Bo‘ri og‘zini katta ochib turar, so‘lagi qorga tomor va u naqd o‘ljani ko‘rib lazzatlanmoqda edi. Genrining yuragi orqasiga tortib ketdi. U shosha-pisha palyonga qo‘l uzatgan edi, urg‘ochi bo‘ri o‘sha zahoti o‘zini orqaga oldi, aftidan duch kelgan buyumni otaverib uni o‘rgatib qo‘yishgan edi. Urg‘ochi bo‘ri tishlarini irjaytirib tahdidli irilladi, uning g‘am-kulfat aks etayotgan ko‘zlarini g‘azabdan shunchalik vahshiyona chaqnab ketdiki, azbaroyi Genrining eti junjikdi. U qo‘llariga, palyonni mahkam qisib olgan barmoqlariga, beixtiyor uning xohishisiz kuyib qolmasligi uchun albatta, palyonning laqqa cho‘g‘ qismidan nari surilgan sinchalog‘iga razm solib turdi-da, daf’atan mana shu nozik, nafis barmoqlarining urg‘ochi bo‘rining yaltirab turgan qoziq tishlari orasida qanday majaqlanishi ko‘z oldiga keldi. Genriga o‘z joni hech qachon, ayniqsa hozir nochor ahvolda qolgan paytidek shirin tuyulmagan edi.

Genri tun bo‘yi och bo‘rilarni palyon bilan urib haydadi, uyqu zo‘rlik qilgan lahzalardagina mudrab qoldi. Itlarning angillagani va irillashlaridan uyg‘onar edi. Tong otdi, ammo bu gal bo‘rilar tarqalishmadidi. Genri bu vahshiyalar tarqab ketishadi, deya behuda kutdi. Ular gulxan atrofidan ketmay Genriga hamon yutoqguday tikilishar, buni ko‘rib tong otishi bilan dadillashgan Genrining yuragi yana po‘killay boshladи.

U otlanib, gulxan yonidan endigina uzoqlashgan ham edi, daf’atan to‘da ichidagi eng qaqshatg‘ich bo‘ri unga o‘zini otdi, lekin uning hamlasi besamar ketdi. Genri chap berishga ulgurdi-yu, bo‘rining o‘tkir tishlari belidan g‘archcha olishiga bir bahya qoldi.

Bo‘rilar butun to‘dasi bilan Genriga hamla qilishga o‘tdi, faqat yana palyonlar uning joniga oro kirdi – bo‘rilar ancha nari ketishdi.

Kun yoyilganiga qaramay, Genri aqalli shox-shabba terib kelgani gulxan yonidan bir qadam siljishga botinolmasdi. Chanadan yigirma qadam narida qurigan bahaybat archa bor edi. U gulxanda yonayotgan, laqqa cho'g'ga aylangan palyonlarni asta-asta surib, yarim kun deganda bir amallab o'sha qurigan qarag'ay yoniga yetib oldi. O'sha yerda daraxtni qaysi tarasfa ag'darish qulayligini chandalab atrofni ko'zdan kechirdi.

Bu kecha aynan avvalgi kechaning takrori bo'ldi, farqi Genri bu safar uyqusini yengolmas, ko'zlar yumilib-yumilib ketardi. Endi itlarning irillashlari uni uyg'otolmadi. Buning ustiga bular tinmay irillar, biroq shundan ham ko'zlarini ochishga holi qolmagan Genriga bu shovqin zarracha ta'sir qilmas edi.

Nogahon birov qattiq turtgandek u uyg'onib ketdi. Ne ko'z bilan ko'rsin, shundoqqina yonida tishlarini taqillatib urg'ochi bo'ri turardi. Genri bexosdan palyonni uning og'ziga suqdi. Urg'ochi bo'ri og'riqqa chidayolmay uvillab yubordi-da, o'zini orqaga otdi. Genri esa jizg'anagi chiqqan teri bilan kuygan go'sht isidan huzurlanib bir necha qadam narida boshini silkitib alam bilan irillaryotgan yirtqichni tomosha qilardi.

Bu safar uyquga ketmasdan oldin Genri bilagiga tutayotgan qarag'ay shoxini bog'lab qo'ydi. Ko'zi ilinay deganda qo'li kuyib uyg'onardi. Ahvol bir necha soat shunday davom etdi. Uyg'onib ketganda bo'rilarни palyon bilan to'zitar, so'ng gulxanga o'tin tashlar va qo'liga yana bir palyon bog'lab olardi. Hammasi joyida edi, amimo mana shunday uyg'onib ketishlarning birida Genri yaxshi bog'lamagan ekan, ko'zi ilinishi bilan palyon qo'lidan tushib ketdi.

U tush ko'rdi. Mak-Gerri fortida emish. Kayfi chog', xotirjam. U ta'minot boshlig'i bilan kribbej o'ynayapti. Tushida bo'rilar fortni qurshab olishgan emish. Bo'rilar darvozaxonada uv solar, u esa ularning uvillashiga qulq solmay va qal'aga bostirib kirmoq uchun besamar urinishlari ustidan kulganday pinagini buzmas, ahyon-ahyon o'yinni to'xtatib qulq solib qo'yardi. Keyin – tushi haddan tashqari g'alati edi, bir nima qarsilladi. Eshik lang ochilib, xonaga bo'rilar bostirib kirdi. Ular Genri bilan ta'minot boshlig'iga tashlanishdi. Eshik ochilishi bilanoq uvillagan ovoz chidab bo'lmaydigan darajada kuchaygan edi. Uning tushi birdaniga boshqa yo'nalihsda davom etdi. Genri nima bo'layotganini anglayolmas, chunki bir daqqa tinmayotgan uvillash nima gapligini aniqlashga xalal berardi.

Aloha, u xuddi tushdag'i kabi uvillashlar-u, irillashlardan uyg'onib ketdi. Bir gala bo'ri baravariga unga tashlanishdi. Bo'rilaridan biri bilagidan tishlashga ulgurdi. Genri gulxan o'rtasiga sakradi, sakrash barobarida boldiriga o'tkir tishlar g'archcha botganini sezdi. Ayovsiz olishuv boshlandi. Qalin qo'lqoplar Genringin barmoqlarini kuyishdan saqlardi. U qip-qizil cho'g'larni hovuchida olib sochaverganidan gulxan atrofga olov purkayotganga o'xshardi.

Ammo bu ahvolda uzoqqa borib bo'lmasdi. Genrining yuzi qavarib, qosh-kipriklari jizg'anak bo'lib ketdi, oyoqlari kuya boshladı. Oxiri u har qo'lida bittadan palyon ko'tarib gulxan chetiga sakradi. Bo'rilar chekinishdi. Gir atrofda cho'g' borib tushgan yer borki, qor vishillar, bo'rilarning jon achchig'ida irillagani, pishqirishi va o'kirishlariga qaraganda ular o'sha cho'g'larni bosib olganini fahmlash mumkin edi.

Palyonlarni uloqtirib bo'lgach, Genri tutay boshlagan qo'lqoplarini yechib tashladi-da, toptab o'chirishga tutindi. Ikkala itning qorasini ko'rinas, ularning boshiga Fettidan boshlanib shu kunlarga dovur davom etib kelgan, ehtimol yaqin kunlar ichida o'zi ham giriftor bo'lishi mumkin bo'lgan qismat tushganini Genri fahmladi.

— Lekin hali ertaroq! Osonlikcha jon beradigan anoyi yo'q! — deya qichqirdi u och bo'rilariga po'pisa qilib.

Uning ovozini eshitib jonlangan bo'rilar jo'r ovozda irillab yuborishdi, urg'ochi bo'ri esa ro'parasiga kelib yana o'sha g'am-kulfat to'la ko'zlar bilan unga tikildi.

Genri mudofaa uchun yangi reja tuza boshladı. Davrani keng olib, gulxan yoqdi-da, o'zi shu doira o'rtasida to'shangini eriy boshlagan qorga to'shab o'tirdi. U alanga orasida ko'zdan g'oyib bo'lishi bilanoq bo'rilar go'yo qayerga ketganiga qiziqsingandek o'rab olishdi. Shu paytgacha ular olovga yaqin yo'lamagan bo'lsalar, endi gir aylana gulxan tegrasida o'tirgancha, ochofat ko'zlarini qisib tikilishar, o'zlarini o'rganmagan issiqdan esnar va kerishar edilar. Urg'ochi bo'ri cho'nqayib o'tirdi-da, boshini ko'tarib uv soldi. Bo'rilar birin-sirin unga ergashishdi va nihoyat, butun to'da tumshug'ini yulduzli osmon sari ko'tarib ochlik diydiyosini boshlab yubordi.

Tong yorisha boshladı, kun chiqdi. Gulxan yonib tugayozdi, o'tinlarning ham tagi ko'riniq qoldi, yana shox-shabba g'amlab olmasdi. Genri alanga orasidan chiqishga urinib ko'rdi, ammo bo'rilar yo'lini to'sib chiqishdi. Lang'illab turgan palyonlar ularni chekka-chekkaga qo'chishga majbur etdi. Biroq, ular endi orqaga chekinishni istamasdilar. Odamzod ularni haydar yuborishga behuda tirishardi. Nihoyat, bu urinishlardan sariq chaqalik naf bo'lmeligiga ko'zi yetgach, gulxan o'rtasidagi bexavotir joyiga chekindi. Shu choq bo'rilaridan biri o'zini unga otdi, ammo to'rttala panjasi bilan olovga tushdi. Yirtqich jon holatda uvillab yubordi-da, o'sha zahoti kuygan panjalarini qorga bosish uchun gulxan ichidan qo'chib chiqdi.

Odamzod choyshabda muk tushib o'tirardi. Qunishib, boshini xam qilib o'tirishidan olishishga xoli qolmaganligini fahmlasa bo'lardi. U ahyon-ahyon boshini ko'tarib, o'chay-o'chay deb qolgan gulxanga javdirab qarardi. U yer-bu yeridagi o'tinlar yonib tugagani uchun gulxan davrasiga putur yetgan, endi yo'l ochiq — bermalol gulxan halqasiga

kirish mumkin edi. Ayni chog'da alohida-alohida gulkanchalar hosil bo'lgan, bu gulkanchalar orasidagi yo'l tobora kengayib, gulkanchalar esa kichrayib borardi.

— Ana endi meni yengishingiz mumkin, — deb g'uldiradi Genri. — Lekin menga baribir, uxlagim kelyapti...

U ko'zini ochganda qarshisida ikki gulxan orasida o'ziga tikilib turgan bo'rini ko'rdi.

Oradan bir necha daqiqa o'tgach, (uning nazarida bir necha soat o'tgandek edi) u boshini yana ko'tardi, atrofida qandaydir o'zgarish yuz berganga o'xshardi — bu shunchalik aql bovar qilmas ediki, u birdan hushyor tortdi. Darhaqiqat, nimadir yuz bergen edi. Dastlab u buning nima ekanligini angolmadi. Birozdan so'ng fahmladi: bo'rilar g'oyib bo'lishgan ekan. Qordagi izlarga qarab bo'rilarning qanchalar yaqin kelganini bilsa bo'lardi.

Uyqu zo'r kelib Genri yana pinakka ketdi, lekin nogahon cho'chib uyg'ondi.

Allaqaydan odamlar ovozi, chanalarning g'irchillagani, itlarning bezovtalanib g'ingshigani eshitildi. Daryo tomondan to'rt chog'li chana kelib qarorgoh oldida to'xtadi. Bir necha kishi o'chayozgan gulxan orasida tirishib yotgan Genrini o'rab olishdi. Uni hushiga keltirish uchun yelkasidan olib siltashdi. Genri mast kishidek ularga ma'nosiz qarar, uyqusirab g'o'ldirardi:

— Qizg'ish urg'ochi bo'ri... Itlarning yoniga kelardi... Dastlab itlarning ovqatini paqqos tushirdi... keyin o'zlarini. Oxiri Billni ham...

— Lord Alfred qani? — deya qichqirdi kelganlardan biri Genrini siltab.

Genri bazo'r bosh chayqadi.

— Unga tegmadi... Alfred anavi tomonda... oxirgi to'xtagan yerimizda... daraxtda.

— O'ldimi?

— Ha. Tobutda, — dedi Genri.

U tepasida turgan shilqim kishidan xalos bo'lish uchun zarda bilan yelkasini siltadi.

— Meni o'z holimga qo'ying... mazam yo'q... Keyin... Tuningiz xayrli bo'lsin...

Genrining kipriklari pirpiradi va ko'zi yumulib boshi shilqillab tushdi. Uni choyshabga yotqizganlarida ayoz sukunati qo'ynida baralla xurrak otgani eshitildi.

Zum o'tmay, bu xurrakka boshqa tovushlar, hozirgina sillasi qurigan odamdan voz kechib o'zga o'lka ortidan quvib borayotgan och bo'rilarning uzoqdagi uvillashi qo'shilib ketdi.

# IKKINCHI QISM



## Birinchi bob

### JANG

Odamlarning ovozi bilan chanaga qo'shilgan itlar g'ingshiganini eng avval eshitgan urg'ochi bo'ri birinchi bo'lib sillasi qurib gulxan o'rtaida o'tirgan odamdan nari ketdi. Naqd o'ljani tashlab qochishga ko'zлari qiymagan boshqa bo'rilar qulog'ini ding qilib atrofga qulq soldi, keyin ular ham noiloj urg'ochi bo'ri ortidan ketishdi.

Eng oldinda bo'rilar to'dasining sardori – bahaybat kulrang bo'ri yelib borardi.

Boshqa bo'rilar ilgarilab o'zib ketishga botinganda ularga tahdidona irillab tirqiratgan ham, qor bosgan sayhonlikda hovliqmay yo'rtib borayotgan urg'ochi bo'ri ortidan ergashib borishga boshqalarni majbur qilayotgan ham ana shu kulrang bo'ri edi. Urg'ochi bo'ri faqat bitta o'zining haq-huquqi bordek, uning yoniga o'tib oldi-da bu yog'iga to'dadan aslo chetlashmadi. U tasodifan ilgarilab ketsa sardor irillab unga tish qayramas, aksincha, unga xohish-rag'batи kuchli ekan shekilli, har daqqa u bilan yonma-yon borishga tirishardi. Urg'ochi bo'rige bu yoqmas va shunday lahzalarda yoniga yo'latmay irillar, tishlarini taqillatar edi. Hatto gohi-gohi kulrang bo'rini tishlab olishdan ham o'zini tiyolmay qolardi. Shunday paytda Sardor zarracha g'azablanmas, balki o'sal bo'lgan to'pori xotinbozga o'xshab kelishmagan alfozda o'zini chetga olar va irg'ishlab-irg'ishlab qo'yar edi.

Sardorga to'dani boshqarishga birdan-bir monelik qilayotgan narsa shu edi. Urg'ochi bo'rini esa boshqa ko'ngilsizliklar bezor qilardi. Uning o'ng tarafida urishaverib sog' joyi qolmagan, oriq, qari bo'ri borardi. Qachon qarasang, urg'ochi bo'rining o'ng tarafida bo'lardi. Bunga bir ko'zi – o'ng ko'zining ojiz ekani sabab edi. Keksa bo'ri dam-badam yara-chaqa tumshug'i bilan uning goh biqini, goh yelkasi, goh bo'yniga turtib holi-joniga qo'ymas edi. Urg'ochi bo'ri so'l tarafida borayotgan sardorning shilqimligiga qanday bo'lsa, uning xiraligiga xuddi shunday tarzda, tishlarini taqillatib javob qaytarardi. Mabodo, ikkovi ikki yog'idan baravar tixirlik qilishga o'tishsa unga qiyin bo'lar edi – bir vaqtning o'zida ham bu shilqimlarga qarshilik ko'rsatishi, ham to'dadan orqada qolib ketmay, bir me'yorda yugurib borishi kerak edi. Shunday daqi-

qalarda ikkala bo‘ri tahdidona irillab bir-birlariga tishlarini qayrashardi. Boshqa payt bo‘lganda ular olishib ketishardi, ammo hozir hatto kuyikish bilan qizg‘anish tuyg‘usi ham, butun to‘daga azob berayotgan ochlik tuyg‘usi oldida hech narsa bo‘lmay qolgan edi.

Har safar shunday qarshiliklardan so‘ng, keksa bo‘ri shahvatini qo‘zg‘ayotgan bu injiqdan nari qochar va o‘ng tomonida – ko‘rmaydigan ko‘zi tomonida kelayotgan navqiron yosh bo‘riga sakrar, pirovardida o‘rtada nizo chiqardi. Bu uch yashar bo‘ri ayni voyaga yetgan, kuchga to‘lgan edi, bo‘rilarning madorsizligi va holdan toyganligini inobatga olganda, ular orasida kuch-quvvati va g‘ayrati bilan keskin ajralib turardi. Shunday bo‘lsa ham u bir ko‘zli qari bo‘ridan xiyol orqaroqda borardi. Unga tenglashgani jur‘at qildi deguncha (bu kamdan-kam yuz berardi) qari bo‘ri irillab tishlarini g‘ijirlatar va o‘sha zahoti uning ta‘zirini berib qo‘yardi. Lekin ba‘zan-ba‘zan yosh bo‘ri tixirlik qilib u bilan urg‘ochi bo‘rining orasiga suqilib kirardi. Bunaqa nayrangi ikki, hatto uch tarafdan qarshilikka uchrardi. Urg‘ochi bo‘ri irillary boshladi deguncha, qari bo‘ri keskin o‘girilib yosh bo‘riga tashlanardi. Ba‘zan unga qo‘silib urg‘ochi bo‘ri ham tashlanib qolar, gohida esa ularga so‘l tomondagi sardor ham qo‘shilardi.

Uch nafar darg‘azab bo‘rining tahdidona ochilgan og‘zini ko‘rgan yosh bo‘ri shashtidan qaytib to‘xtar, so‘ng cho‘nqayib o‘tirar va hurpayib tishlarini g‘ijirlatar edi. To‘da yetakchilari o‘rtasida qo‘zg‘algan nizo orqada kelayotgan boshqa bo‘rilarga ta‘sir qilmay iloji yo‘q edi. Ular ham yosh bo‘riga yopishib ketishar, undan norozi bo‘lib biqini va korsonini g‘azab bilan tishlashardi. Shunday paytda u nima qilarini bilmasdi, chunki qarshilik ko‘rsatsa ochlikdan qiynalib ketgan hamzotlarining qahriga duchor bo‘lishi turgan gap. Ammo, qonida jo‘sh urayotgan navqiron bo‘riga xos bitmas-tuganmas g‘ayrat-shijoat oqibat-natijada ko‘ngilsizlik keltirsa ham u o‘sha qilig‘ini bot-bot takrorlashga undar edi.

Bo‘rilarga biron o‘lja yo‘liqsa edi, ular orasida kuyikish va kuyikish tug‘dirgan raqobat kuchayib, pirovardida to‘da tarqalib ketgan bo‘lardi. Ammo, hozir bo‘rilarning ahvoli og‘ir edi. Uzoq davom etgan ochlikdan hammasining sillasi qurigan, shuning uchun juda sekin ilgarilab borishar edi. To‘daning oxirida holdan toygan yosh-yosh bo‘rilalar bilan qarib, kuchdan qolganlari sudralib kelardi. Baquvvatlari oldinda borishardi. Bu ochin-to‘qin, ozib-to‘zgan, qovurg‘alari ko‘rinib qolgan bo‘rilalar qiyofasida chinakam bo‘ri qolmagan edi. Lekin shunga qaramasdan, mayib-majruhlarini aytmasa ko‘pchiligi toliqmay bemalol yurib borishardi. Terilari ostida pishiq o‘rilgan arqondek bo‘rtib-bo‘rtib turgan mushaklarida kuch-g‘ayrat hech qachon tugamaydiganga o‘xshar edi.

O‘sha kuni bo‘rilalar ancha yo‘l bosishdi. Kechasi ham to‘xtashmadni. Ertasi kuni tong otganda ular hamon yo‘lda edilar. Qattol sovuq hukm

surgan poyoni yo‘q makon. Qimirlagan jon yo‘q. Mana shu o‘lik makonda yolg‘iz ular harakat qilishar edi. Faqatgina ularning vujudida hayot mavjud va ular ana shu hayotni davom ettirish – yashash va yashamoq uchun xomtalash qilgani o‘zga maxluqlarni izlab borishardi.

Biron yegulik topilmaguncha necha-necha suv ayirg‘ichlardan, necha-necha soyliklardan o‘tishmadi deysiz. Oxiri yo‘llarda bug‘ular uchradi. Birinchi o‘ljalari bahaybat erkak bug‘u bo‘ldi. Najot edi bu, hayot-mamotlari shunga bog‘liq edi. Bu laqqa go‘sht, uni vahimali gulxan ham, uchar palyonlar ham himoya qilmasdi. Ayri tuyoqlar bilan sershox muguzlar bo‘rilarga tanish, ilgari ham xo‘p to‘qashgan edilar. Shuning uchun ehtiyyotkorlik va bo‘rilarga xos sabr-toqatni yig‘ishtirib qo‘yib bug‘uga tashlanishdi. Qaqshatqich olishuv shiddatli tus oldi. Ular bug‘uni to‘rt tomondan qurshab oldilar. Bug‘u zalvorli tuyoqlari bilan tepib, bo‘rilarning qornini yorib tashlar, boshlarini yong‘oqdek chaqar, bahaybat muguzlari bilan abjaqlarini chiqarardi. Bug‘u qorga ag‘anab, ularni tagiga olib piypalar, biroq baribir uning kuni bitgan edi. Nihoyat, u tizzalab qoldi. Urg‘ochi bo‘ri vahshiylarcha uning bo‘g‘ziga zulukdek yopishdi, boshqa bo‘rilar esa hali joni uzilmagani va hamon qarshilik qilishga urinayotganiga qaramay tilka-pora qilib yemoqqa tutindilar.

Bug‘u go‘shti bisyor edi. Uning vazni salkam yarim tonna bo‘lib, har bir bo‘riga taxminan 25 kilodan et to‘g‘ri kelardi. Bo‘rilar ochlikka qanchalar matonat bilan chidagan bo‘lsa, ovqatni shunchalar tez va apil-tapil yeyishga tushdilar va oqibatda bir necha soat avval yo‘liqqan ko‘rkam, baquvvat jonivordan ko‘z ochib yumguncha qorda yotgan bir nechta tozalangan suyak qoldi, xolos.

O‘sha kuni bo‘rilar uzoq dam olib, to‘yib uslashdi. Qorni to‘yan yoshroq erkak bo‘rilar orasida nizo chiqib, o‘zaro g‘ajishlar boshlandi va kun bo‘yi davom etdi va bu to‘daning bo‘linishiga olib keldi. Ochlik tugadi, bo‘rilar o‘ljalar mo‘l-ko‘l yerga kelishgan edi, ular hamon to‘datoda bo‘lib ov qilishar, lekin, endi ehtiyyotlik bilan yo‘lda uchragan bug‘ular podasidagi bo‘g‘ozlari yoki qari, kasal bug‘ularni mo‘ljallab yopishardilar.

Nihoyat, bir kuni mana shu farovon o‘lkada bo‘rilar to‘dasi ikkiga ajraldi. Urg‘ochi bo‘ri, uning chap tomonida hamroh bo‘lib kelgan yosh yetakchi va o‘ng tomonidagi Birko‘z bo‘ri birga o‘z guruuhlarini Sharqqa, Makkenzi daryosi, o‘shanaqasi undan ham nariroqda joylashgan moviy ko‘llar sari boshlab ketishdi. Mana shu bir hovuchgina to‘da ham kun sayin siyraklashib borar edi. Bo‘rilar juft-juft – erkak-urg‘ochi bo‘lib ajralishardi. O‘ziga sherik topmagan bo‘ri xiralik qilayotgan qari so‘qqabosh bo‘rini haydar edi. Oxiri urg‘ochi bo‘ri, yosh yetakchi, Birko‘z va dovyurak uch yashar – to‘rttovlon qolishdi.

Bu vaqtga kelib urg'ochi bo'rining xulqi butunlay aynigan edi. U arzimagan bahonada kuyikkan erkak bo'rilar tashlanaveradigan odat chiqardi. Ammo erkak bo'rilar bunga parvo qilishmas, izzat-nafs tusayli qochib qolishdan o'zlarini tiyishar, ular aksincha, urg'ochi bo'rige yelkalarini tutib berishar, dumlarini likillatib ko'nglini ovlash uchun atrofida girdikapalak bo'lishardi. Holbuki, urg'ochi bo'rige nisbatan qanchalar beozor bo'lishsa, bir-birlariga nisbatan shuncha berahm va ayovsiz bo'lishar edi. Uch yashar bo'rining yovuzligi hammasidan o'tib tushardi. Navbatdagi janjal-to'polonlardan birida u qari bo'rining so'qir ko'zi tarafidan hamla qilib uning qulog'ini uzib oldi. Birko'z bo'ri qari bo'lsa ham o'ziga yetguncha abjir va boz ustiga nihoyatda ayyor va tajribali edi. Oqib tushgan ko'zi bilan tilka-tilka bo'lib ketgan tumshug'i buning qanaqa tajriba ekanidan dalolat berardi. Umri davomida u olishaverib shunchalik abjir bo'lib ketgan ediki, hozir zarracha ham ikkilanib o'tirmadi.

Olishuv halol boshlandi, ammo g'irrom bilan tugadi. Agar Birko'z bo'ri yoniga yosh yetakchi qo'shilmaganda jang nima bilan tugashini oldindan aytish amrimahol edi, ular ikkovlashib dovyurak do'ltiga tashlanishdi. Kechagina bir daryodan suv ichgan, birga ochlik alamini totigan galadoshlar rahm-shafqatni unutib, uning a'zoyi-badanini tilka-pora qillardilar. Birga ovga chiqishlar, birga xomtalash qilingan o'ljalar, uchchovini birdek qiyagan ochlik unut bo'lgan edi.

Bularning hammasi o'tmishga aylangan edi. Hozir ular ochlikdan ko'ra ayovsizroq va qudratliroq tuyg'u – shahvat tuyg'usi izmida edi.

Shu orada barcha nizolar sababchisi urg'ochi bo'ri mammun qiyofada qorga cho'nqaygancha olishuvni kuzata boshladи. Ochig'i, bu manzara unga juda yoqdi. Bir so'z bilan aytganda, uning kuni tuqqan – faqatgina unga yetishmoq, uni egallamoq uchun – junlar hurpayib, so'yloq tishlar bir-biriga qilichdek urilib etlarini yulib oladigan, yorib tashlaydigan damlar kelgan edi.

Umrida ilk bor kuyukayotgan do'lti ham ana shu tuyg'u yo'lida qurban bo'ldi. Ikkala raqib uning jasadi tepasida turishardi. Ular qorda og'zini mammun ochib o'tirgan urg'ochi bo'rige intiq tikilishdi. Ammo ko'pni ko'rgan, qari bo'ri janglardan ham ko'ra, muhabbat bobida behad usta edi. Yosh sardor yelkasidagi yarani yalab-yulqash uchun boshini burganda qari bo'ri qulay imkoniyat kelganini payqadi-yu, fursatni qo'ldan boy bermay yosh bo'rige o'zini otdi. Bo'ynidan g'archcha tishlab ko'k tomirini yorib tashladi-da, darhol sakrab orqaga qochdi.

Yosh yetakchi o'kirib yubordi. Ammo uning vahshiyona o'kirigi zum o'tmay yo'talga aylandi. Ko'p qon yo'qotib holsizlanganiga qaramay yo'tala-yo'tala qari bo'rige qarab yugurdi. Biroq, uning sillasi qurib, oyoqlari chalishib, ko'z oldini tuman qopladi, uning vujudini hayot tark eta boshlagan edi.

Urg'ochi bo'ri esa bir chekkada mamnun qiyofada o'tirar edi. Olishuvni tomosha qilish unga huzur bag'ishlardi, chunki Shimol tabiatida mayl-muhabbat shundan iborat bo'lib, uning fojiasi nimadan iboratligini esa ajali yetgan tushunar edi. Tirik qolganlar uchun bu fojia bo'lmay, amalga oshgan xohish-istak tantanasi edi.

Yosh bo'rining joni uzilgach, Birko'z mag'rur qadam tashlab urg'ochi bo'ri yoniga yurdi. Darvoqe, g'olibning o'z g'alabasini to'la tantana qilishiga, har doim, kutilmagan hodisalarga shay bo'lib turish zarurati yo'l qo'ymasdi. Birko'z ikkilanib unga yaqinlashdi, urg'ochi bo'rining tishlarini irjaytirmaganini ko'rib, ishonqiramagandek hayron bo'ldi, chunki shuncha paytdan buyon unga ilk bor ro'yxushlik bildirilishi edi. Urg'ochi bo'ri u bilan iskashdi va hatto kuchukchaga o'xshab irg'ishlab, jilpanglay boshladi. Hayotning past-u balandini ko'raverib ko'zi pishib ketgan Birko'z ham keksayib qolgani uchun baayni kuchukka o'xshab, urg'ochi bo'ridan ko'ra bachkanaroq qiliqlar qilishga o'tdi.

Mag'lub raqiblar-u, ular qoni bilan qor sathiga yozilgan muhabbat mojarosi ham unutilgan edi. Buni Birko'z atigi bir marta, yaralarini yalash uchun to'xtaganda esladi. Shunda uning tishlari g'azabdan irjayib, junlari tikkaydi, o'tkir tirnoqli panjalari qorni changalladi va sakrashga hozirlik ko'rgandek tanasi kamondek egildi. Ammo, zum o'tmay hammasini unutib jilpanglab o'rmon sari chorlayotgan urg'ochi bo'rining ortidan yugurdi.

So'ng nihoyat ikkovlon til topishgan ikki mehribon do'stlardek yonma-yon yo'rtib ketishdi. Kunlar ketidan kunlar o'tdi, ular bir-birlaridan kechmadilar – birga ilvasin quvishar, birga tutib, birga baham ko'rishardi. Ammo, keyinchalik urg'ochi bo'ri bezovtalanadigan bo'lib qoldi. U bamisli bir nimani izlab sira topolmayotgandek bo'lardi. Uni qulagan daraxt butoqlari tagida hosil bo'lgan xilvat joylar o'ziga tortar va u tik qoyalarning yoriqlari bilan daryo sohillarining etagida qor bosgan g'orlarni soatlab iskashdan huzur qilardi. Qari bo'rini bular zarracha qiziqtirmas, lekin indamay urg'ochi bo'rige ergashib ketaverar, qidiruv cho'zilib ketganda qorda uzala tushib, uni kutib yotar edi.

Bir yerda uzoq to'xtamasdan ular yura-yura Makkenzi daryosi kanolariga yetib kelishdi va bu yog'iga qirg'oq yoqalab shoshilmay yo'lga tushishdi. Ular goh-goh o'lja ilinjida kambar irmoqlar sari borishar, ammo albatta yana daryo bo'yiga qaytishardi. Ba'zan yo'lida ularga just-just bo'lib daydib yurgan bo'rilar uchrab qolar edi. Biroq, bunday uchrashuvdan na bu tomon, na u tomon quvonmasdi ham, xayrixohlik ham bildirmasdi va yana birlashishga istak bildirmasdi ham. Yo'l-yo'lakay so'qqabosh bo'rilar ham uchrardii. Bular erkak bo'rilar bo'lib, jon-jon deb Birko'z bilan hamrohiga qo'shilardi. Birko'z buni istamas va bunga yo'l qo'ymasdi. Urg'ochi bo'ri uning yoniga borib junlarini hurpaytirib

irillasa bormi, begona shilqimlar o'sha zahoti chekinishar va yana sho'ppayib boshlari oqqan tarafga ravona bo'lishardi.

Kunlardan bir kuni, oy nurida yorishgan jimjit o'rmon qo'ynida yo'rtib borishayotgan mahal Birko'z birdan to'xtadi-da, tumshug'ini baland ko'tarib, burun kataklarini kerib havoni iskashga tushdi. Keyin oldingi panjasini ko'tardi. Nimadir uni tashvishga soldi va u hid olish uchun havoni iskayverdi. Urg'ochi bo'ri ham havoni iskab ko'rdi-da, yo'ldoshiga dalda bergen kabi oldinga o'tib yo'l boshladi. Hamon betoqat bo'layotgan Birko'z noiloj unga ergashdi, ammo dam-badam to'xtab, xavotir ichida shamolni iskar edi.

Urg'ochi bo'ri daraxtlar orasidan yurib borib, sekin-asta hayhotdek yalanglikka chiqdi. Bir necha daqiqqa o'sha yerda yolg'iz o'zi turdi, so'ng hamon bir nimadan hadiksirayotgan Birko'z yoniga keldi. Ular atrofga birga ko'z yogurtirib, qulq solib, havoni iskaganacha anchagacha turishdi.

Itlarning hurishi, erkaklarning o'dag'aylashi, xotin-xalajining shang'il-lagani va go'daklarning chinqirib yig'lagani eshitildi. Yalanglikdan ularga charm qoplangan ulkan vigvamlar, gulxan shu'lasida g'imirlab yurgan odamlar va sokin havoda o'rlayotgan tutun ko'rinardi, xolos. Ammo, dimoqlariga hindularning qishlog'idan Birko'zga noma'lum, urg'ochi bo'riga esa tanish va qadrdon narsalarning isi kelardi. Urg'ochi bo'rining vujudini g'alati bezovtalik qamrab, u havoni qayta-qayta huzur bilan iskar edi. Lekin Birko'z hamon xavotirda edi. U qo'rqa-pisa o'rnidan qo'zg'alib, shu bilan o'z xavotirini sezdirib qo'ydi. Urg'ochi bo'ri o'girilib go'yo o'zicha yupatgan bo'lib, tumshug'i bilan uning bo'yniga turtkiladi-da, o'zi esa yana qishloqni kuzata boshladi. Allaqanday sog'inchdan uning ko'zлari yonardi, bu endi ochlik tufayli tug'ilgan tuyg'u emasdi. Uni o'sha yoqqa shamoldek uchib borgisi, gulxan yoniga pisib o'tgisi, itlarning janjal-nizolariga aralashgisi, odamlarning oyoqlari tagida o'ralashib yurgisi, irg'ishlab-irg'ishlab o'ynagisi kelardi.

Uning yonida betoqat Birko'z depsinmoqda edi, nihoyat, urg'ochi bo'rining vujudini bir zamonalardagidek yana bezovtalik qamrab oldi. U uzoq paytdan buyon izlayotgan narsasini tezroq topish istagi yana tomirida jo'sh urayotganini sezdi. Daf'atan, ortiga o'girildi-da, o'monga — daraxtlar ortiga yugurdi, Birko'z ham yengil tortib, uning ortidan ketdi.

Ular oy nuri yoritgan o'rmonda sharpadek sassiz borisharkan, bir so'qmoqqa duch kelishdi va darhol ikkovi qorni iskab ko'rdi. So'q-moqdagi izlar yangi edi. Birko'z pisib oldinga yurdi, hamrohi esa izidan kela boshladi. Ular shovqin ko'tarmay borishar, serbar, do'mboqchalari yumshoq panjalari qorga botmasdi. Tuyqus, Birko'zning oppoq qor qo'ynidagi oq sharpara ko'zi tushdi. Qorda ohista sudralib borayotgan Birko'zning jadal harakati sezilayotgan bo'lsa, endi u yana ham ildamroq harakat qila boshladi. Oldinda allaqanday oq sharpa tinmay lipillar edi.

Ular ikkovi oy nuriga g'arq bo'lgan sayhonlikka tutashgan, ikki tomonini qoraqarag'ay nihollari qoplagan ensizgina so'qmoqqa o'tishdi. Qari bo'ri lahza sayin oq sharpaga yaqinlashardi. Mana, nihoyat u oq sharpaga yetib oldi. Bir sakrasa bo'lgani, bo'rining changaliga tushadi. Birko'z sakrashga chog'landi-yu, lekin shashtidan qaytdi. Quyonligi ma'lum bo'lgan o'sha oq sharpa birdan yuqoriga ko'tarilib, havoda muallaq osilib qoldi va koptokdek tebrana boshladi.

Quti o'chib ketgan Birko'z o'zini orqaga otdi, qorga yotib bu dahshatli va sirli buyumga qarab vahshiyona irilladi. Urg'ochi bo'ri esa parvoyi-falak. Oldinga o'tib, sakrashga chog'landi va quyonni tutish uchun sakradi. U juda baland sakragani bilan quyonga yeta olmadi. Keyin ketma-ket yana ikki marta irg'ishladi.

Birko'z asta o'rnidan turib, urg'ochi bo'rining xatti-harakatlarini kuzatib turardi. Oxiri uning noshudligidan jahli chiqib o'zi bir sakradi, quyonni ushlab yerga olib tushdi. Ammo o'sha zahoti yon tarafdan xavotirlanarli shatir-shutir eshitildi va Birko'z boshi uzra kamondek egilgan archa niholiga ko'zi tushdi, daraxt ana-mana qarsillab boshiga uriladigandek edi. Bo'ri og'zidagi quyonni tashlab, bu mash'um falokatdan qutulish uchun o'zini orqaga otdi, g'azab va qo'rquvdan junlari hurpayib bo'g'iq irilladi. Nihol qaddini rostladi-yu, quyon yana muallaq osilib qoldi.

Urg'ochi bo'rining jazavasi tutib, sheringining yelkasidan g'archcha tishlasa bo'ladimi? Buni kutmagan Birko'z g'azabiga chidayolmay o'ta kesgir tishlarini qayrab, uning tumshug'ini g'ajib tashlashiga oz qoldi. O'z navbatida bunaqa qarshilikni kutmagan urg'ochi bo'ri ham irillab Birko'zga tashlandi. Xatosini payqagan Birko'z o'zicha yarashishga undagan bo'lib, yelkasini unga tutib berdi, ammo urg'ochi bo'ri ko'nmadni – uning duch kelgan yerini tishlab tashlayverdi. Yarashishdan umidini uzgan Birko'z pirovardida uning hamlalariga chap berishga tushdi. Ora-chora dam u yelkasini, dam bu yelkasini tutib berishdan boshqa iloj topolmadi.

Quyon esa hamon havoda koptokdek likillab yotardi. Urg'ochi bo'ri qorga cho'nqaydi, sirli archadan ko'ra sheringidan ko'proq xavotir olayotgan Birko'z yana sakradi. Quyonni changallab yerga tushgach, u yakka-yu yagona ko'zi bilan daraxtga tikilib qoldi. Daraxt yana keskin egildi. Bo'ri hozir qarsillatib uriladi, degan xavotirda g'ujanak bo'lib oldi, lekin o'ljasini qo'yib yubormadi. Ammo, kutganidek daraxt kelib urilmadi, aksincha boshi uzra egilgan ko'yi turaverdi. Bo'ri o'rnidan jilsa archa ham jilar, va u tishini-tishiga bosib irillardi, jim yotganda daraxt ham qimir etmasdi va oxiri bo'ri qimirlamay yotishni lozim topdi. Ammo, quyondan shunday hid kelar ediki, asti qo'yavering!

Bunday mushkul ahvoldan Birko'zni urg'ochi bo'ri qutqardi. U Birko'zdan quyonni oldi-da, o'sha yerning o'zida qoraqarag'ay boshi

uzra tahlikali tarzda chayqalib silkinguncha bamaylixotir uning kallasini g‘ajib uzib oldi. Archa ilkis qad rostladi-da, bo‘ldi, shundan so‘ng ularni boshqa bezovta qilmadi. Urg‘ochi bo‘ri bilan Birko‘z o‘zlar uchun bu sirli daraxt tayyorlab qo‘ygan quyonni pok-pokiza tushirdilar.

Ular quyonlar havoda chayqalib turgan bunaqa so‘qmoqlar bilan sayhonliklarning ko‘piga duch keldilar. Bir juft bo‘ri yo‘l-yo‘lakay ularning barini tekshirib ko‘rardi. Urg‘ochi bo‘ri hammavaqt oldinda yurar, Birko‘z esa tuzoqlardagi o‘ljani ziyon-zahmatsiz qay tariqa olish mumkinligini o‘rganib, uning ortidan yurardi. Keyinchalik bu saboq juda ko‘p vaziyatlarda uning joniga oro kirdi.

## Ikkinci bob

### BO‘RI UYASI

Urg‘ochi bo‘ri bilan Birko‘z hindular qishlog‘ining kanorasida ikki kecha-yu ikki kunduz izg‘ib yurishdi. Birko‘z hamon xavotirlanar va nimadandir cho‘chir, urg‘ochi bo‘ri esa xuddi ohanrabosi bordek qishloqning atrofidan ketgisi kelmas edi. Ammo kunlardan bir kun ertalab nogohon, ularning yonginasida o‘q ovozi yangrab, o‘q Birko‘zning boshi uzra o‘tib daraxtg‘a tegdi-yu, bo‘rilar orqa-oldiga qaramay bu xatarli yerdan juftakni rostladilar.

Ular to‘xtamay uch kun yurishdi. Urg‘ochi bo‘ri hamon o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi. Shu kunlar ichida u xiyla og‘irlashib qolgan va tez yugurolmasdi. Bir kuni quyonning payiga tushgan chog‘da u birdan quvishdan to‘xtab, nafas rostagani qorga yotdi. Odatda bunaqa uchqur quyonlarni tutish unga cho‘t emasdi. Birko‘z uning yoniga kelib bo‘yniga tumshug‘ini tekkizib endi suykalmoqchi bo‘lgan edi, urg‘ochi bo‘ri kutilmaganda bir hamla qilib tishlab oldi-yu, azbaroyi chalqancha yiqlidi va noshudlarcha uning hamlalaridan o‘zini himoya qilishga tushdi. Buni ko‘rib urg‘ochi bo‘ri battar quturib ketdi, shunda ham Birko‘z uni ayadi, jahldan tushishini sabr-toqat bilan kutdi.

Nihoyat, urg‘ochi bo‘ri kichik bir irmoq bo‘yidan izlaganini topdi. Yoz fasilda Makkenzi daryosiga kelib quyluvchi bu irmoq hozir butunlay muzlagan va oqishdan to‘xtagan edi. Urg‘ochi bo‘ri Birko‘zning ortidan zo‘r-bazo‘r yugurib borayotgan edi, daf‘atan bir yerda anhor uzra osilib turgan bahaybat do‘ngalakni payqab qoldi. Beixtiyor u o‘sha tomonga burildi. Bahor toshqinlari hamda qorlar erib oqqan jilg‘alar qirg‘oqdagi ensizgina yoriqni yuvib o‘ngir hosil qilgan edi. Urg‘ochi bo‘ri o‘ngir og‘zida to‘xtab devorlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi, so‘ng uni ikkala tomonidan jarlik qiyalama tog‘ yonbag‘riga qo‘silib ketgan yergacha aylanib chiqdi. Ortiga qaytib kelgach esa

kambargina tuynuk orqali g'orga kirdi. Dastlab ikki-uch qadamcha sudralib bordi, keyin g'or ichi kengayib, urg'ochi bo'ri xiyla keng, diametri ikki metrcha keladigan maydonchaga chiqdi. Uning boshi g'or shiffiga tegay-tegay derdi. Bu yer qulay va issiqliqna edi. Urg'ochi bo'ri g'orni ko'zdan kechirishga kirishdi, Birko'z esa g'or og'zida uni jimgina kuzatar edi. Boshini, panjalariga tumshug'i tekkudek darajada egib, urg'ochi bo'ri bir necha bor u yoqdan-bu yoqqa dumaladi, so'ngra g'ingshigancha g'ujanak bo'lib oldi-da, g'or og'zi tomonga qarab chalqancha yotib oldi. Birko'z sergaklanib boshini silkib-silkib qo'ydi, uning tashqarida u yoqdan-bu yoqqa yurayotgani g'or og'zidan tushayotgan yorug'lik hovurida ko'rinaridi. Urg'ochi bo'ri o'zining mammun va xotirjam ekanini bildirgan kabi qulqlarini chimirib tilini chiqardi. Birko'zning qorni ochdi. U g'or og'zida yotib uyquga ketdi, lekin uxlolmadi. U dam-badam uyg'onib ketar va sergaklanib, aprel ostobining jilvagar nuriga g'arq bo'lgan borliqdan kelayotgan tovushlarga qulq solardi. Uyqu bosib ko'zi yumildi, deguncha olis irmoqlarning elas-elas jildirashlari qulog'iga chalinar va u birdan boshini ko'tarib bu ajabtovur tovushlarni tinglashga tushar edi. Yana quyosh yuz ko'rsatib uyg'ona boshlagan Shimol tabiatи bo'rige ta'sir etmoqda edi. Havoda ko'klam nafasi kezar, qor ko'rpa ostida hayot g'imirlar, daraxtlarni qoplagan qirov erib, kurtaklar ko'z uqalar, borliq uyg'onmoqda edi.

Birko'z hamrohiga tashvish bilan tikildi, ammo urg'ochi bo'ri o'rnidan turishni parvoyiga keltirmas edi. U atrofni ko'zdan kechira turib xiyol narida parillab havoga ko'tarilgan chug'urchuqlarga qarab turib o'rnidan turishga chog'landi, ammo urg'ochi bo'ri esiga tushdimi, yana cho'zilib yotdi-da, ko'zlarini yumdi. G'ing'llagan tovushni eshitib Birko'z uyqu aralash bir necha bor panjasib bilan tumshug'ini yelpidi, pirovardida uyg'onib ketdi. Tumshug'ining uchida kattakon chivin g'ing'illar edi. Ehtimol chivin qish bo'yi to'nka po'kagida jon saqlagan, endi esa ostob nurining harorati unga jon bag'ishlagan bo'lsa kerak. Bo'ri o'zini qurshagan olamning serjilo ishoratlariga qarshilik qilishga majoli yo'q edi, bundan tashqari u behad ochiqqan edi.

Birko'z urg'ochi bo'rining yoniga sudralib bordi-da, o'rnidan turishga ko'ndirmoqchi bo'ldi. Ammo urg'ochi bo'ri bunga javoban irillab qo'ydi, xolos. Shunda Birko'z bir o'zi jo'nashga qaror qildi-yu, tashqariga chiqqach, oyoqlari qorga botib qolganini ko'rib yo'l yurish oson emasligini sezdi. Shuning uchun hali erimagan anhor bilan yuqoriga qarab yurdi. O'sha yoqda daraxtlar soyasidagi qor hali erimagan – qattiq edi. Kun bo'yi izg'igan Birko'z g'ira-shirada horib-charchab, beshbattar ochiqib qaytib keldi. Yo'lida bir necha marta o'ljaga duch keldi, ammo birontasini tutolmadi. Quyonlar eriy boshlagan qor sathida yengilgina sakrab yugurar, u esa qorga botib qolaverdi.

Allanimani g'ira-shira ilg'agan Birko'z ichkariga kirmay g'or og'zida to'xtashga majbur bo'ldi. Ichkaridan bir g'alati, zaifgina tovushlar kelardi. Bu tovushlar urg'ochi bo'rnikiga o'xshamas, lekin shu bilan birga ularning nimasidir tanishga o'xshardi. U pusib shunday ichkariga kirgandi, urg'ochi bo'ri tahdidona irillab kutib oldi. Buni eshitib Birko'z dovdirab qolmadi, ammo yaqiniga ham yo'lamadi, birmuncha berida turaverdi, uni urg'ochi bo'ri emas, boshqa narsa – zaif, karaxt g'ingshishlar va beozor nola qiziqtirar edi.

Urg'ochi bo'ri unga g'azab bilan o'kirdi. Birko'z g'or og'ziga chiqib g'ujanak bo'lib yotdi-da, uqlab qoldi. Ertalab g'or g'ira-shira yorishgan mahal yana kechagi tanish tovushning egasini bilgisi kelib ichkariga bosh suqdi. Urg'ochi bo'ri yana irillab kutib oldi, lekin uning tahdidida yangi ohanglar paydo bo'lgan edi, u xuddi bir nimani qizg'anayotganga o'xshardi – mana shu Birko'zni yaqin bormay, uzoqroqda turishga majbur etar edi. Shunga qaramay u urg'ochi bo'rining chatanog'i orasida onasining qorniga yopishib olgan ko'yig'imirlayotgan besh nafar jajjigina jondorlarni payqadi, bu nimjon, o'zini eplay olmayotganlar eshitilar-eshitilmas chiyillar, ko'zlarini ocholmas edilar. Bo'ri hayratga tushdi. Uzoq umri davomida bunaqangi hodisalarni ko'p ko'rgan bo'lsa ham, u har safar hayratga tushaverardi. Urg'ochi bo'ri undan xavotirlanardi. U ora-chora irillab qo'yar, mabodo Birko'z yaqinlashgudek bo'lsa tahdidona o'kirishga tushardi. Garchi u son-sanoqsiz marta bolalab hali biror marta ulardan judo bo'lмаган esa-da, barcha ona bo'rilar singari, erkak bo'ri bolalarimni yeb qo'yadi, deb qo'rqardi. Mana shu qo'rquv Birko'zni yaqin yo'latmaslikka urg'ochi bo'rini majbur etardi.

Ammo bo'rivachchalarga hech qanday xavf yo'q edi. Nogohon qari bo'ri o'zini dunyoga keltirgan ajdodlari qonidan o'tgan sezgilar amrini his qildi. Beixtiyor butun vujudi bilan shu amrni tuydi-da, o'z surriyotlariga yegulik keltirgani jo'nadi.

G'ordan besh-olti mil narida anhor ikkiga ajralib, uning ikkala irmog'i tog'lar sari keskin burilib oqardi. Bo'ri so'l irmoq yoqalab jo'nadi va ko'p o'tmay allaqanday jonivorming iziga duch keldi. Izlarni iskab ularning yangi ekaniga ishonch hosil qilgach, qorda yotib izlar ketgan tomonga uzoq tikildi. So'ng asta ortiga burilib o'ng qo'ldagi irmoq yoqalab yo'lga tushdi. Izlar o'zidan xiyla yirik hayvonning izlari edi – bo'ri uni ta'qib etish befoyda ekanini sezdi.

Shu asno yana yarim mil yurgach, bo'ri allaqanday g'ijirlagan tovushni ilg'ab to'xtadi. Yaqinroq pusib bordi-da, orqa oyoqlarida turib tishlarini daraxtga ishqayotgan jayraga ko'zi tushdi. Birko'z ishi o'ngidan kelmasligiga ko'zi yetsa ham orqa tarafidan sekin jayraga yaqinlashdi. Ko'pdan beri Shimolda jayralarga yo'liqmagan edi. Garchi umri davomida bir marta go'shtini tatib ko'rmagan bo'lsa ham, bunday wahshiy

yirtqichlarning fe'lini yaxshi bilardi. Lekin hayot unga baxt yoki soddaroq aytganda omad nima ekanini o'rgatgan edi. Shuning uchun u jayrani qoralab pusib boraverdi. Bu to'qnashuv nima bilan tugaydi, oldindan bir nima deyish qiyin, tirik mavjudotlar orasidagi olishuv nihoyasini bashorat qilib, oldindan aytib berib bo'lmaydi.

Jayra uzun-uzun, o'tkir ignalarini tikkaytirib g'ujanak bo'lib oldi. Bunday vaziyatda hamla qilish befoyda. Bir necha yillar muqaddam xuddi mana shunday jonsiz tuyulgan ignalar to'pini tumshug'i bilan turtaman deganda jayra to'satdan dumi bilan Birko'zning tumshug'iga qarsillatib solgan edi. Tumshug'inining uchiga bir dona igna sanchilib qolib toza azob bergen va bir hasta deganda tushib ketgan edi. U hamlaga chog'lanib jayraning dumidan yarim metrcha narida yerga yotib olib qimir etmay kuta boshladi. Kim biladi? Har ne sodir bo'lishi mumkin. Ehtimol, jayra jussasini rostlab qolar, ehtimol, uning yumshoq qorni ochilib noxosdan panja urib yorib tashlash imkonli tug'ilari.

Ammo yarim soat kutib, toqati toq bo'lgan Birko'z o'rnidan turdi-da, yana qimir etmagan bir to'p ignaga g'azab bilan irillab jo'nadi. Ilgarilari mana shu alpozda besamar bo'lsa ham poylab yotaverardi. Hozir uzoq kutib yotishning mavridi emas. Birko'z daryoning o'ng qirg'og'i yoqalab yo'lga tushdi. Vaqt o'tib borar, u esa hamon hech narsa ovlayolmadidi.

Qonida jo'sh ura boshlagan mehr bo'rini yurishga, izlashga undardi. U qanday bo'lmasin biron nima topishi shart va bunga majbur ekanini sezardi. Qiyom payti tustovuq uchradi. U butalar orasidan yugurib chiqqanini biladi, qarasa, uzog'i bilan bir fut narida, to'nkada shu laqma parranda o'tiribdi. Bir-birini baravar ko'rib qolishdi. Tustovuq jon holatda qanotlarini yoyib, uchishga chog'landi, ammo bo'ri panjasib bilan bir urib qulatdi va qorda tipirchilay-tipirchilay ko'tarilmoxchi bo'layotgan joyida tishlab oldi. Tishlari yumshoqqina go'shtga botib so'ngaklarning qirsillab sinishidan Birko'zning ishtahasi ochildi. Zum o'tmay bir nima esiga tushib, tustovuqni ko'tara g'or tomonga yugurdi.

U sharpadak tovush chiqarmay qirg'oqning past-baland yerlarini ko'zdan qochirmay bir chaqirimcha yurgach, yana boyagi ulkan panjalar iziga duch keldi. Izlar u ketayotgan yoqqa burilgan edi. Birko'z bu izlar sohibiga yuzma-yuz bo'lishga hozirlanib yo'lida davom etdi.

U irmoqlar keskin burilib oqayotgan yerdagi qoyatosh ortidan boshini sekin chiqarib qaradi-yu, allanimani ko'rdimi, darhol yerga qapishib oldi. Bu qorda katta-katta iz qoldirib o'tgan o'sha yirtqich — urg'ochi silovsin edi. Silovsin ertalab bo'ri jayra oldida qanday yotgan bo'lsa, g'ujanak bo'lib olgan jayra qarshisida xuddi shunday alpozda yotardi. Agar shu yergacha Birko'z sassiz, tovush chiqarmay kelgan bo'lsa toshdek qotgan jayra bilan silovsinni ko'rgach, endi bamisli sharpaga aylandi-qoldi.

U tustovuqni yoniga qo'yib uzala tushib qorga yotdi-da, pastak qoraqarag'ayning igna barglari oralab hayot-mamot o'yini – nafas olmay yotgan bo'lsalar ham avji kuchga to'lgan va ikkovi o'zini mudofaa qilishga tayyor turgan silovsin bilan jayrani ko'zdan qochirmay kuzata boshladi. Bu o'yining mohiyati shundan iborat ediki, o'zin ishtirokchilaridan biri ikkinchisini yemoqchi, ikkinchisi esa qurbon bo'lishni istamas edi.

Keksa bo'ri ham bir narsadan umidvor bo'lib yashiringan yeridan o'yinda ishtirok etardi, darhaqiqat, omadi yurishib qolsa yashash uchun nihoyatda zarur yegulik – ulush tegib qolishi mumkin, axir.

Oradan bir soatga yaqin vaqt o'tdi, biron o'zgarish sezilmadi. Bir to'p ignalar qimir etmas – jayra toshdek qotib qolgan edi, silovsining marmar haykaldan farqi yo'q. Birko'z esa nafas chiqarmay o'likdek yotardi. Lekin ayni chog'da toshdek qotib turganiga qaramay uchovining g'oyatda sergak va hushyor ekani, hech qachon vujudlari hozirgichalik beqiyos kuch-quvvatdan taranglashmagan, metindek bo'limgani sezilardi.

Birko'z bir nimani ilg'agandek oldinga surildi. Pastda allaqanday o'zgarish sodir bo'lgan edi. Silovsin ketib qoldi, degan qarorga keldi shekilli, jayra «sovutini» yechash boshladi. U zarracha shubhalanmasdi. Ulkan tikan o'rami sekin-asta yoyilib jayraning nashtarları tikraydi. Buni ko'rib qarshisida bamisli tayyor ovqat turgandek Birko'zning so'lagi oqdi.

Hali «ignadan to'qilgan po'stinini» batamom yechishga ulgurmagan jayra daf'atan silovsinni ko'rib qoldi-yu, shu lahzada silovsin uni panjası bilan sop qoldi.

Bu zarb yashin tezligida sodir bo'ldiki, jayra hatto qimirlashga ulgurolmay qoldi. Bamisli yirtqich parrandanikiga o'xshash qayrilma temirdek tirnoqli panja jayraning yumshoq qornini yorib yuborgan edi. Agar jayra ignalarini butunlay yoyishga ulgurgan yoki dushmanini bir nafas kechroq ko'rganida edi, silovsinga shikast yetmagan bo'lardi, ammo silovsin panjasini tortib olgan chog'ida jayra dumi bilan yonboshidan qarsillatib urdi-yu, o'tkir ignalar silovsin badaniga xanjardek sanchildi.

Hammasi ko'z ochib yumguncha ro'y berdi – ketma-ket, bir-biriga zarba berishga ulgurgan jayra bilan silovsin biri chiyillab, boshqasi og'riqdan o'kirib yubordi. Birko'z boshini ko'tardi, quloqlarini ding qilib suyunganidan dumini likillatishga tushdi. Silovsin o'zini tiyolmadidi. U og'riqqa chidayolmay quturib ketib jayraga tashlandi. Biroq, xirillaryotgan, yorib tashlangan qornidan osilib tushgan ichak-chavag'ini to'sish uchun g'ujanak bo'lishga chirananayotgan jayra yana dumi bilan urib qoldi. Silovsin og'riqdan yana o'kirib yubordi-da, jon achchig'ida ortiga sapchidi, uning tumshug'i igna qadab qo'yilgan yostiqchaga

o'xshab qolgan edi. U cho'g'dek achishtirayotgan nayzalardan qutulish uchun tumshug'ini panjasni bilan timdalar, qorga suqar, shox-shabbalarga ishqar va beqiyos og'riq va qo'rquvdan o'zini qo'yarga joy topolmasdi.

Silovsin pishqirishdan to'xtamadi, kalta dumini jon talvasasida silkita-silkita, oxiri asta-sekin tinchidi. Birko'z undan hamon ko'z uzmasdi. Daf'atan, u sapchib tushdi va irillab yubordi, sirtlon jon achchig'ida irg'ishladi-da, chinqirgan ko'yi qochdi. Uning qorasi ko'zdan yo'qolib, chiyillashlari eshitilmay qolganda Birko'z yashiringan yeridan chiqishga botindi. Qor sathini qoplagan o'tkir ignalar bamisli har lahma panjalariga kiradigandek u ohista-ohista oyoq qo'yardi. Bo'rini ko'rgan jayra g'azab bilan o'kirim tishlarini irshaytirdi. U arang burkanib oldi, ammo bu endi yaqiniga yo'lab bo'lmaydigan to'p emasdi, uzligan paylari o'ziga bo'ysunmas, qorni deyarli qoq ikkiga yorib tashlangan va qonga belangan edi.

Birko'z qon aralash qorni kappa-kappa og'ziga olib huzur bilan yutardi. Bundan battar qorni tatalab, ochligi zo'riqdi, ammo u dunyoda bekorga shuncha yashadimi – hayot har qanaqa sharoitda ham ehtiyyot bo'lishga o'rgatgan emasmi?! Hamma narsaning vaqtি-soati bor. U shundoqqina jayraning qarshisida qorga uzala tushib yotdi, jayra esa tishlarini g'ijirlatar, xirillar va ayanchli tarzda ingrardi. Bir necha daqiqadan so'ng Birko'z jayraning ignalari shalvirab, butun badani qaltiray boshlaganini sezdi. So'ng bu qaltiroq darhol bosildi va jayraning qoziq tishlari so'nggi bor g'ijirladi-da, ignalari tamomila shalpayib, tanasi shilq etib tushdi. U boshqa qimir etmadni.

Birko'z qo'rqa-pisa panjasni bilan jayrani chalqanchasiga yotqizdi. Hammasi joyida. Jayra jonsiz edi. O'ljani sinchiklab tekshirgandan keyin bo'ri uni tishlab daryo yoqalab sudrab ketdi. U o'tkir ignalarga tegib ketmaslik uchun boshini bir tomonga burib tortardi. To'satdan bir nima esiga tushdi-da, jayrani tashlab tustovuq yoniga qaytib bordi. U zarracha ikkilanmay tustovuqni yeyishga kirishdi. Apil-tapil yeb bo'lgach, yana jayraning jasadi tomon yugurdi.

Birko'z keltirgan o'ljasini g'orga sudrab kirganda, urg'ochi bo'ri o'ljani ko'zdan kechirdi va boshini ko'tarib uning gardanini yalab-yulqadi. Lekin shu bilan birga o'sha zahoti bolalaridan nariroq turishni talab qilgandek irillab qo'ydi. To'g'ri, bu safar urg'ochi bo'rining ovozida g'azabdan ko'ra yolvorish ohangi kuchliroq edi. O'z surriyotining otasidan xavotirlanish hissi asta-sekin yo'qolib borayotgan edi. Birko'z o'zini ota bo'ri singari tutar va o'z nafsidan dunyoga kelgan bolalarini bekordan-bekorga g'ajib tashlash istagidan yiroq edi.

## **Uchinchi bob**

### **KULRANG BO'RI BOLASI**

U hamzotlaridan keskin ajralib turar edi. Ularning juni malla rangga moyil bo'lib hammalari ona bo'riga tortgan, u esa quyib qo'ygandek Birko'zning o'zi edi. Bir qorindan talashib tushgan bo'ri bolalari ichida faqat u Kulrang edi. Uning bo'ri naslidan ekani yaqqol sezilar va ko'p jihatlari bilan otasini eslatar, farqi shuki, uning ko'zi ikkita, otasiniki bitta edi, xolos.

Kulrang ko'zi yaqinda ochilgan, yaqinda ochilgan bo'lsa ham o'tkir edi. Hatto ko'zi ochilmagan paytda ham sezgirligi oqibatida ko'p narsalarning farqiga borardi. Avvalo u to'rt chog'li qarindoshlarining har bittasini ajrata olar edi. Hadeganda ularga tegishar, qitmirlik qilar, mabodo urush chiqsa halitdan irillagudek bo'lar, bo'g'zida allanechuk qaltiroq boshlanardi. Ko'zi ochilmasdan ilgariroq u hidlari, harorati orqali mehr, yegulik va ardoqlash manbayi bo'lgan onasini boshqalardan ajratardi. Ona bo'ri yumshoq tili bilan uni beozor yalab-yulqiganda u halovat topar va pinjiga suqilib orom uyqusiga ketardi.

Birinchi oy deyarli uyqu bilan o'tdi, ammo endi ko'zi ravshanlashib kamroq uxlaydigan bo'ldi va sekin-asta olam bilan tanisha boshladi. U yashayotgan olam zim-ziyo edi. Boshqa olamni bilmagani uchun ham buni bilolmasdi shekilli, tevarak nim qorong'u edi, ammo bundan ravshanroq yoki o'zgacha olam unga notanish edi. U yashayotgan dunyo behad tor — g'or bo'ri uyasining devorlari bilan chegaralanardi, bo'ri-vachcha tashqi olamning bepoyonligi xususida hech narsa bilmas, shuning uchun bu katalakdek diqqinamas uyada yashash azob bo'lib tuyulmas edi.

Darvoqe, ko'p o'tmay u o'zi yashayotgan olamning bir devori boshqalaridan farq qilishini payqab qoldi — bu g'orning og'zi edi, o'sha tomondan ichkariga nur yopirilardi. Bu devorning boshqalariga o'xshamasligini u ba'zi narsalarni anglaydigan va o'z holicha bir nimalarни istaydigan bo'lmasidan avvalroq payqagan edi. Bu devor bo'ri bolasini ko'zi ochilmasdan ancha ilgari, ya'ni uni ko'rmagan paytlarda ham muttasil qiziqtirar edi. O'sha tomondan yopirilib kelayotgan nur uning yumuq ko'zlariga ta'sir qilar hamda behad yoqimli va shu bilan birga g'alati hislar qo'zg'atayotgan haroratli shu'lalardan qovog'i jimirlay boshlardi. U bamisli quyoshga talpingan kungaboqar singari borliq vujudi bilan istasa-istamasa shu nurga talpinar edi.

Bo'ri bolasi bir nimalarни g'ira-shira anglaydigan bo'lmasdan avvalroq dam-badam g'or og'ziga sudralib borardi. Hamzotlari undan bir nafas ajralmasdilar. Hayotlarining mana shu davrida ulardan birontasi g'orning qop-qorong'u qismiga bormasdi. Bamisli ular bir maysa-yu, g'or og'zidan tushayotgan nur quyosh, ularning vujudida uyg'onayotgan hayot nurga

talpinar edi, ularning yashashi uchun nur nihoyatda zarur edi, shu boisdan ko'zlarini yarim ochiq, jajjigina bo'ri bolalari beixtiyor unga talpinardilar. Keyinchalik ham ularning har biri, mustaqil harakat qila oladigan va o'zlaricha bir nimalarga qiziqadigan bo'lganida g'or og'zidan yopirilayotgan nurga tashnaliklari yanada kuchaydi. Ular uzlusksiz g'or og'ziga sudralib borishar, ona bo'ri dam-badam ularni qaytarishga majbur bo'lardi.

Ana o'shanda bo'ri bolasi onasining yalab-yulqaydigan huzurbaxsh tilidan boshqa o'zga xususiyatlari ham borligining guvohi bo'ldi.

Jon-jahdi bilan nurga talpinar ekan, u onasining tumshug'i borligi va haddidan oshganda jazolash uchun shu tumshug'i bilan turtkilashi mumkinligiga ishonch hosil qildi, so'ngra yiqitib o'zini bir zumda dumalatib g'orning ichkarisiga keltirib qo'yishga qodir baquvvat panjalari ham borligini sezdi. Shu tariqa u birinchi marta og'riq nimaligini his qildi va iloji boricha undan qochadigan bo'ldi, dastlab bunday jazoga loyiq sho'xliklardan o'zini tiydi, keyin jazoga chap berish va qochishga o'rgandi. Bu endi har xil voqealardan o'zicha xulosa chiqarish natijasi edi. Shu choqqacha u o'zi anglagan holda nurga qanday talpingan bo'lsa, xuddi shunday kaltakdan qochardi. Endi bo'lsa kaltakligini bilgani uchun qochishga urinardi.

U o'ta yovuz bo'rivachcha edi. Boshqa bo'richalar ham undan qolishmasdi bu tabiiy. Chunki u xom go'sht yeb kun ko'ruchchi yirtqichlar surriyoti edi. Dunyoga kelgan kunidan boshlaboq emgan ona suti xom qon sizib oqayotgan go'shtdan hosil bo'lardi, hozir tug'ilganiga bir oy to'lib, ko'zlarini bir hafta ilgari ochilgan chog'ida sut yetkazib berolmaganidan besh nasar bolasiga ona bo'ri chaynab tutayotgan go'shtdan u ham pok-pokiza tushira boshlagan edi.

Kulrang bo'ri bolasi kun sayin yirtqichlashib, yovuzlashib borardi. Hamzotlariga nisbatan bo'g'iqroq va qattiqroq irillar, g'azabi xuruj qilganda xiyla qo'rquinchliroq bo'lardi. Panjasini bilan ularni urib ag'darishni ham u birinchi bo'lib o'rgandi. Dastlab ulardan bittayarimtasining qulog'idan tishlab silkigancha irillab u yoqdan-bu yoqqa sudragan va yerga bulg'ashni odat chiqargan ham u edi. Shubhasiz, boshqa bolalaridan ko'ra u ko'proq onasini tashvishga solardi.

G'or og'zidan tushayotgan nur Kulrang bo'rivachchani tobora o'ziga oshustga qilardi. U dam sayin tashqariga chiqish uchun g'orda timirskilanib yurar va xuddi shu alpozda sudrab joyiga keltirib qo'yishardi. To'g'ri, u tashqariga g'or og'zi orqali chiqilishini hali bilmasdi. U bir yerdan boshqa yerga olib boradigan har xil kirish va chiqish yo'llari borligidan shubhalanmasdi ham. Umuman, u boshqa joylar mavjudligidan bexabar edi. U yoqqa qanday borilishi haqida-ku gap bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun g'orning og'zi unga to'siq — nur to'sig'i bo'lib ko'rinar edi. Erkinlikda yashayotganlar uchun quyosh qanday

ahamiyatga ega bo'lsa, mana shu to'siq uning uchun shunday vazifani o'tar, ya'ni u yashayotgan olamni quyoshdek yoritardi. Kulrang bo'richa chiroqqa talpingan parvonadek shu yorug'likka talpinardi. U erta-kech o'sha yoqqa borish umidi bilan yashardi. Uning vujudida kun sayin uyg'onayotgan hayot yorug'lik devori sari boshlardi. Uning qonida oqayotgan hayot – tirklik tashqi dunyoga eltuvchi yagona yo'l ham va u bosib o'tishi shart bo'lgan yo'l ham mana shu g'or og'zi ekanligini sezardi. Ammo o'zi bu haqda hech nima bilmasdi. U tashqi olam mavjudligidan ham bexabar edi.

Bu yorug'lik devorining bitta g'alati xususiyati bor edi. Otasi Birko'zning (bo'ri bolasi uni yorug'likka yaqinroq joyda uxlaydigan va o'zi yashayotgan olamdan onasiga o'xshab ovqat keltiradiganlardan biri sifatida tan olardi) o'sha shaffof devor orasidan o'tib ko'zdan g'oyib bo'lish odati bor edi. Kulrang bo'ri mana shuni sira tushunolmasdi. Onasi shaffof devor yoniga yaqin yo'latmas, ammo har safar g'orning boshqa devorlari oldiga borganda nozik tumshug'i allaqanday qattiq narsaga urilardi. Shunda tumshug'i og'rirdi. Bir necha bor shunday urinishlardan so'ng devorni iskab tekshirishdan voz kechdi. Pirovardida sut bilan chaynab yumshatilgan go'sht onasiga xos xususiyat, otasiga esa birdan g'oyib bo'lish xususiyati xos ekanini anglab yetdi.

Ochig'i, bo'ri bolasiga fikrlash yot edi, jilla qursa, odamlardek fikr yuritish xos emas. U ko'p narsalarni g'ira-shira ilg'ardi, xolos. Shunday bo'lsa ham uning xulosalari odamlarnikidek qat'iy va aniq bo'lardi. Ro'y bergen hodisani nega va nima uchun bunday bo'ldi deb taftish qilib o'tirmasdi. Shu narsaning yuz bergenini bilishining o'zi kifoya qilardi. O'zini qurshab turgan olamni shu tariqa idrok etardi. Shuning uchun g'or devoriga tumshug'ini bir necha bor nuqib ko'rgach, otasi singari devor orasidan o'tolmasligiga tan berdi. Ammo buning sababini bilishga hech qachon qiziqib ko'rmasdi. Qisqasi, izchil va to'g'ri fikr yuritish unga yot edi.

Shimol o'lkasida hayot kechiradigan aksar jonivorlar singari u ham ochlik nimaligini juda erta totib ko'rdi. Shunday kunlar keldiki, otasi bir parcha go'sht keltirmas, hatto ona bo'rining yelinlari sut bermas edi. Bo'ri bolalari g'ingshir, ingillar va ko'p vaqt karaxt bo'lib yotishardi. Bora-bora ochlikdan tirishib qoladigan bo'lishdi. Janjal-to'polonlar barham topdi, ulardan birontasining g'azablanishga, irillashga xoli kelmasdi, shaffof devor yoniga sudralib borishlar o'z-o'zidan tugadi. Ular sulayib yotishar, tomirlaridagi qon esa sekin-asta sovib borardi.

Birko'zning halovati yo'qoldi. U kun bo'yi har qayerlarda izg'ib yurar, noxush va halovatsiz uyasida kamdan-kam tunar edi. Oxiri urg'ochi bo'ri ham bolalarini tashlab ovga chiqdi. Urg'ochi bo'ri bolalagan kunlari Birko'z hindular qishlog'iga qatnab tuzoqqa ilingan quyonlarni o'g'irlab

yurdi, ammo qorlar erib daryolar yana to'lib oqa boshladi deguncha hindular ketib qolishdi-yu, bu yegulik manbayini ham xudo ko'p ko'rdi.

Kulrang bo'ri bolasi sal-pal quvvatga kirib, yana o'sha oppoq devorga qiziqsina boshlaganda o'zi bilan birga yashayotgan g'or ahli xiyla kamayishganini payqab qoldi. Uning bitta-yu bitta tug'ishgani qolgandi. Boshqalari g'oyib bo'lidi. Darmonga kirishi hamono u yana sho'xlik qilishga tushdi. Lekin unga qo'shilib o'ynagani sherik topilmadi, chunki tug'ishgan hamzotining na boshini ko'tarishga, na qimirlashga holi bor edi. Kulrang bo'richa yana keti uzilmayotgan go'sht evaziga semirdi, hamzoti esa adoyi tamom bo'lgan edi. U ko'zlarini ocholmay kun-uzzukun yotar, bir hovuch qoq suyakka aylangan jismidagi hayot shami tobora so'nib, bora-bora oxiri butunlay so'ndi.

Keyin Birko'z ham shaffof devor tomonda ko'rinnay qoldi, uning g'orga kiraverishdagi o'rni huwillab qoldi. Bu voqeа birinchisiga nisbatan chidasa bo'ladigan navbatdagi ocharchilikning oxirlarida yuz berdi. Urg'ochi bo'ri Birko'z nima sababdan g'orga qaytib kelmaganini bilar, biroq, o'zi guvohi bo'lgan narsani bolasiga aytib berolmasdi.

Chap qirg'oq yoqalab daryoning yuqori, silovsin yashaydigan qismiga ketayotganda u Birko'zning bir kun avvalgi iziga duch keldi. Uning izidan borib o'zini, to'g'rirog'i undan qolgan suyaklarni uchratdi. Atrofdagi hamma narsa yaqin orada bo'lib o'tgan omonsiz olishuvdan va g'olib chiqqan silovsining uyasiga jo'naganidan darak berardi. Urg'ochi bo'ri uyani izlab topdi. Bir talay belgilarga qaraganda silovsin o'sha yerda edi, urg'ochi bo'ri kirishga botinolmadi.

Shundan so'ng urg'ochi bo'ri daryoning bu qismida ov qilmay qo'ydi. U silovsining bolalari borligi, hamda yirtqichning o'zi behad yovuz va hech narsadan tap tortmasligini bilardi. Uch-to'rtta bo'ri birlashib sirtlonning surobini to'g'rilib qo'yishi hech gap emas, lekin u bilan ayniqsa, yeyman, deb og'zini ochib turgan bolalari borligini bila turib, yuzma-yuz kelish boshqa gap.

Shimol shimolligiga boradi, lekin onalik tuyg'usi ham hazilakam kuch emas — u Shimol tugul jahannamda ham bolasi uchun olovning og'zidan qaytmaydi, shu bois bir kunmas bir kun bolasini deb urg'ochi bo'ri chap qirg'oq bo'ylab borishi, qoyatoshlar orasidagi uyada yashayotgan vahshiy sirtlonga yuzma-yuz kelishi muqarrar edi.

## To'rtinchi bob

### DUNYO DEVORI

Onasi ov qilgani g'ordan chiqib ketadigan bo'lganida bo'ri bolasi nima uchun g'or og'ziga borishi taqiqlanganini tushunib yetgan edi. Bu qonunni onasi goh tumshug'i, goh panjasи bilan turkilab doim

uqtirib turishini kanda qilmagandi, qolaversa uning o'zida qo'rquv hissi paydo bo'la boshlagan edi. G'ordagi qisqagina umri mobaynida o'takasini yoradigan biron hodisa ro'y bermadi – lekin shunga qaramay u qo'rquv nimaligini bilardi. Qo'rquv bo'ri bolasiga qadim ajdodlaridan boshlab, ming-minglab hayot tomirlari orqali o'tgan edi. Bu Birko'z bilan urg'ochi bo'ridan o'tgan meros edi, zero o'z navbatida ularga ham o'zlaridan avval yashab o'tgan barcha bo'ri avlodidan meros sifatida qolgan edi. Qo'rquv esa Shimolning merosi edi, bironqa yirtqichga bundan qutulish yoki unga mensimay qarash nasib etmagan.

Alqissa, Kulrang bo'ri bolasi sababini tushunmasa ham qo'rquv nimaligini bilar edi. Ehtimol, u hayotiy qiyinchiliklardan biri sifatida unga ko'nikkandir. Hayot mashaqqatlardan iboratligiga kelsak, bunga u allaqachon ishonch hosil qilgan: u ochlik sinovidan o'tdi, qornini to'yg'azolmaganidan nafsi ozor chekdi. G'orning mustahkam devorlari, onasining tumshug'i bilan qattiq turtishlari, panjalari bilan ayamay urishlari, ochlik azobi, olamda hamma narsalar ham mumkin bo'lavermasligi, aksincha hayotda cheklashlar va man etilgan narsalar ko'pligiga ishonch uyg'otgan edi. Ana shu taqiq bilan ta'qiblar qonuniyat edi. Ularga itoat etmoq – bir tomonidan azob chekmoq, ikkinchi tomonidan hayot mashaqqatlardan xalos bo'lmoq degani edi.

Bo'ri bolasi bularning barchasi haqida insonga o'xshab mulohaza yuritmasdi. U shunchaki o'zi yashab turgan olamdagи narsalarni ikkiga – yomon va yaxshi narsalarga ajratar va alohal yomonidan – ya'ni taqiqlangan narsalardan kechishga tirishar va faqat hayot in'om etadigan siylov bilan shodlikka yukinardi.

Bo'ri bolasi onasi uqtirgan mana shu qonun va qo'rquvning qandaydir ta'siri ostida bo'lgani uchun ham g'or og'ziga yaqin yo'lamasdi. O'sha tuyruk, erkinlikka chiqish darchasi unga hamon shaffof devor bo'lib ko'rinardi. Ona bo'ri chiqib ketgan kezlar u doim uxlar, uyg'ongach esa zorlangandek g'ingshib-g'ingshib yotardi.

Kunlarning birida u shaffof devor tarafdan kelayotgan g'ayritabiyy tovushlardan uyg'onib ketdi. Bu g'or og'zida to'xtagan suvsar ekanini bilmasdi va shu sabab o'zining jasoratidan titrab-qaqshab o'sha yoqdan kelayotgan hidni iskadi. Bo'ri bolasi faqat bir narsani – tovush notanish va g'alatiligi, demak noma'lum va qo'rquinchli ekanini tushunardi. Darvoqe, majhullik va begona, noma'lumlik qo'rquvning doyasi emasmi?

Bo'ri bolasining junlari hurpaydi, ammo ovoz chiqarmadi. Bu tovushdan keyin hurpayish darkorligini u qanday sezaga qoldi? Shu choqqacha bunaqa vaziyatga tushmagan bo'lsa. Zotan, izohlab berish amrimahol bo'lgan qo'rquv shu tariqa yuzaga qalqib chiqqandi. Ammo bunga qo'rquv bilan birga yana bir g'ayrishuuriy istak – yashirinish,

dochish istagi qo'shildi. Bo'ri bolasini vahima bosdi, lekin u qilt etmay, tosh qotdi — o'likdek yotaverdi. Uyasiga qaytib kelayotgan ona bo'ri suvsar isini ilg'ab, o'kirkancha g'orga otildi va favqulodda mehribonlik bilan bolasini yalab-yulqay boshladi. Shundagina, bo'ri bolasasi katta falokatdan qutulganini tushundi.

Ammo uning vujudiga boshqa hayotbaxsh kuchlar ham o'z ta'sirini o'tkazayotgandi — u kun sayin o'sib-ulg'ayardi. Sezgi va tabiat qonunlari undan itoat etishni talab qilar, kuchga to'la boshlagan vujudi esa bo'ysunishni istamasdi. Onasiga qo'shilib qo'rquv ham shaffof devordan nariroq yurishga majbur qilardi, ammo modomiki hayot o'sish-ulg'a-yishdan va hamisha yorug'likka talpinishdan iborat ekan, uning vujudida kun sayin har bir luqma go'sht bilan gurkirab borayotgan hayotning toshqinli oqimini hech qanday kuch to'solmasdi. Alaloqibat bo'rivachchanning jisimi jonidagi o'sha hayot vahm va itoatkorlikdan ustun keldi va ajoyib kunlarning birida bo'ri bolasisi qo'rqa-pisa g'or og'ziga qarab yurdi.

Shaffof devor g'orning boshqa devorlariga sira o'xshamas, u yaqinlashgan sari tobora uzoqlashib borayotgandek bo'lardi. U sinab ko'rmoqchi bo'lib kichkina, yumshoq tumshuqchasi bilan oldinga cho'zildi, ana hozir qattiq devorga uriladi deb kutdi, yo'q, oq devor nurga o'xshab shaffof hamda yorug'likdek o'tkazuvchan ekan. Bo'ri bolasisi devor bo'lib tuyulgan narsaning ichiga kirdi va uning tarkibidagi moddaga cho'mdi.

U tushunolmay qoldi: axir qattiq bir nimaning orasidan o'tayotgandek bo'layotuvdi-yu! Yorug'lik tobora kuchayib bormoqda edi. Qo'rquv bo'ri bolasini orqaga qaytarmoqchi bo'lar, vujudida kuchayib borayotgan hayot esa ilgarilashga majbur etardi. Mana nihoyat g'orning og'zi. Ajabo o'zi ichida bo'lgan devor kutilmaganda uzoq-uzoqqa cho'zilib ketdi. O'ta kuchli yorug'lik ta'siridami poyonsiz ravishda kengayib ketgan kenglikdan boshi aylandi, ko'zi tindi. Oz-ozdan porlayotgan yorug'likka ko'zi o'rgandi-yu, buyumlar orasidagi masofani aniq ilg'ay boshladi. Avval devor shunchalik uzoqlashdiki azbaroyi ko'rinnmay qoldi. Endi mana paydo bo'ldi, zum o'tmay yana uzoqlashib ketdi va boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ldi. Devor ola-bula ko'rina boshladi. Qироqni qoplagan daraxtlar, bu daraxtlar ortida bo'y cho'zgan tog', undan ham yuqorida joylashgan osmon uning ichida edi.

Bo'ri bolasini qo'rquv bosdi. Notanish va vahimali narsalar ko'pay-gandan ko'payardi. U g'or og'zida qunishib oldi-da, ko'z o'ngida gavdalangan borliqni ko'zdan kechira boshladi. Naqadar dahshat! Barcha notanish narsalar tahlikali tuyulardi unga. Uning junlari tikraydi, so'yloq tishlarini ko'rsatib g'azab bilan vahshiyona tarzda irillashga tushdi. O'takasi yorilgan mittigina bo'ri bolasisi butun olamga qarshi bosh ko'tarmoqda edi.

Lekin hammasi yaxshilik bilan tugadi. Bo‘ri bolasi shunchalar berilib tomosha qilar ediki, azbaroyi, irillash kerakligini, hatto qo‘rquvni ham unutdi. Uning vujudida tobora kuchayib borayotgan hayot vaqtinchalik bo‘lsa-da, qo‘rquvni yenggan va ana shu qo‘rquv o‘rnini qiziqish egallagan edi. Bo‘ri bolasi ko‘z oldida gavdalangan manzarani: quyosh nurlarida yarqirab oqayotgan anhorning bir qismini, qiyalikdagi qurigan qoraqarag‘ay va to‘g‘ri g‘or og‘ziga borib taqalgan qiyalikni ro‘yirost ajrata boshladi.

Shu choqqacha kulrang bo‘ri bolasi tekis yerda yashab kelgan, hali biron marta yiqilib azobini totimagan – u hatto yiqilishning o‘zi nimaligini bilmasdi, shuning uchun bemalol, hech ikkilanmasdan oldinga, havoga qadam qo‘ydi. Orqa oyoqlari g‘orga kiraverishdagi do‘nglikka tiralib qoldi-yu, boshi bilan pastga sho‘ng‘idi. Tumshug‘i yerga urildida, qattiq og‘riqdan uvlab yubordi va o‘mbaloq oshib, qiyalikdan pastga dumalab ketdi. U vahimaga tushdi. Oxir-oqibat nomalum niyat uni o‘z iskanjasiga oldi va hukmini o‘tkazib azob berishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Vujudida kuchayib borayotgan hayot yana qo‘rquvga yon bosdi va bo‘ri bolasi chiyillashga tushdi.

U besababdan besabab xavf-xatar kutmoqda edi, u hech narsani bilmas, shuning uchun tinmay zorlanardi, uv solardi. Yuragini hovuchlab yotgandan ko‘ra hozirgi ahvoli battaroq yomon edi. A’zoyi badani shu qo‘rquv izmida edi hozir. Qolaversa, uni qo‘rquv emas, vahima azoblamoqda edi.

Biroq qiyalik nishabi tobora rostlanib borar, etagi maysazor edi. Uning tepalikdan sirg‘alib tushishi hartugul sekinlashdi. Nihoyat bo‘ri bolasi to‘xtadi va g‘ingshidi, so‘ng cho‘zib-cho‘zib, zorlanib uvillashga tushdi, keyin hech narsa bo‘limgandek g‘ayriixtiyoriy ravishda biqinlariga yopishgan xas-xashakni yalab-yulqab tozalay boshladi.

Tozalab bo‘lgach cho‘k tushib o‘tirdi-da, atrofga ko‘z yogurtirdi – boshqa sayyoraga kelib tushgan birinchi inson shunday qilgan bo‘lardi. Bo‘ri bolasi dunyo devori orasidan o‘ta oldi, nomalumiyat uni iskanjasidan bo‘shtadi va u ziyon-zahmat chekmadi. Biroq, o‘zga sayyoraga borib qolgan odamzod Yer yuzidagi bo‘ri bolasidan ko‘ra mo‘jizalarни kamroq uchratar va kamroq hayratlangan bo‘lardi. Zarracha tushunchasiz, tayyorgarliksiz, mutlaqo notanish olamga kelib qolgan bo‘ri bolasi nimayam qilsin?!

Bo‘ri bolasi mudhish nomalumlik iskanjasidan xalos bo‘lgach, hammasini unutdi – qo‘rquvni ham, hozirgina chekkan azobini ham. U o‘zini qurshab turgan tabiatga mahliyo bo‘lardi xolos. U oyoqlari ostidagi maysalarini sinchiklab ko‘zdan kechirdi, xiyol naridagi qarag‘ay butasi, o‘tloq chetidagi qurigan qoraqarag‘ay, uni o‘rab olgan daraxtlar. Nogoh o‘sha qoraqarag‘ay ortidan bir olmaxon yugurib chiqdi-yu, bo‘ri

bolasining o'takasini yoray dedi. U yerga yota irillab yubordi, Olmaxon battar qo'rqib ketdi-da, jonholatda daraxtga tirmashib ko'z ochib yumguncha xavf-xatardan xoli shoxiga chiqib oldi va po'pisa qilgandek o'tkir ovozda chiyilladi.

Shu voqeidan keyin, bo'ri bolasining o'ziga bo'lgan ishonchi ortdi. Sal keyinroq so'fito'rg'ay uni xiylagina cho'chitib yuborgan bo'lsa ham hech narsadan xavotir qilmay yo'lida davom etdi. U shu darajada o'zini erkin va xotirjam tuta boshladiki, al!aqanday parranda uning shundoq-qina yoniga kelib qo'nishga jur'at qilgandi, u o'yinqaroqlik bilan old panjasini unga uzatdi. Bunga javoban haligi qush tumshug'ini cho'qib olsa bo'ladi?! Og'riqqa chidayolmay bo'ri bolasi yerga yotib olib rosa angilladi, uning tovushidan qo'rqib ketgan parranda pirr etib havoga ko'tarildi.

Bo'ri bolasi yuz berayotgan voqealardan saboq olardi. Uning ojizgina tushunchasida muhim o'zgarishlar ro'y berayotgan, g'ayriixtiyoriy ravishda bo'lsa ham tegishli xulosalar paydo bo'layotgandi. Buyumlar ikki xil bo'lar ekan: jonli va jonsiz, jonli narsadan ehtiyot bo'lishi lozim. Jonsizlar qimirlamay bir joyda turaveradi, jonlilari harakatda bo'ladi, ular nima hunar ko'rsatadi, oldindan bilish amrimahol. Ulardan har balo kutish mumkin, shuning uchun doim tayyor turish darkor.

Bo'ri bolasi al pang-tal pang qilib borar, dam-badam biron narsaga qoqilar edi. Hali uzoqda deb o'ylagan shoxlar tumshug'ini timdalar yoki biqinlariga urilar edi, yo'l note kis edi. U qoqilib yiqilar, tumshug'i lat yer, panjalari qayrilib ketardi. Yurganda oyog'i ostidagi mayda toshchalar panjasiga botar, og'ritardi. Ba'zi jonsiz narsalar qimir etmay turgani bilan azob berishi mumkinligini anglab yetdi. Hamma jonsiz narsalarni, o'zi yashagan g'orga o'xshab ozor yetkazmaydi, deb bo'lmas ekan. Kichkina, mayda narsalar kattalariga qaraganda ko'proq to'kilar, yiqilar, o'girilar ekan. Har bitta xatosi unga mакtab vazifasini o'tardi. Yurgan sari dadilroq qadam tashlardi. U sharoitga moslashardi. Tabiatidagi xususiyatlarning ichida eng kuchlisi o'zlashtirish, o'rganish va o'sha zahoti tajriba sifatida foydalana olish – bir so'z bilan aytganda uqish, bilish kuchlirog'i edi. Mana shu narsa unga juda-juda qo'l kelar, istiqbolda ham shu xususiyati tufayli ko'p og'ir sinovlarga dosh berish tugul ulardan osonlik bilan o'tar edi.

Tajribasizlarga omad kulib boqadi doim. Ovchi bo'lib tug'ilgan (holbuki, buni o'zi ham bilmasdi) bo'ri bolasi yorug' olamga chiqqan birinchi kuni g'or atrofidayoq o'ljaga duch keldi. U nojo'ya, qo'pol harakati tufayli noxosdan kaklik uyasiga tushib ketdi: ochig'ini aytganda uning uyasiga yiqildi. U ag'darilib yotgan qoraqarag'ay tanasidan yurib o'tmoqchi bo'ldi, chirigan po'stlog'i mo'rt bo'lmaydimi, bo'ri bolasining

oyog'i ostida sinib tushdi-yu, u toyib ketib yiqildi. Jon holatda angillab shox-shabbalar va yaproqlar oralab ag'anadi-yu, to'ppa- to'g'ri yettita kaklik jo'jalari garangsib turgan uyaga tushdi.

Kaklik jo'jalari chirqillab yuborishdi, bo'ri bolasi dabdurustdan qo'rqib ketdi, zum o'tmay, ularning juda kichkina ekanligini ko'rib, yengil tortdi. Jo'jalar g'imirlay boshlashdi. Bo'ri bolasi bittasini panjasib bilan bosib ezgan edi, jo'jacha pitirlashga tushdi. Bo'ri bolasi quvonib ketdi, jo'jani hidladi, so'ng oxista tishladi. Kaklik jo'jasidagi tipir-qilib uning tilini qitiqladi. Qorni och bo'ri bolasining ishtahasi ochildi. G'archcha tishlagan edi, jo'janing mo'rt so'ngaklari qirsilladi va bo'ri bolasi qaynoq qon ta'mini sezdi. Qon judayam xushxo'r ekan. Zero hozir uning og'zida shu paytga qadar onasi doim ilinadigan o'lja go'shti bor edi, og'zidagi et o'sha-o'sha, biringa farqi et yanayam totli va xushxo'r edi, chunki bu o'lja hali tirik, qon esa issiq edi. Bo'ri bolasi kaklik jo'jasini pok-pokiza tushirdi va to oxirgi jo'jani ham tinchit-maguncha jag'i tinmadi. Oxiri xuddi onasiga o'xshab lablarini yaladida, shox-shabbalar orasidan chiqqa boshladidi.

Uni baloi azim kutib turgan ekan. Kutilmagan o'sha baloi azim unga tashlandi-yu, qanotlar zarbidan bo'ri bolasi ko'zini ocholmay, o'zini yo'qotib qo'ydi. U oldingi panjalariga tumshug'ini suqib, chiyillab yubordi. Qanotlar zarbi to'xtay demasdi. Ona kaklik o'zini to'xtata olmasdi. Bo'ri bolasining ham g'azabi qaynab toshdi. U qattiq irillab, sapchib turdi-da, panjalari bilan qarshilik ko'rsata boshladidi, so'ng mayda bo'lsa ham o'tkir tishlari bilan kaklikni bir qanotini tishlab oldi va kuchi yetgancha u yoqdan-bu yoqqa tortqilay boshladidi. Endi kaklik ikkinchi qanoti bilan part-purt urib, qutulib ketish payiga tushdi. Bo'ri bolasi umrida birinchi marta yakkama-yakka urishayotgandi. U g'alaba lazzatidan mag'rur edi. Boyagi qo'rquvdan asar ham qolmagan, ko'ziga hech narsa ko'rmasdi. U qarshilik qilayotgan tirik mavjudotni tishlar va unga ayovsiz zorbalar berardi. Bundan tashqari o'sha tirik mavjudot go'shtdan iborat. Bo'ri bolasi qonsiray boshladidi. Hozirgina yetti nafar mitti jo'jalarni tinchitdi. Endi ularning onasi bilan olishardi. U jon-jahdi bilan urishar, o'ta baxtiyor-u, lekin jang lazzati baxsh etayotgan baxtiyorlikni o'zi sezmasdi.

Uning tomirida bamisli qon emas, olov oqardi hozir, ana shu olov butun vujudini qamrab olgan, qandaydir notanish bir huzur, vahshiyona xohish-istiklak iskanjasidan chiqib ketolmasdi.

U kaklik qanotlarini mahkam tishlab olgancha irilli. Ona kaklik uni shoxlar orasidan sudrab chiqdi, yalanglikka chiqqanda bo'ri bolasi uni yerga bosib oldi. Parranda jon achchig'ida tipirchilar va sog' qanoti bilan tarsillatib urar, patlari qor parchalari kabi havoda uchar edi. Bo'ri bolasi g'azabdan hamma narsani unutgan, tomirida ajdodlarining

vahshiyona qoni jo'sh ura boshlagan edi. Shu soniyalarda o'zi sezmagan holda bo'ri bolasi huzurbaxsh onlar og'ushida yashamoqda edi. U zimmasiga yuklangan vazifasini ado etar, nima uchun tug'ilgan bo'lsa o'shani bajalar — o'ljasini yengishi va o'ldirmoq uchun olishardi. U tabiat ato etgan oliv vazifani amalga oshirar va shu tariqa o'zining mavjudligini oqlar edi. Bu eng ulug' ne'matga shukronalikdir aslida, shak-shubhasiz yaratilishdan ko'zda tutilgan maqsadni ro'yobga chiqarish butun kuch-quvvat, mayl-ixtiyor, intilish va sezgilarning tantanasi edi.

Nihoyat kaklik qarshilik qilmay qo'ydi. Bo'ri bolasi hamon uning qanotidan tishlab turardi. Ular ikkovi bir-biridan ko'z uzmay yerda yotishardi. Bo'ri bolasi qo'rqiitmoqchi bo'libmi g'azab bilan o'kirdi. Kaklik to'satdan qaychidek o'tkir tumshug'i bilan uning shundoq ham og'riyotgan tumshug'idan cho'qib oldi. Bo'ri bolasi sapchib tushdi, lekin qanotni qo'yib yubormadi. Kaklik ketma-ket yana ikki marta cho'qidi. Bo'ri bolasi chinqirib yubordi va qanot bilan birga kaklikni ham o'zi bilan tortib kelayotGANini tushunmay ortiga chekina boshladи. Jafokash tumshug'iga ayamay tushayotgan zarbalarga chidayolmay bo'ri bolasi dunyoni boshiga ko'targudek angillashga tushdi. Uning jo'shqin jangovor hovuridan asar qolmadi. O'ljasini tashlab, sharmandalarcha yalanglikning narigi tarafiga qochdi, borib harsillagan ko'yi tilini osiltirib buta ostiga yotdi-yu, zorlanib uvillay boshladи. Birdan, hech kutmaganda noma'lum narsa uning boshi uzra charx urib yana bir baloni boshlayotganini sezdi. Bo'ri bolasi ustiga yana bir mash'um balo yopirildi. U arang o'zini chetga olishga va buta ostiga yashirinishga ulgurdi. Yelpig'ichday yoyilgan bahaybat qanotlar uning shundoq ustidan yelib o'tdi, yuqoridan bo'ri bolasi ustiga tashlangan lochinning hamlasi zoye ketgandi.

Bo'ri bolasi buta tagida yotgan ko'yi endi o'ziga kelib, atrofga qo'rqa-pisa alanglayotganda sayhonlikning narigi tomonidan yakson qilingan uyasidan part-purt qilib kaklik uchib chiqdi, jo'jalaridan judo bo'lgan kaklik alamidan lochin degan baloi azimdan ehtiyoт bo'lish lozimligini unutgandi. Bo'ri bolasi hammasini ko'rib turardi, aloha ko'rganlari unga bir saboq vazifasini o'tardi. Lochin maysalarga ulkan qanotlari tekkudek darajada pastga tushib keldi, o'tkir tirnoqlarini kaklikning badaniga botirdi. Kaklik jon achchig'ida chirqillab yubordi, lochin esa o'ljasini changalidan qo'ymay, yuqorilab ketdi.

Bo'ri bolasi ancha paytgacha hech qayerga chiqmay yashirinib olgan yerida yotaverdi. U ko'p narsani tushunib yetdi. Tirik mavjudot borki — go'sht, maza qilib yeish mumkin. Shundaylikka-shunday, lekin yirik mavjudot ta'ziringni berishi mumkin. Kichkina, kaklik jo'jalariga o'xshaganlarini yesa bo'ladi, yiriklaridan — ona kaklikka o'xshaganlaridan esa

saqlangan ma'qul. Nima bo'lgan taqdirda ham uning g'ururi ozor chekkandi, birdan uning ona kaklik bilan yana olishgisi keldi, afsus, lochin uni olib ketdi. Balki boshqa kaklik uchrab qolar?! Izlab ko'rish kerak.

Bo'ri bolasi qiyalama qirg'oqdan daryo bo'yiga tushdi. Shu choqqacha u oqar suvni ko'rмаган edi. Bir qaraganda suv bexavotir tekis ko'rindi. U tap tortmay olg'a qadam tashladi-yu, o'takasi yorilib, anhor tubiga cho'ka boshladi. Yana noma'lum narsaning changaliga tushgandi u. Suv o'ta muzdek bo'lganidanmi nafasi tiqildi. Odatdagidek uning o'pkasi havo bilan emas, suv bilan to'la boshladi.

U hozir ajal sirtmog'ida baayni bandidan uzilay deyayotgan bir yaproqqa o'xshardi. U hali o'lim nimaligini bilmasdi. Biroq, Shimol o'ikalarida istiqomat qiluvchi barcha jonivorlar kabi undan qo'rqardi. O'lim uning uchun dunyodagi eng kuchli og'riq ifodasi edi. U o'sha noma'lumlikning negizi, samarasи, qolaversa mohiyati edi. Garchand, hech qachon to'laligicha tasavvur qilmasa ham haddan tashqari qo'rqrar va tuzatib bo'lmaydigan, yengish amrimahol eng oxirgi balo-yu-qazo ekanini ich-ichidan sezardi.

Bo'ri bolasi suv sathiga ko'tarildi-yu, apil-tapil og'zini karrakday ochib havo yutdi. Uning hozirgi ahvolidagi yutoqishini chuqur-chuqur nafas oldi, deb bo'lmasisdi. Lekin, ajabo, bu safar anhor tubiga toshdek cho'kmadi, bir soniya o'tdi, ikki soniya o'tdi, bo'ri bolasi bir-ikki silkindida, xuddi g'oyibdan birov o'rgatayotgandek. odatdagি bir ishni bajarayotgandek, to'rtala oyog'ini baravariga o'ynatib, suza ketdi. Yaqin-roqdagi qirg'oq qolib u bor-yo'g'i bir metr chamasи narida edi — xiyla olis bo'lgan narigi qirg'oq sari talpindi. Anhor o'zani kambar edi-yu, lekin xuddi shu yerda keng yoyilib oqardi.

Anhor o'rtalariga borganda suv bo'ri bolasini quyiga — ostonatoshlar tomonga oqizib ketdi. Bu yog'iga o'zan yana torayar, ensizlashganidan oqim tezlashib, suzishni qiyinlashtirardi. Bo'ri bolasi dam suv sathiga chiqar, dam boshi — ko'zi bilan suv ostiga kirib ketar edi. Tezob suv oqimi bo'ri bolasini u yoqdan-bu yoqqa uloqtirar, goh yonboshiga, goh chalqanchasiga ag'darar, toshlarga olib borib urardi.

Ostonatoshlardan o'tgach, anhor o'zani yana kengayardi, bo'ri bolasi girdobga tushib qoldi-yu, suv aylanib-aylanib uni sohilga eltib, sayoz yerga ohista qo'ndirdi. U tirishib-tirmashib suvdan chiqib oldi-da yotdi. Uning borliq bilan tanishuvi davom etardi. Suv jonsiz bo'lsa ham harakat qilayapti. Undan tashqari bir qaraganda u qattiq, yerga o'xshaydi, aslida esa hech qachon bunaqa bo'Imagan. Bo'ri bolasi narsalar ko'rinishidan chalg'itishi mumkin ekanligini tushundi. Ajdodlarining o'zlarini qurshab turgan olamdan shubhalanishlari noma'lum narsalardan qo'rqish hissi sifatida unga meros bo'lib o'tganligi muqarrar ediki, ana shu narsa

voqelik bilan yuzma-yuz bo‘lgan chog‘ida kuchaygandan kuchaymoqda edi. Bundan buyon to abad narsalar va hodisalarning tashqi ko‘rinishiga u hech qachon ishonmaydi, uning hikmat to‘la sabog‘i shu! Ularga ishonishdan oldin aslida ular qanday, ana shuni bilib, shunga ishonch hosil qilmog‘i shart!

Shu kuni bo‘ri bolasi yana bir g‘aroyib voqeaga duch keldi. U onasi borligini, bu yorug‘ olamda undan yaqinroq, undan zarurroq narsa yo‘qligini eslab qoldi. Yuz bergan voqe va hodisalar oqibatida u faqat-gina jisman emas, aqlan ham charchagan edi. Shu choqqacha u, bugungichalik qiyalmagan, holsizlanmagan edi. Buning ustiga uning uyqusi kelgandi. Aloha u o‘zini yolg‘iz va nihoyatda ojiz va majolsiz sezgancha onasi bilan makoni — g‘orni izlab yo‘lga tushdi.

Butalar aro o‘tib borarkan, daf‘atan vahshiyona chinqirgan tovush eshitildi. Bo‘ri bolasining ko‘z oldidan allaqanday sarg‘ish ko‘lanka lip etib o‘tgandek bo‘ldi. U butazor sari o‘qdek uchib kelayotgan lochinni ko‘rib qoldi. Keyin oyoqlari ostida g‘imirlayotgan mittigina mavjudotni payqadi, bu xuddi o‘zi, bo‘ri bolasi singari uyasidan qochib, o‘z holicha sayr qilib yurgan latchaning bolasi edi. Mittigina latcha bolasi lip etib maysalar orasiga kirib ketmoqchi bo‘luvdi, bo‘ri bolasi tumshug‘i bilan bir turtib uni chalqancha yotqizib qo‘ydi. Latcha bolasi chiyillab yubordi — uning ovozi o‘ta chiyildoq edi. Xuddi shu daqiqada bo‘ri bolasining ko‘z oldidan sariq ko‘lanka lip etib o‘tdi. U chirqiragan ovozni eshitdiyu, allanima boshiga qattiq urildi va ona latchaning o‘tkir tishlari bo‘g‘-ziga g‘ippa yopishdi.

Bo‘ri bolasi ingillab, uvillab orqaga chekinayotgandi, latcha yugurib borib bolasini oldi-da, butalar orasiga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Latcha tishlagan yerlari hamon og‘rir, lekin u ko‘proq alamiga chidayolmas edi. Ona latcha kichkina bo‘lsa ham tishlagan yerini uzib olardi. Bo‘ri bolasi hali latcha Shimol o‘lkasida yashovchi yirtqich hayvonlarning eng dahshatlisi ekanini bilmasdi, chindanam qonxo‘rikda, vahshiylik hamda qasoskorlikda unga teng keladigan yo‘q edi. Qisqasi sal o‘tmay, bunga o‘zi ishonch hosil qildi.

Latcha butalar orasidan qaytib chiqqanida bo‘ri bolasi haliyam diydiyo qilayotgandi. Latcha Yugura kelib unga tashlanmadni, chunki endi bolasidan ko‘ngli to‘q. U sekin-sekin, ehtiyoj bo‘lib yaqinlasharkan, bo‘ri bolasi uning ingichka egiluvchan pishiqliq gavdasi hamda ilonnikiga o‘xhash baland ko‘tarilgan boshchasini aniq-taniq ko‘rdi. Latcha vahshiyona tarzda bir chiyillagandi, bunga javoban bo‘ri bolasining junlari hurpaydi va u ham tahdidona irilladi. Latcha tobora yaqinlashardi. Hammasi ko‘z ochib yumguncha yuz berdi. Bo‘ri bolasi o‘ta xom, tajribasiz ekani uchun sezmay qoldi. Sarg‘ish ko‘lanka bir soniya ko‘z oldidan g‘oyib bo‘ldi-yu, o‘sha zahoti Latcha uning tomog‘idan oldi.

Bo'ri bolasi o'kirar, tipirchilar, lekin qutulib chiqib ketolmasdi, chunki u yosh, hali tajribasiz, buning ustiga yorug' dunyoga ilk bor chiqishi edi. Undan nima kutish mumkin. Mana oqibati, u ingillashga tushdi va olishishi uchun emas, qochish uchun Latchaning o'tkir tishlaridan qutulishga kuchanardi. Biroq latcha qo'yib yubormasdi. Aksincha, jontomiri – ko'k tomiriga qarab talpinardi. Latcha qonxo'r jonivor ekanidan to'g'ridan-to'g'ri tomirlarda oqayotgan qonni so'rishni afzal ko'rardi.

Kulrang bo'ri bolasi halokat yoqasida edi, agar butalar orasidan ona bo'ri otlib chiqmaganda, u haqdagi qissamiz ham intihosiga yetmay qolardi. Latcha bo'ri bolasini qo'yib o'zini Ona bo'riga otdi, lekin mo'ljalidan adashdi, bo'g'zi qolib to'g'ri vahshiyona ochilgan jag'iga ro'para bo'ldi. Ona bo'ri boshini bir siltadi, latcha avvalo tumshug'i bilan bo'rining jag'iga uralgan chog'ida tishlari duv to'kildi va bu hali holva, ikkinchi siltovdan keyin ho'l lattadek havoga uchdi. Eng yomoni yerga tushayotib havoning o'zida ona bo'ri uni tutib oldi-da g'archcha tishladi. Shu tariqa Latcha o'lim topdi.

Bo'ri bolasi onasining mehr-shafqatini shu darajada shukrona bilan tuydiki, azbaroyi o'zini qo'ygani joy topolmasdi. Ona bo'ri bolasidan ko'ra ko'proq baxtiyor edi. U erkatoyni tumshug'i bilan turtib, yerga dumalatdi va yara-chaqasini yalab-yulqashga tushdi. So'ng ona-bola qonxo'r latchani yeb qorin to'ydirishdi va g'orga borib yotib uxlab qolishdi.

## Beshinchi bob

### O'LJA QONUNI

Bo'ri bolasi misli ko'rilmagan ravishda tez unib-o'smoqda edi. U ikki kun dam olgach, yana sayr qilgani otlandi. Bu safargi chiqishida u o'zi sabab bo'lib tinchitilgan ona latchaning bolasiga duch kelib qoldi. Boyaqish u ham onasining ortidan joyi rostona bo'ldi. Bu safar bo'ri bolasi adashmay g'orni topib keldi va yotib uxladı. Ana shundan keyin u har kuni sayr qilgani chiqadigan va har safar g'ordan iloji boricha uzoqroqqa ketadigan bo'ldi.

U o'z imkoniyatlarini, kuch-quvvati va ojiz tomonlarini, qachon qo'rqmasdan tavakkal qilish, qachon ehtiyyot bo'lishi shart ekanini aniq belgilab olishga odatlandi. Kamdan-kam hollarda yuz beradigan vaziyatlarni aytmasa, har doim ehtiyyot bo'lish darkorligini u tushunib yetgandi.

Kaklik zotini uchratib qolsa, bo'ri bolasi vahshiyashib ketardi. Bir safar olmaxonning qurigan qoraqarag'ay tepasidan turib taraqa-turuq qilishiga, xuddi shunday adovat bilan irillab javob qaytargani ham bejiz emas. Tumshug'ini cho'qigan parrandaga o'xshagan qush-pushni ko'rib qolsami, bas, g'azabdan o'zini qo'ygani joy topolmasdi.

Ba'zan bo'ri bolasi hatto mayda parrandalarga e'tibor bermasdi – aksar hollarda o'ziga o'xshab o'lja ilinjida ovga chiqqan boshqa yirtqich hayvonlar hujum qilib qolish xavfi tug'ilgan vaziyatda shunday bo'lardi. Bo'ri bolasi lochinni esdan chiqarmagandi, uning soyasi ko'rindi deguncha chakalakzor ichiga kirib yashirinardi. Endi u yugurganda alfang-talfang qilmas, onasiga o'xshab yengil, shovqinsiz ildam yurar, uning qanchalar tez yurishini ilg'ash oson emasdi.

Ov qilish xususiga kelsak, birinchi kundayoq uning uchun kulib boqqan omad eshiklari yopilgandi. Yettita kaklik jo'jasu-yu, kichkinagina Latcha – mana shu bor-yo'q ovlaganlari. Biroq ov qilish istagi kun sayin kuchayib borardi, u o'zining kelayotganidan butun o'rmonga jar soladigan olmaxonni tutib yeish ishtyoqi bilan yashardi. Lekin qushlar havoda qanchalik yengil parvoz qilsalar, olmaxon daraxtda shoxdan-shoxga shunchalar yengil va oson sakrab yurardi, bo'ri bolasi sabr qilib uning yerga tushishini kutishdan o'zga iloji yo'q edi.

Bo'ri bolasi onasini behad yaxshi ko'rardi. U qayerdan, qanaqa qilib bo'lmasin yegulik topmay qo'ymas va bir qismini bolasiga albatta keltirib berardi. Bu hali holva – u hech narsadan qo'rmasdi. Mana shu tap tortmaslik, dilovarlik orttirilgan tajriba va hayotiy saboq samarasini ekani bo'ri bolasiga noma'lum edi. U qo'rmaslik kuch-qudratdan hosil bo'ladi deb hisoblardi. Onasi kuch-qudrat ifodasi edi go'yo; shu kuchni ulg'aygan sari, onasining tumshug'i bilan turtishi hamda panjasini bilan bergen zarbalarida aniq-ravshan sezib borardi, negaki ilgarigi bilan hozirgi jazolash o'rtasida farq juda katta ekanini u sezardi. Buyam onasiga bo'lgan ishonchni barqarorlashtirardi. Ona bo'ri bolasidan itoat etishni talab qilar, ulg'aygan sari unga bo'lgan munosabati keskinlashib, qat'iyashib borardi.

Yana ocharchilik boshlandi, bu safar bo'ri bolasi ochlik azobi nima ekanligini aniq bildi. Ona bo'ri yegulik izlab adoyi tamom bo'ldi. Kun-uzzukun o'lja ilinjida besamar kezar ekan, g'orga kamdan-kam uxlagani kirardi. Bu safar ochlik qisqa, lekin holdan toydiradigan darajada davom etdi. Bo'ri bolasi ona sutiga to'yish nimaligi u yodqa tursin, uning qanaqa ekanini unutdi, go'shtni gapirmasa ham bo'ladi.

Shu choqqacha u ermakka, ov baxsh etadigan huzur uchun chiqardi, endi esa chin ma'nosi bilan yegulik topish uchun boradigan bo'ldi, lekin, afsus omad kulib boqmasdi. Biroq, ming qilmasin, mana shu omadsizlik bo'ri bolasining har taraflama unib-o'sishiga sabab bo'lardi. U olmaxonning odatini yanayam diqqat bilan o'rgandi va mabodo yerga tushgudek bo'lsa pusib, sezdirmay borish yo'llarini o'rganishga zo'r berdi. Bu kunga kelib o'tloqda lochin soyasi ko'rinsa butazorga yashirinmaydigan zamonlar kelgandi. Uning kuchiga kuch qo'shilgan, hayotiy tajribasi ortgan, o'ziga bo'lgan ishonchi oshgan edi. Undan

tashqari ochlik uni qahrli qilib qo‘ygan edi. Endi u sayhonlik o‘rtasiga, hamma yerdan oshkor ko‘rinadigan yerga borib turar, lochin hamlasini soatlab kutar edi. Tepada, ko‘m-ko‘k osmon hovuri ichra o‘lja — nafsi haddan ziyod talab qilayotgan yegulik uchib yurardi. Biroq lochin olishishni mutlaqo istamasdi, pirovardida bo‘ri bolasi ochlik alamiga chidayolmay zorlangancha uvillar edi.

Ocharchilik tugadi. Ona bo‘ri g‘orga go‘sht keltirdi. U ilgari bunaqa go‘sht keltirmagandi sira: qandaydir g‘alati, mazasi ham boshqacha. Bu sirtlon bolasining go‘shti edi. Keltirilgan go‘shtning hammasi bo‘ri bolasiga tegishli edi. Onasi nafnsini qondirganchalik yeb olgandi, buning uchun sirtlon bolasining ichak-chavag‘ini yeganligini u xayoliga ham keltiroldi. Shu yegulikni yeb onasi qanchalik xatarli yerga borib kelganligiga qiziqib ham o‘tirmadi. Bo‘ri bolasi faqat bitta narsani, baxmaldek yumshoq terili silovsin bolasi go‘sht — yegulikdir, uni yeyish kerak tamom-vassalom, mana shuni yaxshi bilardi.

Ochga tegma, to‘jni qo‘zg‘atma, deganlaridek, bo‘ri bolasi qorni to‘ygach g‘orda onasi yoniga kelib yotdi va uxbab qoldi. Bir vaqt onasining tovushidan uyg‘onib ketdi. Shu choqqacha u bunaqa dahshatli o‘kirikni eshitmagandi. Bunga arzigulik sabab bor edi, bu sababni ona bo‘ridan yaxshiroq hech kim bilmasdi. Zero, silovsin bolasini shundaylikcha yeb ketish yoki uni o‘ldirib jazosiz qolish mumkin emas.

Choshgoh quyoshining porloq nurlari ostida g‘or og‘zida yerga qapishib yotgan urg‘ochi silovsinga ko‘zi tushgan bo‘ri bolasining junlari o‘z-o‘zidan hurpaydi. U qarshisida turgan yirtqich balo-yu azimning o‘zgiasi ekanini ich-ichidan his qildi. Hech qanaqa izohning hojati yo‘q edi. Silovsin tashqi qiyofasidan u qadar vahimali bo‘lmasa-da, birdan gulduros o‘kirikka aylanayotgan irillashi zamiridagi g‘azab har qanday tirik jonni sarosimaga solib qo‘yardi.

Bo‘ri bolasi ancha yetilib qolgani uchunmi vujudida qaynab-toshayotgan g‘ayrat-shijoat izmida vahimaga tushmadni, balki unga javoban g‘azab bilan irilladi-da, dadil borib onasining yoniga turib oldi. Lekin onasi uni yo‘latmadni. Nari tur degandek, tumshug‘i bilan turtib haydadi. G‘orning ensiz og‘zi silovsinning sapchishiga xalal berardi, shuning uchun u g‘orga sirg‘alib kira boshladni, biroq urg‘ochi bo‘ri o‘qdek uchib borib uni yerga bosib oldi. Bo‘ri bolasi jangda nimalar bo‘layotganini ajratolmasdi. U o‘kirgan, pishqirgan va qattiq irillagan tovushlarni eshitardi, xolos. Ikkala yirtqich yerda dumalab yotardi. Silovsin raqibini tish-tirnog‘i bilan tilka-tilka qilmoqchi bo‘lsa, urg‘ochi bo‘ri faqat tishlarini ishga solardi.

Bo‘ri bolasi tahdidona irillab o‘zini silovsinga otdi-da, orqa oyog‘idan g‘archcha tishlab oldi. O‘zi sezmagan holda og‘irligi bilan silovsinni bemalol harakat qilishiga xalal berar va onasiga yengillik tug‘dirardi.

Jang o'zgacha tus oldi: bo'ri bolasi olishayotganlar ostida qoldi-yu uning silovsin oyog'ini qo'yib yuborishdan boshqa iloji qolmadi. Shu asno ikkala yirtqich bir-birini qo'yib yubordi, silovsin urg'ochi bo'tiga xippa yopishishdan bir soniya oldin zalvorli panjasni bilan bir urib bo'ri bolasining abjag'ini chiqardi. Endi olishayotganlarning na'rasiga shikoyatomuz zorlanish qo'shildi. Lekin jang shunchalar uzoq davom etdiki, bo'ri bolasi bu vaqt ichida diydiyo ham qilib olishga, ham o'ziga kelib olishga ulgurdi. Jang nihoyasida u yana silovsinning orqa oyog'idan tishlab oldi.

Silovsin yengildi. Uning ko'zlarida hayot shami so'ndi. Biroq urg'ochi bo'rining ham sillasi quridi. U bolasiga dalda berish va erkalash uchun silovsin tilka-tilka qilgan gardanini yalab-yulqamoqchi bo'ldi-yu, ko'p qon yo'qtgani tufayli holsiz-bemajol edi, kuchi yetmadi, aloha bir kecha-yu bir kunduz qimir etmay o'lgan dushmanning jasadi oldida yotdi. Oradan bir hafta o'tgach tashnaligini qondirish uchun g'ordan chiqqanda urg'ochi bo'ri oyog'ini arang bosar, chunki har bitta harakat-dan joni og'rirdi. Aloha silovsinni yeb bitirishgach uning jarohatlari bitib, yana ov qilishga chiqqa boshladи.

Bo'ri bolasining yelkasi hamon og'rirdi va u ancha paytgacha oqsoqlanib yurdi. Shu vaqt ichida hayot haqidagi tushunchalari o'zgardi. U endi mag'rur yurar, o'ziga bo'lgan ishonchi xiyla oshgandi. Silovsin bilan bo'lgan omonsiz jangga qadar bunday tuyg'ular unga noma'lum edi. U hayot o'ta shafqatsiz ekanligiga ishonch hosil qildi. Og'ir jangda ishtirok etdi, dushmanning badaniga tishlarini botirib omon qoldi. Mana shular unga kuch bag'ishlar, dadillik baxsh etar, tabiatida xatto ilgari sezilmagan jo'shqinlik paydo bo'lgandi. U huda-behuda hadiksiramaydigan, kichkina yirtqich hayvonlardan esa mutlaqo qo'rqlaydigan bo'ldi, biroq sir-asror hamda vahimaga boy noma'lumlik hamon uni band qilib olgan va hamon qiynar, ezar edi.

Bo'ri bolasi onasi bilan ovga birga boradigan bo'ldi. Uning o'ljasini qay yo'l bilan tutishi, o'ldirishini bir necha bor o'z ko'zi bilan ko'rdi, o'ziyam ishtirok etdi. U ov qonunlari nimadan iborat ekanini g'ira-shira tushunib borardi. Hayotda ikki toifa bor – o'ziga o'xshaganlar va begonalar. Birinchisiga onasi bilan o'zi mansub, ikkinchisiga – qimirlash qobiliyati bor tirik jon mansub. O'z navbatida ular ham beistisno emas. Ularning orasida vahshiy bo'Imaganlari ham bor hamda o'z qondoshlari o'ldirib etini yeydigan mayda yirtqich hayvonlar mavjud, keyin uning qondoshlarini o'ldirib yeydigan yoki o'zlari ularga o'lja bo'ladigan dushman toifa bor. Mana shu asosda qonuniyat yuzaga kelgan. Hayotning mohiyati – ov! Hayotdan maqsad ham – ov! Hayot hayot bilan ozuqalanadi. Dunyoda tirik jon borki yeydigan va yo yeiyiladigan bo'ladi. Mana shu qonun aytadiki, ol ye, aks holda o'zingni yeishadi. Bo'ri

bolasi bu qonunni aniq-ravshan ajratib berolmas va undan xulosa chiqarib olishga urinmasdi ham. U hatto qonun haqida o'ylamasdi, uning izmi-ixtiyoriga itoat etgan holda yashayverardi.

Ushbu qonun ijrosini bo'ri bolasi hamma yerda ko'rardi. U kaklik jo'jalarini yedi. Lochin ularning onasini yedi va uni ham yemoqchi bo'ldi. Keyinchalik bo'ri bolasi ulg'aygach lochinni tutib yemoqchi bo'ldi. U kichkina silovsin bolasini yedi. Ona silovsin bo'ri bolasini paqqos tushirgan bo'lardi, madomiki o'zini o'ldirib yeishmaganda. Hammasi shu tahlit davom etadi.

Bo'ri bolasining atrofida yashayotgan tirik jon borki shu qonun asosida umr kechiradi. Holbuki uyam shu hayotning kichkina bir qismi. U vahshiy. U faqat va faqat o'zidan qochgan, parr etib uchib ketgan, daraxtlarga tirmashib chiqqan, yer ostiga kirib yashirina olgan yoki u bilan jangga kirgan, gohida g'olib kelgan nimaiki mavjud, o'shaning go'shtini yer, qonini ichar – shu bilan tirikligini saqlar edi.

Maboda bo'ri bolasi odamzodga o'xshab fikrlay olganda edi, u ehtimol, hayot bu hech qachon to'ymaydigan nafshi qondirishga intilishdan, dunyo esa, nafshi qondirish ishtiyoyqida bir-birlarini ta'qib etayotgan, bir-birini tutib olib yeish uchun urushayotganlardan iborat, muttasil qon to'kilayotgan, zulm, kutilmagan tasodiflar hamda ibtidosi ham, intihosi ham yo'q tartibsizlik hukm surayotgan sahnadan boshqa narsa emas, degan xulosaga kelar edi.

Biroq bo'ri bolasi fikrlay olmas hamda odam singari umumlashtirish qobiliyatidan mahrum edi. O'z oldiga biron-bir maqsadni qo'ydimi bas, yolg'iz shu haqda o'ylar va yolg'iz shunga erishish payida bo'lardi. Ov qilish – o'lja qonunidan tashqari bo'ri bolasining hayotida yana ko'plab unchalik ahamiyati yo'q, lekin o'rganish zarur va o'rgangach itoat etish shart bo'lgan qonunlar mavjud edi. Dunyo tasodiflarga boy. Bo'ri bolasining vujudida jo'shayotgan hayot uning jismidagi g'ayrat, ishtiyoyq va muhabbatni boshqarayotgan quvvat uning uchun bitmas-tuganmas baxt-saodat manbayi bo'lib xizmat qilardi. O'lja ortidan quvish, uni ta'qib etish bag'ishlagan huzur va lazzatdan sarxush bo'lardi. G'azab va janglardan halovat topardi. Hatto noma'lumlik vahimasi va sir-asrorlari ham yashashga yordam berardi.

Bulardan tashqari hayotda yana ko'pdan ko'p zavqli, yoqimli narsalar bor edi. To'yib ovqatlanmoq hamda quyosh nurlari ostida erinibgina mudrab yotmoq – uning chekkan zahmatlari va g'ayrat ishtiyoyqi evaziga berilgan bir mukofot edi, zero, chekkan zahmatlari-yu g'ayrat-ishtiyoyqining o'ziyoq unga olam-olam quvonch, halovat baxsh etardi. Bo'ri bolasi o'zini qurshab turgan adovat to'la muhitga moslashib hayot kechirmoqda edi. U kuchga to'lgan, baxtiyor, emin-erkin edi va o'z-o'zidan faxrlanardi.

# UCHINCHI QISM



## Birinchi bob

### OLOVNI YARATGANLAR

Bo'ri bolasi buni sira-sira kutmagan edi. Hammasiga o'zi aybdor. Ehtiyotkorlikni unutgandan keyin shu-da, natijasi. U g'ordan chiqib suv ichgani anhor tomon yugurdi. Yanglishib qolganiga ehtimol, rosa uyqusi kelganligi ham sabab bo'lgandir (kechasi bilan ovda yurib, hozirgina uyqudan turgan edi). Suv bo'yiga eltadigan yo'lni u juda yaxshi bilmasmidi! Necha-necha marotaba shu yo'ldan yurgan, har bir toshi, giyohi unga tanish edi-yu!

Bo'ri bolasi so'qmoqdan tushib, to'g'ri qurigan qoraqarag'ay yoniga keldi, o'tloqni kesib o'tib daraxtlar oralab yo'lga tushdi. Nogohon u notanish bir nimani ko'rib qoldi-yu, taqqa to'xtadi. Uning ro'parasida besh nafar tirik mavjudot chordona qurib o'tirardi – bunaqasini shu choqqacha ko'rmagandi. Odamzod bilan ilk bor to'qnash kelishi edi. Biroq odamlar o'rnilaridan sapchib turishmadi, tishlarini irshaytirib unga irillab qo'yishmadi ham. Churq etmay, qandoq o'tirishgan bo'lsa, shunday indamay o'tirishaverdi.

Bo'ri bolasi ham qimir etmay turaverdi. Ichki bir tuyg'u – savqi tabiiy izm-u-ixtiyorida u o'ylamay-netmay, urra qochishi lozim edi shunday chog'larda, biroq banogoh vujudida butunlay o'zgacha, mutlaqo qarama-qarshi tuyg'ular paydo bo'ldi-yu, uning iziga qaytib ketishiga yo'l qo'ymadi. U o'zini yo'qtib qo'ydi. O'zining ojizligi va haqir, notavon ekanini anglash tuyg'usi uni yerga mixlab qo'ygandi go'yo. Qarshisida, u shu paytgacha mavjudligidan mutloq bexabar bo'lgan hukmron kuch va qudrat turardi.

Bo'ri bolasi umri bino bo'lib insonni ko'rmagan edi, lekin uning kuch-qudratini savqi tabiiy ila his qildi. Shuurining teran qatlamlarida, mana shu tirik mavjudot Shimol o'lkasidagi yashovchi jamiki jonivorlar ustidan hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritganligiga ishonch hosil qildi. Hozir, shu damda odamzodga bir just ko'zlargina tikilib qaramayotgandi – unga yolg'iz bo'ri bolasi emas, balki uning timsolida zamharir qish oqshomlarida bino bo'lgan qarorgohlar tevaragida aylanib yurgan, barcha tirik jon ustidan hukm yurituvchi – hukmdorlik taqdир etilgan ikki oyoqli g'alati jonivorni uzoqdan, qalin butazor ortidan

turib tomosha qilgan ajdodlarining nigohi qadalgan edi. Bo'ri bolasini o'z ajdodlarining, qancha-qancha bo'rilar avlodi ming yillar davomida olib borgan kurashlar va to'plagan tajribalari tufayli bunyod bo'lgan ilohiy qo'rquv asiri edi. Ana shu meros, oddiygina bo'ri bolasini bo'ysundirmoqda edi. Agar yoshi kattaroq va tajribaliroq bo'lganda ham, qochib ketgan bo'lar edi. Hozir esa qo'rquvdan o'takasi yorilib hamda bir zamonlar, qadim-qadimda ajdodlari inson yoqqan gulxan atrofida isinib olish uchun zorlanib borganidagi kabi itoat qilishni ma'qul topdi.

Hindulardan biri o'rnidan turib, bo'ri bolasining tepasiga keldi va uning boshi uzra engashdi. Bo'ri bolasini yanada mahkamroq yerga qapishib oldi. Noma'lum narsa moddiylashdi va hatto uni ushlash uchun qo'lini uzatdi. Bo'ri bolasining junlari hurpayib, kichkina so'yloq tishlari yarqirab ketdi. Uni silamoqchi bo'lgan odam bir daqiqa to'xtab qaddini rostladi, oppoq tishlarini ko'rsatib dedi:

— Vabam-vabiska ip pit ta! (Qaranglar! So'yloq tishining oppoqligini qarang!)

Boshqalari uning gapidan xoxolab kulib yuborishdi va bo'ri bolasini o'zi bilan olib qolishga unday boshlashdi. Hinduning qo'li tobora yaqinlashgan sari bo'ri bolasining vujudida ikkita qarama-qarshi tuyg'ular jo'sh urardi: biri itoat etishga undar, ikkinchisi kurashga da'vat etardi. Pirovardida bo'ri bolasini sabr qolishga qaror qildi. U ikkala tuyg'u izmidan chiqmay turdi, shunga binoan to qo'l badaniga tekkuncha itoat etib turdi, keyin esa birdan boshini silkib g'archcha tishladi. O'sha zahoti boshiga tushgan zarbdan yonboshiga yiqildi. Olishish ishtiyoqidan asar qolmadi. Bo'ri bolasini itoatkor kuchukchaga aylandi go'yo, orqa oyoqlariga o'tirib uv soldi. Lekin qo'li tishlangan inson g'azabini bosolmay ikkinchi marta yana sop qoldi. Bo'ri bolasini yana yiqildi va o'rnidan turib yana, bu safar balandroq ovozda uv soldi.

Hindular kulib yuborishdi, ularga qo'shilib qo'li tishlangan ham rosa kului. Ular qo'rquv va og'riqqa chidayolmay uvillayotgan bo'ri bolasini qurshab olishdi. Daf'atan, bo'ri bolasini to'xtab, sergak tortdi. Hindular ham jim qolishdi. Bo'ri bolasini yaqin atrofda yangragan ovozni tanidi va so'nggi bor cho'zib nola qildi, uning so'nggi nolasida zorlanish emas, quvonch, tantana ohanglari kuchliroq yangradi, aloha u jim bo'ldi va o'zining mehribon, shiddatli va qo'rmas, har qanday dushman bilan tikka olishadigan, ularni g'ajib tashlashga qodir onasini kutib atrofga alangladi. Ona bo'ri o'kirib atrofga qutqu solib kelardi, u bolasining zorlanishini eshitib yordamga oshiqardi.

Ona bo'ri ilkis odamlarga tashlandi. U quturib ketgan, hech narsadan toymas, vajohati o'ta dahshatli hamda vahshiyona edi. Lekin uning xaloskorona yangragan qahr-g'azabi bo'ri bolasini quvontirib yubordi.

U quvonchdan chiyillab yubordi va onasiga peshvoz yugurdi, odamlar esa bir necha qadam chekinishdi. Ona bo'ri bolasi bilan odamlar o'tasida turib oldi. Uning junlari hurpaygan, bo'g'zida vahshiyona irillash qaynabtoshardi.

Birdan hindulardan biri qichqirib yubordi:

— Kichi!

Bu xitobda hayrat ohanglari yangradi.

Bo'ri bolasi bu ovozdan onasining qunishib olganini payqadi.

— Kichi! — deya yana qichqirdi hindu, bu safar keskin va amrona ohangda.

Shunda bo'ri bolasi balodan qo'rqlaydigan onasining yerga yotib olib dumini likillatgancha yalinchoq ohangda chiyillaganini ko'rib hech narsaga tushunmadni. U sarosimaga tushdi. U yana odamzoddan qo'rqa boshladni. Sezgisi uni aldamayotgandi. Onasining xatti-harakati ham buni tasdiqlab turibdi. U ham odamlarga itoat etmoqda!

«Kichi!» deb baqirgan inson urg'ochi bo'rining yoniga keldi. U kaftini uning boshiga qo'ygan edi, urg'ochi bo'ri yanayam yerga qapishib oldi. U insonni tishlash u yoqda tursin, bunga harakat ham qilib ko'rmadi. Qolgan to'rt nafar hindu kelib, ushlab, siypalay boshlashdi. Kichi yo'liga bo'lsin qarshilik qilmadi. Bo'ri bolasi odamlardan ko'z uzmasdi. Ular bir nimalar deb baqirishar, lekin og'zilaridan chiqayotgan tovushda tahdidli biron nima sezilmasdi. Bo'ri bolasi onasining pinjiga suqulib oldi-da itoat etishga qaror qildi, lekin uning junlari baribir hurpayib turardi.

— Hech hayron bo'ladigan yeri yo'q, — dedi hindulardan biri. — Uning otasi bo'ri, onasi esa it. Esimda akam bahorda uni uch kecha o'rmondagi daraxtga bog'lab qo'ygandi. Demak, Kichi bo'ridan bo'lgan.

— Kichi qochib ketganiga, Kulrang Qunduz, bir yil bo'ldi, — dedi boshqasi.

— Nima qipti. Losos tili, — deya javob qildi Kulrang Qunduz. O'shanda ocharchilik edi, itlarga go'sht topib berolmagandik.

— U bo'rilar bilan birga yashagan, — dedi yana boshqa hindu.

— Gaping to'g'ri, Uch Burgut, — deya iljaydi Kulrang Qunduz, bo'ri bolasini silab-siypar ekan, — mana to'g'rilingining isboti.

Inson qo'li badaniga tegib, bir sapchib tushgan bo'ri bolasi past ovozda irillagandi, odam qo'lini tortib oldi va musht tushirishga chog'landi. Buni ko'rib bo'ri bolasi jim bo'ldi va itoatkorona yerga yotib oldi, qo'l yana yaqin kelib uning quloqlari orqasini, kuraklari o'rtasini silay boshladni.

— Mana sening haqlilingga dalil, — deya takrorladi boyagi gapini Kulrang Qunduz. — Kichi uning onasi. Otasi esa bo'ri. Shuning uchun itga xos xususiyat kamroq. Bo'rining odati ziyodroq. Uning so'yloq

tishlari judayam oq ekan, shuning uchun unga Oq So'yloq deb nom qo'yamiz. Aytigan so'z, otilgan oq. Bu mening itim. Kichi akamga tegishli edi, shundaymi? Akam esa dunyodan ko'z yumgan, to'g'rimi?!

Yangi nom qo'yilgan bo'ri bolasi jimgina eshitib yotardi. Odamlar biri olib, biri qo'yib gapirardi. Pirovardida Kulrang Qunduz, bo'yniga osib olgan qindan pichog'ini oldi-da, buta yoniga borib bir qarich novda kesib oldi va tayoqning har ikkala uchiga esda qolishi uchun belgi qo'ydi-da, oshlangan qayish bilan o'radi. Bir uchidagi qayishni Kichining bo'yniga bog'lab, uni qayin yoniga yetaklab bordi-da, ikkinchи qayishni daraxtga bog'ladi.

Oq So'yloq onasining oldiga borib u bilan yonma-yon yotdi. Losos tili bo'ri bolasini erkabal turdi-da, bir turtib chalqancha yotqizib qo'ydi. Kichi xavotir aralash ulardan ko'z uzmasdi. Oq So'yloqning yana quti uchdi. U o'zini tiyib turolmadi-da, irillab yubordi, lekin tishlashga botinolmadi. Mayishgan, qiyishi-qing'ir barmoqlar uning qorni, biqinini qashiy boshladи. Oyoqlarini ko'tarib chalqancha yotish, xo'rланish va sharmandalikdan boshqa narsa emas. Undan tashqari, Oq So'yloq o'zini o'ta ojiz sezar, butun vujudi, borlig'i bu xo'rlikka aslo chidayolmasdi. Lekin nima qila olardi? Qolaversa, bu kimsa unga ozor yetkazishni xohlab qolib kaltaklasa – qarshilik qilishga qurbi yetadimi?! To'rttal oyog'i havoda likillab turganda sapchib o'zini chetga olishi mumkinmi, axir?! Harholda itoatkorlik qo'rquvdan ustun keldi-yu, bo'ri bolasi ohista irillab qo'ydi. Uning irillashi nafas olgandek gap, g'ayriixtiyoriy ravishda ham bo'g'zidan chiqib ketaveradi, inson bu safar achchig'lanmadiyam, boshiga urmadi ham. Taajjub, Oq So'yloq inson bolasi silab-siypalayotganda, allanechuk huzur-halovatdan a'zoyi-badani jimirlashib ketganini his qildi. U yonboshiga o'girilib oldi-da, irillashni bas qildi. Barmoqlar quloqlarining ortini qashib, chimchilab qo'yayotganda bu halovat yanayam kuchaydi. Nihoyat, inson yana bir sidra silab-siypab, nari ketgach, Oq So'yloq rosayam yengil tortdi. U hali ko'p zamонлар odamzod yoniga kelsa qo'rquvdan, sarosimadan o'zini qo'ygani joy topolmaydi, bir so'z bilan aytganda, qo'rqiб yashaydi, lekin ular o'rtasidagi do'stona munosabat ilk bor shu lahzalarda tug'ilashlagandi.

Ko'п o'tmay Oq So'yloq allaqanday g'ala-g'ovur yaqinlashib kelayotganini payqadi. Bu odamlarning shovqini edi. So'qmoq yo'lda yangi manzil izlab ketayotgan hindular qabilasining a'zolari ko'rindi. Ular qirq nafarcha bo'lib ko'ch-ko'ronini ortmoqlab olgan erkak-u ayol, xotin-xalaj va bolalardan iborat edi. Ularga ergashib kelayotgan itlarni aytmay-sizmi, kuchukchalardan boshqa barcha itlarga ham yuk ortilgan edi. Har bitta it og'irligi 20–30 futcha keladigan qop-qanorni ko'tarib borardi.

Oq So'yloq hali it zotini ko'rmagan edi, lekin ular o'z hamzotlaridan unchalar farq qilmasligini bir qaraganda sezdi. Ona-bola bo'rilar

hidini ilg'agan itlar chindanam oralaridagi farq arzimas ekanini isbotlashdi. To's-to' polon boshlandi. Junlari hurpaygan Oq So'yloq og'zini karrakdek ochgancha irillayotgan itlar qurshovida qoldi. Itlar bo'ri bolasini yiqitib olishdi, lekin Oq So'yloq ularning duch kelgan yeridan tishlab tashlayverdi, ayni chog'da itlar ham uning hammayog'ini tishlab tashlashdi. Qulqoni qomatga keltirgudek vovullah ko'tarildi. Bo'ri bolasi yordamga oshiqqan onasining o'kirganini eshitdi, odamlarning baqir-chaqiri, kaltak zarbidan angillayotgan itlarning tovushlariga aralashib qiyomat-qoyim bo'lib ketdi.

Bir necha soniyadan so'ng, bo'ri bolasi yana oyoqqa turib oldi. O'zini bo'ri zotidan nimasi bilan farq qiluvchi mana shu mavjudotning qaqshatqich tishlaridan himoya qilish uchun itlarni tosh otib, kaltak bilan urib haydayotgan odamlarni ko'rdi. Garchi, bo'ri bolasi o'ch, adolatlil intiqom degan mavhum tushunchalarni aniq tasavvur qilolmasa ham insonning odilligi, qonun-qoidani joriy etib unga amal qilishlarini, nazorat qilishni unutmaydigan bir mavjudot ekanini ich-ichidan his etdi. U odamzod o'zлari uchun yaratgan tartib-qoidaga itoat ettirish uchun qo'llaydigan usullarni ham o'zicha yoqladi. Ular barcha yirtqichlarga o'xshab bir-biriga hamla qilib, tish-tirnoqlari bilan yopishmas ekan, balki jonsiz buyumlarni ishga solishar ekan. Jonsiz buyumlar, narsalar ularning amriga itoat etar, bu g'alati mavjudot uloqtirgan tosh va tayoqlar xuddi tirik mavjudotdek havoda uchib borib itlarni qaqqshatar edi.

Nihoyat oxirgi it nari ketdi-yu janjal-to' polon tinchidi. Oq So'yloq yaralarini tili bilan yalay boshladi, u ilk bor to'da nimaligini ko'rdi va unga yaqin bordi, shu bilan ilk bor uning rahmsizligidan aziyat chekdi. Shu choqqacha ularning butun urug'i Birko'zdan, onasi-yu o'zidan iboratdek tuyulardi. Ular uchchovi shu urug'-toifa ichida alohida ajralib turardi. Lekin birdan, sira kutilmaganda, ularning toifasiga mansub boshqa mavjudot ham borligi ayon bo'lди-qoldi. Va shuurining chuqur qatlarida o'z hamzotlariga, qaysiki, uni ko'rgan zahotlari g'ajib tashlagudek bo'lib hamla qilgan itlarga nisbatan kek, adovat paydo bo'lди. Undan tashqari garchi oliy darajadagi mavjudotning ishi bo'lsa ham odamlarning onasini bog'lab qo'yishgani yoqmadi unga, negaki bu tutqunlik, erksizlikni bildiradi. Lekin, bo'ri bolasi erksizlik, tutqunlik nimaligini tushunarmidi?! O'z istagicha yashash, xohlagan paytda yugurish, dumalab yotish erki-huquqi unga ajdodlaridan meros edi. Hozir bo'lsa urg'ochi bo'rining erki bog'lab qo'yilgan arqonning uzunligidan nari o'tmasdi, xuddi shu arqon bo'ri bolasining ozodligiga raxna solardi, shu sabab u hali onasiz mustaqil ravishda hech narsa qilolmasdi.

Qisqasi, bo'ri bolasiga bu narsalar yoqmadi, odamlar qo'zg'alib yo'lga tushishganida esa kurakda turmaydigan tartiblardan noroziligi

kuchaygandan kuchaydi, chunki, allaqanday kichkina odam bolasi, Kichi bog'langan tayoqni olib, uni bir tutqun quldek ergashtirib ketdi. Yuz berayotgan voqealardan garangsigan va xavotirga tushgan Oq So'yloq chor-nochor Kichining ortidan sudralib yo'lga tushdi.

Ular irmoq yoqalab quyiga, darbadar yurgan kezlarida Oq So'yloq qadami yetgan joylardan ham o'tib irmoq Makkenzi daryosiga quyiladigan yerga yetib kelishdi. Qirg'oqda uzun-uzun xodalarga o'rnatilgan pirogilar, baliq quritish uchun yasalgan panjaralar bor edi. Hindular shu yerga kelib o'rナashdilar. Oq So'yloq hech narsani tushunmay atrofni ko'zdan kechirardi. Odamzodning quadrati har daqiqada yaqqolroq namoyon bo'lardi. Barcha itlarning ularga qaram ekani unga ravshan edi. Lekin jonsiz narsalar ustidan hukm yurgiza olishlari, dunyoni o'zgartira olishga qodir ekanliklari hammadan ham Oq So'yloqni hayratga solardi. Bu kuch-qudratdan dalolat berar va dunyo ustidan shu kuch, shu qudrat hukm yurgizishini bildirardi. Amмо odamzodning tirik mavjudot qolib, jonsiz narsalar, buyumlarni ham idora qilish qobiliyati uni hang-u mang qilardi. Mana odamlar vigvamlar uchun xodalarni yerga ko'mib qo'yishgan – bu ochig'i, unchalik qiyin e'tiborga molik ish emas, buni o'sha tosh otish va kaltaklashni bilgan odamlar amalga oshirishi mumkin. Lekin xodalarga teri tortib, kanopdan to'qilgan mato bilan o'rab chiqishgach vigvam paydo bo'lganidan Oq So'yloq sarosimaga tushdi.

Hammadan ham bu vigvamlarning kattaligi hayratga solardi. Shunchalik tez qurib tashlanishardiki, yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlar bunchalik tez bunyod bo'lmasdi. Hammayoqda qad rostlagan, qayoqqa qarasang vigvam. Oq So'yloq ulardan qo'rqardi. Ularning tepasi tahlikali tarzda chayqalar, shamol turgan mahal charm devorlari lopillab u yoqdan-bu yoqqa borib kelar, Oq So'yloq xuddi bu bahaybat vigvamlar ana hozir uning ustiga ag'dariladi-yu, u qochib qutulishga ulgurolmay qoladigandek ulardan ko'z uzmay bir vahima ichida yerga yotib olardi.

Yo'q, oxiri Oq So'yloq vigvamlarga ko'nikdi. Qarasaki, xotin-xalaj bola-baqra bilan bermalol, beziyon-zahmat kirib-chiqib yuribdi, qo'yib bersa itlar ham kiradigan, faqat vigvamga yaqinlashdi deguncha ularni baqir-chaqir va toshbo'ron qilib haydashadi. Kechga tomon Oq So'yloq Kichini tashlab, qo'rqa-pisa yaqinginadagi vigvam yoniga bordi. Odatda yashash ishtiyoqi, faoliyatga tashnalik va o'rganish zaruratidan tug'ilajak qiziqish Oq So'yloqqa tinchlik bermayotgan edi. Vigvamga yaqinlashgan sari Oq So'yloq yanayam sekinoq harakat qilar va cuti o'chib borardi. Shu bugun yuz bergen hodisalar ta'sirida noma'lumlik, notanish narsalar sira kutilmaganda biron kori-holga sabab bo'lishi mumkinligini Oq So'yloq uqib olgan edi. Nihoyat, uning tumshug'i kanopdan to'qilgan devorga tegdi. Oq So'yloq nima bo'larkin degandek kutdi. Yo'q, hech

narsa bo'lgani yo'q. Aloha u o'takasini yorgan odam isi gupirib turgan narsani tishlab tortdi. Devorning salgina tebranganini hisobga olmasa, yana o'sha ahvol, biron narsa yuz bermadi. U yana tortdi, devor tebrandi. Bundan uning bahri-dili ochildi-yu, qattiq-qattiq siltab tortishga o'tdi. Oxiri butun devor lopillay boshladi. Shu choq ichkaridan hindu ayolning qattiq baqirgani eshitildi. Oq So'yloq oldi-orqasiga qaramay Kichining yoniga yugurdi. O'sha-o'sha haybatli vigvamlardan qo'rqligini qo'ydi.

Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas Oq So'yloq yana onasini tashlab ketdi. Kichini qoziqqa bog'lab qo'yishganidan bolasining ortidan borolmasdi. Daf'atan bo'ri bolasiga qarab undan yirik va kattaroq kuchuk jangovor qiyofada yaqinlashib kela boshladi. Bu Lip-lip degan kuchuk edi. U urush-janglarda chiniqqan, o'z hamzotlari orasida ham urush-qoqligi bilan nom qozongan edi.

Oq So'yloq bu kuchukni o'ziga qondosh deb bildi, buning ustiga vajohatidan unchalik xavfli emas, shu bois undan biron-bir yomonlik kutmay, do'stona qiyofada unga qarab turdi. Biroq begona itning tishini irjaytirib hamla qilishga shaylangandek hurpayib olganini ko'rgach Oq So'yloq ham tishini qayrab shaylanib oldi. Hurpayib olgancha vahshiyona irrilayotgan bo'ri bolasi bilan kuchuk payt poylab bir-birining atrofida aylana boshladi. Bu juda uzoq davom etdi. Oq So'yloqqa bu o'yin hatto yoddi. Tuyqus, Lip-Lip o'qdek otolib bo'ri bolasini g'archcha tishladi-da, chetga sakradi. Oq So'yloqning yelkasidagi silovsing g'ajib tishlagan jarohati hali bitmagan, suyaklari hamon zirqirab og'rirdi. Lip-Lip xuddi o'sha yerini tishlagan edi. Oq So'yloq kutilmagan hamladan va og'riqning zo'ridan uv solib yubordi va o'sha zahoti jon-jahdi bilan Lip-Lipga tashlandi.

Lip-Lipning hindular qarorgohida tug'ilgani va boshqa kuchuklar bilan san-sanoqsiz urishgani bekorga ketmagan edi. Uning nisbatan maydarloq, lekin o'tkir tishlariga dosh berolmay Oq So'yloq sharmandalarcha onasining yoniga qochib qoldi. Bu Oq So'yloq bilan Lip-Lip o'rtasidagi birinchi to'qnashuv edi, istiqbolda ularni hali ko'p to'qna-shuvar kutar, chunki ikkovi ham bir-birini ilk bor ko'rgan onlardanoq bir-biriga nisbatan haddan ziyod adovat, nafrat va xusumat tuygan edilarki, shu narsa doimiy ravishda yakkama-yakka olishishishga olib kelardi.

Kichi bolasini erkalab, yalab-yulqadi va uni yonidan qo'yib yubormaslikni ko'zlab turdi, biroq Oq So'yloqning havasimi, qiziqishimi ortgandan ortib borardi. Bir necha daqiqadan keyin, o'zini qiziqtirgan narsalarni tekshirib ko'rish uchun yana o'sha vigvam sari yo'l oldi va Kulrang Qunduz degan odamga yo'liqdi. Kulrang Qunduz oldida quritilgan yo'sin va shox-shabba – bir nimalar qilib o'tirardi. Oq So'yloq yaqin bordi-da, qiziqsinib qarab turdi. Kulrang Qunduz allanechuk tovush chiqarib puflar, kuchanar, uning harakatida, ovozida biron bir tahdid yo'qligini sezgan Oq So'yloq yanayam yaqinroq bordi.

Ayollar bilan bolalar Kulrang Qunduzga shox-shabba, o'tin tashib kelishardi. Chamasi, qandaydir qiziqarli tomoshaga hozirlik ko'rishardi. Oq So'yloq shunchalar qiziqib ketganidan qarhisida xatarli odamzod o'tirganini ham unutib, Kulrang Qunduzning pinjiga suqilgudek yaqin bordi. Tuyqus Kulrang Qunduzning yo'sin va shox-shabba uzra, uzatilgan qo'lidan tuman singari g'alati bir hovur ko'tarildi. Aloha, shu hovurdan xuddi quyosh singari qizil va jonli bir nima paydo bo'ldi. Oq So'yloq olov nimaligini bilmasdi. Biroq, bolaligida, hali g'orda yashayotgan mahal g'or og'zidan yopirilib kelayotgan nur qanchalik diqqat-e'tiborini jalb qilgan bo'lsa, hozir olov shunchalik o'ziga jalb qildi. U olovga qarab intildi, Kulrang Qunduz unga qarab kulib qo'ydi, uning kulgusida biron bir zug'um sezmagan Oq So'yloq, cho'zilib borib alangaga tumshug'ini tekkizdi va tilini chiqardi.

Daf'atan u qotib qoldi, shox-shabba bilan yo'sin orasida yashirinib olgan allanima uning tumshug'iga yopishdi. Oq So'yloq jon holatda chiyillab yubordi-da, o'zini orqaga otdi. Bu chinqirgan tovushni eshitib Kichi, o'kirkancha oldinga tashlandi, biroq bo'ynidagi arqon qo'yib yubormadi-yu, bolasiga yordam berolmasligiga ko'zi yetib alam va g'azabdan o'zini u yoqdan bu yoqqa ota boshladi. Kulrang Qunduz esa tizzalariga urib-urib xoxolab kulardi, boshqalarga nima gapligini aytib beruvdi, ular ham qotib-qotib kula boshlashdi. Oq So'yloq bo'lsa orqa oyoqlariga o'tirib olib angillar, u chetdan qaragan odamga o'ta ojiz va notavon ko'rinardi.

Shu paytgacha bunaqa og'riqni tatib ko'rmagan edi. Kulrang Qunduzning kaftlari orasida bunyod bo'lgan rangi osmondag'i ostobni eslatuvchi jonli narsa uning tumshug'i bilan tilini kuydirdi. Oq So'yloq tinmay uv solar, har uvillaganida odamlar qah-qah urib kulishardi. U tumshug'ini yalashga urinib ko'rди, biroq kuygan tili kuygan tumshug'iga tekkan zamoni og'riq beshbattar kuchayib, u jon achchig'ida yanayam zorlanib uvlab yuborardi.

Oxiri u go'yo nochorligini namoyish qilayotganini sezib qolgandek jim bo'lib qoldi. U odamlar nima uchun kulayotganini tushunib qolgandi. Ayrim jonivorlar kulgi nimaligini va ularni kalaka qilib ustlaridan kulayotganimizni qay tarzda bilib olganlariga odamning aqli yetmaydi. Xuddi shu narsa, hozir Oq So'yloq bilan sodir bo'layotgandi, shuning uchun odamlar kulayotganda u o'zini yo'qotib qo'ydi. Oq So'yloq ortiga o'girildi-da, dumini xoda qilib qochdi, zero og'riq emas, odamlarning qah-qah urib kulishlariga chidolmadi, chunki kulgu olov yetkazgan og'riqdan ko'ra azobliroq edi. Oq So'yloq bog'lab qo'yilganiga chidayolmay quturayotgan onasining – dunyoda o'zini kalaka qilmaydigan yagona mavjudot bag'riga qarab o'zini otdi.

Qosh qoraydi, ketidan tun kirdi. Oq So'yloq Kichining oldidan bir qadam nari jilmadi. Tumshug'i bilan hamon achishib og'rir, biroq undan-da kuchliroq boshqa bir tuyg'u bezovta qilardi. U vujudida junbushga kelgan sog'inch hislaridan qiyalmoqda edi. O'zini qo'ygani joy topolmas va beixtiyor irmoq bo'ylari va qadrdon g'orda hukm surgan osoyishtalik va halovatni qo'msardi. Uning hayoti izdan chiqqan yoki uning tinchi buzilgan edi. Bu yerda odam zoti ko'p edi – erkaklar, ayollar, bolalar – hammasi shovqin solar, uning zardasini qaynatardi. Itlar esa tinimsiz urishar, irillar, o'zaro g'ajishar edi. Ilgari halovat tuygan yolg'izlik barham topgan edi. Bu yerdagi hayot qaynagandan qaynardi, hatto havo ham jo'shqin hayot ta'sirida edi. Tevarak-atrof bamisli arining inidek tinimsiz g'o'ng'illar, vizillar, bir dam tinchimasdi. Yangi-yangi tovushlar uni cho'chitar, tashvishga solar edi.

Oq So'yloq vigvamlar orasida u yoqdan-bu yoqqa yurayotgan va ko'zdan g'oyib bo'lib yana paydo bo'layotgan odamlarni tomosha qilib yotardi. Xuddi odamlar o'zlarini yaratgan ilohlarga iltijo bilan termulgani kabi Oq So'yloq ham ularga shunday termulardи. U odamlarni xudodek ko'rardi. Inson xudodan deb bilgan mo'jizalar, kuch-qudrat, Oq So'yloq uchun ularning har bitta xatti-harakatida namoyon bo'lardi. Ular cheksiz, misli ko'rilmagan qudratga ega edilar. Ular borliq olamning hukmdorlari edi. Qimirlagan jon borki, insonga tobe; jonsiz narsalarga jon ato etishga qodir, ular qurigan yo'sin va shox-shabbaga jon baxsh etguvchi, qaysiki quyosh rangini eslatuvchi mayjudotni yaratuvchi zot! Ular olov yaratganlar! Ular qudrat sohiblaridir!

## **Ikkinci bob**

### **TUTQUNLIKDA**

Deyarli har kuni Oq So'yloq yangi bir nimani kashf qilardi. Onasi bog'lab qo'yilgan chog'lar, u butun qarorgoh bo'ylab yurib charchamas, o'zicha har bir qarichini ko'zdan kechirib, o'rganib tajriba ortirardi. U qisqa muddat ichida odamlarning odatlarini o'rganib oldi, lekin har qancha yaqindan bilgani bilan insonning qudratiga shak keltirmadi. Qancha ko'p bilsa, uning ulug'ligiga shunchalik iqror bo'lardi.

Inson o'zi e'tiqod qilgan ilohlari kamsitsilsa yoki o'z mehnati bilan bunyod bo'lgan sajdagoohlар vayron qilinsa ruhan azob chekadi-qiyaladi, bo'ri bilan yovvoyi it esa bunday iztirobni bilmaydi, tushunmaydi ham. Ilohlari orzu-xayollariga qanot baxsh etib, hech qachon moddiylashmaydiyan, ezbilik va kuch-qudrat manbayi bo'lib, ruhiyat sultanatida yuksalishini ta'minlovchi zot bo'lgan inson e'tiqodiga tamomila zid. U yaratgan olov yoniga kelib jon saqlab qolgan bo'ri bilan yovvoyi itlarning xudosi moddiylashgan et va suyakdan iborat

mavjudot, ularni ko‘rish, vujudiga teginish mumkin, hayotda zimmalriga yuklangan vazifalarni ado etuvchi zamona talabi va qonuniyatiga to‘la bo‘ysunuvchi tirik jondir. Bunday xudoga ishonish juda oson, bu ishonch-e‘tiqodga hech narsa putur yetkazolmaydi. Bunaqa xudodan qochib qutulolmaysan ham. Ana u qo‘lida tayoq bilan qaddini rostlab turibdi – har narsaga qodir, zolim va mehribon! Bu qudrat va mo‘jiza mujassam bo‘lgan vujud, tanadan iborat, qaysiki badanini pora-pora qilsa qoniga belanadigan, eti boshqa har qanday go‘shtdan farqi yo‘q tirik jon.

Oq So‘yloq ham shu holatda edi. Uning uchun inson zoti – muqarrar va qodir xudodek edi. Onasi o‘z nomini aytib chaqirishgan zahoti itoat etgani kabi u ham insonga bo‘ysundi. Ularga yo‘l bo‘shatadigan bo‘ldi. Chaqirishsa keladigan, haydashsa o‘sha zahoti nari ketadigan, tahdid qilishsa yerga yotib oladigan odat chiqardi, chunki ularning har bitta xohish-istagida kuch-qudrat pinhon edi, bu qudrat musht va kaltak, havoda uchib yurguvchi toshlar va etingni uzib olgudek qaqshatgich qamchi zarbida oshkora bo‘lardi.

Oq So‘yloq barcha itlar kabi insonga qaram edi. U nimaiki qilsa, uning buyrug‘i bilan qilardi. Ular Oq So‘yloqni xohlasalar urib, dabdalasini chiqarishga, yanchib tashlash yoki rahm-shafqat qilishga haqli edilar. Ana shu saboqni o‘zlashtirishga tez o‘zlashtirdi-yu, lekin ko‘nikishi oson bo‘lmadi – u bunga chidayolmas, har qadamda yuz berayotgan voqealarga nisbatan vujudida neki bor unga qarshi bosh ko‘tarardi. Shu bilan birga, o‘zi sezmagan holda, Oq So‘yloq garchi ko‘nikishi har qancha qiyin va ko‘ngilsiz bo‘lsa ham yangi hayotning huzur-halovatidan bahramand bo‘la boshladи. U taqdirini yot-begonalar qo‘liga topshirdi va o‘z hayot-mamotini asrashdek javobgarlik – og‘ir vazifadan xalos bo‘ldi. Shuning o‘ziyoq bir mukofot edi, chunki yakka o‘zing oyoqqa turishdan ko‘ra o‘zgaga suyanib biron nima qilish osonroqdir.

Biroq, bu birdaniga yuz bergani yo‘q – odam bolasiga bir kunda hayot-mamotini topshirib qo‘yish mumkin emas, Oq So‘yloq ajdodlarining qoni orqali o‘tgan odatlardan voz kecha olmas, Shimol o‘lkasining tarbiyasini unutołmasdi. Ba’zan-ba’zan u o‘rmonning bir chekkasiga borib olib, oislardan eshitilayotgan va o‘zini chorlayotgan ovozlarga qulq solardi. Ana shunday sayrlardan bezovta, tashvishmand holatda qaytib kelar, Kichini yoniga yotib ohista zorlanib g‘ingshir, erkalanib onasining tumshug‘ini yalab-yulqardi.

Oq So‘yloq hindular qishlog‘idagi hayot oqimiga juda tez moslashib oldi. Odamlar baliq va go‘sht ulashayotgan paytda katta-katta itlar naqadar g‘irrom va ochko‘z bo‘lib ketishlarini ko‘rdi. Katta yoshdagи kishilar insofli, bolalar berahm bo‘lishini, ayollar mehribon va hech

kimdan kutmagan bir bo'lak go'sht yoki ustixonni istagan paytda ulardan undirib olish mumkinligini tushunib yetdi. Yosh kuchukchalar bilan bir-ikki to'qnashgach, ularning shallaqi onalarini ko'rib, ulardan nariroq yurish ma'qulligini, shunda tinch-bexavotir bo'lislhligini anglatdi.

Ammo Lip-Lip uning hayotini zaharlardi. U Oq So'yloqdan ham yirik, ham kuchliroq edi. Oq So'yloq u bilan urishishdan qochmasdiyu, lekin doim yengilardi. Bunaqa dushmanaga hali kuchi yetmasdi. Lip-Lip esa uni hamma yerda ta'qib qilardi. Oq So'yloq onasining yonidan bir qadam jildi deguncha, bu la'nati shilqim paydo bo'lar, jig'iga tegar, xira pashshadek yopishaverar, irillab po'pisa qilar, yaqin atrofda odam qorasi ko'rinsama urush-janjal chiqarardi. Bu jang-u jadallar Lip-Lipga huzur bag'ishlar, chunki u har doim g'alaba qozonar edi. Afsuski, Lip-Lip hayotidagi eng huzurbaxsh hisoblangan narsa Oq So'yloq uchun azob-uqubat manbayi edi.

Biroq, Oq So'yloqni qo'rqtib qo'yishning o'zi bo'lmasdi. U har safar yengilaverar, lekin tan olmasdi. Ming qilganda ham bu doimiy xusumat unga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. U o'ta badjahl va shaddod bo'lib qoldi. Vahshiylik bo'rirlarga xos xususiyat, tushunarli, lekin muttasil ta'qib va tahdidilar uni yanada yovuzlashtirib yuborgandi. Uning tabiatidagi beazorlik, navqiron mayl-istiklar samarasini bo'lmish baxtiyorlik yuzaga chiqmay, uning ichida so'limoqda edi. U teng-to'shi bilan hech qachon o'ynamasdi — Lip-Lip bunga yo'l qo'yemasdi. Kuchukchalar orasida paydo bo'ldi deguncha, Lip-Lip kelib ishkal chiqarar va oxir-oqibat haydab yuborardi.

Oradan ko'pam o'tmay Oq So'yloqning tabiatidagi kuchuklarga xos nimaiki bo'lsa undan asar qolmadidi va u yoshiga nisbatan ancha jiddiy ko'rina boshladi. G'ayrat-shijoati va kuch-quvvatini yugur-yugur va uloqishlarda sarflashga imkon qolmagach, u doim yakka-yolg'iz yuradigan, o'zidan ortmaydigan ko'yga tushdi, pirovard-natijada aqliy jihatdan unib-o'sa boshladi. Dastavval ayyorlik paydo bo'ldi tiynatida, so'ng o'z qilmishlarini nazorat qilish odati paydo bo'ldi. Itlarni umumiy ovqatlantirish chog'ida o'ziga tegishli go'sht bilan baliqni doimiy ravishda tortqilab qo'chishlari tufayli u o'g'rilik qilishga o'rgandi. O'zini-o'zi o'ylamasa och qolishi muqarrar ekanini anglab yetgach esa, u yegulik topishning shunaqangi yo'llarini topar ediki, pirovardida hindu ayollari uchun balo-yu azimga aylandi. Qishloqning past-u-baladini undan yaxshi biladigan it yo'q edi, qayerda nima bor va nimalar bo'lyapti — hammasidan boxabar yurar, vaziyatni chamalab oldindan ko'ra bilar va nima qilib bo'lmasin ashaddiy dushmaniga ro'para kelmaslikka tirishardi.

Qishloqdagagi hayotining ilk davridayoq Oq So'yloq Lip-Lipning bir ta'zirini berib qasos lazzatini tatib ko'rgandi. Uni, bir zamonlar qanday qilib itlarni odamlar qarorgohidan ergashtirib och bo'rilar changaliga

topshirgan bo'lsa, xuddi shunday yo'l bilan Lip-Lipni chalg'ita-chalg'ita onasi Kichining changaliga tushirgan edi. O'shanda Lip-Lipdan qochayotgan Oq So'yloq qisqa yo'l qolib vigvamilar oralab aylana yo'ldan yugurgandi. U juda epchil edi va haddan ziyod tez chopardi, boshqa itlar u yodda tursin, Lip-Lip ham quvib yetolmasdi. Biroq shu safar u shamoldek yelmadi, balki o'zini quvlab kelayotgan Lip-Lipdan atigi bir qadam oldinda yugurib borardi.

Quv-quvdan jo'shib, g'animiga ana-mana yetay deb qolganidan zavqlanib ketgan Lip-Lip, hushyorlikni yo'qotib qayerdaligini ham unutib qo'ydi. Esiga tushganda esa kech edi. Jon-jahdi bilan vigvamni aylanib o'tdi-da, to'ppa-to'g'ri qoziqqa bog'lab qo'yilgan Kichiga borib urildi. Lip-Lip dahshatdan angillab yubordi. Kichi bog'lab qo'yilgan bo'lsa ham undan qochib qutulish oson emasdi. U itni yelkasi bilan bir urib ag'dardi-da, g'archcha tishladi.

Bir animalab urg'ochi bo'ri changalidan qutulib chiqqan Lip-Lipga havas qilib bo'lmasdi. Junlari hurpayib, majolsiz a'zoyi-badani qaqlash og'riyotgan it o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Kichining o'tkir tishlari tekkan yerdagi terisi shilinib, osilib yotardi. U og'zini katta-katta ochib zorlangancha, yurakni larzaga soluvchi ohangda ang-ang nola qildi. Oq So'yloq bemalol zorlanishiga ham yo'l qo'ymadidi. U bexosdan dushmaniga tashlanib g'arch etib orqa oyog'idan oldi. Lip-Lipning avvalgi jangariligi qayga ketdi? U orqa-oldiga qaramay qochdi, o'ljasid deb hisoblayotgan Oq So'yloq to xo'jayiniga qarashli vigvamga yetib kelgunga qadar ta'qib etdi. Shu choq Lip-Lipning baxtiga xotin-xalaj kelib qoldi-yu, quturib ketgan Oq So'yloq do'ldek yog'ilgan toshlar ostida chekinishga majbur bo'ldi.

Nihoyat bir kuni qochib ketmasligiga ishonch hosil qilgan Kulrang Qunduz Kichini yechib yubordi. Onasining ozod bo'lganini ko'rib, Oq So'yloq terisiga sig'may ketdi. U onasi bilan birga qishloqni aylanib kelishga jon-jon deb ko'ndi, Kichi yonida bo'lsa Lip-Lip ham yaqiniga yo'lashga jur'at qilolmasdi. Hatto Oq So'yloq tishlarini irshaytirib hamla qilmoqchidek bo'lsa ham Lip-Lip o'zini ko'rmaganga oldi. U anoyillardan emasdi, shu sababli ovloq yerda Oq So'yloqni bitta o'zini tutib olmaguncha sabr qilishga qaror qilgandi.

O'sha kuni Kichi bilan Oq So'yloq qishloq yaqinida o'rmonning bir chekkasiga borishdi. Oq So'yloq onasini asta-asta, aldab-suldab o'sha yoqqa ergashtirib bordi, Kichi mabodo o'rmon chetida to'xtab qolsa bir amallab o'rmon ichkarisiga olib kirish harakatiga tushdi. G'or va sokin o'rmon uni o'ziga chorlar va u onasi bilan birga borishni istardi. Oq So'yloq bir necha qadam oldinga o'tib to'xtadi-da, onasiga o'girildi. Kichi haliyam qimir etmay turardi. Oq So'yloq zorlanib uvladi va butalar orasida irg'ishlab yugura boshladi, so'ngra qaytib kelib onasining

tumshug'idan yalab-yulqab yana nari ketdi. Shunda ham Kichi joyidan qo'zg'almadi. Oq So'yloq onasiga ma'yus termulib qoldi, zero vujudida jo'sh urgan qat'iyat va sabrsizlik onasining qishloq tomonga intizor tikilib qolganini ko'rganidan susaydi.

Oq So'yloqni yiroq-yiroqlar o'ziga chorlardi. Bu chorlov onasiga ham yetib keldi. Biroq u gulxan bilan odamzod chorlovini aniqroq eshitar, zero barcha hayvonlardan yolg'iz bo'ri bilan yovvoyi it buni kuchliroq sezardi, chunki bo'ri bilan yovvoyi it qondosh edi.

Kichi o'girildi-da, shoshilmay lo'killagancha iziga qaytdi. Qishloq har qanday arqondan ko'ra uni o'ziga mahkamroq bog'lab olgandi. Go'yo odamlar ko'zga ko'rinas, sirli rishtalar bilan urg'ochi bo'rini bog'lab olishgan va uni qo'yib yuborishmasdi. Oq So'yloq qayin ostiga o'tirib mungli ohangda uv tortdi. Shumurt hidi anqidi, havoda o'rmon isi kezar, bular Oq So'yloqqa hozirgi tutqunlikdan yuz karra afzal burungi emin-erkin kunlarini eslatdi. Ammo Oq So'yloq bor-yo'g'i oddiygina bo'ri bolasi edi. Kimsasiz Shimol yoki odamzod chorlovidan ko'ra unga onasining chorlovi ko'proq ta'sir qilardi. Ochig'i u har ishda onasiga suyanar, hali o'zicha mustaqil kun kechirolmasdi. Oq So'yloq o'rnidan turib bo'shashgancha qishloq tomon yurdi, biroq yo'lida ikki bor to'xtab hamon o'rmon tarafdan kelayotgan ovozlarga quloq tutib uv soldi.

Kimsasiz Shimolda ona-bola juda oz birga yashadi. Odamzod ularga shuni ham ravo ko'rди. Oq So'yloqning boshiga ham shu kun tushdi. Kulrang Qunduz Uch burgut degan hindudan qarzdor bo'lib qoldi. Mana shu Uch burgut Makkenzi bo'ylab yuqoriga, Katta Tutqunlik ko'li tomonga ketadigan bo'lidi. Bir toy asl gazlama, ayiq terisi, yigirmata o'q-dori hamda Kichi qarz badaliga Uch burgutga o'tdi. Uch burgutning onasini qayiqqa joylashtirganini ko'rgan Oq So'yloq unga ergashmoqchi bo'lidi, biroq Uch burgut mushti bilan urib uni qirg'oqqa uloqtirdi. Qayiq qirg'oqdan uzoqlashdi. Oq So'yloq suvga tushib qayiq ortidan suza ketdi. Kulrang Qunduz uning ortidan hay-haylab qoldi, ammo Oq So'yloq xo'jayinini baqir-chaqirig'iga ham qulq solmadi – u onasidan ajrab qolishni mutloqo istamasdi.

Ammo inson bolasi so'zini yerda qolishini istamaydi, g'azablangan Kulrang Qunduz qayig'ini suvga tushirib Oq So'yloq ortidan suzib ketdi. Itga yetib olgach, gardanidan g'ijimlab ko'tardi-da, qulochkashlab soldi. Oq So'yloq umri bino bo'lib bunaqa kaltak yemagandi. Qo'li toshdek qattiq Kulrang Qunduz ayamasdan urardi.

Ketma-ket tushayotgan kaltaklar zarbidan Oq So'yloq soat kaftgi-ridek u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. U nima qilarini bilmasdi. Avvaliga u ajablandi, zum o'tmay o'tmay yorilib har zarb tushganda angillay boshladi. Ammo ko'p o'tmay qo'rquv o'mini g'azab egalladi.

Tabiatan bo'ysunmas, erkin-ozod yashashni jon-dilidan seuvuchi Oq So'yloq chidab turolmadi – tishlarini qayrab jazavaga tushgan xo'jayiniga qarab tap tortmay irilladi. Buni ko'rgan Kulrang Qunduzning beshbattar qoni qaynadi. U endi yanayam qattiqroq, yanayam ayamay savalashga tushdi.

U urishdan to'xtamas, Oq So'yloq esa irillashini qo'ymasdi. Biroq bu uzoq davom etishi mumkin emas, kimdir yon berishi lozim edi – Oq So'yloq yon berdi. U yana vahimaga tushdi. Umrida birinchi marta inson uni rostmana kaltaklashi edi. Tasodifan kelib tushgan tayoq yoki tekkan toshning og'rig'i yeayotgan bu kaltagi oldida erkalashdek gap ekan. Oq So'yloq chidayolmay zorlanib uvlay boshladi. Avvaliga har bir zarbdan angillayotgan bo'lsa, ko'p o'tmay quti o'chib vahmaga tushgandan keyin to'xtovsiz uvlashga o'tdi. Oxiri Kulrang Qunduz urishdan to'xtadi. Oq So'yloq havoda osilgancha hamon dod-faryod qilardi. Buni ko'rgan xo'jayin qoniqli, shekilli, uni qayiqning tubiga irg'itdi. Bu paytda suv qayiqni ancha nariga oqizib ketgandi. Kulrang Qunduz eshkaklarni ishga soldi. Oq So'yloq unga xalaqit berardi. Kulrang Qunduz achchiqlanib uni bir tepdi. Shu yetmay turgan edi, yana fe'li kelib qoldi-yu, Oq So'yloq g'archcha egasining oyog'idan tishladi.

Boyagi yegan kaltagi hozirgisini oldida holva ekan. Chapparasta achchig'i chiqqan Kulrang Qunduz bu gal zalvarli eshkakni ishga soldi. Oq So'yloq qayiqning tubiga uchib tushganda sog' yeri qolmagandi. Kulrang Qunduz uni yana tepdi. Oq So'yloq endi uning oyog'iga yopishmadi. Tutqunlik yana bir narsani – hech qachon nima bo'lган taqdirda ham xo'jayinni tishlamaslik lozimligini o'rgatdi, xo'jayinning badani muqaddas, ilohiy, Oq So'yloqqa o'xshagan itlarning uni bulg'ashga haqqi yo'q. Bu aftidan kechirib bo'lmaydigan alam, misli ko'rilmagan va kechirilmaydigan, muruvvat ko'rsatilmaydigan jinoyat sanalardi.

Qayiq qirg'oqqa urilib to'xtadi, ammo Oq So'yloq qimir etmay Kulrang Qunduzning amrini kutib yotaverdi. Kulrang Qunduz Oq So'yloqning bo'yni terisidan ko'tarib shunday uloqtirdiki, bechora it gursillab sohilga tushdi. Oq So'yloq titrab-qaqshab o'midan turdi-da, uvlab yubordi. Sohilda hammasini kuzatib turgan Lip-Lip yugura kelib Oq So'yloqni yelkasi bilan urib ag'dardi va tishlab oldi. Oq So'yloqning qarshilik ko'rsatishga majoli qolmagandi. U o'zini himoya ham qilolmasdi, mabodo egasi joniga oro kirmaganda holiga maymunlar yig'lardi, Kulrang Qunduz kela solib bir tegpan edi, Lip-Lip hov nariga borib tushdi.

Insonga xosadolat bor-yo'g'i shundan iborat, Oq So'yloq hammanyog'i qaqshab og'riyotgani va qo'rquvdan o'ziga kelolmayotganiga qaramay undan minnatdor bo'lishdan o'zga iloj topolmadi. U Kulrang Qunduzning ortidan itoatkorona ergashib chayla tomon yurdi. O'sha kundan e'tiboran Oq So'yloq faqat insonlargina jazolashi mumkinligini, ularga qarashli jonivorlarning bunga haqqi yo'qligini anglab yetdi.

O'sha kuni kechasi, qishloq sokin uyquga ketgan mahal Oq So'yloq onasini eslab ezildi va beixtiyor o'ta g'amgin, lekin baland ovozda shunday uv solib yubordiki, azbaroyi Kulrang Qunduz uyg'onib ketdi va turib itning ta'zirini berdi. Shu voqeadan keyin Oq So'yloq odamlar oldida dard-u hasratini ichiga yutadigan, faqat o'rmonning ovloq chekkalariga borgan paytlarda va bir o'zi qolganida zorlanadigan bo'lidi.

Shu kunlarda Oq So'yloq o'zini g'or va anhor bo'ylariga hamon chorlayotgan ichki ovozga qulq solishi mumkin edi, ammo onasi esiga tushib hech yerga ketolmadi. Ehtimol onasi xuddi ovdan qaytgan ovchilar kabi qaytib kelar, Oq So'yloq Kichini kutib tutqunlikda yashayverdi.

Tutqunlik Oq So'yloqni u qadar qiynamasdi. Aksincha, bu hayotning ko'p jihatlari uni qiziqtirardi. Qishloqda deyarli har kuni albatta biron voqealarning yuz berar, xudolarning g'alati-g'alati ishlarining keti uzilmas, Oq So'yloq esa bu voqealarni o'ta ishtiyoq bilan kuzatib borardi. Bundan tashqari, ta'bir joiz bo'lsa, u Kulrang Qunduz bilan til topishib oldi. Oq So'yloqdan qat'iyan itoat etish talab qilinardi, mana shuni o'zlashtirib olgandan keyin odamlarning g'azabi va kaltagidan u tamomila qutuldi. Goho shunday ham bo'lardiki, Kulrang Qunduzning o'zi ham go'sht bilan siylar va to u yeb bo'lguncha yoniga o'zga itlarni yo'latmasdi. Bunaqa luqmalarining lazzatiga nima yetsin! Xotin-xalajlar bundan o'n hissa ko'p go'sht berishardi, lekin nima uchundir xo'jayinning luqmasi totliroq bo'lardi. Kulrang Qunduz Oq So'yloqni umuman erkalamas, silab-siypamasdi. Kim bilsin, uning ayamay urishimi, yo adolat qilishi va qudratimi yoki shularning hammasi birgalikdami Oq So'yloqqa ta'sir qilardi — nima bo'lgan taqdirda ham uning vujudida bu berahm xo'jayiniga nisbatan moyillik tug'ilala boshladi.

Allaqanday xiyonatkor istaklar Oq So'yloqni tutqunlik to'rlariga o'rab-chirmar, kaltak va musht zARBIDEK ta'sir etardi. Azal-azaldan bo'rini inson huzuriga yetaklagan sezgilar juda tez o'zidan ogoh qilardi. Xuddi shu narsa Oq So'yloqda ham sezila boshladi. Shuning uchunmikin, hozirgi hayoti g'am-tashvishga to'la yoki havas qilgudek bo'lmasa ham, bu qishloq, bu odamlarga mehri tovlanib borardi. Ammo buni o'zi sezmasdi, u faqat Kichini sog'inar, uning qaytib kelishiga ishonar, ilgarigi erkin hayotiga jon-u jahoni bilan talpinardi.

## **Uchinchi bob**

### **YAKKAMOXOV**

Lip-Lip Oq So'yloqning hayotini shunchalik zaharlar ediki, pirovardida u haddan tashqari yovuzlashib, shafqatsiz bo'lib ketdi. Holbuki, tabiat unga boshqa narsalarni ham ato etgandi. To'g'ri, u tabiatan vahshiy, edi, lekin endi Lip-Lip tufayli haddidan oshdi. Hatto

u yovuzligi bilan odamlar orasida mashhur bo'lib ketdi. Har safar qishloqda itlar hurib, ular orasida nizo-janjal qo'zg'alsa yoki go'sht o'g'irlanganini bilib qolgan xotin-xalajlar shovqin ko'tarsa, bunga faqatgina Oq So'yloq sabab ekaniga hech kim shubha qilmasdi. Odamlar nima sababdan shunday voqeа yuz berganini tekshirib o'tirishmasdi. Ular faqat yoki bu hodisa nima bilan tugaganining guvohi bo'lishardi, xolos. Oq So'yloq olg'irligi, muttahamligi va janjalkashligi bilan nom chiqardi, hindu ayollar uni bo'ri deb tilga olishardi, bir kunmas-bir kun o'zining boshini yeydi, deb hukm chiqarishardi, u esa pinagini buzmas, xotinlardan ko'z uzmay kaltak yoki tosh bilan urib qolishmasin deb tayyor turardi.

Oq So'yloq qishloqda yakkamaxov bo'lib qolgandi. O'zi tengi barcha kuchuklar Lip-Lipdan ibrat olishardi. Ular bilan Oq So'yloq o'rtaida qandaydir tafovut ko'zga tashlanardi. Kim biladi, itlar ehtimol uni begona deb hisoblashar hamda hech qachon xonaki it bilan bo'ri kelisholmagani kabi besababdan besabab unga nisbatan kek saqlashardi. Nima bo'lган taqdirda ham ular har qalay Lip-Lip tomonda edilar. Itlar Oq So'yloqqa yomonlik qilishar va buning jiddiy va asosli sabablari bor edi. Ularning hammasi Oq So'yloqdan ozor chekkan, shu ma'noda aytish mumkinki, Oq So'yloq o'z dushmanlaridan boplab o'ch ola bilardi. Yakkama-yakka olishuvda ko'pincha itlarning dodini bera olardi-yu, biroq imkon topilmasdi bunga. Chunki Oq So'yloq biron ta bilan g'ijillashib qoldi deguncha, qishloqdagи barcha yosh itlar darhol yetib kelar va unga tashlanardi.

Itlar bilan adovati Oq So'yloqning ikki narsani tushunib yetishiga sabab bo'ldi: qanday bo'lmasin to'dadan darhol qochish va raqiblardan biri bilan yakkama yakka qolganda imkon boricha qisqa fursat ichida ko'proq jarohat yetkazishga ulgurish, hamda to'rt tomondan qurshab olgan dushmanlari orasida yiqilib qolmaslik – bu o'z hayotini saqlab qolish. U sira yiqilmas, shu jihat bilan mushukni eslatardi. Hatto katta-katta itlar ham uni istagancha turtishlari mumkin – Oq So'yloq ortiga chekinar, irg'ishlar, u yoq-bu yoqqa o'zini otar, lekin oyoqlari chalishib ketmas, qisqasi yiqilmasdi.

Har olishuvdan oldin itlar albatta bitta qoidaga amal qilishadi, irillarydi, bir-birining atrofida aylanib yuradi, junlari hurpayadi. Oq So'yloqning bunaqa odati yo'q edi. Ozgina hayallasa bas, itlar gala-gala yetib keladi. Qancha tez harakat qilsa, qochishiga shuncha oson. Oq So'yloq hech qachon niyatini sezdirmasdi. U ohanjama qilib o'tirmay hamla qilar, dushmanini g'aflatda qoldirib g'archcha tishlar, etlarini uzib-uzib olardi. Shu tariqa u itlarning dabdalasini chiqarishga o'rgangan edi. Bundan tashqari Oq So'yloq raqibi kutmaganda, to'satdan hujum qilib yelkasini yorib tashlash, qulog'ini g'ajish kerakligini, shundagina

ko‘zlagan maqsadiga erishishi mumkinligini yaxshi uqib olgandi. Dovdirab qolgan har qanday itni bir zARB bilan yiqtish oson ekaniga aqli yetardi, zero yiqligan itning bo‘yni, eng zaif yeri kekirdagi himoyasiz qolardi. Oq So‘yloq bu zaif joyning qayerdaligini yaxshi bilardi. Bu tajriba, bu bilim ajdodlaridan unga meros bo‘lib o‘tgandi. Hamla qilayotgan mahal u birinchidan, itning yolg‘iz qolishini, ikkinchidan, kutilmaganda tashlanib uni yiqtishni, uchinchidan, darhol kekirdagidan olishni qoida qilib olgandi.

Oq So‘yloq hali yosh, jag‘lari yetarli darajada rivojlanmagan, shuning uchun bir hamlada raqibini bir yoqli qilolmasdi, shunga qaramay qishloqda juda ko‘p kuchuklarning bo‘ynida Oq So‘yloq tishlarining izi qolgandi. Bir kuni ashaddiy dushmanlardan birini o‘rmon yoqasida tutib olib kekirdagini uzib tashlagan edi. O’sha oqshom qishloqning tinchi buzildi. Uning qilmishini sezib qolishdi, bu haqdagi gap-so‘zlar o‘lgan itning egasiga ham yetib bordi. Xotin-xalaj Oq So‘yloqning barcha qilmishlarini aytib, janjal ko‘tardi-da, oqibat Kulrang Qunduzning uyi oldiga olomon to‘plandi. Lekin Kulrang Qunduz chaylasiga hech kimni qo‘ymadi hamda o‘z qabiladoshlari qo‘liga Oq So‘yloqni topshirishdan bosh tortdi.

Oq So‘yloqni odamlar ham, itlar ham birday yomon ko‘rishardi. Uni bir daqiqa bo‘lsin tinch qo‘yishmasdi, uchragan it unga tishini qayrar, duch kelgan odam uni urmoqchi bo‘lardi. Hamzotlari uni ko‘rganda irillasalar, odamlar qarg‘ashar, tosh otishardi. U har doim hushyor va sergak yurardi. Har daqiqa hamla qilishga, hujumini qaytarishga yoki kaltakka chap berishga shay yurardi. U tishlarini irshaytirib raqibiga tashlanadimi yoki vahshiyona o‘kirib ortiga chekinadimi, farqi yo‘q, hamisha tez va sovuqqonlik bilan harakat qilardi.

Irillashga kelganda unga yetadigan it topilmasdi. Irillashdan maqsad – dushmanni ogohlantirish yoki qo‘rqtish, shuning uchun qachon va qanday sharoitda bu vositani qo‘llash lozimligining farqiga borish shart. Oq So‘yloq ana shu hunarni yaxshi egallagandi. U shunday g‘azab bilan o‘kirar ediki, dushmanining o‘takasini yorib yuborardi. Uning pir-pir uchayotgan burun kataklari, hurpaygan junlari, ilondek bilanglayotgan qizg‘ish tusli tili, chimirilgan quloplari, vahshiyona yonayotgan ko‘zlar va so‘yloq tishlarini ko‘rgan itlarning shaxdi so‘nardi. Oq So‘yloqni g‘aflatda qoldirib hamla qilishgan mahal u nima qilish zarurligini bir soniyada hal qilar va o‘zini o‘nglab olardi. Biroq ko‘pincha shunday daqiqalarda raqibi jang qilishdan bosh tortar, vahshiyona o‘kirish tufayli u hatto tajribali itlar bilan to‘qnashuvda ham ularning o‘takasini yorardi.

Oq So‘yloqni to‘daga qo‘shmay unga qarshi xusumati bo‘lgan tajribasiz, hali xom kuchukchalar shu bois uning qahr-g‘azabiga giriftor bo‘lishardi. Ish shu darajaga borib yetdiki, endi Oq So‘yloqning biron ta-

raqibi to'dadan ajralib bir qadam nari ketolmasdi. Oq So'yloq bunga yo'l qo'ymasdi. Kuchuklar har daqqa uning hamla qilib qolishidan cho'chir, bирontasi yakka-yolg'iz yurishga jur'at qilolmas edi. Lip-Lipdan boshqa barcha itlar qaqshtatg'ich dushmanlarining hujumini birgalikda qaytarish maqsadida to'da-to'da bo'lib yurishga majbur edilar. Bir o'zi suv ichgani daryo bo'yiga borib qolgan it zoti borki sho'ri qurirdi.

Lekin Oq So'yloq bir-birlaridan ajramay yurishganda ham o'ch olishni qo'ymadi. U itlarni bitta-bitta tutib adabini berardi, ular butun to'da bilan unga tashlanishardi. Oq So'yloqni ko'rdi deguncha, itlar kelishib olgandek baravariga uni quvlab qolishardi, shunday vaziyatda Oq So'yloqni ildam oyoqlari asrardi. Biroq, quv-quvga berilib ketib sheriklaridan ancha oldinga o'tib qolgan itning holiga voy. Oq So'yloq ilkis o'girilib, o'sha itga tashlanib qolardi. Bunday hodisa tez-tez sodir bo'lib turardi, chunki itlar quvish bilan bo'lib dunyodagi hamma narsani unutishar, Oq So'yloq esa hech qachon hushyorligini yo'qotmasdi. U har daqiqada shartta o'girilib sheriklaridan ajralib chiqqan tirishqoq va abjirroq ta'qibchiga tashlanib qolish uchun dam-badam ortiga qarab yugurib borardi.

Yosh kuchuklar o'yinga o'ch bo'ladilar, Oq So'yloqning dushmanlari o'zлari sezmagan holda Oq So'yloqning hiylasiga uchib dushmanchilikni zavqli ermakka aylantirib yuborishardi. Bo'ri bolasini zirillatib quvlash itlar uchun sevimli mashg'ulotga, ermakka aylangandi. To'g'ri, bu o'ta xatarli ermak edi. Tez yugurishda ulardan bирontasi bas kelolmaydigan Oq So'yloq xavf-xatarga qarab o'tirmasdi. Kichining qaytib kelishidan hali umidi uzilmagan kezlarda Oq So'yloq o'zini quvib kelayotgan to'dani ko'pincha qo'shni o'rmon tomonga boshlardi. Ammo itlar uni o'sha yerda ham quvib yetolmasdi. Itlarning angillagani va hurishiga qulq solib Oq So'yloq ularning qayerda ekanini ajratardi, o'zi esa daraxtlar oralab tovush chiqarmay yugurib borardi. Qolaversa, itlarga qaraganda Kimsasiz Shimol bilan u qattiqroq bog'langandi, bu yerlarning past-u balandini u yaxshi o'rgangan edi. Ko'pincha Oq So'yloq bunday hiyla ishlatardi: anhorni suzib o'tib izini yo'qtardi-da, butazorda o'zini izlab, u yoqdan bu yoqqa ovora-yu sarson yugurayotgan itlarning shovqiniga qulq solib yotardi.

O'z hamzotlari bilan odamlarning nafratiga duchor bo'lgan va doim hamma bilan qirpichoq bo'lib yurgan Oq So'yloq juda tez, bir tomonlama yetilib borardi. Bunday hayot na mehr-shafqat, erkakashga bo'lgan ehtiyoj uyg'otardi vujudida. Ayni chog'da o'zi ham mehribonlik qilolmas hamda birovni erkatalolmasdi. Bilgani birgina qonun – zo'rga itoat et, zaifni ez, xo'rла! Kulrang Qunduz sen uchun xudo, quadratli, shuning uchun Oq So'yloq unga itoat etardi. Ammo itlar – qaysiki undan yosh va ojiz, ularni yakson qilish kerak.

Oq So'yloqning vujudida hayoti uchun tahdid soluvchi xavf-xatarga qarshilik ko'rsatishga ko'mak beruvchi xususiyatlar takomillashardi. Uning oriq, qayishqoq badanida arqondek piшиq, temirdeq qattiq mushaklar paydo bo'lди. Epchillik va ayyorlikda unga teng keladigani yo'q edi, u barcha itlardan ko'ra ildamroq yugurar, olishuv chog'ida ularga nisbatan rahmsizroq, yovuzroq, chidamliroq, shafqatsizroq bo'lardi. Oq So'yloq shunday bo'lishga majbur edi, aks holda taqdir taqozosiga ko'ra hayot kechirayotgan omonsiz muhitda tirik qolmagan bo'lardi.

## To'rtinchi bob

### XUDOLAR ORTIDAN

Kuzda kunlar qisqarib, havo soviy boshlaganda Oq So'yloqning qochishi uchun qulay sharoit tug'ildi. Qishloqda bir necha kundan beri it egasini tanimasdi. Hindular yozgi chaylalarni yig'ishtirib, ov mavsumiga tayyorgarlik ko'rishardi. Ularning tadorigini diqqat bilan kuzatayotgan Oq So'yloq chaylalar tamomila yig'ishtirilib, yuklar pirogi – uzun qayiqlarga ortilganida hammasini tushundi. Qayiqlar birin-ketin sohildan uzoqlasha boshladi, dastlab yo'lga tushganlari ko'zdan g'oyib bo'lди.

Oq So'yloq shu yerda qolishga qaror qildi va ilojini topgan zahoti o'rmonga qochdi. Muz qoplay boshlagan daryodan kechib o'tib, izini yo'qotdi. So'ng daraxtzorning ichkarisiga yashirinib olib, uzoq kutdi, bu orada bir necha bor uxbab turdi, so'nggi marta ko'zi ilingandi Kulrang Qunduzning ovozidan uyg'onib ketdi. Zum o'tmay, qidirishga chiqqan-larga qo'shilib olgan egasining xotini hamda o'g'li Mit-Saning ovozi qulog'iga chalindi.

Oq So'yloq o'zining laqabini eshitganda qo'rqqanidan qaltirab ketdi, lekin allanima egasining chaqirig'iga javob qaytarishga undayotgan bo'lsa ham o'zini tiydi, o'rmongan chiqmadi. Ko'p o'tmay ovozlar uzoqlashib, bora-bora mutlaqo eshitilmay qoldi. Shundagina u qutulganiga ishonch hosil qilib butazordan chiqdi. Qosh qoraya boshladi. Oq So'yloq ozod bo'lganidan quvonib, daraxtlar orasida o'ynab-o'ynab yurdi. Daf'atan o'zining yolg'iz ekanini sezib, xavotirga tushdi va cho'qqayib, tevarak-atrofga qulop tutdi: o'rmon jimjit edi... Nima sababdandir, allaqanday falokat uni ta'qib etayotgandek tuyuldi. U g'ira-shira ko'rinalayotgan bahaybat daraxtlar, ularning vahimali soyalari tomonga tikilib qoldi. So'ngra sovuqdan eti junjikdi. Hamisha devorlari yoniga borib isinadigan chaylani qo'msadi. Navbat bilan, dam o'ng panjasini, dam chap panjasini tagiga bosib ko'rdi, keyin ularni momiq dumি bilan yopdi, xuddi shu daqiqada ko'z oldidan bir nimalar o'ta boshladi... Buning hech qanday ajablanadigan yeri yo'q – uning ko'z oldidan tanish manzaralar o'ta boshladi. Yana qishloq, chaylalar, gulxanlar ko'rindi, xotin-xalajning

shang'illagan, erkaklarning do'rillagan ovozi hamda itlarning akillashi eshtildi. O'lgudek och Oq So'yloq ahyon-ahyon odamlar siylab beradigan go'sht bo'laklari bilan baliqlarni esladi. Biroq, hozir uni siylaydigan kimsa yo'q, qop-qora o'rmon, xavotirli tarzda jimjit edi.

Tutqunlik Oq So'yloqni noziklashtirib yuborgandi. Insonga qaram bo'lishlik oqibatida uning kuch-quvvatiga putur yetgan, mustaqil ravishda yegulik topib yeyishdan butunlay chiqib qolgan edi. Uning boshi uzra tun chodirini yoya boshladи. Qishloqdagi doimiy qiy-chuv, to's-to' polon, ola-g'ovurga ko'nikkan Oq So'yloq hozir nima qilarini bilmasdi. U shitirlagan tovush yoki qilt etgan harakatni ilg'amoqchi bo'lardi. Sukunatga cho'mgan borliq qo'ynida hamon allaqanday mash'um falokat o'zini kutib turgandek tuyulardи.

Daf'atan Oq So'yloq qaltirab ketdi. Uning ko'z oldidan shakl-u shamoyilsiz bahaybat bir nima o'ta boshladи. Bulutlar orasidan suzib chiqqan oy nurida ulkan daraxt soyasi yerga tushgan ekan. U xotirjam tortib past ovozda uvladi, ammo ehtiyyot shart biron yerda yashirinib yotgan dushman e'tiborini jalb qilish mumkinligini eslab, o'sha zahoti uni o'chdi.

Tungi ayoz qo'ynida junjikkan daraxt shoxi boshi uzra qattiq g'irchilladiyu, Oq So'yloq sapchib tushdi va qo'rqqanidan orqa-oldiga qaramay qishloq tomon yugurdi. U odamlarga zor, ularning himoyasiga muhtoj ekanini sezdi, dimog'idan tutun hidi, qulog'i ostidan odamlarning baqir-chaqirlari butunlay arimagandi. U o'mondan oy nuriga g'arq bo'lgan yalanglikka chiqdi. Ammo harchand atrofsa javdiramasin, o'z qishlog'ini topolmadi. U odamlarning u yerdan ko'chib ketganini unutgan edi.

Oq So'yloq qoqqan qoziqdek qotib qoldi. Uning o'zga borar joyi yo'q edi. U kimsasiz va tashlandiq manzilgohda odamlar qoldirib ketgan axlat va lash-lushlar uyumini iskagancha tentirab yurdi. Ayni lahzalarda u hatto shallaqi bir xotin tosh bilan ursa, hatto Kulrang Qunduz kaltak bilan ursa quvongan, Lip-Lipni, qo'rqqoq itlar galasini jon-jon deb qarshi olgan bo'lardi.

U bir vaqtlar Kulrang Qunduzning chaylasi joylashgan yerga borib, cho'qqayib o'tirgancha mahobatli oy gardishiga termuldi. Uning bo'g'ziga bir nima qadalgandek bo'ldi, yolg'izlik, qo'rquv, Kichini sog'inganlari, boshiga tushgan musibatlar va kelgusidagi kulfat-uqubatlar — g'amgin va zoriqqan nolaga aylanib bo'g'zidan otilib chiqa boshladи. Bu Oq So'yloq ko'ksidan birinchi marta otilib chiqqan bo'riyona nola edi.

Tong otgach, bu vahimalardan nom-nishon qolmadi, ammo u beshbattar siqila boshladи. Yaqindagina hayot qaynab toshgan qarorgoh vayronalari uning yuragini qon qilib yubordi. U uzoq ikkilanib o'tirmay, o'rmon sari yuzlandi-da, daryo yoqalab yugura ketdi. Shu asno bir daqiqqa dam olmasdan qorong'i tushguncha yugurdi. Go'yo dunyoning narigi chekkasiga qadar to'xtamay yugura oladigandek o'zini bardam

sezar, charchash nimaligini bilmasdi. Toliqa boshlagan chog'da ham yugurishdan to'xtamadi, ajdodiga xos sabot va chidam unga kuch-quvvat ato etayotgandek bo'lardi.

Daryo tik qirg'oqlar oralab oqqan yerlarda Oq So'yloq aylanib o'tish uchun toqqa qarab yugurdi. Makkenziga quyiladigan daryolar bilan irmoqlarni kechib o'tdi. Ko'pincha daryoning qirg'oqqa yaqin yupqa muz qoplagan qismidan yurishga to'g'ri kelardi, ba'zan muz yorilib Oq So'yloq suvga tushib ketar, shunday lahzalarda o'lishiga bir bahya qolardi. Har ne bo'lganda ham u ana hozir odamlarning to'xtab, quruqlik ichkarisiga ravona bo'lgan izlariga duch kelishiga ishonar va qattiq umid qilardi.

Oq So'yloq boshqa itlarga nisbatan xiyla ziyrak edi. Lekin shunday bo'lsa ham Makkenzi daryosini yoqalab borayotgan qirg'og'idan o'zga, ikkinchi qirg'og'i ham borligini bilmasdi. Odamlar narigi qirg'oq orqali quruqlikka chiqqan bo'lsalar-chi? Buni u tasavvur ham qilolmasdi, ehtimol keyinchalik ulg'aygach, hamda uzoq safarlarga chiqib tajriba orttirgach, daryo qirg'oqlarida qolgan inson izlarini izlab topishga o'rganib ketganda buning farqiga borar? Ammo bunday balog'at istiqbolda kutmoqda edi. Hozir esa Makkenzining bitta qirg'og'ini ko'zdan qochirmay tusmollab borardi.

Qorong'ilikda turli-tuman toshlar, g'ovlarga qoqilib-suqilib tun bo'yi yugurdi. Bu to'siqlar uni yo'ldan chalg'itar, ammo yugurish ishtiyoqini so'ndirolmasdi. Ikkinci kunga borib o'ttiz soatlilik tinimsiz yugurishdan so'ng u toliqa boshladi, lekin shunda ham g'ayrati so'nmadi. U deyarli ikki kecha-yu-ikki kunduz tuz totmagan va ochlikdan tinka madori qurigan edi. Bu yodqa uzlusiz muzdek suvga tushib ketaverishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Uning bebahoi junlari balchiqqa belandi, serbar panjasining tovonlaridagi yara-chaqalardan qon sizib oqdi. U oyog'ini bosolmay qoldi. Bu ham yetmagandek osmonni bulut qoplab, ho'l qor uchqunlay boshladi. Qor tez eriganidan yo'llarning rasvosи chiqib yurish beshbattar qiyinlashdi.

O'sha tun Kulrang Qunduz dam olgani Makkenzi daryosining narigi qirg'og'ida to'xtadi, chunki ov makonlariga olib boradigan yo'llar shu yoqda joylashgan edi. Ammo kechga tomon Kulrang Qunduzning xotini Klu-Kuch sohilga suv ichgani kelgan bug'uni payqab qoldi. Qisqasi bug'u qirg'oqqa kelmaganda, qorbo'ron tufayli Mit-Sa to'g'ri yo'ldan adashmaganda, Klu-Kuch bug'uni sezmay, Kulrang Qunduz bir necha o'q bilan uni tinchitmaganda bormi, bundan keyingi voqealar mutlaqo o'zgacha yo'nalishda davom etgan bo'lardi. Kulrang Qunduz shu atrofda, qirg'oqda to'xtamagan, Oq So'yloq esa ularni ko'rmagan, nobud bo'lgan yoki bo'rilar to'dasiga qo'shilib ketgan bo'lardi.

Tun kirdi. Qor endi bo‘ralab yog‘a boshladi, kalovlanib yo‘l-yo‘lakay zorlangancha uv solib borayotgan Oq So‘yloq daf‘atan odam iziga duch keldi. Iz shunchalar yangi ediki, Oq So‘yloq buni darhol sezdi. U toqati toq bo‘lib uvillab yubordi-da, o‘rmon tarafga yugurdi. Uning qulog‘iga tanish ovozlar yetib keldi. U gulxan alangasini, allanima pishirayotgan Klu-Kuchni, cho‘k tushgan ko‘yi bir bo‘lak dumbani shimib o‘tirgan Kulrang Qunduzni ko‘rdi.

Oq So‘yloq jazolashlarini kutardi. Shu esiga tushgan zahoti junlari hurpaydi. Keyin pusib ilgari yurdi. U kaltaklanishdan qo‘rqrar, shu bilan bu jazodan qochib qutulolmasligini bilardi. Ammo u gulxan yonida isinib yotishni, odamlar himoyasida bo‘lishni, garchi kek-xusumatlari bo‘lsa ham tirik jon bilan yaqinlik qilish ehtiyojlarini qondira oluvchi itlar orasida yashashini ham bilardi.

Oq So‘yloq sudralgancha gulxanga yaqinlashdi. Uni ko‘rib qolgan Kulrang Qunduz dumba yog‘ shimishdan to‘xtadi. Oq So‘yloq qo‘rqa-pisa boraymi, bormaymi degandek sudralardi. Odamzod oldida jilpanglashga majbur qilayotgan xo‘rlik, tobelik hissi uni ezardi. U imillab sudralar, bamisli Kulrang Qunduzga yaqinlashgan sari sudralishi qiyinlashayotgandek arang siljirdi, oxiri uning oyoqlari ostiga cho‘zildi – go‘yo bu bilan o‘zining inon-ixtiyorini unga topshirdi. U o‘z ixtiyori bilan inson yoqqan gulxan yoniga keldi va o‘zini uning hukmi-irodasiga topshirdi. Oq So‘yloq kaltaklashlarini kutib qaltirardi. Kulrang Qunduz qo‘lini ko‘tardi. It qo‘rqanidan g‘ujanak bo‘lib oldi. Ammo Kulrang Qunduz urmadidi.

Oq So‘yloq qo‘rqa-pisa yuqoriga qaradi. Taajjub! Kulrang Qunduz dumba yog‘ni ikkiga bo‘lib, bir qismini unga uzatdi. Oq So‘yloq ishonqiramay sekin moyni iskadi, so‘ng tishlab tortdi. Kulrang Qunduz unga go‘sht beringlar, deb buyurdi va Oq So‘yloq go‘shtni yeb bo‘lguncha boshqa itlami uning yaqiniga yo‘latmadi. Bu marhamatdan iyib ketgan Oq So‘yloq xo‘jayinning oyoqlari ostiga cho‘zildi, u gulxan alangasiga termular ekan, ko‘zlar suzilib, yumilib ketardi. U ertaga mash‘um o‘rmonda emas, balki eti bilan suyagini topshirgan va hayot-mamoti bilan bog‘liq odamlar qarorgohida uyg‘onajagini sezar va bundan quvonardi...

## Beshinchi bob

### SHARTNOMA

Dekabrning o‘rtalarida Kulrang Qunduz Makkenzi daryosining yuqori qismiga yo‘l oldi. Mit-Sa bilan Klu-Kuch ham u bilan birga ketdi. Kulrang Qunduzning chanasini u ayirboshlab yoki qo‘shnilardan ijara olgan itlar tortib borardi. Mit-Sa boshqarayotgan nisbatan kichikroq ikkinchi chanaga

esa kuchuklar qo'shilgan edi. Kuchuklar ham, chana ham yolg'ondakamga o'xshar, ammo Mit-Sa o'zida yo'q xursand edi: u chinakam yigitlarning ishini qilyapman, deb quvonardi. Qolaversa, shu bahonada u ham itlarni boshqarishga o'rganar, ham ularni chana tortishga o'rgatar, ham kuchuklar abzalda yurishga odatlanar edi. Mit-Saning chanasi bo'sh emas, ikki yuz futcha keladigan yuk va yegulik ortilgan edi.

Itlarning chana tortishini Oq So'yloq ilgaritdan bilardi. Shuning uchun o'zini birinchi marta chanaga qo'shishganda tarxashlik qilmadi. Unga jun qoplangan bo'yinbog' kiydirishdi. Ko'kragi bilan yelkasi osha o'tgan qayishlarning bir uchi bo'yinboqqa, ikkinchi uchi chanaga bog'langan uzun arqonga ulangan edi.

Chanaga to'qqiz-o'n oylik yettita kuchuk qo'shilgan bo'lib, Oq So'yloq ulardan bir oylik kichik edi. Har bir it alohida-alohida bog'langan edi. Itlarning bo'y-bastiga qarab arqonlarning uzun-qisqaligi belgilanardi. Arqonlar chana tumshug'idagi halqaga ulanardi. Chananing tag qismiga qayin po'stlog'i o'rnatilgan edi – qorga botib qolmasligi uchun tumshug'i qayirma qilib ishlangan edi. Shunday moslama evaziga chana bilan unga ortilgan yuklarning umumiyligi og'irligi ortiqcha sezilmas va tortish osonlashardi. Xuddi shu maqsadda – iloji boricha og'irlilikning hamma yerga bir xil taqsimlanishi uchun itlar chanaga yelpig'ichsimon qilib bog'langan, bu holatda ular bir-biriga xalaqit ham bermasdi.

Itlarni yelpig'ich shaklida joylashtirishning yana bir afzalligi arqonlarning uzun-qisqaligi orqadagi itning oldindagisiga hamla qilishiga yo'l qo'ymas, har bir it o'zidek kalta arqonga bog'langan qo'shnisi bilan tishlashishi mumkin edi, xolos. Ammo bu vaziyatda hamla qilishga chog'langan it birinchidan raqibiga yuzma-yuz kelishga majbur bo'lsa, ikkinchidan haydovchining kaltagidan qochib qutulolmasdi. Ammo itlarni bu usulda joylashtirishning beqiyos ustunligi oldindagi itlarga tashlanishga chog'langan orqadagi itlar ularga yetib olish uchun qayishlarni bor kuchi bilan tortar va chana qanchalik tezlashsa, ta'qib etilayotgan it ham shuncha tez yugurishga majbur bo'lardi, shu tariqa orqadagi it oldindagisiga sira yetib ololmasdi. Biri yetib olaman deb Yugursa, boshqasi qocharman deb, shuncha tez yugur, natijada chana ham shitob bilan yurardi. Mana shunday ustamonlik bilan inson hayvonni jilovlab olardi.

Har jihatdan otasiga tortgan Mit-Sa, unga o'xshab, juda-juda ziyrak edi. U Lip-Lip anchadan beri Oq So'yloqqa kun bermay yurishini sezardi, lekin unda Lip-Lip birovga qarashli it edi va Mit-Sa kishi bilmas tosh otishdan boshqa chora topolmas edi. Endi Lip-Lip uniki, nima qilsa ixtiyor o'zida, shu sababli eski qilmishi uchun dodini berishga ahd qilgan Mit-Sa uni hammadan uzunroq arqonga bog'lab qo'ydi. Shu tariqa Lip-Lip yetakchiga aylangan va go'yo bu bilan unga iltifot

ko'rsatishgandek edi — ammo aslida bu hech qanaqa iltifot emasdi, chunki endi o'sha janjalkash va to'da yetakchisiga aylangan Lip-Lipni yomon ko'rgan itlarning bari uni holi-joniga qo'yishmasdi.

Hammadan uzun arqonga bog'langan Lip-Lipni itlar qochayapti, deb tushunishardi. Ularga Lip-Lipning oyoqlari-yu, momiq dumiko'rinar, bu esa tishlarini g'ijirlatib, hurpayib turishidan qo'rquinchliroq emasdi. Undan tashqari qochayotgan itni ko'rgan boshqa itlar, tabiiyki, o'z-o'zidan uni quvishga tushishardi.

Chana jildi deguncha jami itlar Lip-Lipning ortidan yugurar va bu quv-quv kun bo'yi davom etardi. Dastlab izzat-nafsi og'rigan Lip-Lip o'zini ta'qib etayotganlarga dam-badam tashlanmoqchi bo'lardi, ammo har safar Mit-Sa uni quritilgan kiyik ichagidan to'qilgan o'ttiz futli qamchisi bilan urib joyiga qaytishga majbur qilardi. Butun to'da bilan olishishdan qo'rwmagan Lip-Lip qamchi desa ichi o'tib ketar, shu sababdan tishlarini yalang'ochlagan sheriklaridan qochish uchun arqonni siltab tortishdan o'zga iloji qolmasdi.

Hindular o'ta ayyor bo'ladi. Lip-Lipga nisbatan barcha itlarni yanada qayrash niyatida Mit-Sa ularning hasadlarini qo'zg'ab, nafratini oshirib Lip-Lipni ochiqdan-ochiq siylashga o'tdi. Mit-Sa butun to'daning ko'z oldida uni alohida go'sht bilan boqar, qolganlariga shashvar ham bermasdi. Itlar g'azabdan quturgudek bo'lishhardi. Ular o'zlarini qayerga qo'yishni bilmay go'sht yeayotgan Lip-Lip tevaragidan ketolmas, Mit-Sa qo'lidan qamchisini qo'ymay turgani uchun yoniga borishga botinolmasdilar. Go'sht tugab qolgan kezlar Mit-Sa itlarni nari haydar va o'zini go'yo Lip-Lipni boqayotgan ko'yga solardi.

Oq So'yloq ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Insonga itoat etgach, u boshqa itlarga nisbatan ko'proq narsani anglagan va inson irodasiga qarshi borish besamarligini ularga nisbatan teranroq ilg'agan edi. Undan tashqari, o'ziga nisbatan yomonligi, adovati itlarni inson oldida beqadr qilib qo'ygandi. U hamzotlari bilan birgalikda yashashga zor emasdi, Kichini deyarli unutib yuborgan va o'zi itoat etayotgan insonlarga sadoqat tuyg'ularini ifoda etishning salkam yagona vositasiga aylangan edi. Shu bois Oq So'yloq zo'r berib harakat qilar, buyruqlardan bosh tortmas va tartib-intizomga bo'ysunardi. U chanani halol, ishtiyoq bilan tortardi. Umuman bu xususiyatlar ozmi-ko'pmi barcha o'rgatilgan bo'rilar bilan itlarga xos narsa. Oq So'yloq esa shu fazilati bilan alohida ajralib turardi.

Avvalo Oq So'yloq sira itlarga qo'shilmasdi, mabodo qo'shilib qolsa ham bu yaqinlik o'sha zahoti janjalga aylanib ketar, oxiri ayovsiz olishuv bilan tugар edi. U hech qachon ular bilan birga o'ynamasdi. U nihoyatda jangari edi. Lip-Lip sardor bo'lgan og'ir kunlarda o'ziga yetkazilgan bir zarra alam va jabr uchun undan yuz karra o'ch olar edi. Hozir Lip-

Lip qorda chayqalib-chayqalib chanani tortib ketishayotgan chog'dagina unga hukmini o'tkazardi. Qarorgohlarda Lip-Lip Mit-Sa, Kulrang Qunduz hamda Klu-Kuchning yonidan bir qadam nari jilmasdi. Chunki barcha itlar uni yomon ko'rар va u ilgari Oq So'yloq chekiga tushgan adovat va nafratning alam-iztiroblarini totib ko'rayotgan edi.

Lip-Lipni yenggandan keyin Oq So'yloq to'da sardori bo'lishi mumkin edi, ammo bunga uning fe'l to'g'ri kelmasdi, u haddan tashqari tez, yovuz va damduz edi. Chanakash sheriklari undan yaxshilik ko'rmas, arzimagan narsalarga tashlanib qolar, boshqa paytlar esa ularni nazarpisand qilmasdi. Uni ko'rganda itlar burilib nari ketar, hatto eng qo'rmas va abjirlari ham Oq So'yloqqa tegishli go'shtni tortib ketishga botinolmasdi. Bil'aks ular Oq So'yloq tortib olmasin, degan xavotirda o'zlariga berilgan et-suyakni iloji boricha tezroq yeb olish payida bo'lardilar. Oq So'yloq kuchsizni ezib, zo'rga itoat et degan qoidani shior qilib olgandi. U xo'jayini tashlagan go'shtni paqqos tushirar, shunda nasibasini yeb ulgurmagan itning sho'ri qurirdi. Oq So'yloq vahshiyona irillab unga hamla qilar va sho'rlik itning og'zidagini tortib olar, pirovardida uning arz-dodini yulduzlarga aytishdan boshqa iloji qolmasdi.

Vaqti-vaqt bilan goh u it, goh bu it unga qarshi bosh ko'tarardi, lekin Oq So'yloq o'sha zahoti ularning ta'zirini berib bosib qo'yardi. U itlar o'rtasidagi mavqeini haddan ziyyod qadrlar va uni omonsiz janglar evaziga qo'lga kiritganini his qilardi. Ammo bunday olishuvlar uzoq cho'zilmasdi. Negaki, itlarning orasida unga birontasi teng kelmasdi, u raqibi kutmaganda noxosdan tashlanib zarba berar va to o'sha it o'zini o'nglaguncha qoniga belanardi.

Odamlarga o'xshab Oq So'yloq hamzotlari orasida, qat'iy tartib-intizom o'rnatgan edi. U birontasining ra'yiga qaramas va tamomila itoat etishni talab qilardi. Itlar o'zaro hushiga kelganini qilishlari mumkin, buning unga aloqasi yo'q. U asosan itlarning bo'ysunishi, to'da orasiga kirganda darhol yo'l bo'shatishlari va hukmiga itoat etishlarini, qisqasi, bir so'z bilan aytganda o'z mavqeiga putur yetkazmasliklarini qat'iy nazorat qilardi. Bironta qopog'on tishlarini qayrab yoki junlarini hurpay-tirgudek bo'lsa, Oq So'yloqdan baloga qolardi.

U yovuz mustabid singari o'z zulmini o'tkazardi. Kuchsizlarga kun bermasdi. Bolaligida yolg'iz onasi bilan ikkovi qattol Shimol mashaqqatlarini yengib yashash uchun timmay kurashganlari izsiz ketmagandi. Kuchli raqiblar oldida Oq So'yloq quyushqondan chiqmasdi. U kuchsizlarni ezzani bilan kuchlilar oldida yuvosh tortib qolardi. Kulrang Qunduz olis safarga chiqqan chog'lar o'zgalar qarorgohiga qo'nsa Oq So'yloq o'sha yerdagи begona itlar orasida shovqin solmay, o'zini chetroq olib yurardi.

Oradan bir necha oy o'tdi, Kulrang Qunduzning safari tugay demasdi. Sermashaqqat olis yo'l bilan uzlusiz zo'r berib chana tortishlar oqibatida

Oq So'yloq chiniqdi, aftidan u har jihatdan yetilgan edi. O'zini qurshagan olam jumboqlarini to'la-to'kis bildi – tushunib yetdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu olamni unchalik xushlamas, undan hech qanday yaxshilik kutmasdi. Bu shafqatsiz va berahm olamda mehr-muhabbat, ezzulik, muruvvatdan asar ham ko'rinnasdi.

Oq So'yloq hatto Kulrang Qunduzni ham xushlamasdi. To'g'ri, uning uchun Kulrang Qunduz bamisoli xudo edi, ammo berahm xudo! Kulrang Qunduzning hukmi, aqliy ustunlik va zo'ravonlikka asoslangan bo'lsa ham Oq So'yloq uning irodasiga bajonidil bo'ysunardi. Uning tiynatida shu ustunlikni quvvatlaydigan bir nima mavjud edi, aks holda u qattol va berahm Shimoldan eson-omon qaytib kelmagan va bu bilan o'zining odamlarga sodiqligini isbot qilolmagan bo'lardi. Oq So'yloqning insonga noma'lum bo'lgan sirli dunyosi mavjud edi. Bir og'iz shirin so'z aytsa yoki silab-siyapalasa Kulrang Qunduz uchun mana shu daxlsiz sirli dunyo eshiklari ochilardi, ammo u hech qachon Oq So'yloqni silab-siyapalamas va shirin so'zlar bilan erkalamas edi. Bunga u odatlanmagan edi. Kulrang Qunduz nihoyatda berahm edi va gunoh qilgan itni ayovsiz kaltaklar, mabodo taqdirlamoqchi bo'lsa erkalash o'rniga kaltaklashdan tiyilardi, xolos.

Oq So'yloq inson qo'li nechog'li huzur-halovat baxsh etishi mumkinligini bilmasdi. Darvoqe, u inson qo'lini xushlamasdi ham, negaki unga ishonmasdi. Ba'zan unga go'sht tutgan mana shu qo'llar ko'pincha azob berardi. Ulardan nari bo'lgan ma'qul, chunki istagan paytda tosh bilan uradi, tayoq, so'yil, qamchi bilan savalaydi, ular kaltaklash va turtkilash, qisqasi ozor yetkazish uchun yaraydi. Hech bo'limganda badanini chimchilab, junlarini tortqilab va yulqib oladi. Qo'shni qishloqqa borganda u bolalarning ham dilozor bo'lishi mumkinligiga ishonch hosil qildi. Shu-shu Oq So'yloq bolalarga ham ishonmasdi. U bolalarni to'g'ridan to'g'ri yomon ko'rib qoldi. Ular qachon yoniga kelsa nari ketardi.

Katta Erksizlik ko'li bo'yida joylashgan qishloqlarning birida Oq So'yloq Kulrang Qunduz bergan saboq bo'yicha insonga hamla qilish kechirib bo'lmas gunoh ekanini o'z boshida sinab ko'rdi. Qishloqdag'i barcha itlarning odatiga binoan Oq So'yloq yegulik izlab yo'nga tushdi. U yaxlagan bug'u go'shtini bolta bilan maydalayotgan bolaga duch keldi. Bola har bolta urganda muzlagan et parcha-parcha bo'lib har tomonga uchib tushardi. It to'xtab etlarni terib yeya boshladidi. Buni ko'rgan bola boltani tashladi-da, zalvarli so'yilni qo'liga olib Oq So'yloqqa xezlandi. Oq So'yloq o'zini orqaga olib uning zarbidan arang qutulib qoldi. Bola uning ortidan quvdi, it esa notanish qishloqda qayerga qocharini bilmay chaylalar orasiga o'zini urdi va ko'tarma damba bilan to'silgan boshi berk ko'chaga kirib qolganini o'zi ham sezmay qoldi.

Bu yerdan qochib qutulishning iloji yo‘q, bola yagona yo‘lni to‘sib turardi. U so‘yilni baland ko‘tarib bir qadam oldinga yurdi. Oq So‘yloqning vahshiyligi tutdi. Nohaq jazolanayotganidan g‘azabi toshgan it hurpayib bolaga qarab irilladi. U bu yerlardagi qonun-qoidani yaxshi bilardi, qanday go‘sht ekanidan qat‘i nazar yerda yotgan go‘sht uni topib olgan itga tegishli bo‘lajagini ham Oq So‘yloq bilardi, shuning uchun hozir o‘zini aybdor sanamasdi, shunga qaramay bola uning adabini berib qo‘yish niyatidan qaytmadi. Hammasi ko‘z ochib yumguncha bo‘lib o‘tdi: Oq So‘yloqning o‘zi ham sezmay qoldi. Buni u birdan quturish natijasida qildi, hatto raqib ham nima bo‘lganini bilolmadi. Bola qo‘qqisdan qorga yiqildi-yu, Oq So‘yloq uning so‘yil tutgan qo‘lidan g‘archcha tishladi.

Bu bilan Oq So‘yloq inson tomonidan joriy etilgan qonunni buzgandi. Xo‘jayinlaridan birining muqaddas badaniga tishini botirdimi, tamom, endi eng og‘ir jazoga tayyorlanaverish kerak. U Kulrang Qunduzning himoyasiga qochib bordi. It tishlagan bola oila a‘zolari bilan xun so‘rab kelganda Oq So‘yloq g‘ujanak bo‘lib Kulrang Qunduzning oyoqlari ostida yotardi. Biroq, ular quruq qo‘l bilan qaytib ketdilar. Kulrang Qunduz Oq So‘yloqni himoya qildi. Mit-Sa bilan Klu-Kuchlar uning yoniga tushdi. Odamlarning baqir-chaqirlariga qulq solib, zarda bilan qo‘llarini paxsa qilishlariga qarab turib Oq So‘yloq o‘z qilmishini oqlash mumkinligini sezdi va shu tariqa har narsaga qodir insonlar ham har xil bo‘lishini tushunib yetdi. Buning farqi katta edi. O‘z xudolarining yaxshiligiga ham, yomonligiga ham chidash shart, ammo begona xudolar yomonligiga indamay turish shart emas, o‘ch olish uchun ularni qopsa bo‘laverar ekan. Bu ham bir qonun edi.

O‘sha kuni Oq So‘yloq o‘zi kashf etgan yangi qonun bilan yaqindan tanishdi. O‘rmonda shox-shabba terib yurgan Mit-Sa bir to‘da bolalarga duch keldi, ular orasida Oq So‘yloqdan ta‘zirini yegan anavi bola ham bor edi. O‘rtada janjal chiqib bolalar Mit-Saga yopishib ketishdi. U nima qilarini bilmay gangib qoldi – har tomondan musht yog‘ilardi. Avvaliga Oq So‘yloq mushtlashishni shunchaki oddiy hol deb hisobladi. Qolaversa, buning unga daxli yo‘q edi. Ammo zum o‘tmay Mit-Sani urishayotganini tushunib qoldi. Shundan keyin nimaki qilgan bo‘lsa Oq So‘yloq o‘ylamay qildi. U g‘azabdan ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay to‘s-to‘polonga o‘zini urdi. Besh daqiqadan so‘ng bolalar tum-taraqay bo‘lib qochishdi. Oq So‘yloqning tishidan qochib qutulolmagan ko‘pchilik bolalar qorda qonlarini oqizib ketishdi. Bo‘lib o‘tgan hodisani Mit-Sa qishloqqa borganda aytib bergandi, Kulrang Qunduz Oq So‘yloqni go‘sht bilan siyladi. Shu choqqacha unga bunchalik ko‘p go‘sht berishmagandi. Oq So‘yloq go‘shtni pok-pokiza tushirib gulxan oldiga yotdi-da, qonunga amal qilganiga qat‘iy ishonch hosil qilgan ko‘yi dong qotib uxlab qoldi.

Shundan keyin Oq So'yloq, xususiy mulk nimaligini va egasining mol-mulkini qo'riqlash lozimligini tushunib yetdi. Egasining badanini himoya qilish bilan uning molini qo'riqlash orasida unchalik farq yo'q edi. Oq So'yloq buni ham amalga oshirdi. Xo'jayiniga qarashli nimaiki bo'lsa hammadan, hatto boshqa xudolarning tajovuzidan ham qo'riqlash darkor edi. Lekin insonga nisbatan bu shakkoklik o'ta xavfli edi. Inson har narsaga qodir bo'ladi, itning ularga bas kelishi mushkul, shunga qaramay Oq So'yloq cho'chimasdan ularning ko'zini moshdek ochib qo'yishga odatlandi. Burchiga sadoqat hissi qo'rquvdan ustun kelgan, shu sababli qo'li egri insonlar Kulrang Qunduz moliga ko'z olaytirmaydigan bo'lishdi.

Oq So'yloq qo'li egri insonlarning qo'rroq bo'lishi va arzimagan xavf-xatar oldida juftakni rostlab qolajaklarini juda tez payqdadi. Undan tashqari (tajribada sinab ko'rgach) Kulrang Qunduz shunday chog'larda ko'z ochib yumguncha yetib kelardi. U yana shuni angladiki, o'g'ri Oq So'yloqdan emas, Kulrang Qunduzdan qo'rqqani uchun qochib ketarkan. O'g'rini ilg'agan Oq So'yloq shovqin ko'tarmasdi – aytmoqchi, vovillash uning qo'lidan kelmasdi ham – u chaqirilmagan mehmonga birdan tashlanar, agar ilojini topsa duch kelgan yeridan g'ajirdi. Yovuzligi va damduzligi egasining molini qo'riqlashda Oq So'yloqqa qo'l kelar va buning uchun Kulrang Qunduz doim uni taqdirlardi. Aloha Oq So'yloq battar yovuzlashib, qaysarroq bo'lib qoldi va tirik jon zoti borki, jinidan yomon ko'rib qoldi.

Bir-birini quvalashib oyalar o'tdi. Vaqt o'tgan sari it bilan inson o'rtasidagi munosabat tobora mustahkamlanib borardi. Bu munosabat allazamonlarda huvillagan Shimoldan inson huzuriga kelgan birinchi bo'ri tomonidan tiklangan edi. O'z o'tmishdoshlari – bo'rilar bilan vahshiy itlarga o'xshab bunday munosabatlarni Oq So'yloq ham o'ziga moslashtirgan edi. Bu juda oddiy edi. Insonga sig'inish evaziga erkini qurban qildi, evaziga inson unga o'z uyidan joy berdi, uni asradi, boqdi va parvarish qildi. Bunga javoban u ham insonning mol-mulkini qo'riqlar, xizmatiga hamisha tayyor turar va unga itoat etardi.

Modomiki sen sig'inadigan zot bor ekan, uning xizmatini qilish darkor. Oq So'yloq o'z vazifasiga sodiq va odamzoddan hayiqish hissiga itoat etib, egasiga xizmat qilardi. Ammo uni yaxshi ko'rmasdi. U muhabbat nimaligini bilmas va ushbu tuyg'u lazzatini tatib ko'rmagan edi. Kichi esa olis xotiraga aylangan edi. Boz ustiga insonga o'zini fido qilish hissi tufayli Oq So'yloq huvillagan Shimol hamda hamzotlari bilan aloqasini behuda butunlay uzmagandi, balki agar uchratib qolsa insonni tashlab Kichi ortidan ketmaslik shartiga ham bo'ysungan bo'lar edi. Insonga sodiq bo'lish Oq So'yloq uchun qonunga aylangan va bu qonun erkka intilishdan ham, qardoshlik rishtalaridan ham qudratliroq, ustunroq edi.

**OCHARCHILIK**

Kulrang Qunduzning safari qariganda ko'klam yaqinlashib qolgandi. Hamalning boshlarida bir yashar bo'lib qolgan Oq So'yloq yana qadrdon qishlog'iga keldi, shu yerda Mit-Sa uni abzaldan bo'shatdi. Garchi Oq So'yloq hali to'la voyaga yetmagan bo'lsa ham har holda Lip-Lipdan keyin bir yoshli kuchuklar ichida eng yirigi edi. U bo'ri otasi bilan onasi Kichiga tortgan va hali suyagi qotmaganligini aytmasa kuch-quvvatda katta itlardan qolishmasdi. U juda baquvvat, abjir va xushqad edi, olishuvlar chog'ida u ortiqcha kuchanmay, chapdastlik bilan raqibini yengardi. Juni bo'rinishdan ham g'irt bo'riga o'xshagan kulrang edi. Ko'rinishdan ham o'rtasidagi qiziqishlarni his qildi. Basik qarib kuchdan qolgan, Oq So'yloq esa navqiron va kun sayin kuchiga kuch qo'shilmoqda edi. Itlar bilan o'zi o'rtasidagi munosabatning o'zgarib qolgani qishloqqa qaytib kelganining uchinchi kuniyoq ravshan bo'ldi. Odamlar hozirgina o'ldirilgan bug'u go'shtini buzishardi. Unga bug'uning tuyog'i bilan sergo'sht boldir suyagini berishdi. Oq So'yloq et talashib g'ajishayotgan itlardan qochib, o'rmon ichkarisiga borib nasibasini yeyishga tutindi. Qo'qqisdan Basik unga hamla qilib qoldi. Hali nima gapligidan bexabar Oq So'yloq qari itni g'archcha tishlab qochdi. Bunday shijoat va keskin hamlani kutmagan Basik angrayib Oq So'yloqqa tikilib qoldi. Suyak esa o'rtalarida yotardi.

Basik qarib qolgan va kuchga to'lgan yosh abjir itlarning dovyurakligini sinab ko'rjan edi. Ilgari Oq So'yloqqa o'xshagan itlarning o'pkasini bosib qo'yish unga cho't emasdi. Har qancha og'ir bo'lmasin, alamini ichiga yutib yosh itlarga masxara bo'lmaslik uchun jon-jahdi bilan tirishardi. Bir paytlar g'azabini qo'zg'atishsa, bunaqa olg'irlarga g'azab bilan tashlanardi, endi esa kuchdan qolgan, yuragi betlamasdi. U

hurpayib, yeb qo'yudek Oq So'yloqqa tikildi. Oq So'yloq esa bir payt-lardagi qo'rquvlari esiga tushib kuchukchadek junjayib oldi-da, iloji boricha sharmando bo'lmasdan qochish payiga tushdi.

Mana shu o'rinda Basik xatoga yo'l qo'ydi. U qahr-g'azab bilan yovuz-larcha turaver-gandami, hammasi binoyidek tugar, Oq So'yloq suyakni tashlab qochardi. Biroq Basikning sabri chidamadi. U yengdim degan ishonchda oldinga chiqdi-da, suyakni iskadi. Oq So'yloqning junlari hurpaydi. Hatto shunda ham mushkul ahvoldan chiqish imkonib bor edi. Zero Basik boshini ko'tarib raqibiga yeb yuborgudek qadalib turaver-ganida, Oq So'yloq oxir-oqibatda nari ketardi. Lekin qoni selgib turgan go'sht hidi Basikning dimog'ini qitiqladi va u o'zini tutolmay suyakni tishladi.

Oq So'yloq bunisiga chidayolmadi. Yaqiningada chana tortuvchi sheriklariga hukmini o'tkazib yurgani uchunmi o'ziga tegishli etni boshqa it tortib olayotganini ko'rib, g'azab quturtirib yubordi. U odatdagidek kutilmaganda Basikka tashlandi. Birinchi hamlada qari itning o'ng qulog'i shalvirab osilib qoldi. Nogohon hujumdan u dovdirab qoldi. Zum o'tmay ko'ksidan berilgan xuddi shunday zarbadan keyin Basik yiqlidi: uning bo'ynidan tirqirab qon otildi. Keksa itning oyoqqa turishiga imkon bermay Oq So'yloq yelkasidan tishlab tortdi. Bunaqa shiddatli hamlalar har qanday itni dovdiratib qo'yardi. Basik Oq So'yloqqa otildi, ammo chap berishga ulgurgan Oq So'yloq o'sha zahoti uning tumshug'idan oldi. Qari it kalovlanib nari ketdi.

Vaziyat keskin o'zgargandi. Endi tahdidona hurpayib olgan Oq So'yloq suyak tepasida, Basik esa har lahma chekinishiga shaylanib xiyla narida turardi. U shiddatli, ayovsiz, yosh raqibi bilan olishishga botinol-masdi. Basik qarib kuchdan qolganiga yana bir karra alam bilan iqror bo'ldi. Uning o'z qadr-qimmatini saqlashga urinishi olqishga sazovor aslida. U hech narsa bo'limgandek, go'yoki abjir Oq So'yloq ham, uning oldida yotgan suyak ham mutlaqo ahamiyatsiz narsalardek shaxd burildida, savlat to'kib nari ketdi. U Oq So'yloqning ko'zidan tamom uzoqlash-gandan keyingina yerga yotib jarohatlarini yalab-yulqashga tushdi.

Shu voqeadan keyin Oq So'yloqning o'ziga bo'lgan ishonchi uzil-kesil ortdi va uncha-munchani mensimay qo'ydi. U endi bahaybat itlar orasida bemalol yurar, ularga yon bermas edi. U atay janjal chiqarishni istamas, yo'q, balki u o'ziga e'tibor talab qilardi. U haqini bermas va boshqa itlar oldida o'zini pastga urishni istamasdi. U bilan murosa qilish lozim edi, tamom vassalom. Uni hech kim kamsitولmasdi. Bu asli kuchukchalarga tegishli edi, lekin barcha itlar shunga amal qilishardi. Kuchukchalar iloji boricha katta itlarga ro'baro' kelmaslik payida bo'lishadi, ularni ko'rganda darhol yo'l berishadi, ba'zan esa yeb turgan go'shtlaridan benasib qolishadi. Ammo badfe'l, yakkamoxov, o'lgudek qaysar, vajohatli, hammadan yotsiraydigan Oq So'yloqni katta itlar

o'zлari bilan teppa-teng ko'rishardi. Uni tinch qo'yish lozimligini darhol payqagan itlar teskari bo'lishmas, shu bilan birga juda yaqinlashib ketishdan ham saqlanishardi. Oq So'yloq ham shunga yarasha munosabatda bo'lar, aloha bir necha to'qnashuvdan keyin itlar bunday siyosat ikki tomon uchun ayni muddao ekaniga ishonch hosil qildilar.

Yozning o'talarida kutilmagan voqeа yuz berdi. Oq So'yloq hindular bilan bug'u ovida yurgan mahal yangi qurilgan chaylalarni ko'rib kelish uchun qishloqning narigi chekkasiga lo'killab ketayotganda lop etib oldidan Kichi chiqib qoldi. U to'xtab Kichiga qaradi. Hali onasini u butunlay unutmagandi. Kichi esa o'z bolasini unutgan edi. U vahshiyona irillab, tishlarini qayraganda o'tgan kunlar Oq So'yloqning esiga tushdi. Bolaligi, hamda bu irillash nimadan dalolat berishi xotiriga qalqib chiqdi. Inson himoyasiga o'tgunga qadar Oq So'yloq uchun Kichi hayot-mamot edi. Unutilayozgan tuyg'ular jo'sh urib Oq So'yloq onasiga talpindi, ammo Kichi unga ro'yxush berish tugul, qopib, bir parcha etini uzib oldi. Nimaga ekanligini tushunolmagan Oq So'yloq bunday munosabatdan esankirab chekindi.

Ammo buning uchun Kichini ayblab bo'lmasdi. Chunki urg'ochi bo'ri tabiiyki, o'z bolasini bir yildan so'ng unutib yuboradi. Shunga binoan Kichi ham Oq So'yloqni unutgan edi. Oq So'yloq uning uchun yot-begona itga aylangan hamda bu orada tuqqan boshqa bolalari bunaqa notanish itlarga adovatli bo'lishga izn berardi.

Kichining kuchukchalaridan biri Oq So'yloq yoniga keldi. Bir qorin-dan talashib tushganliklarini ularning ikkovi bilmasdilar. Oq So'yloq qiziqsinib kuchukchani iskayotgan edi, Kichi yana unga hamla qilib, tumshug'ini qonga bo'yadi. Oq So'yloq yana-da nariroq ketdi. Uning ko'z oldida jonlangan o'tmisx xotiralari qayta so'ndi, kulga aylandi. U bolasini yalab-yulqab, ora-chora o'ziga irillab qo'yayotgan Kichiga termuldi. Endi Kichining Oq So'yloqqa keragi yo'q edi. Oq So'yloq uning yordamisiz hamma narsani uddalay olar va Kichi nimasi bilan o'ziga aziz ekanini uyam unutgan edi. Onasining hayotida Oq So'yloq uchun joy qolmagani kabi Oq So'yloqning hayotida ham Kichi uchun o'rin qolmagan edi.

Oralarida hech qanday qadrdonlik bo'limgandek Oq So'yloq yuz bergen hodisadan esankirab, nima qilarini bilmay turdi. Shu payt Kichi uchinchi bor unga otildi-da, butunlay haydab yubordi. Oq So'yloq qarshilik ko'rsatmadni. Kichi urg'ochi edi, Oq So'yloq mansub bo'lgan nasl qonuniga binoan erkak bo'ri urg'ochisi bilan olishmasligi shart edi. Bu qonun haqida u hech narsa bilmas, lekin hayotiy sабоqlar tufayli anglagan, ta'bir joiz bo'lsa, bu odad unga qon orqali – uni oyga, tungi yulduzlarga qarab uvlashga, o'lim va taqdirdan qo'rqishga o'rgatgan qon orqali o'tgan edi.

Oylar ketidan oylar o'tdi. Oq So'yloq kun sayin kuchga to'lib, yiriklashib, fe'li atvori esa nasl-nasabi hamda muhit ta'siri ostida shakllanib borardi. Oq So'yloq bamishi pishitilgan loy edi. Muhit bu loydan istagan shaklda, istagan narsasini yasardi. Zero, inson oshyoniga kelmaganda, kimsasiz shimol uni vahshiy bo'ri qilib tarbiyalagan bo'lardi. Ammo inson o'zga muhit yaratib berdi, natijada Oq So'yloqdan ko'p jihatlari bo'rige o'xshagan it dunyoga keldi, har holda u bo'rige emas itga aylangandi.

Xullas, Oq So'yloq o'zini qurshab olgan muhit ta'sirida shakllandı. Shunday bo'lishi tabiiy edi. U tobora yovuzlashib borar, o'z hamzotlariga qo'shilmasdi. Ular ham Oq So'yloq bilan chiqishmay yashagandan ko'ra tinch-totuv yashagan afzalroq ekanini sezgandilar. Kulrang Qunduz bo'lsa uni yaxshi ko'rib, tobora uning qadriga yetib borardi.

Ammo voyaga yetgani bilan Oq So'yloq bitta nuqsondan xalos bo'lomadi, u o'zini masxara qilishlariga chidab turolmasdi. Inson kulgusi qonini qaynatib yuborardi. Odamlar bir-birlarining ustidan istagancha kulishlari mumkin, buning unga ahamiyati yo'q, e'tibor qilmaydi, ammo birontasi uning ustidan kulta bormi, o'sha zahoti aynirdi, tappa tuzuk it bir zumda quturib ketardi. Kulgi unga shunchalik yomon ta'sir etardiki, azbaroyi shunaqa paytlarda qip-qizil iblisga aylanardi. Shunday lahzalarda Oq So'yloqqa ro'para kelib qolgan kuchuklarning holiga voy! U Kulrang Qunduzdan alamini qanday olishni bilardi, lekin Kulrang Qunduzga kaltak bilan aqli yordam berar, kulgidan quturib ketgan Oq So'yloq g'azabiga duchor bo'lgan itlar joniga esa poyonsiz kenglik oro kirardi.

Oq So'yloq dunyoga kelganining uchinchi yili Makkenzi daryosi bo'yida yashovchi hindular ochlik balosiga giriftor bo'ldilar. Yozda baliqning urug'i quridi, qishda kiyiklar bu yerlarni tashlab ketishdi. Bug'ular deyarli uchramas, quyonlar qirilib bitgandi. Yirtqich hayvonlar kamayib ketdi. Ochlikdan tinkasi qurigach, ular bir-birlarini g'ajishga tushdilar. Kim zo'r bo'lsa tirik qolardi. Oq So'yloqning egalari asosan ovchilik bilan shug'ullanishardi. Odamlar orasida qarilar bilan kasalmandlari birin-ketin dunyodan ko'z yumdi. Qishloqqa g'am-kulfat oralagan, yig'i-sig'i tinmasdi. Xotin-xalaj bilan bolalar bir burda nonlarini o'lya izlab o'rmon kezgan, darmonsiz ovchilarga ilinishardi.

Ochlik odamlarni chunonam qiy nab yubordiki, ular chuvaklari bilan xom teridan tikilgan qo'lqoplarini ham yeyishga majbur bo'lishdi, itlar esa abzallari-yu qayishlarini yeb bitirishdi. Undan tashqari itlar bir-birini, odamlar esa ularni tutib yeyishardi. Dastlab zaif, ishga yaroqsiz itlarni tinchitishdi. Tirik qolgan itlar buni ko'rib yaqin orada o'zlarini ham shu ko'yga tushishlarini sezishardi, jasurroq va aqllirog'i qirg'in boshlangan kunlar odamzod oshiyonini tashlab, o'rmonga qochishar, o'rmonda ularni ochlik yoki ochlik tufayli quturgan bo'rilar kutib turardi.

Mana shu og'ir damlarda Oq So'yloq ham o'rmonga qochib ketdi. O'zga itlarga nisbatan u yashovchan edi — kichikligida boshidan o'tgan og'irchilik asqotdi. U ayniqsa, rezgi jonivorlarni tutishga usta edi. Oq So'yloq o'ta hurkak olmaxonlarning yerga tushishlarini poylab, soatlab kutishga qobil edi. Buning ustiga ochlik har qancha azob berayotgan bo'lsa ham sabr qila olardi. Oq So'yloq hech qachon hovliqmasdi. To bir hamlada tutib olishga ko'zi yetmaguncha pusib yotaverardi, olmaxonning yana daraxtga chiqib ketishi mumkinligidan cho'chimasdi. Shunday fursat yetdi deguncha yashirinib yotgan yeridan o'qdek otilib chiqar, ana unda olmaxonni epchilligi ham, chaqqon oyoqchalari ham qutqarib qololmasdi.

Ko'pincha bunaqa olmaxon ovlari besamar ketmasa ham, Oq So'yloq qanoat hosil qilmas, qorni to'ymasdi, chunki olmaxon kam uchrar, natijada chor-nochor nisbatan maydaroq jonivorlarni tutib yeishga to'g'ri kelardi. Goho ochlikdan shunchalik qiynalib ketar ediki, azbaroyi sichqon uyasini kavlashdan ham or qilmasdi. O'zi singari och, ammo yuz karra qaqqhatqich latchadan ham hazar qilmasdi.

Ochlik chidab bo'lmas darajada tinkasini quritgan kezlar u xudolar yoqqan gulxanga o'g'richa yaqinlashar, ammo juda yaqin bormasdi. U odamlarni ko'rsa qochar, o'rmonda sanqib yurar, tuzoqlarga tushgan o'ljalarни o'g'irlab yergi. Bir kuni u hatto Kulrang Qunduzning tuzog'i-dagi quyonni olib qochdi. Kulrang Qunduz esa bu paytda gandiraklab, dam-badam nafasini rostlash uchun to'xtab-to'xtab, so'ng yana yo'lida davom etib yurardi.

Ittifoqo bir safar Oq So'yloq sillasi qurigan va arang oyog'ida turgan yosh bo'riga duch keldi. Agar Oq So'yloq bu qadar och bo'limganda ehtimol unga ergashib ketgan va shu tariqa bo'rilar to'dasiga borib qo'shilgan bo'lardi, ammo hozir o'sha bo'rini quvib borib o'ldirish va qornini to'yg'azishdan boshqa iloji qolmagandi.

Oq So'yloqning toleiga har safar ochlik huruj qilganda oyog'i tagidan albatta biron o'lia chiqib qolardi. Hatto holdan toyib, yurolmay qolgan kezlarida ham omad undan yuz o'girmadi — shu vaqt ichida biron marta ham o'zidan yirikroq yirtqichlarga duch kelmadı. Kunlarning birida sirtlon go'shtidan to'yib yeb olgan Oq So'yloq bo'rilar galasini uchratib qoldi. Uzoq va omonsiz quv-quv boshlandi, ammo bo'rillardan ko'ra kuchliroq, bardoshliroq bo'lgan Oq So'yloq oxir-oqibat qochib qutuldi. U hatto qochib qutulish bilan kifoyalananmay katta doira yasab yugurayotganda iziga qaytib holdan toygan bir bo'rining qornini yorib tashladi.

Ko'p o'tmay Oq So'yloq bu yernarni tashlab vodiya, tug'ilgan makoniga jo'nadi. Bir vaqtlardagi uyasini izlab topganda o'sha yerda Kichini uchratdi. Kichi ham benajot gulxanlar yonini tark etgan, bolalash pallasi yaqinlashganda, g'orga qaytib kelgandi. G'or og'zida Oq So'yloq paydo bo'lgan paytda

Kichining bolalaridan bor-yo'g'i bittasi omon qolgandi. U ham o'lar holatda edi. Bunaqa ocharchilik hukm surganda, jon saqlash oson emasdi.

Lekin Kichi to'ng'ich bolasini hushlamay kutib oldi. Oq So'yloqqa baribir edi. Bundan buyon u onasiga muhtoj bo'limgani uchun pinagini buzmay undan yuz o'girdi-da, daryo bo'ylab ketdi. Daryoning so'l qirg'og'ida Oq So'yloq bir vaqtlar onasi bilan birga olishgan silovsin uyasini topdi. Mana shu tashlandiq uyaga kirib kun bo'yil dam olib yotdi.

Yozning boshlarida, ocharchilik tugay deb qolganda Oq So'yloq Lip-Lipni uchratib qoldi. U ham o'zi singari o'rmonga qochgan va amallab kunini ko'rib yurgandi. Oq So'yloq uni uchrataman deb sira kutmagandi. Tepalikning qarama-qarshi tarafdan aylanib o'tayotgan itlar qoya ortidan baravar yugurib chiqishdi-da, yuzma-yuz kelishdi. Bunday kutilmagan uchrashuvdan qo'rqib ketgani uchun ikkovi ham dong qotib bir-biriga tikilishdi.

Oq So'yloqning kuch-quvvati joyida edi. Keyingi bir hafta davomida ovi baroridan kelib ochlik nimaligini bilmagan, hali so'nggi o'jasini yeb hazm qilishga ham ulgurmagan edi. Lip-Lipni ko'rgan zahoti uning junlari tikka bo'lib ketdi. U o'zi sezmagan holda tashlanishga chog'landi, ilgari janjalkash Lip-Lip bilan ham uchrashganda shu taxlit g'azabi qaynardi. Hozir ham xuddi shunday bo'ldi: dushmanini ko'rgan Oq So'yloq g'azab bilan irilladi-da, o'zini unga otdi. Hammasi bir zumda hal bo'ldi. Lip-Lip ortiga tisarildi, lekin Oq So'yloq yelkasi bilan uni urib yiqitdi-da, ustiga chiqib tomirlari o'ynab yotgan bo'ynidan g'ajib tashladi. Lip-Lip jon talvasasida tipirchilar, Oq So'yloq esa undan ko'z uzmay tegrasida aylanardi. Keyin u yana yo'lga tushdi va qirg'oq keskin burilgan yerda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shundan keyin Oq So'yloq o'rmon adog'iga yugurdi va ensizgina yalanglikka chiqdi, undan Makkenzi daryosi bo'yiga tushdi. U ilgari ham bu yerga kelgandi, ammo u paytda sohil kimsasiz edi, hozir esa uzoqda qishloq ko'zga tashlandi. Oq So'yloq to'xtab, daraxtlar ortidan pusib qishloqni ko'zdan kechirdi. O'sha tomondan kelayotgan ovozlar bilan hidlar unga tanishdek tuyuldi, bu boshqa yerga ko'chirilgach qishloq edi. Biroq kelayotgan ovozlar va hidlarga qaraganda allaqanday o'zgarish yuz berganga o'xshardi. Qiy-chuv, yig'i-sig'i ovozlari eshitilmasdi. Bu farovonlikdan darak berardi. Oq So'yloq serjahl ayolning o'shqirganini eshitganda, qorni to'q odamgina shunday g'azablanishi mumkinligini sezdi. Havoda baliq hidi anqirdi, demak qishloqda yemish bor. Ochar-chilik tugabdi. U o'rmonдан chiqib xo'jayinning chayласи томон yugurdi, xo'jayin uyda yo'q ekan, ammo Klu-Kuch quvонч bilan Oq So'yloqni qiyqirib kutib oldi, unga yangi baliq berdi va Oq So'yloq yerga yotib Kulrang Qunduzning qaytishini intazorlik bilan kuta boshladi.

## TO'RTINCHI QISM



### Birinchi bob

#### DUSHMAN

Oq So'yloqning shu choqqacha hamzotlari bilan chiqishib ketish uchun bir misqol xohishi bo'lsa, bu xohish-istik u yetakchi bo'lgach butunlay patorat topdi. Itlar uni yomon ko'rib qolishdi; Mit-Sa siylab, ortiqcha go'sht bersa ham, o'rinnoo'rinn o'zlaridan ustun qo'yayotgani uchun ham va hatto doim karvonning boshida ekani va birgina hilpiragan momiq dumi va tez yugurganidan oyoqlari lipillab ko'rinyayotgani uchun ham o'zlarini qo'ygani joy topolmasdilar.

O'z navbatida Oq So'yloq ham itlardan behad nafratlanardi. Yetakchilik qilishning turgan-bitgani azob edi. Uch yil mobaynida hukmini o'tkazib kelgan itlarning akillashlaridan qochib yugurishga to'g'ri kelayotganini sira hazm qilolmasdi. Lekin bunga ko'nikishi shart va zarur, aks holda hayoti zahar-zaqqumga aylanardi. Holbuki, uning vujudida jo'shqin hayot ifodasi bo'l mish g'ayrat, umid-ishtiyoq qaynabtoshardi. Mit-Sa joyidan qo'zg'aldi deguncha, itlar g'azab bilan akillab Oq So'yloqni ta'qib eta boshlar edi.

U o'zini himoya qilolmas, boshini burib itlarga qarashi bilanoq Mit-Sa qamchisi bilan savalashga tushardi. Shu tariqa Oq So'yloqning jon-jahdi bilan yugurishdan o'zga iloji qolmasdi. Dumi va orqa oyoqlari bilan uvullab kelayotgan bo'rilar galasining hamlasidan o'zini himoya qilolmasdi, o'nlarcha ayovsiz so'yloqtishdan bu taxlit himoyalanish aslo mumkin emasdi. Alal-oqibat Oq So'yloq o'zini zo'r lab va g'ururini toptab bo'lsa ham shamoldek uchib borardi, holbuki, kun bo'yи shunday yugurishga to'g'ri kelardi.

O'zini bunday qiyashning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Basharti badandagi tuk terining ichiga qarab o'sishga majbur etilsa, uning azob berishi tabiiy. Oq So'yloq ham xuddi shu ko'yga tushgan edi. Ortidan ta'qib etayotgan itlarni tilka-pora qilgisi kelar, ammo xudolar irodasiga qarshi borish mumkin emasdi, buning ustiga kiyik ichagidan to'qilgan o'ttiz futli qamchi bilan o'z xohishlarini dam-badam eslatib turishardi. Oq So'yloq yovuz va tiyiqsiz fe'liga munosib bermisli adovat va nafratini ichiga yutib hammasiga chidar edi.

O'z og'a-inilariga ayovsiz dushman bo'lgan biron jonivor mavjud ekan, o'sha Oq So'yloqning o'zi edi. U hech qachon rahm-shafqat tilamas va o'zi ham hech kimni ayamasdi. Badanidan yara-chaqa arimas, o'z navbatida itlar ham uning tishlaridan hammayog'i qashqa bo'lib yurishardi. Itlarni yechib yuborgan zahotlari odamzod himoyasiga oshiqadigan aksar yetakchilardan farqli ravishda Oq So'yloq bunday himoyaga muhtoj emasdi. U kechasi qo'rqlmay qarorgohda izg'ib, kunduzi alam yetkazgan itlarning dodini berardi. Oq So'yloq hali onaboshi bo'lmanan kezlarda uning hozirgi sheriklari odatda unga duch kelib qolishdan saqlanishardi. Endi vaziyat o'zgardi. Ertadan kechgacha davom etgan ta'qib, kun bo'yi Oq So'yloqning o'zlaridan qochib yurgani, o'z hukmilari ostida bo'lganini his qilgan itlar undan qo'rqlmay qo'yishdi. To'da orasida paydo bo'ldi, deguncha janjal boshlanardi. Uning qarorgohda izg'ib yurishlari urush-janjalsiz, to'polonsiz o'tmasdi. U nafas olayotgan havoda nafrat va adovat kuchli edi, mana shu vujudidagi nafrat va adovat alangasiga yog' quyardi.

Mit-Sa to'xtashga buyruq bergenida Oq So'yloq uning o'dag'aylasiga itoat etardi. Dastavval bu to'xtashlardan itlar norozi bo'lib hammalari baravariga o'zboshimcha yetakchiga tashlanishardi. Lekin mana shunday paytda ish kutilmaganda boshqacha tus olardi: qamchisini o'ynatib Mit-Sa aralashardi. Nihoyat, itlar agar chana Mit-Saning buyrug'iga binoan to'xtasa, yetakchiga tegmaslik kerakligini, Oq So'yloq o'zboshimchalik bilan to'xtatsa, u holda dodini berish mumkinligini tushunib yetishdi.

Oxir-oqibat Oq So'yloq buyruqsiz to'xtashni bas qildi. Bunaqa saboqlar tez hazm bo'ladi. Qolaversa, Oq So'yloqning tez ko'nikmasdan iloji ham yo'q edi, aks holda chekiga tushgan bunday og'ir, shafqatsiz sharoitda omon qolishi dargumon edi.

Ammo boshqa itlarga bu saboqlarning foydasi tegmadi – ular qarorgohda hamon uni holi-joniga qo'yishmasdi. Kunduzgi ta'qiblar va yetakchiga nafratlari aks etgan akillashlari tufayli itlar o'tgan tuni ro'y bergan voqeani birmuncha unutishardi, ertasiga kechasi yana o'sha hol takrorlanar, biroq, ertalab yana hech nima bo'lmanandek unutilardi. Bundan tashqari itlar Oq So'yloqni yomon ko'rishlarining yana bir boshqa jiddiy sababi bor edi. Ular Oq So'yloqning nasl-nasabi begona ekanini sezishar, ular orasiga keskin adovat solishga shu ham kifoya qilardi.

Ular ham aslida Oq So'yloq singari o'rgatilgan bo'rillardan edi, ammo ular qo'lga o'rgatilgan bo'rilarining surriyoti edi. Shimol tabiat bo'rilariga ato etgan ko'p xislatlardan nom-u nishon qolmagan va Shimol o'lkasi itlar uchun faqat noma'lum, xatarnok va mangu adovat makoni-dek ko'rinardi. Oq So'yloq esa bu yerlarda o'zini bemalol tutar, ortiqcha

qiynalmas, tashqi qiyofasidan tortib qiliqlari-yu, mayl-ixtiyorlarigacha tomiri Shimol o'lkasiga tutash ekanidan dalolat berardi. U shu o'lkanning ramzi va yorqin namunasi edi. Shu sababli itlar unga tish qayrash orqali bamisli odamzod gulxanini har tomondan qurshab **olgan** zim-ziyo o'rmonlar va zulmat qo'ynida yashiringan falokatdan o'zlarini himoya qilishgan bo'lardi.

Itlar doim birga bo'lish kerak, degan bir qoidaga qat'iy amal qilishardi. Oq So'yloq o'ta xavfli raqib bo'lgani uchun u bilan yakkama-yakka qolishga birontasi botinolmasdi. Itlar unga gala-gala bo'lib hujum qilishardi, aks holda Oq So'yloq bir kechada ularning sho'rini quritgan bo'lardi. Asosan, shu sababli raqiblaridan birontasining adabini berish Oq So'yloqqa nasib etmasdi. U yiqitishga raqibini yiqitardi, lekin qolganlari o'sha zahoti unga tashlanib, sheriklarini bo'g'izlashiga yo'l qo'yishmasdi. Janjal qo'zg'algudek bo'lsa, hamma itlar o'z yetakchilariga ahillik bilan hamla qilishar edi. Itlar har kuni muttasil g'ajishar, ammo ulardan birontasi Oq So'yloq bilan janjallashib qolsa bormi, o'zaro janjallarga barham berilar va unutilardi.

Lekin har qancha tirishmasinlar Oq So'yloqni yengolmasdilar. Oq So'yloq ularga nisbatan epchil, shiddatli va sezgirroq edi. U itlarga yem bo'lishi mumkin ovloq yerlarga bormas, to'da qurshab olmoqchi bo'lganda hamisha qochib qutulardi. Oq So'yloqning oyog'idan olishga bironta itning qurbi yetmasdi. Uning oyoqlari baquvvat, chayir, bamisli yerdan o'sib chiqqanga o'xshardi, uni hayotdan bezdirishning iloji bo'l-maganidek, yiqitish ham mumkin emasdi. Shu sababli to'da bilan olib borayotgan omonsiz janglarda hayotini saqlab qolish va yiqilmaslik Oq So'yloq uchun ma'nodosh tushunchalar bo'lib, buni o'zidan ko'ra hech kim bilmassi.

Xullas, Oq So'yloq o'z hamzotlarining inson yoqqan gulxan yonida jon saqlab, uning najotbaxsh qudrati himoyatida erkalanib yashagan bo'rilarining ashaddiy dushmaniga aylandi. Hayot shunga majbur qildi. U barcha itlarning qonini to'kishga qasd qildi va ulardan shunchalar ayovsiz o'ch ola boshladiki, hatto o'ta ketgan berahm va vahshiy Kulrang Qunduz ham hayratdan yoqa ushladi. «Bunaqasi boshqa bo'lmaydi», derdi Kulrang Qunduz Oq So'yloq itlarini dabdala qilganda. Qo'shni qishloqlik hindular ham uning gaplarini tasdiqlashardi.

Kulrang Qunduz o'zi bilan olis safarga olib chiqqanda Oq So'yloq besh bahorni ko'rgan edi. Serqoya tog'lar etagida joylashgan qishloqlardan tortib Makkenzi va Porkyupayn daryolari sohillari yoqalab to Yukonga dovur Oq So'yloqning itlarga qiron solgani haqida afsonalar yurardi. U qasos ishtiyoqi bilan yashardi. Begona itlar undan yomonlik kutmas, chunki bexosdan hamla qilib qoladigan bunaqa itni uchratmagan edilar. Uning yashindek bir zarb bilan har qanday itni tinchitadigan

dushmanligini bilmas edilar. Begona qishloqlarda itlar Oq So'yloq oldiga mensimagandek yaqinlashardi, u esa ogohlantirib o'tirmay, barnisli tarang tortilgan kamondek bexosdan otilar, bo'g'zidan olib, nima gapligini anglamasdanoq raqibini asfalasofilinga jo'natardi.

Oq So'yloq o'ta tajribali jangari it bo'lib yetishdi. U ortiqcha chiraniб o'tirmas va shu bilan birga cho'zib ham o'tirmas, payt poylab turib, bir hamla bilan tinchitardi qo'yardi. Mabodo dushmani chap berib qolsa, yoki mo'ljalidan adashsa o'sha zahoti epchillik bilan ortiga chekinardi. Oq So'yloq dushmani bilan uzoq vaqt adovatda yashab yurolmasdi, toqati yetmasdi. Qolaversa, bu juda xatarli edi, shuning uchun u xotirjam yurolmas, adovat va nafratdan quturib ketardi. U emin-erkin, o'z bilgicha yashashni istar, hech kimga, hech narsaga qaram bo'lishni xohlamasdi. Shimol tabiat Oq So'yloqni beomon iskanjasidan qo'yib yubormas va uni o'z hukmiga bo'ysundirmoqchi bo'lardi. Dunyoga kelganidan boshlab o'ziga o'xshaganlardan yotsirab, begonadek yashagani uchunmi, erkin yashashga bo'lgan ishtiyoqi kuchayib borar edi. Dushman bilan yonma-yon, apoq-chapoq yashash negadir xatarli tuyular, Oq So'yloq bunday munosabatga ishonmas va doimo xavfsirab, xavotirlanib yashardi.

Yot-begona itlarning u bilan olishishga chog'i kelmasdi. Ular Oq So'yloqni yenga olmasdilar, Oq So'yloq ularning adabini berar va biron yeri chaqa bo'lmay qochib qolardi. To'g'ri, doim ham shunday bo'la-vermasdi. Ba'zan bir necha it baravar tashlanib, qochishga ulgurolmay qolgan, goho esa biron-bir it boplab ta'zirini bergen paytlar ham bo'lardi. Biroq, bu kamdan-kam hollarda ro'y berardi. Oq So'yloq olishishga shunchalar mohir bo'lib yetishdiki, deyarli barcha to'qnashuvlarda g'alaba qozonardi.

Uning yana bir afzalligi – o'ta chapdast va tadbirkorligi edi. Turgan gapki, buni o'ylab o'tirmasdi. Oddiygina, o'tkir ko'zları unga hech qachon pand bermas va u boshqa itlarga nisbatan tez va aniq harakat qilar, bunga kuch va quvvati yetarli edi. Kuch va ayyorlikda ham unga birona it tenglasholmasdi. Raqibining nima maqsadda shaylanayotganini sezib turar va hamla qilishga shoshilmas, to fursat yetishini kutardi. Shu vajdan u raqibining hamlesi va zarbiga chap bera olar va ayni chog'da har lahzada o'zi hujumga o'tishi va unga tashlanishiga imkon tug'ilardi. Buning uchun unga qoyil qolish shart emasdi – bor-yo'g'i tabiat boshqa itlarga qaraganda undan himmatini ayamagandi, xolos.

Oq So'yloq Fort Yukon qal'asiga kelganida yoz fasli edi. Qishning nihoyasida Kulrang Qunduz Makkenzi bilan Yukon oralig'idagi suv ayirg'ichdan o'tib, serqoya tizma tog'lar etagida bahor oxiriga qadar ov qilib yurdi. Porkyupayn daryosini qoplagan muzlar erib bitgach, Kulrang Qunduz pirogi yasab Yukonga quyiladigan yerga suzib bordi.

Gudzon ko'rfazidagi kompaniyaning qal'asi shu yerda joylashgan edi. Qal'ada hindular ko'p edi, oziq-ovqat ham mo'l-ko'l, hamma yerda jo'shqin hayot davom etardi. 1898-yilning yozi edi, son-sanoqsiz oltin izlovchilar Yukon bo'y lab Shimolga – Douson va Klondayk sari siljishardi. Ularning ko'zlagan manziliga yetib borishlari uchun yana yuzlab chaqirim yo'l yurishlari kerak edi, holbuki, ko'pchiligi bir yildan beri yurishgani-yurishgan edi, besh ming mildan kam yurdim, degan odam topilmasdi, ayrimlari esa olis yurtlardan – dunyoning narigi chekkasidan kelishgan edi.

Kulrang Qunduz Yukon qal'asiga kelib to'xtadi. Oltin jazavasi haqidagi ovozalar uning ham qulog'iga yetib kelgan va u o'zi bilan bir necha toy mo'yna va yana bir toy qo'lqoplar-u yumshoq charm bashmoqlar keltirgan edi. Agar mo'maygina daromad orttirish umidi bo'imganda Kulrang Qunduz o'la qolsa bunaqa olis safarga chiqmagan bo'lardi. Ammo u ko'rsaki, bu yer kutganidan a'lo ekan. U orzulari ko'shkida teng baravar foyda ko'raman deb o'ylagandi, qarasa undan ham ko'p foyda qilish mumkin ekan. Chin hindularga xos tarzda Kulrang Qunduz qancha bo'lsa kutaman, kuzgacha qolsam qolay lekin arzonga bermayman, degan niyatda ishga kirishdi.

Yukon qal'asida Oq So'yloq ilk bor oq tanli odamlarni ko'rdi. Ular hindularga qaraganda boshqa toifadan, yanayam qudratliroqdek, yanayam ulug'roq bo'lgan toifadandek tuyuldi. Bunga Oq So'yloq juda tez ishonch hosil qildi. Oq tanli kishilarning qudratli ekaniga ishonish uchun katta aql bo'lishi shart emasdek, buni u bir ko'rgandayoq sezdi. Hindular tomonidan qurilgan chayla qachonlardir unga inson qudratidan darak bergen bo'lsa, endi bahaybat qo'rg'on va to'sinlar-u xarilardan tiklangan uylar hayratga soldi. Bularning hammasi zo'r qudratdan dalolat berardi. Oq tanli odamlarning qudrati beqiyos edi. Kulrang Qunduz eng qudratlisi hisoblangan avvalgi egalarining qudrati oq tanli xudolarniki oldida hech gap emasdi. Kulrang Qunduz ham oq tanllilar oldida ojiz, notovondek tuyulardi.

Tabiiyki, Oq So'yloq buni faqat his qilar, nega shundayligi haqida o'yamasdi. Zotan, jonivorlar asosan shunday hissiyot asosida harakat qiladilar. Oq So'yloqning tobora oq tanllilar qudratiga amin bo'layotgani uning xatti-harakatlarida namoyon bo'layotgandi. U oq tanllarga qo'rqa-pisa qarardi. Ulardan nima kutish mumkin, kim biladi? Oq So'yloq oq tanllarni qiziqsinib kuzatar edi-yu, biroq ularga ro'para kelishdan qo'rqardi. Dastlabki bir necha soat ularni uzoqdan kuzatish bilan kifoyalandi, ammo sal o'tgach oq tanllarning o'z itlariga yomonlikni ravo ko'rmayotganliklarini ko'rib yaqinroq bordi.

O'z navbatida Oq So'yloq hammaning diqqatini o'ziga tortdi: bo'riga o'xshaganligi uchun darhol ko'zga tashlanib, odamlar uni qo'llari bilan

bir-birlariga ko'rsatardilar. Bu Oq So'yloqni xavotirga soldi. Yoniga bitta-yarimtasi yaqinlashdi deguncha norozi ohangda irillab nari qochardi. Xullas uni silab-siyupalash odamlarga nasib etmadi – yaxshi hamki etmagan ekan.

Ko'p o'tmay Oq So'yloq oq tanlilarning oz qismigina – bor-yo'g'i o'ntacha odam qal'ada muqim yashashini bilib oldi. Har 2-3 kunda sohil yaqinida kema langar tashlar (oq tanlilarning har narsaga qodir ekanini ko'rsatuvchi yana bir hujjat), soatlab ko'rfazda turardi. Xudolar kemalarda kelib ketishardi. Odamlar oqimining adog'i yo'qdek edi. Dastlabki ikki kun ichidayoq Oq So'yloq umrida uchratgan hindulardan ikki hissa ziyodroq oq tanlilarni ko'rdi. Ular har kuni kelishar, Qal'ada ozgina yashab so'ng yana daryo orqali shimolga qarab jo'nashardi.

Agarda oq tanlilar har narsaga qodir bo'lsalar, ularning itlari sariq chaqaga arzimasdi. Oq So'yloq egalariga ergashib qирг'оqqa tushgan itlar bilan bir-ikki to'qnashgach, bunga darhol ishonch hosil qildi. Ular bir-birlariga mutlaqo o'xshamasdi. Ba'zilarining oyoqlari kalta, boshqalariniki aksincha uzun, beso'naqay tarzda uzun edi. Junlari ham quyuq emas, ayrimlarining esa juni yo'q hisobi. O'sha itlarning hammasi olishishga uquvsiz edi.

O'z zotidan hazar qilgani holda Oq So'yloq bu itlar bilan ham olishib ko'rishni lozim deb bildi. Bir necha to'qnashuvdan so'ng ularni mutlaqo mensimay qo'ydi, ular noshud, nochor, buning ustiga Oq So'yloq epchillik bilan yenggani holda ular faqat kuch bilan yengmoqchi bo'lishardi. Ular Oq So'yloqqa butun dunyoni boshlariga ko'tarib hujum qilishardi, Oq So'yloq chap berib qolardi. Ular Oq So'yloqni ko'zdan yo'qtib qo'yishar, shunda u yon tarafdan ularga hamla qilib, yelkasi bilan birontasini bir urib ag'darar va g'archcha bo'g'zidan olardi. Bunday hamla aksar hollarda halokatli bo'lardi, raqibi tuproqqa qoniga belanib yotganda payt poylab turgan hindularning itlari butun galasi bilan yiqligan begona itga yopishib, ko'z ochib yumguncha burdalab tashlardi. Oq So'yloq aqlii it edi. Itlarni birov o'ldirsa, odamlarga yoqmasligini, ularning jahli chiqishini u allaqachon sezgan edi. Oq tanlilar ham bundan mustasno emasdi. Shuning uchun raqibini yiqitib, kekirdagini yorib tashlagach, u o'zini chetga olar, qolganini itlar galasiga qo'yib berardi. Shunday daqiqalarda oq tanlilar yugurib kelar va alamlarini yutoqqan itlardan olishar, Oq So'yloq esa suvdan quruq chiqardi. U odamlar qo'liga ilingan narsalar toshmi, tayoqmi, bolta bilanmi o'z itlarini urayotganda bir chekkada tomosha qilib turardi. Oq So'yloqning baloga aqli yetardi.

Hamzotlari ham ba'zi narsalardan xulosa chiqarib olishgandi, ular haqiqiy tomosha kema kelib to'xtagan daqiqalardan boshlanishini tushunib qolishgandi. Kemadagi itlar qирг'оqqa tushadi va hash-pash

deguncha ikki-uchtasi yorib tashlanadi. Shunda odamlar qolgan itlarini kemaga haydab chiqarib, shafqatsiz ravishda alamlarini olishga tushadilar. Bir kuni uning ko'z o'ngida setteri g'ajib tashlangan oq tanli kishi to'pponchasini oldi. Ketma-ket olti marta o'q uzib, oltita itni yer tishlatdi. Oq So'yloqning xotiriga naqshlanib qolgan bu voqeа oq tanlilarning qudratiga yana bir dalil edi.

Oq So'yloq bunaqa o'yinlardar lazzatlanar edi, u sheriklariga zarracha achinmas, o'zi esa bunday to'qnashuvlardan osongina beshikast qutulib ketardi. Dastlabki paytlarda u shunchaki vaqtini chog' etgani oq tanlilarning itlari bilan olishib yurgan bo'lsa, bora-bora bunga astoydil kirishdi. Qilarga boshqa ishi yo'q edi. Kulrang Qunduz oldi-sottidan ortmas, mol-dunyo orttirishga mukkasidan ketgan edi. Hindularning qalang'i-qasang'i itlariga qo'shilip olgan Oq So'yloq kemalar kelishini kutib ko'rfazda sanqib yurgani-yurgan edi. Qirg'oqqa kema kelib to'xtadi deguncha, qonli tomosha boshlanardi. To oq tanlilar nima gapligini aniqlaguncha itlar galasi tumtaraqay qochar va navbatdagи kemani kuta boshlashar edi.

Lekin Oq So'yloqni itlar galasining bir a'zosi deb bo'lmasdi. Oq So'yloq ularga aralashib ketolmas, doim o'zini chetga tortar, hech qachon qadr-qimmatini yerga urmas, itlar esa undan hayiqardilar, to'g'ri, ular birgalikda harakat qilishar, begona itlar bilan janjalni qo'zg'aydigan ham u va yiqitib beradigan ham u. Shunday chog'da itlar begona itga tashlanib, tilka-pora qilishar, Oq So'yloq esa galaning taqdirini g'azabdan ko'karib ketgan oq tanlilarga topshirib, o'zi juftakni rostlardi.

Bunday janjal-to'polon ko'tarish unchalar qiyin emasdi. Sohilga tushgan itlar Oq So'yloqning qorasi ko'rindi deguncha, unga qarab yugurishardi. Ularni shunga o'rgatishgan edi. Oq So'yloq desa itlar Shimol o'lkasi, qo'rquv va tahlikani tushunishardi; uning timsolida o'z ixtiyorlari bilan ilgarigi mayllaridan voz kechib kelgan, odamzod yoqqan gulxan tevaragini qamragan zulmat aro o'g'rinchay yurgan bir falokatni, musibatni ko'rishardi. Shimol o'lkasidan qo'rqish hissi itlarga azалиy meros edi. Shimol o'lkasi halokat keltirardi, biroq itlarning egalari o'sha yoqdan kelgan nimaiki tirik bo'lsa o'ldirishga erk berib qo'ygan edilar. Mana shu huquqdan foydalanim itlar o'zlarini ham, egalarini ham himoya qilishardi.

Shu bois janub itlariga Yukon sohilida havozadan tushgach, Oq So'yloqni ko'rish kifoya edi. Ularning vujudida ilkis unga hamla qilish va g'ajib tashlash istagi jo'sh ura boshlardi. Kelgindi itlar orasida shahar itlari ham uchrardi, ammo ular ham besababdani-besabab Shimol o'lkasidan qo'rqishardi. Kuppa-kunduzi yo'llarida paydo bo'lgan bo'risimon yirtqichga faqat o'z ko'zlarini bilan tikilmasdilar — ular Oq So'yloqqa ajodolarining nigohi bilan qarashar va jamiki ajodolaridan meros sifatida

saqlanib qolgan xotira – ro'paralarida avlod-ajdodlari hamisha adovat bilan yashab kelgan bo'ri turganini yodlariga solardi.

Mana shularning bari-bari Oq So'yloqqa huzur baxsh etardi. Modomiki, birgina tashqi qiyofasi bilan itlarni quturtirib yuborar ekan, bu o'zi uchun ayni muddao bo'lsa, ularga kulfatdan boshqa narsa keltirmasdi. Ular Oq So'yloqqa o'zlariga atalgan o'lja sifatida qarashsa, Oq So'yloq ham ularga shunday qarardi.

Oq So'yloqning tashlandiq g'orda tug'ilib o'sgani, hali suyaklari qotmay turib tustovuq, suvsar va silovsindek dushmanlari bilan jon talashgani bekor ketmagan edi. Hayotini zaharlagan Lip-Lip bilan o'zi tengi kuchukchalar to'dasi o'rtasidagi adovat ham bejiz ketmagandi. Hayoti o'zgacha o'tganda u ham boshqacha bo'lardi. Qishloqda Lip-Lip bo'lmaganda u boshqa kuchukchalar bilan totuv yashar va pirovardida ko'proq itlar tomonga og'ib, alal-oqibat o'z hamzotlari bilan chiqishib yurgan bo'lardi. Kulrang Qunduz mehribonroq bo'lganda u sadogatli it bo'lib o'sardi. Ammo hammasi butunlay teskari, aksincha ediki, buning sababi mavjud. Hayot uni ayamadi, boshi alam va kulfatdan chiqmadi va oqibat u yovuz, yaxshilik yoqmaydigan, vahshiy yirtqichga – o'z hamzotlarining dushmaniga aylandi.

## Ikkinchchi bob

### TELBA XUDO

Yukon qal'asida oq tanlilar uncha ham ko'p emasdi. Ular anchadan buyon shu yerda istiqomat qilishar, o'zlarini «alohida toifa» kishilar deya hisoblashar va bu bilan faxrlanishar edi. Boshqa joydan kelganlarni jinidan battar yomon ko'rishardi. Kemadan sohilga tushgan odam borki, bu yerda «chechako» deb atalardi. Kelgindilar o'zlariga qo'yilgan bu laqabni yoqtirmas edilar.

Ammo bular shunchaki gaplar. Qal'a aholisi kelgindilardan hazar qilar va ular biron-bir ko'ngilsizlikka uchrasalar behad quvonishar edi. Ayniqsa, Oq So'yloq bilan bebosh to'daning kelgindi itlarga qiron keltirishi ularga huzur baxsh etardi. Kema kelib to'xtashi bilanoq Qal'aning tub aholisi tomoshadan quruq qolmaslik uchun sohilga oshiqardi. Ular ko'ngil ochishda hindularning itlaridan qolishmas va shubhasiz bunday olishuvlar sababchisi bo'lgan Oq So'yloqqa tasanno aytishardi.

Lekin tub aholi orasida bunday tomoshalar beqiyos huzur bag'ishlaydigan bir kimsa bor edi. Yaqinlashib qolgan kema gudogini eshitgan zahoti u oyog'ini qo'liga olib sohilga yugurar, qirg'in-barot tugab, gala-gala itlar tumtaraqay bo'lganda o'sha kimsa astoydil ranjur va sira bu dargohdan ko'ngil uzib ketolmas edi. Janubdan kelgan erka itlardan

biri jon talvasasida faryod ko'tarib yiqilgan va birdan tashlangan to'da ko'z ochib yumguncha tilka-tilka qilib tashlaganini ko'rganda o'sha kimsa zavqi kelib qichqirar va irg'ishlar, so'ng Oq So'yloqqa suq bilan uzoq tikilib qolar edi.

Qal'aning tub aholisi unga «Xushro'y» deb nom qo'yib olishgandi. Uning asl ismi nima – hech kim bilmas, bu tomonlarda Xushro'y Smit deb nom qozongan edi. Aslida esa, o'ta so'xtasi sovuq, ko'rimsiz yigit edi. Shungamikin, kesatib bunday laqab qo'yishgan bo'lsa kerak. Darhaqiqat, u haddan tashqari beo'xshov, xudo urgan ta'viya edi. Xushro'y Smit pakana, qovunga o'xshagan kallasi qiltillagan gavdasiga omonatgina qo'ndirib qo'yilganga o'xshardi. Bolaligida hali Xushro'y degan laqab orttirmasdan burun teng-to'shlari uni «mixcha» deb atashardi.

Smitning qanshari yassi bo'lganidan bo'yniga qo'shilib ketgandek ko'rinar, do'ng peshonasi beo'xshov ravishda keng edi. Bu ham yetmagandek u zag'cha ko'z edi, ko'zlarini bir-biridan to'rt enlik uzoqda joylashganidan yana bir just ko'z o'rnatsa bo'lardi. Hamma narsadan siqqan xudo iyakka kelganda ol qulim deb yuborgan shekilli, iyak jonivor shunaqa ham beo'xshov va katta ediki, baayni ko'ksiga tegib turardi. Xushro'y Smitning nozikkina bo'yni bunaqa og'ir yukni ko'tarishga qodir bo'lmagani uchun shunday ko'rinar balki.

Uning turqiga qaraganda odam o'ta qat'iyatlari bo'lsa kerak, deb o'ylardi-yu, biroq baribir negadir ishongisi kelmasdi, chunki Xushro'y Smitning tabiatida bunday qat'iyatdan asar ham yo'q edi. Bil'aks, uning jirkanch, tuban, qo'rroq kimsa ekani hammaga ma'lum edi. Uning qiyofasini to'laroq tasavvur etish uchun sarg'ish tishlarining beo'xshovligi, o'g'ri tishlari ingichka lablari ostidan turtib chiqqanini eslatish joiz. Uning ko'ziga rang tanlaganda, xudoning buyog'i yetmay qolgan ekanmi, nima balo, barcha idishlar tagida qolgan-qutganlarini sidirib olib ishlatganday, allanechuk sarg'ish quyqaga o'xshardi. Uning patila-patila sochi hamda ko'zlarining ostini qoplagan xas-xashakka o'xshash tuklar ham shunday ko'rimsiz, irgamchik edi.

Xullas kalom, Xushro'y Smit borib turgan ta'viya edi, ammo bunga uning o'zi aybdor emasdi – xudoning bergani shu, nimayam deysiz. Smit Qal'ada oshpazlik qilar, idish-tovoqlarni yuvib-tozalar va kundalik qora ishlarni bajarib yurardi. Qal'ada unga yomon muomalada bo'lishmas va hatto sho'rpeshanaga qaragandek ayashar, undan muruvvatlarini darig' tutishmas edi. Bundan tashqari Xushro'y Smitdan hayiqishardi ham. Bunaqa toshbag'ir qo'rroq orqadan kelib o'q uzishi va istagan odamning qahvasiga zahar solib berishi hech gap emas. Qolaversa, kimdir oshpazlik ham qilishi kerak-ku, Xushro'y Smit esa barcha nuqsonlariga qaramay o'z ishiga puxta odam edi.

Oq So'yloqning o'taketgan yovqurligiga qoyil qolib, uni qo'lga kiritish orzusida yurgan kishi mana shunaqa odam edi. Xushro'y Smit Oq So'yloqqa ilakisha boshladidi. It avvaliga bunga ahamiyat bermadi. Qarasa, Xushro'y Smit haddidan oshadigan. Shunda u tishlarini irshaytirib irilladi, nari ketdi. Bu kimsa unga yoqmasdi. Oq So'yloq qandaydir qabih niyati borligini sezgandek undan hazar qilar, qo'l uzatishlari va tilyog'-lamaligidan qo'rqrar edi.

Yaxshilik bilan yomonlikka jonivorlar juda ta'sirchan bo'ladilar. Og'riqqa malham bo'lgudek hamda yomonlikdan xalos etadigan va xohishini bajo keltiradigan narsa borki, yaxshilikdir. Shu bois yaxshilik yoqimli. Yovuzlik esa jirkanch narsa, chunki u tashvish, falokat keltiradi – azob beradi. Bijg'igan botqoqdan tuman ko'tarilgani kabi Xushro'y Smitning mayib-majruh jismi va razil dilidan badbo'y, nobakor bir nima ufurib turardi. Oq So'yloq bu kasofat kimsaning falokat keltirishini, shuning uchun undan qochish darkorligini sezardi.

Xushro'y Smit ilk bor Kulrang Qunduz yoniga kirganda Oq So'yloq uyda edi. Hali uning qorasi ko'rmasdan burun qadam tovushidanoq kim kelayotganini ilg'ab it hurpayib oldi. Garchi maza qilib yotgan bo'lsa ham o'sha kimsa yaqinlashgani hamono sakrab o'rnidan turdi-da, chinakam bo'ri singari lip etib kulba ortiga yashirindi. Oq So'yloq egasi u bilan nima haqda gaplashganini bilmas, ularning birga, yonma-yon turishganini ko'rardi, xolos. Suhbat chog'ida Xushro'y Smit barmog'i bilan nuqib ko'rsatgan edi, Oq So'yloq xuddi u ellik fut narida emas, yonginasida qo'l uzatayotgandek irillab yubordi. Xushro'y Smit qotib-qotib kului, Oq So'yloq esa o'rmon tomonga qochdi, to o'rmonga kirib ketguncha orqasiga bot-bot qarab qo'yardi.

Kulrang Qunduz itni sotishga ko'nmadidi. U boyib ketgan, hamma narsasi yetarli edi. Buning ustiga chana tortadigan bunaqa sardor it na Makkenzi, na Yukonda bo'lmasa. Oq So'yloq juda jangari it. O'ziga o'xshagan itlarning bo'g'zini yorib tashlash – pashsha o'ldirishdek gap. (Shu gapni eshitgan chog'ida Xushro'y Smitning ko'zlaricha qaqnab, lablarini yalab qo'ydi.) Yo'q, Kulrang Qunduz Oq So'yloqni aslo sotmaydi.

Lekin, Xushro'y Smit hindular fe'lini yaxshi bilardi. U Kulrang Qunduzni tez-tez yo'qlab turadigan bo'ldi. U quruq kelmas, har safar qo'yniga bir-ikki shisha aroq solib olardi. Viskining qudratli bir xususiyati bor – uni ichgan odamning ichgisi kelaveradi. Kulrang Qunduz xuddi shunday ko'yga tushdi. U ichkilikka mukkasidan ketdi, uzoq vaqt ichib yurmagan uchun tezda kayfi oshib, u o'zini eplolmay qolar, alaloqibat bir shisha viski uchun jonini berish darajasiga yetardi. Mo'yna, qo'lqop va choriq sotib ortirgan pullari sekin-asta ozaya boshladidi. Xaltasidagi pullar kamaygan sari Kulrang Qunduzning shunchalik tinchi buzilardi.

Oxiri, pul ham, mollari ham tugadi. Faqatgina ichkilikning achchiq xumori goldi – bu qonmagan xumor uni qynar, enka-tinkasini chiqarardi. Ana shunday paytda Xushro'y Smit yana oq So'yloq haqida gap ochdi, ammo bu safar itning bahosi dollar bilan emas, viski butilkalari bilan belgilandi. Viski haqida gap ochilganda Kulrang Qunduz uning taklifini jon quloq bo'lib tinglab o'tirardi.

– Qo'lingdan kelsa olib ket, it seniki, – dedi u oxiri.

Shishalar unga o'tdi, ammo ikki kundan so'ng Xushro'y Smit kelib Kulrang Qunduzga yorildi:

– Itni tutib ber.

Kunlarning birida kechki payt uyg'a qaytib kelgan Oq So'yloq yengil tortgancha kulba yoniga cho'zildi. Kasofat oq tanli ko'rinnmasdi. Keyingi paytlarda hadeb g'ashiga tegaverGANidan Oq So'yloq uch-to'rt kundan buyon uyg'a kelmay qo'ygan edi. Bu odam nimiaga qo'l urayotganini u bilmas, faqat allaqanday yomonlik kutar, oqibat nariroq yurishni afzal ko'rgan edi.

Oq So'yloq yotishi hamono Kulrang Qunduz gandiraklagancha kelib uning bo'yniga arqon solib bog'ladi. So'ng arqon uchini bir qo'lidan qo'y may uning oldiga o'tirdi. Ikkinch'i qo'lida esa shisha bor edi, Kulrang Qunduz dam-badam shishani ko'tarib qulqullatiB ichar edi.

Shu alfovza u bir soat o'tirdi. Tuyqus kimningdur qadam tovushi eshitildi. Oq So'yloq kim ekanini payqab junlari tikka bo'lidi. Kulrang Qunduz esa o'tirgan yerida mizg'irdi. Oq So'yloq arqonni sekin tortdi, ammo holsiz barmoqlar jonlanib Kulrang Qunduz uyg'onib ketdi.

Xushro'y Smit kulba yoniga kelib Oq So'yloq tepasida to'xtadi. It bu mansur kimsaga qarab g'azab bilan irilladi. Xushro'y Smit itning boshini silagani chog'lanib qo'l uzatgan edi, Oq So'yloq qattiqroq irilladi. Ammo Xushro'y Smit qo'lini tortib olmadi, aksincha, sekin-asta uning boshini silagani yaqinlashaverdi. Oq So'yloq esa g'azabdan nima qilarini bilmay, yerga qapishgudek engashardi. Birdan u ilondek bir sapchib qopib oldi. Xushro'y Smit jon holatda qo'lini tortib oldi. U g'azabdan ko'karib ketgandi. Kulrang Qunduz Oq So'yloqning boshiga urdi, it yana itoatkorona cho'zildi.

Oq So'yloq endi nima karomat ko'rsatisharkin degandek, ularning harakatini ko'zdan qochirmay yotardi. Xushro'y Smit allaqayerga gumdon bo'lidi-yu, zum o'tmay so'yil ko'tarib keldi. Kulrang Qunduz unga qayishni tutdi. Xushro'y Smit qayishni olgach, tortdi. Oq So'yloq qimir etmay yotaverdi. Kulrang Qunduz uni o'rnidan turg'azish uchun bir-ikki urdi. Oq So'yloq o'rnidan turishga majbur bo'lidi, ammo kutilma-ganda o'zini olib ketgani kelgan kimsaga sapchidi. Bunday bo'lishini oldindan fahmlagan Xushro'y Smit so'yil bilan urib itni qulatdi. Kulrang Qunduz qotib-qotib kuldil va boplading degandek boshini sarak-sarak

qildi. Xushro'y Smit qayishni tortdi, kaltak zarbidan gangib qolgan Oq So'yloq arang qo'zg'aldi.

U boshqa sakramadi. Oq tanli odam bekorga kaltak ko'tarib olmaganini tushuntirish uchun bitta mana shunaqa zarbaning o'zi kifoya qilgandi. Oq So'yloq o'ta aqlli it edi. U bo'yin tovlash befoyda ekanligini sezdi. U dumini qisib, norozi ohangda g'ingshigan ko'yi chor-nochor Xushro'y Smitga ergashdi. Xushro'y Smit esa uni ko'zdan qochirmay har ehtimolga qarshi kaltagini hozirlab borardi.

Qal'aga yetib kelgach, Xushro'y Smit itni chandib bog'lab qo'yida, uxlagani kirib ketdi. Oq So'yloq bir soatcha kutdi, so'ng sekin qayishni g'ajiy boshladi, hash-pash deguncha qayish pichoq bilan kesgandek uzildi. Ozod bo'lган it atrofni ko'zdan kechirdi-da, junlarini hurpaytirib irilladi. Keyin ortiga o'girilib, Kulrang Qunduz kulbasi tomon yugurdi. U yot-begona, berahm odamga qaram bo'lishni istamadi. U o'zini butun vujudi bilan Kulrang Qunduz ixtiyoriga topshirgan va undan o'zgasiga itoat etishni xohlamas edi.

Ertasiga o'tgan safar ro'y bergan voqeа yana takrorlandi. Kulrang Qunduz yana itni bo'ynidan bog'lab, Xushro'y Smitga eltib berdi. Xushro'y Smit toza po'stagini qoqdi. Bu safar mahkam bog'langan Oq So'yloq kaltakdan qocha olmay jon holatda o'zini u yoqdan-bu yoqqa otishdan o'zga iloj topolmadi. Xushro'y Smit qo'liga tushgan narsa bilan, kaltak bo'ladimi, qamchi bo'ladimi, ayamay savaladi. Oq So'yloq umri bino bo'lib bunaqa kaltak yemagandi. Hatto bir zamonlar Kulrang Qunduzdan ko'rgan azoblari bu kaltaklar oldida hech narsa bo'lmay qoldi.

Xushro'y Smit urib rohat qilardi. U dabdalasi chiqqan itga yeb qo'ygudek tikilar, Oq So'yloq og'riqdan faryod chekib, har qamchi yoki tayoq kelib tushganda uv solsa ko'zlarida ko'kish alanga yonardi. Xushro'y Smit barcha qo'rqqodamlar kabi o'taketgan berahm edi. U odamlarning urib-so'kishlariga g'iq etmay chidar, bor qahr-g'azabini esa o'zidan ojizlarga sochar edi. Tirik jon borki, hukm yuritsam deydi, Xushro'y Smit ham bundan mustasno emasdi, u o'ziga o'xshagan insonlar ustidan hukm yuritolmaganidan jonivorlarning himoyasizligidan foydalanardi. Ammo buning uchun Xushro'y Smitni ayblamaslik kerak. U tug'ma mayib, esi past edi, og'ir turmush esa uni tarbiyalash tugul, aks ta'sir ko'rsatgan edi.

Oq So'yloq nima sababdan kaltaklashayotganini bilardi. Kulrang Qunduz bo'yniga qayish bog'lab, arqonning bir uchini Xushro'y Smit qo'liga tutqazganida egasi shu kishi bilan jo'nashga buyruq berayotganini ham anglagan edi. Xushro'y Smit Qal'ada bog'lab qo'yganda endi shu yerda qolasan, deb amr qilmoqchi bo'lганini ham sezgan edi. Binobarin, u har ikkala xudoning irodasiga qarshi borib jazoga loyiq ish qilgan edi.

Yangi xo'jayinlaridan qochib ketgan itlarni tutib kelib xuddi o'zi singari kaltaklashganini ilgari bir necha bor ko'rgan edi. Oq So'yloqning baloga aqli yetardi, biroq, uning vujudini aql-idrok ham hech narsa qilolmaydigan tuyg'ular ishg'ol etgandi. Bularning biri sadoqat tuyg'usi edi. U Kulrang Qunduzni yoqtirmsasi, lekin zulmi, g'azabiga qaramay, unga sadoqatli edi. Oq So'yloq boshqacha bo'la ololmasdi. U shunday yaratilgan edi. Oq So'yloq toifasidagi itlarning afzalligi yoki davlati sadoqat edi, sadoqati tufayli u boshqa hayvonlardan ajralib turardi, bo'ri bilan yovvoyi itni inson huzuriga keltirgan va unga oshno qilgan ham mana shu sadoqat edi.

Oq So'yloqni o'lasи qilib kaltaklagach, yana Qal'aga qaytarib keltirishdi, bu safar Xushro'y Smit uni hindular usulida tayoq bilan bog'lab qo'ydi. Biroq, xo'jayinidan kechib yuborish oson emas ekan, Oq So'yloq buni o'z vujudida his qildi. Kulrang Qunduz uning uchun bamishi xudo edi. U haydar yuborsa ham undan ko'ngil uzolmasdi. Kulrang Qunduz unga xoinlik qildi, undan yuz o'girdi, mayli, hechqisi yo'q. Oq So'yloq Kulrang Qunduzga bekorga bog'lanib qolgan deysizmi? Uni egasiga bog'lab turgan rishtalarini uzib yuborish oson emasdi.

Butun Qal'a uyquga ketgan mahal, kechasi, Oq So'yloq o'zini bog'lab qo'yishgan tayoqni g'ajishga tushdi. Zarang tayoq bo'yniga shunchalar yaqin bog'langan ekanki, u ancha uringach, arang bo'ynini cho'zib yetdi. Arqonni uzish uchun bir necha soat urindi. Ungacha biron ta it bunday vaziyatdan qutulolmagan edi, ammo Oq So'yloq buning uddasidan chiqdi va tongga yaqin chaynab tashlangan chillakni osiltirgancha Qal'adan qochib ketdi.

Oq So'yloq aqlli it edi. Faqatgina aqlli bo'lganida o'zini ikki marta haydar yuborgan Kulrang Qunduz huzuriga kelmagan bo'lardi. U aqlli bo'lish bilan birga vafodor ham edi — u yana uyga qaytib keldi. Kulrang Qunduz bu safar ham uni tutib berdi. Oq So'yloq yana bo'yinturuqqa bo'ynini tutib berdi va uni olib ketishga yana Xushro'y Smit keldi. Bu safar u yanada ko'proq ta'zirini yedi. Oq tanli qamchisi bilan ayovsiz savalayotganida Kulrang Qunduz parvo qilmadi. Joni achib itining yonini olmadi. It endi unga qarashli emasdi. Xushro'y Smit kaltaklashdan to'xtaganda Oq So'yloq arang nafas olardi. Janubning nozik itlari bunday ayovsiz kaltaklashga dosh berolmagan bo'lardi, ammo Oq So'yloq dosh berdi. Uni shafqatsiz hayot toblagan edi. U haddan ziyod bardoshli va yashovchan edi, boshqa itlardan ko'ra joni qattiqroq edi. Ammo hozir uning surobi to'g'ri bo'lib qoldi. Hattoki qimirlashga holi kelmasdi. Uni olib ketish uchun Xushro'y Smit yarim soat kutishga majbur bo'ldi. Aloha, Oq So'yloq o'rnidan turdi-da, kalovlangancha ko'z oldi qorong'i-lashib sudrala-sudrala Xushro'y Smit ortidan ketdi.

Bu safar uni g‘ajib uzish mumkin bo‘lmagan zanjir bilan bog‘lab qo‘yishdi. Oq So‘yloq xariga qoqilgan qoziqni sug‘urib olishga harchand kuchandi, tirishdi, lekin barcha urinishlari zoye ketdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, bor-yo‘g‘idan ajragan Kulrang Qunduz esini yig‘ib Porkyupayn daryosi bo‘ylab uzoq yo‘lga otlandi. Oq So‘yloq Yukon Qal’asida esi past, odamlilik siyohini yo‘qotgan kimsaning qo‘lida qoldi. Ammo esi pastlik nima ekanini it zoti tushunarmidi? Oq So‘yloq uchun Xushro‘y Smit borib-borib, oxir-oqibat zolim bo‘lsa ham xudoga aylandi. Bu esi past xo‘jayin edi, ammo Oq So‘yloq buning nimaligini bilmasdi, u faqatgina o‘sha kimsaning irodasiga bo‘ysunish va uning hamma xohish va injiqligini bajarishi shartligini bilardi.

### **Uchinchi bob**

#### **NAFRAT SALTANATI**

Esi past xo‘jayininining qo‘lida Oq So‘yloq vahshiy yirtqichga aylandi. Qal‘aning ko‘zdan yiroq chekkasida bir tashlandiq yer topib, atrofini o‘rab Xushro‘y Smit itni o‘sha yerga qamadi va zanjir bilan bog‘lab qo‘ydi, so‘ng arzimas, lekin ezadigan tiryg‘alishlar bilan jig‘iga tegib quturtirib yuborishga kirishdi. Ko‘p o‘tmay u Oq So‘yloqning ustidan kulishlariga sira toqat qilolmasligini sezib qoldi-yu, qiy nab bo‘lgach qah-qah urib kuladigan odat chiqardi. Masxara qila turib Xushro‘y Smit barmog‘imi nuqib po‘pisa qilar, it esa o‘zini tutolmay jazavaga tushar, quturgandan quturar, shunday lahzalarda u vahshiylikda Xushro‘y Smitdan o‘tib ketganday bo‘lar edi.

Shu choqqacha Oq So‘yloq faqat o‘z zotidan bo‘lgan jonivorlarni dushman deb bilar, ularni behad yomon ko‘rardi. Endi u jamiki tirik jonni dushman deb hisoblaydigan bo‘ldi. Xushro‘y Smitning xo‘rlashlari uni shunchalar zada qilib qo‘ydiki, oqibat ko‘r-ko‘rona hamma narsadan va hatto odamlardan ham nafratlanadigan ko‘yga tushdi. U bo‘yniga bog‘langan zanjirni ham, taxta devor tirqishlaridan mo‘ralayotgan kimsalarni ham, odamlarga ergashib kelgan itlar, ularning darg‘azab irillashlarini ham yomon ko‘rardi. Oq So‘yloq gir aylanib o‘ralgan devor taxtalarini ham yomon ko‘rardi. Ammo hammasidan ham Xushro‘y Smitni ko‘proq yomon ko‘rardi.

Oq So‘yloqni bunaqa qiy Nashdan Xushro‘y Smitning ko‘zlagan aniq maqsadi bor edi. Kunlardan bir kun qo‘ra yonida bir necha kishi to‘plandi. Xushro‘y Smit ichkariga kirib Oq So‘yloqni zanjirdan bo‘shtadi. U qo‘radan chiqib ketishi hamono Oq So‘yloq ichkariga mo‘ralayotgan kimsalarga hamla qilgudek o‘zini u yoqdan-bu yoqqa ota boshladi. G‘azabdan quturib ketgan lahzalarda, Oq So‘yloq boshqacha bo‘lib

ketardi. Uzunligi besh fut<sup>1</sup>, bo'yи ikki fut, og'irligi to'qson funt<sup>2</sup> keladigan bu it eng yirik, bahaybat bo'ridan ham yirikroq edi. Bu jihatdan onasiga tortgan, badanida esa bir paysa yog' yo'q edi. Uning jismi bamisli mushak, suyak, paylardangina iboratga o'xshar – jangari itlar singari vaznida bir to'g'ram ortiqcha go'sht sezilmasdi.

To'siq eshigi yana qiya ochildi. Oq So'yloq to'xtab eshikka qaradi. Qandaydir tushunuksiz voqeа yuz berayotgandi. Eshik kengroq ochildi va to'satdan ichkariga bahaybat itni qo'yib yuborishdi-yu, o'sha zahoti eshik qarsillab yopildi. Oq So'yloq umri bino bo'lib bunaqa it zotini ko'rmagan edi (u mastif edi), lekin begona itning haybati va vahmasidan andak bo'lzin esankirab qolmadı. Uning qarshisida daraxt emas, temir emas, tirik mavjudot turar va alamini undan olishi mumkin edi. U tishlarini yaraqlatib mastifga sapchidi va uning bo'ynidan g'archcha tishladi. Mastif boshini siltab tashladi-da, irillagancha Oq So'yloqqa tashlandi. Jang keskin tus oldi. Oq So'yloq u yoqdan-bu yoqqa irg'ishlar, raqibiga chap berar, shu bilan birga uni tishlab ham ulgurardı.

Tomoshabinlar qiyqirar, olqishlar. Xushro'y Smit esa terisiga sig'may raqibining holini tang qilib qo'ygan Oq So'yloqqa suq bilan tikilardi. Boshidanoq beso'naqay, qovushmagan mastifning yengilishi aniq edi, darhaqiqat jang ham Xushro'y Smitning Oq So'yloqni tayoq bilan urib haydashi, chalajon mastifni esa tashqariga sudrab chiqishlari bilan yakunlandi. Keyin garov o'ynab yutqizganlar pulini berishdi-yu, Xushro'y Smit mo'maygina pul yutib oldi.

Shu kundan e'tiboran Oq So'yloq g'ov atrofida yana odamlar to'planadigan lahzalarni sabrsizlik bilan kutadigan bo'lди. Chunki odam to'planishi jang bo'ladi degani, jang esa nimalarga qodir ekanligini namoyish etish uchun yagona imkon berardi. Qafasda – tutqinlikda o'tiraverib, xo'rlik va qynoqlardan vahshiylashgan Oq So'yloq egasi yoniga biron itni kirkizib yuborgan chog'da nafratini o'sha itga sochar va shu tariqa jon-jonini, butun o'rtab yuborgan alamdan xalos bo'lardi. Chamasi, Xushro'y Smit Oq So'yloqning kuch-quvvatini hisobga olgan holda ish tutardi. Chunki Oq So'yloq bunday omonsiz olishuvlardan doim g'olib chiqardi. Bir kuni uning yoniga ketma-ket, navbat bilan uchta itni qo'yib yuborishdi. Bir necha kundan keyin esa hozirgina tutib keltirilgan bahaybat bo'rini qo'yishdi. Boshqa safar birvarakayiga ikkita it bilan olishishiga to'g'ri keldi. U ishtirok etgan janglarning eng og'iri shu bo'lди, garchi ikkala raqibini tinchitgan bo'lsa ham, jang nihoyasida o'zi ham holdan toydi.

Kuzda, birinchi qor yog'ib daryo betini yupqa muz qoplagan mahal Xushro'y Smit Oq So'yloq bilan kemada Yukon daryosi orqali Dousonga

<sup>1</sup> fut – uzunlik o'Ichovi, 30,48 santimetr.

<sup>2</sup> funt – og'irlilik o'Ichovi, 490,5 gramm.

jo‘nadi. Oq So‘yloqning dovrug‘i olamga ketgan edi. U «jangovor bo‘ri» degan nom bilan shuhrat qozongan, shu bois palubada uning qafasi oldidan ishqivozlar arimasdi. U irillab tomoshabinlarga sapchir yoki ularga ochiqdan-ochiq nafrat bilan qarab yotardi. Nahotki, bu odamlar uning nafratiga sazovor bo‘lmasa? Oq So‘yloq o‘zidan hech qachon bunday deb so‘rolmas edi. U yolg‘iz shu tuyg‘uni bilar va o‘zini butunlay shu tuyg‘u izmiga topshirgan edi. Hayot uning uchun turgan-bitgani azobga aylandi. Inson qo‘liga tushgan barcha yirtqich hayvon singari u ham qafasda yashay olmasdi. Afsuski, u tutqunlik azobiga ko‘nikishdan o‘zga iloji qolmagandi.

Bekorchi ermaktalablar Oq So‘yloqni tomosha qilishar, panjara orasidan tayoq suqib jig‘iga tegishardi, Oq So‘yloq irillaganda masxara qilib kulishardi. Mana shu odamlar shunchalik g‘azabini qo‘zg‘ashar ediki, it qanday chidayotganiga ajablanardi odam. Lekin tabiat unga moslashish qobiliyatini ham ato etgandi. O‘zga hayvonlar nobud bo‘ladigan yoki itoat etishdan boshqa iloj topolmaydigan vaziyatlarda Oq So‘yloq sharoitga moslashar va o‘jarligini tashlamay yashayverar edi. Ehtimol, bir zamonlar kelib iblis qiyofasidagi Xushro‘y Smit oxiroqibat Oq So‘yloqni egib olar ham, ammo hozircha uning barcha urinishlari zoye ketmoqda edi.

Xushro‘y Smit o‘z tabiatiga ko‘ra iblisdan farq qilmas, vaholanki, Oq So‘yloq ham undan qolishmas edi. Ular o‘rtasida adoqsiz jang borar, biri egib olmoqchi, ikkinchisi itoat etishni istamasdi. Ilgari tayoq bilan qurollangan insonga bo‘ysunish kerakligini Oq So‘yloq yaxshi tushunardi, endi bo‘lsa aksini qilardi. Xushro‘y Smitni ko‘rdi deguncha g‘azabdan o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolardi. Ular yuzma-yuz kelib, kaltakdan qafas burchagiga qochib borganda ham Oq So‘yloq irillab, tishlarini taqillatishini qo‘ymasdi. Unga bas kelib bo‘lmasdi. Xushro‘y Smit xohlagancha ursin, qiyasin — ammo u taslim bo‘lmasdi. Xo‘jayin urishdan to‘xtab nari ketishi bilanoq Oq So‘yloq qafas simlariga o‘zini urar va butun vujudini larzaga solayotgan nafratga chidayolmay uv solardi.

Dousonga kelgach, Oq So‘yloqni qirg‘oqqa olib tushishdi. Afsuski, bu yerga kelib ham uning hayotida zarracha o‘zgarish sodir bo‘lmadi — u hamon hammaning ko‘z o‘ngida qafasda yashar, atrofidan bekorchilar arimasdi. Xushro‘y Smit «jangovor bo‘ri»ni namoyish etish uchun qafasni ochiq yerga qo‘yan, odamlar ellik sent badaliga oltin qum to‘lab uni tomosha qilishardi. Oq So‘yloq butunlay halovatini yo‘qotdi. Agar u uxbayotgan bo‘lsa tayoq bilan turtib uyg‘otishar edi. Tomoshabinlar pullariga yarasha tomosha ko‘rishni istar edilar. Tomosha qiziqarliroq bo‘lishi uchun esa Oq So‘yloqni holi-joniga qo‘yishmasdi.

Hammadan ham u yashayotgan sharoit nihoyatda chatoq edi. Unga yirtqich hayvonga qaragandek qarashar, odamlarning mana shu mun-

sabati Oq So'yloq hayotini zaharlar edi. Ularning har bir so'zi, xattiharakatlaridan o'zining qahr-g'azabi ularga qanchalar dahshatli ta'sir qilayotganini uqib olardi. Bu olovga yog' quygan bilan barobar edi, oqibat Oq So'yloqning yovuzligi kunma-kun kuchayardi. Bu ham uning o'zi yashayotgan muhitga nechog'lik tez moslasha olish qobiliyatidan darak berardi.

Xushro'y Smit Oq So'yloqni tomosha qildiribgina qo'y may, chinakam urishqoq it qilib ham tarbiyaladi. Urishtirish imkonii tug'ildi deguncha, Oq So'yloqni qafasdan chiqarib shahardan bir necha mil<sup>1</sup> naridagi o'rmonga olib borishardi. Bu odatda, mahalliy politsiya sezib qolmasligi uchun kechasi uyushtirilardi. Oradan bir necha soat o'tgach, tongga yaqin, tomoshabinlar bilan raqibi hozir bo'lardi. Oq So'yloq zoti va katta-kichikligi turlicha itlar bilan olishishiga to'g'ri keldi. U vahshiyona odatlar hukm surgan mamlakatda yashar, bu yerning odamlari ham vahshiy edi, itlar jangi esa odatda raqiblardan birining o'limi bilan tugardi.

Ammo, Oq So'yloq omonsiz olishuvlarda qatnashar, binobarin raqiblari jangdan omon chiqmasdi. U mag'lubiyat nimaligini bilmasdi. Bolaligida Lip-Lip va gala-gala kuchukchalar bilan olishaverib pishib ketgan Oq So'yloqning tajribasi hozir unga qo'l kelardi. Uning oyoqlari baquvvat edi va shu narsa joniga oro kirardi: raqiblardan birontasiga uni yiqitish nasib etmagandi. Hamon tomirlarida ajdodlari – bo'rilar qoni gupirib oqayotgan itlar o'zları yoqtirgan jangovor usullarni ishga solar edilar, raqibni gavda bilan urib yiqitish niyatida tikka yoki tuyqus yonboshdan tashlanib qolishardi. Tozilar, ovchi itlar, ovcharkalar, nyufandlendlar Oq So'yloqni shu yo'l bilan yiqitishga besamar urinib ko'rishardi. Shu choqqacha Oq So'yloqning kalovlanib qolganini kimsa ko'rmagan edi. Odamlar bu haqda bir-birlariga so'zlab berishar va har safar, endi albatta yiqitishadi deb kutishar, ammo Oq So'yloq umidlarini puchga chiqarardi.

Oq So'yloq favqulodda chapdast va shiddatli edi, shu bilan birga yashindek tezkorligi bilan raqibini dog'da qoldirardi. Hatto eng tajribalilari ham bunaqa chapdast itni uchratmagandilar. Uning kutilmagan hamlalarini aytmaysizmi?! Odatda jang boshlanishidan oldin itlar tishlarini taqillatish, hurpayib olish, iriflashlardan so'ng jang boshlanardi. Oq So'yloq bilan olishgan aksari itlar esa hali jang boshlanmayoq kutilmagan hamladan o'nglanmay oyog'i osmondan kelar va kuni bitar edi. Hadeb shunday bo'laverGANidan, raqibining belgilangan qoidani bajarisliga va hatto birinchi bo'lib tashlanishga imkon yaratish uchun Oq So'yloqni ushlab turadigan bo'lishdi.

<sup>1</sup> mil – uzunlik o'lchovi, 7420 metr.

Ammo jangda hammasidan ko'ra tajriba Oq So'yloqqa ko'proq qo'l kelardi. Bironta raqibi qanday olishish kerakligini unchalik bilmasdi. Oq So'yloq ularning hammasidan ko'ra ko'proq urishgan, har qanday hamlani qaytara olar, uning jangovor usullari esa haddan tashqari ko'p, xilma-xil va bekam-u-ko'st edi.

Vaqt o'tgan sayin kamroq urishishga to'g'ri kelardi. It urishtirish ishqibozlari oxiri Oq So'yloqqa munosib raqib topishdan umidlarini uzishdi. Natijada Xushro'y Smitning uni bo'rilarga qarshi qo'yishdan o'zga iloji qolmadi. Buning uchun hindular maxsus qopqonda bo'ri ovlashar va bo'ri bilan Oq So'yloq jangini tomosha qilgani guras-guras odam kelardi. Ittifoqo qayerdandir urg'ochi silovsin tutish nasib qildi va bu gal ham Oq So'yloq hayot-mamot jangiga kirdi. Silovsin chapdastlikda ham, shiddat va yovqurlikda ham undan qolishmas, buning ustiga Oq So'yloq o'tkir tishlariga orqa qilsa, u ham o'tkir tish, ham tironqli panjasni bilan urishardi.

Silovsin bilan bo'lib o'tgan to'qnashuvdan keyin janglar to'xtab qoldi. Oq So'yloqqa munosib raqib qolmadi rosti. Oqibat u bahorga dovr qafasda o'tirdi, bahorda esa Duosonga Tim Kinen degan alla-qanday qimorboz keldi. Kinen o'zi bilan birga bulldog olib kelgan ekan. Bu Klondaykka qadami yetgan birinchi bulldog edi. Oq So'yloqning o'sha it bilan to'qnashishi muqarrar edi va bo'lg'usi to'qnashuv ba'zi ezma-chalishlar og'zidan bir hafta mobaynida tushmadi.

## To'rtinchi bob

### AJAL SIRTMOG'I

Xushro'y Smit uni zanjirdan bo'shatdi-da, o'zi ortiga tisarildi. Oq So'yloq birinchi marta ilkis jangga otilmay, quloqlarini tikkaytirib qarhisida turgan g'alati maxluqqa tikilgan ko'yi qotib qoldi. U bunaqa itni sira uchratmagan edi. Tim Kinen buldogni oldinga itardi-da, olqishladi:

— G'us!

Pakana, beso'naqay ko'ppak bitta-bitta bosib davraning o'rtasiga chiqdi-da, ko'zlarini pirpiratib Oq So'yloqning qarhisida to'xtadi.

Olomon orasidan kimdir baqirib yubordi:

— G'us! Cheroki! Bir boplagin! G'us! G'us!

Ammo ko'rinishidan Cherokining mutlaqo urishgisi yo'q edi. Utinmay qichqirayotgan odamlar tomonga boshini burib qaradi-da, kalta dumini likillatdi. Cheroki Oq So'yloqdan qo'rqqanidan emas, shunchaki erinayotganidan jangni boshlamayotganga o'xshardi. Undan tashqari, u qarhisida turgan it bilan urishish kerakligiga unchalik ishonmayotgan edi. Cheroki bunaqa raqiblarni uchratib o'rganmagan, shuning uchun qachon jangari itni keltirisharkin degandek kutardi.

Davra o'rtasiga tushib olgan Tim Kinen dam buldogni olqishlash uchun kalta dag'al junini teskari tomonga silar, dam oldinga undar edi. Bu harakat Cherokini gij-gijlash usuli edi. Buning oqibatida jo'shish tugul buldogning g'azabi ham qo'zg'adi. Uning yo'g'on ovozda irillagani eshitildi. Odam qo'li itning irillashiga mos ravishda u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. Tim Kinen Cherokini oldinga itarganda u irillashga tushar, so'ng jimb qolar, biroq, zum o'tmay egasining kafti badaniga tegishi hamono yana shu taxlit ovoz chiqarardi. Tim Kinen Cherokini siylab-siyab turib sekingina turtib qo'yay va o'sha on it bo'g'zidan irillash otilib chiqardi.

Bunaqangi hunarni Oq So'yloq indamay beparvo kuzata olmasdi. Uning bo'yni va yelka junlari tikka bo'ldi. Tim Kinen Cherokini oxirgi marta rag'batlantirib o'zi orqaga chekindi. O'z epkini bilan bir necha qadam yugurib borgan Bulldog davraning o'rtasiga chiqqach to'xtadi. Xuddi mana shu lahzada Oq So'yloq unga qarab yugurdi. Tomoshabinlar hayajondan qiyqirib yuborishdi. Oq So'yloq mushukdek bir sapchib raqibining oldida paydo bo'ldi va ilkis tishlab oldi.

Buldogning yo'g'on bo'ynida, qulog'inining yonginasida qon ko'rindi. Go'yo hech narsa bo'l magandek yo'liga ham irillab qo'ymay, Cheroki Oq So'yloq ortidan yugurdi. Oq So'yloqning chaqqonligi bilan Cherokining qat'iyati ishqibozlar ehtirosini kuchaytirib yubordi. Tamoshabinlar qaytadan kaitaroq dov tikib, garov bog'lashdi. Oq So'yloq ketma-ket buldogga tashlanar, bir parcha etimi uzib olgudek tishlab qochar, bu g'aroyib raqibi esa bamaylixotir, baayni bir nima ko'zlagandek jiddiy qiyofada ketidan qolmasdi. U shoshilmas, xuddi aniq bir maqsad yo'lida harakat qilayotgandek, bir me'yorda yugurardi.

Uning barcha harakatlari, g'ayrati o'sha maqsadga qaratilgan edi. Cheroki Oq So'yloqni gangitib qo'ydi. Oq So'yloq umri bino bo'lib bunaqa itni uchratmagandi. Uning junlari kalta, sal tirnalsa yumshoq badani qonab ketyapti. Jangda behad xalal beradigan qalin juni qani? Oq So'yloq buldogning yumshoq badanini dam sayin tishlar, aftidan bu it o'zini himoya qilishga mutlaqo noqobil edi. U nega boshqa itlarga o'xshab angillamaydi? Hurimaydi? Agar g'azab bilan irillashini aytmasa, bulldog Oq So'yloqning qopishlariga toqat qilar va bir daqiqa bo'lsin raqibini ta'qib etishdan tiyilmasdi.

Cherokini noshud deb bo'lmasdi. U o'zini har maqomga solib payt poylar, bo'zchining mokisidek u yoqdan-bu yoqqa borib kelar, biroq, Oq So'yloq baribir tutqich bermasdi. Yoniga yo'latmaydigan bunaqa chapdast it bilan sira olishmagani uchunmi, Cheroki ham gangib qolgandi. Shu choqqacha ikki tomon ham baravar olishishga chog'lanar, matashib ketishardi. Lekin bu it esa yaqiniga yo'latmas, dam orqaga, dam ortiga sakrab qochardi. Hatto ora-chora tuyqus tashlanib Cherokini qopar

ham edi.

Oq So'yloq esa sira raqibining bo'g'zidan ololmasdi. Pak-pakana Bulldogning bo'ynidan tashqari turtib chiqqan ulkan jag'lari ham himoya vazifasini o'tardi. Oq So'yloq unga tashlanar va o'sha zahoti biror yeri tirnalmay orqaga sakrar, Cherokining badanidagi yaralar esa tobora ko'payardi. Boshi bilan bo'yni ikki tomondan tilishlab tashlangan, yaralardan tinmay qon oqib turar, ammo Cheroki zig'ircha tashvish chekmasdi. U hamon sabot bilan astoydil Oq So'yloqni ta'qib etardi. Shu paytgacha u atigi bir marta to'xtadi va odamlarga talmovsirab qarash va jangni davom ettirishga tayyor ekanini bildirish uchun dumini likillatib qo'ydi.

Tuyqus Oq So'yloq Cherokiga otildi-da, shusiz ham timdalab tashlagan qulog'ini uzib ogludek tishlab qochdi. Cherokining achchig'i chiqdi. U katta davra chizib qochayotgan Oq So'yloqning bo'g'zidan g'ippa olish maqsadida payt poylab, uning ortidan quvib ketdi. Bulldog raqibining bo'g'zidan olishga bir bahya qoldi. Oq So'yloq ilkis qarama-qarshi tomonga sakradi-yu, olomon qoyil qolib qiyqirib yubordi.

Vaqt o'tardi. Oq So'yloq Cherokining atrofida gir aylanar, irg'ishlar, dam-badam tishlab qochar, Bulldog esa bir qadam ketidan qolmay yugurishni qo'ymasdi. Ertami-kechmi maqsadiga erishadi, ana o'shanda Oq So'yloqning bo'g'zidan oladi-yu, olishuvga so'nggi nuqtani qo'yadi. Hozircha esa, raqibining barcha hamlalariga sabr-toqat bilan chidashdan boshqa iloji yo'q. Uning kalta quloplari popiltiriqday shalvirab qoldi, bo'yni va yelkalarining tishlanmagan yeri qolmadi, hatto labi yirtilib qonga belandi, barchasi kutilmaganda hamla qilayotgan Oq So'yloqning ishi edi.

Oq So'yloq bir necha bor Cherokini yiqtishga urinib ko'rди, ammo ularning bo'y-bastidagi tafovut bunga xalal berardi. Cheroki miqtidan kelgan pak-pakana edi. Bir safar Oq So'yloqqa omad kulib boqmadi. U Cheroki qarshisida irillab, atrofida gir aylanayotganida raqibi keskin o'girilaman deb, boshini burgan edi, bo'g'zi ochiq qoldi. Fursatni boy bermay Oq So'yloq unga sakradi, biroq bo'yi raqibining bo'ynidan ancha baland bo'lgani sababli unga gavdasi bilan urilish o'rniga ustidan o'mbaloq oshib tushdi. Shu choqqacha Oq So'yloqning janglardagi g'alabasining guvohi bo'lib kelgan odamlar birinchi marta «jangovor bo'ri»ning yiqilganiga shohid bo'ldilar. U havoda epchillik bilan bir irg'ishladi-yu, shu tufayli yerga yuztuban yiqilmay yonboshi bilan gursil-lab tushdi-da, o'za zahoti sapchib o'rnidan turib ketdi. Lekin Cheroki uning bo'g'zidan tishlab olishga ulgurdi.

Cheroki mo'ljalni biroz xato olganidan, Oq So'yloqning kekirdagi qolib ancha pastroqdan, ko'ksiga yaqin yeridan tishlagan edi. Ammo qo'yib yubormadi, tishlarini omburdek mahkam qisib turaverdi. Oq

So'yloq buldogni uloqtirib yuborish uchun jon-jahdi bilan u yoqdan-bu yoqqa sapchidi. Kanaday yopishib olgan itdan qutulolmay quturgudek bo'lardi. Cheroki qo'yib yubormas, xuddi qopqonga tushgandek Oq So'yloq hech narsa qilolmasdi. U bunga sira toqat qilomadi, ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ketdi. Butun vujudini yashash istagi qamrab oldi. U qanday bo'lmasin qutulishga talpinardi.

Oq So'yloq bir soniya bo'lsin to'xtamas, bo'yniga osilib olgan ellik funtli yukni itqitib yuborish uchun siitanar, oldinga, orqaga sakrar edi. Bulldog esa tishlagan yerini qo'yib yubormaslikka tirishardi. Ba'zan bir lahza oyog'i yerga tekkanda u Oq So'yloqqa qarshilik qilishga chog'lanar va o'sha zahoti quturib ketgan raqibining siltab tashlashlariga dosh berolmay havoda bir aylanib tushardi. Cherokini sezgilari boshqarardi. U hozir to'g'ri ish qilayotganini, qo'yib yuborishi mumkin emasligini bilar va ahyon-ahyon vujudini bir huzurbaxsh titroq qamrab olardi. Shunday daqiqalarda u hatto ko'zlarini yumib olar va og'riqni nazarpisand qilmay o'zini chirpirak qilishib aylantirishiga yo'l qo'yib berardi. Bular hech nimani o'zgartiroqlamasdi. Ayni chog'da Cheroki uchun jag'ini ochib yubormaslik muhim edi va u shundan boshqa narsaga qiziqmasdi.

Oq So'yloq batamom holdan toygach, to'lg'anib irg'ishlashdan to'xtadi. U endi hech narsa qilolmas va hech narsani tushunmas edi. Butun umri mobaynida bunaqa ahvolga tushmagan edi. Ilgari to'qnash kelgan itlar butunlay boshqacha tutardi o'zini. Ular bilan bunday qilardi: xippa yopishib tishladimi, o'sha zahoti orqaga sakrardi, yana tishlab yana orqaga sakrardi. Hozir esa, hars-hars nafas olgancha yonboshi bilan yerda yotibdi. Omburdek tishlarini ochmayotgan Cheroki, qiynalib nafas olayotgan Oq So'yloqni chalqancha yiqtishi uchun butun og'irligi bilan yerga bosardi. Oq So'yloq qarshilik qilar, buldogning jag'lari terisini yamlab-yamlab, lahza sayin bo'g'ziga yaqinlab borayotganini sezardi. Bulldog o'zini ortiqcha urintirmasdi: u tishlagan joyini qo'yib yubormaslik tugul sal imkon tug'ildi deguncha tishini chuqurroq botirishga urinardi, tinchib qolgan chog'da shunday imkonni paydo bo'lar, Oq So'yloq to'lg'ana boshlashi bilan darhol tishini tishiga mahkam bosardi.

Oq So'yloq nari borsa Cherokining gardanini tishlashi mumkin edi, xolos. Yelkasining yuqorirog'idan tishlab ham ko'rdi. Ammo unga o'xshab, go'yo terisini yamlagani bilan baribir foydasi bo'lmasdi. Oq So'yloq bunday qilolmas, qolaversa uning jag'lari bunga moslashmagan ham edi. U jon-jahdi bilan Cherokining yelkasidan tishlab tortqilar ekan, daf'atan vaziyat chappasiga o'zgarganini ilg'adi. Cheroki uni chalqanchasiga yotqizib, hamon tishlagan yerini qo'yib yubormay ustiga chiqib olgan edi. Oq So'yloq orqa oyoqlarini bukkancha mushukka o'xshab tirnoqlari bilan raqibini timdalay boshladi. Cheroki qornini ehtiyyot qilish uchun sakrab Oq So'yloqning yonbosh tomoniga o'tib oldi.

Tomog'idan g'ippa olgan Cherokining tishlaridan qutulishning aslo iloji yo'q edi. Bu tishlar ayovsiz sirtmoqdek Oq So'yloqni tang ahvolga solib qo'ydi. Cherokining jag'i sekin-asta ko'k tomirni izlayotgandek yuqoriga siljirdi. Raqibining og'zida qatlanib qolayotgan qalin terisi bilan bo'ynidagi quyuq junlarigina Oq So'yloqni o'limdan asrardi. Cherokining og'zi uning junlari bilan to'ldi, biroq bu esa ilojini topib yanada ko'proq yamlashiga monelik qilmasdi. U Oq So'yloqni bo'g'ar, daqiqa sayin uning nafas olishi qiyinlashib borardi.

Chamasi, olishuv nihoyasiga yetay deb qolgan edi. Cheroki yutadi, deb bas boylaganlarning quvonchi cheksiz edi va ular haddan ziyod katta dov tikib, talabgor bo'lishardi. Oq So'yloq tarafdarlarining ruhi tushib ketgan va birga o'n, birga yigirma deyishsa ham dov tikishdan bosh tortishardi. Ammo birga 50 degan kishining garovini qabul qiluvchi mard topildi. Bu Xushroy Smit edi. U davraga kirib Oq So'yloqqa barmog'i bilan po'pisa qilgancha uning ustidan kula boshladи. Bu o'z ta'sirini ko'rsatdi. Oq So'yloq g'azabidan quturdi. So'nggi kuchini to'plab oyoqqa turib oldi. Ammo bo'yniga osilib olgan 50 funtli yukni ko'targancha davra bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa yugura boshlaganda, bu g'azab o'rnini qo'rquv egalladi. Yana jon talvasasida o'takasi yorildi. U davra bo'ylab yugurar, qoqilib-suqilar, yiqilar va yana o'rnidan turar, iring'ishlar, raqibini siltalar, ammo ajal sirtmog'idan qutulish yo'lidagi urinishlari zoye ketardi.

Nihoyat, Oq So'yloq chalqancha yiqildi va bulldog o'sha zahoti uning bo'g'ziga yaqinroq yeridan tishlab oldi. Oq So'yloq o'zini o'nglab olishga ham ulgurmadi. Chapak chalib olqishlayotgan olomon «Cheroki! Cheroki!» deb qichqirardi. Bulldog zavqlangandek cho'ltoq dumini likillatib qo'ydi. Ammo bu uning olqishlardan suyulib ketganini bildirmasdi. Go'yo dumi o'z holicha, cho'ng jag'lari o'z holicha harakat qilardi. Cho'ltoq dumi tebratgichdek likillagani bilan jag'lari Oq So'yloqning kekirdagini tobora kuchliroq siqmoqda edi.

Daf'atan, tomoshabinlarning diqqati bo'lindi. Yaqin o'rtadan it haydovchilarning baqir-chaqiri hamda qo'ng'iroqchalar sadosi eshitildi. Xushroy Smitdan boshqa hamma politsiya kelyapti, degan xavotirga tushdi. Ammo, zum o'tmay yo'lida chana hamda uning yonida yugurib borayotgan ikki nafar kishining qorasi ko'rindi. Ular shahardan emas, shaharga qarab ketishayotgan edi. Ular qandaydir tekshiruv safaridan qaytib kelishayotgan bo'lsa ajab emas. Olomonni ko'rib notanish kishilar itlarini to'xtatishdi-da, nima gapligini bilish uchun ularning yoniga kelishdi.

Ulardan biri baland bo'ysi, sovuqda tez yugurganidan tozalab qirilgan bet-yuzi qizarib ketgan yigit edi. Sherigi it haydovchi bo'lsa kerak, o'rtalbo'ya, mo'ylabli edi.

Oq So'yloq qarshilik qilmay qo'ygandi. U ora-chora jon achchig'ida to'lg'anar, ammo endi kech – har qanday qarshilik befoyda edi. Bulldogning jag'lari uning bo'g'zini tobora qattiqroq siqib borar, uning nafas olishi qiyinlashardi. Agar boshida to'shiga yaqin yerdan tishlab olmaganda, Cheroki allaqachon uning ko'k tomirini chaynab tashlagan bo'lur edi. U g'ajib Oq So'yloqning kekirdagini yorib tashlagani harakat qilar, biroq bunga ancha vaqt kerak edi, buning ustiga og'zi Oq So'yloqning qat-qat terisi bilan to'lib bo'lgan edi.

Lekin Xushro'y Smitning vahshiyligi tutib, u qip-qizil iblisga aylandi-qoldi. Itning ko'zlarini xira parda qoplayotganini ko'rgach, u jang boy bergenini fahmladi. Bamisli zanjirini uzgan yirtqichdek u Oq So'yloqqa tashlandi va ko'ziga qon to'lib, tepa ketdi. Tomoshabinlar baqirib yuborishdi, hushtak tovushi qulinqi qomatga keltirdi. Ammo buning hech qanday foydasi bo'lmadi. Xushro'y Smit bu norozilikka parvo qilmay Oq So'yloqni tepaverdi. Shu choq odamlar orasida qandaydir taraddudlanish paydo bo'ldi: hech kimdan andisha qilmay hammani turtib-surtib baland bo'yli yigit davra o'rtasiga chiqib kelardi. U o'rtaga chiqqanda chap oyog'i bilan tepaverib charchagan Xushro'y Smit endi o'ng oyog'i bilan tepishga chog'langan, kalovlanib turgan payti edi. Yigit xuddi mana shu fursatda qulochikashlab uning basharasiga musht tushirdi. Xushro'y Smit gursillab qorga yiqlidi.

– Qo'rkoqlar! – deya o'shqirdi u. – Noinsoflar!

U g'azablanar, o'zini bosolmas, faqatgina o'zini hurmat qila bilgan kuyunchak odamgina shu ko'yga tushishi mumkin edi. Uning ko'k ko'zlarida g'azab o'ti yonardi. Xushro'y Smit o'rnidan turdi-da, yuragini hovuchlab uning yoniga keldi. Notanish yigit uning niyatini tushunmadni. Qarshisida turgan kimsaning o'taketgan qo'rkoq ekanidan gumonsiramay mushtlashmoqchi bo'lsa kerak, deb o'yladi shekilli, «Ablah» deya o'shqirdi-da, yana bir urib ag'dardi. Xushro'y Smit qorda yotgani beg'alva ekanini fahmlab boshqa o'rnidan turishga urinmadni.

– Qani qarashvoring, Mett! – dedi notanish yigit ortidan olomon orasiga kirgan sherigiga.

Ikkovlashib itlar oldida cho'nqayib o'tirishdi. Mett, Cheroki jag'ini sal bo'shatsa, Oq So'yloqni tortib olishga chog'landi. Yigitcha esa buldogning omburdek tishlarini ajratishga tutindi. Ammo uning urinishlari zoye ketdi. Itning jag'larini ochish uchun tirisharkan, u dam-badam «Ablahlar» deb takrorlashini qo'ymasdi.

Tomoshabinlar junbushga keldi. Bitta-yarimtasi bunaqa o'zboshim-chalikka qarshi norozilik bildirib to'ng'llay boshlagan edi, notanish yigit boshini ko'tarib qaragan zahoti, dami ichiga tushib ketdi.

– Insof bormi o'zi sizlarda! – deya o'shqirdi u va yana o'z ishiga tutindi.

— Bekor ovora bo‘lyapsiz, mister Skott. Bu vaziyatda ularni o‘lganda ham ajratolmaymiz.

Ular qadlarini rostlab, bir-biriga qapishib yotgan itlarga razm solishdi.

— Qon kamligiga qaraganda, tomog‘iga yetib bormagan ko‘rinadi, — dedi Mett.

— Qo‘yib bersangiz yetib boradi ham, — deya javob qildi Skott. — Ana, qarang, yana yuqoriga surildi.

Oq So‘yloqqa achinayotgan yigitcha qattiq tashvishlanardi. U jahl bilan Cherokining kallasiga bir-ikki urib ko‘rdi. Biroq, foydasi bo‘lmadi. Cheroki xuddi, nega urayotgанингларни bilaman, lekin baribir niyatimga yetmaguncha qo‘ymayman, degandek cho‘ltoq dumini likillatib qo‘ydi.

— Qarashib yuborsalaring bo‘lmaydimi?! — deya bo‘g‘ildi Skott olomonga yuzlanib.

Ammo bironta mard topilmadi. Aksincha, tomoshabinlar jig‘iga tegish uchun piching qilib, hazil aralash bo‘lar-bo‘lmas maslahat berishga o‘tishdi.

— Og‘ziga biron nima tiqing, — deb maslahat berdi Mett.

Skott to‘pponchasini qinidan oldi-da, quvurini buldogning omburdek siqilgan jag‘lari orasiga tiqishga urinib ko‘rdi. Azbaroyi zo‘r bergenidan Cherokining tishlariga urilayotgan temirning qirsillashi eshitilardi. Ular birqalashib cho‘kka tushib olgan edilar.

O‘rtaga Tim Kinen chiqdi. U Skottning yoniga kelib yelkasidan tutdi-da, po‘pisa qilgandek:

— Tishini sindirib qo‘ymang yana yigitcha, — dedi.

— Tishi bo‘lmasa, boshini sindiraman, — dedi hamon to‘pponcha quvurini Cherokining og‘ziga suqmoqchi bo‘layotgan Skott.

— Tishi sinadi deyapman, sizga! — dedi yanayam qat’iy ohangda Tim Kinen.

Skott bunaqa do‘q-po‘pisalardan qo‘rqadigan yigitlardan emasdi. U to‘pponchasi bilan kavlashtirishdan to‘xtamay, boshini ko‘tarib bosiq ohangda so‘radi:

— Sizni itingizmi?

Tim Kinen o‘zicha bir nima deb to‘ng‘illagan bo‘ldi.

— Unda jag‘ini oching, kelib.

— Bilasizmi, azizim, — dedi g‘ijinib Tim, — bu siz o‘ylaganchalik oson ish emas. Meni qo‘limdan hech narsa kelmaydi.

— U holda jo‘nang bu yerdan. Menga xalal bermang. Ko‘rib turibsiz bandman.

Tim Kenen ketmasdan qoqqan qoziqdek turaverdi, ammo endi Skott unga zarracha ahamiyat bermay qo‘ydi. U bir ilojini qilib to‘pponcha quvurini buldogning jag‘lari orasiga kirkizib olgan, endi narigi tarafidan chiqsin uchun ichkariroq tiqishga urinardi.

Nihoyat, Skott ehtiyotkorlik bilan, sekin-sekin buldogning jag'ini ochdi, Mett esa bundan foydalanib Oq So'yloqning terisini buldogning og'zidan sug'urib ola boshladi.

— Itingizni ushlab turing! — deb buyurdi Skott.

Tim Kinen gap qaytarmay engashdi-da, itini quchoqlab oldi.

— Qani! — deb chinqirdi Skott, bor kuchini ishga solar ekan. Itlarni ikki tomonga qarab tortishdi. Bulldog jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatardi.

— Oling itingizni! — deya o'shqirdi Skott. Tim Kinen Cherokini odamlar orasiga olib ketdi.

Oq So'yloq turmoqchi bo'lib bir-ikki urindi, ammo turolmadi — oyoqlari shalvirab, sekin qorga uzala tushib yotib oldi. Uning yarim yumuq ko'zлari xiralashib, ostki jag'i salqib, tili osilib qoldi... Itning ahvoli chatoq edi. Mett itni ko'zdan kechirdi.

— Ahvoli chatoq, — dedi u. — Lekin hali tirik, nafas olyapti.

Xushro'y Smit o'rnidan turib, Oq So'yloqqa yaqinlashdi.

— Mett, chana tortadigan yaxshi it qancha turadi? — deb so'radi Skott.

Mett picha o'ylanib turdi-da, cho'kkalagan joyidan javob qildi:

— Uch yuz dollar.

— Manavinaqa sog' joyi qolmagani-chi? — Skott oyog'i bilan Oq So'yloqni turtib ko'rsatdi.

— Yarim bahosi, — dedi Mett.

Skott Xushro'y Smitga yuzlandi.

— E, vahshiy, eshitdingizmi? Men itingizga yuz ellik dollar beraman.

U shunday dedi-da, karmonini ochib pul sanab uzatdi. Xushro'y Smit pulni olmaslik uchun qo'llarini orqasiga yashirdi.

— Sotmayman, — dedi u.

— Sotasiz, sotmaganingizga qo'ymayman, — dedi Skott. — Mana puli. Itni baribir bermayman sizga.

Xushro'y Smit ortiga tisarildi. Skott musht o'qtalib unga qarab yurdi.

Xushro'y Smit basharasini qo'llari bilan berkitdi.

— It meniki... — deya g'o'ldiray boshlagandi, Skott shartta kesdi: — Pulni olasizmi, yo yana kaltak yeysizmi?

— Yaxshi, yaxshi, — deya ming'irladi kapalagi uchib Xushro'y Smit. — Ammo, siz menga zo'rlik qilyapsiz. Bu bebaho it. Men o'zimni xonavayron qilishlariga yo'l qo'ymayman. Hamma odamni o'ziga yarasha izzat-nafsi bor.

— To'g'ri, — dedi Skott unga pulni bera turib. — Har bir odamni izzat-nafsi bor. Lekin siz odam emas, hayvonsiz.

— Ko'ramiz, Dousonga qaytib boraylik, — deya shama qildi Xushro'y Smit, — shahar bedarvoza emas, jilovingizni tortib qo'yadigan bordir.

— G‘iring deb ko‘ring, o‘sha kuni Dousondan haydab chiqaraman, tushunarlimi?

Xushro‘y Smit bir nimalar deb g‘o‘ldiradi.

— Tushunarlimi?! — deya o‘dag‘ayladi Skott.

— Ha, — dedi eshitilar-eshitilmas ming‘irlab Xushro‘y Smit ortiga tisarilar ekan.

— Nima?

— Xo‘p, ser, — deb bo‘kirayozdi Xushro‘y Smit.

— Sekinroq. Tishlab oladi! — deya kimdir hammani o‘ziga qaratib shang‘illadi, odamlar gurr etib kulib yuborishdi.

Skott hamon Oq So‘yloqning tepasida kuymalanayotgan sherigi yoniga yurdi.

Tomoshabinlarning ba‘zilari ketvordi, boshqalari to‘p-to‘p bo‘lib Skottga qarab-qarab qo‘ygancha o‘zaro gurunglashar edilar.

Tim Kinen shu to‘plardan biriga yaqinlashdi:

— Kim o‘zi bu shovvoz? — deb so‘radi u.

— Uidon Skott.

— Uidon Skott deganingni o‘zi kim?

— O‘zi konda injener. Bu yerdagi korchalonlar bilan bordi-keldi qiladi. Tinchorq bo‘lay desang, nariqoq yur. Shaxsan kon boshlig‘ining ulfati bo‘ladi.

— O‘zim ham kattakonlardan bo‘lsa kerak, deb o‘ylovdim, — dedi Tim Kinen. — To‘g‘ri aytasan, yaxshisi bunaqlardan uzoqroq yurish kerak.

## Beshinch bob

### SARKASH

— Foydasi yo‘q! Bekorga ovora bo‘lganimiz qoladi! — dedi hafsalasi pir bo‘lgan Uidon Skott.

U zinapoyaga o‘tirib haydovchiga tikildi, sherigi ham chorasziz yelka qisdi.

Ikkovi Oq So‘yloqqa qaradi. Oq So‘yloq chanadan bo‘shatilgan itlarga hamla qilmoq uchun g‘azab bilan irillar va zanjirini uzgudek siltib tortardi. Mettdan bir sidra tayoq yeb, ba‘zi bir narsalarni tushunib olgan itlar Oq So‘yloqqa ortiqcha ahamiyat berishmay qo‘yishgan edi.

Hozir bir chetda uning bor-yo‘qligini mutlaqo unutgandek jimgina yotishardi.

— Nimasini aytasan, bu qip-qizil bo‘ri, bo‘rini esa o‘rgatib bo‘lmaydi, — dedi Uidon Skott.

— Yana kim biladi, — deb e’tiroz bildirgan bo‘ldi Mett. — Ehtimol, bo‘ridan ko‘ra ko‘proq itga yaqindir. Ko‘nglimdan o‘tgani albatta to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Haydovchi to'xtab qoldi va Bug'u tog'lari tomon ma'noli bosh irg'adi.

— Cho'zmasdan indallosini aytavering, — dedi Skott xunobi oshib. —

Nima demoqchisiz?

Haydovchi yelkasi osha boshmaldog'i bilan Oq So'yloqqa ishora qildi.

— U bo'rimi, itmi, buning ahamiyati yo'q, lekin uni qo'lga o'rgatish-moqchi bo'lishganani aniq.

— Bo'lishi mumkin emas!

— Gapimga ishonavering, o'rgatmoqchi bo'lishgan. U chana ham tortgan. To'shidagi qayishning o'rnini ko'rmayapsizmi?

— Rostdanam. Mett! Xushro'y Smitning qo'liga tushmasidan ilgari chana tortganga o'xshaydi.

— Bizning chanani tortsa qalay bo'larkin?

— Rostan ham, — quvonib ketdi Skott.

Ammo, o'sha zahoti bir nimani eslab tarvuzi qo'ltig'idan tushdi.

— Mana ikki haftadan beri biz bilan birga yashayapti, u bizga o'rganish o'rniga yanayam vahshiy bo'lib ketdi.

— Uni zanjirdan bo'shatsak-chi, qani nima qilarkin, — deya taklif qildi Mett.

Skott ajablanib unga tikildi.

— Ha, ha! — deya davom ettirdi Mett, — bilaman, bir marta sinab ko'rgansiz, yana bir tavakkal qilib ko'ring, faqat tayoq olvolishni unutmang.

— Xo'p, lekin bu gal bu ishni sizga topshiraman.

Haydovchi tayoq bilan qurollanib, Oq So'yloqning yoniga bordi. O'rgatuvchining qamchisiga tikilgan arslondek it uning qo'lidagi tayoqqa tikilib qoldi.

— Ko'ryapsizmi, tikilib qolganini, — dedi Mett. — Juda soz. Demak, itning uncha-muncha narsaga aqli yetarkan. Toki qo'limda tayoq bor ekan, u meni qopmaydi. U quturmagan-ku, axir.

Insonning barmoqlari bo'yniga yaqinlashganda Oq So'yloq hurpayib irillagancha yerga yotib oldi. U Mettning qo'lidan ko'z uzmag'an holda boshi uzra ko'tarilgan tayoqni ham ko'zdan qochirmas edi. Mett ilkis itning zanjirini yechdi-da, ortiga chekindi.

Oq So'yloq zanjirdan xalos bo'lganiga ishongisi kelmasdi. Xushro'y Smitning qo'liga tushganidan beri qancha oylar o'tdi, shundan beri faqat urishtirgan chog'da zanjirni yechishar, keyin esa yana bog'lab qo'yishardi.

Ozod bo'lgani bilan nima qila olardi? Odamlar yana biron bir iblisona ishga qasd qilgan bo'lsa-chi?!

Oq So'yloq har daqiqa kaltak tushib qoladigandek qo'rqa-pisa bir necha qadam yurdi. Bu ozodlik shunchalar noqulay ediki, u o'zini

qanday tutishni bilmasdi. Har ehtimolga qarshi odamlardan uzoqroqqa, kulba ortiga o'tib turishni ma'qul ko'rди. Hech kim uning ortidan bormadi.

Buni ko'rgan Oq So'yloq iziga qaytdi va odamlardan o'n fut berida to'xtab ularga sinchkovlik bilan tikildi.

— Qochib ketmasmikin? — deya so'radi Skott.

Mett yelka qisdi.

— Tavakkal-da. Tavakkalchining ishini xudo o'nglaydi.

— Boyoqish! Hammasidan ham odamning silab-siypashlariga zor bo'lса kerak, — dedi o'zicha achinib Skott va kulgaga kirib ketdi. Ichkaridan bir bo'lak go'sht ko'tarib chiqdi-da, Oq So'yloqqa irg'itdi. It o'zini chetga oldi va go'shtni uzoqdan turib ko'zdan kechira boshladi.

— Qayt orqaga Mayor! — deb baqirdi Mett, biroq u kechikkan edi.

Mayor go'shtga tashlandi va endi og'ziga olgan lahzada Oq So'yloq o'zini unga otib, gavdasi bilan urib yiqitdi. Mett o'sha tomonga yugurdi, ammo ko'z ochib yumguncha Oq So'yloq ishini bitirdi; Mayor arang gavdasini ko'tardi, uning bo'g'zidan chizillab otilgan qon oppoq qorda lolarang xalqob bo'lib yoyildi.

— Bechora Mayor, o'zidan ko'rsin, — dedi o'ylamay-netmay Skott.

Mett Oq So'yloqni tepish uchun oyog'ini ko'tardi, ammo it birdan sapchidi-yu, tishlarning bir-biriga urilib qirsillagani va voy-voylagan ovoz eshitildi.

Vahshiyona irillagancha Oq So'yloq ortiga chekindi. Mett esa engashib it qopgan boldirini ko'zdan kechira boshladi.

— Baribir qopdi-ya, yaramas, — dedi u yirtilgan shimi bilan qon dog'i ko'rigan ishtonini ko'rsatib.

— Bekorga ovora bo'lyapmiz, degandim sizga, — dedi xo'rsinib Skott. — Men bu it haqida ko'p o'yladim. Nima qilishni bilmay boshim qotayotgandi. Nachora, o'zga iloji yo'q.

U shunday dedi-da, istar-istamas cho'ntagidan to'pponchasini olib, o'qdonni tekshirib ko'rди. To'pponcha o'qlangan edi.

— Shoshmang, mister Skott, — dedi yalinchoq ohangda Mett. — Bu sho'rlik it boshiga nimalar tushmaganikin. Bir dumalab yuvosh bo'lib qololmaydi-yu! Ozgina muhlat bering.

— Mayorning ahvolini bir qarang, — dedi bunga javoban Skott.

Haydovchi itga nazar soldi. Mayor qoniga belanib yotar, chamasi jon berayotgan edi.

— O'zidan ko'rsin, janob Skott, o'zingiz shunday derdingiz-u. Birovning nasibasiga ko'z olaytirganning jazosi shu. Shunday bo'lishi lozim edi. O'ziga berilgan suyakni indamay oldirib qo'yadigan itni sariq chaqaga olmayman.

— Xo'p, o'zingiz-chi, Mett? It-ku o'z yo'liga, ammo hamma narsa-ning chegarasi bor.

— O'zimga-o'zim qildim, battar bo'lay, — dedi qaysarlak bilan Mett. — Nega uni urding, degan savol tug'iladi? Axir, o'zingiz aytmadningizmi, u aybsiz deb? Demak, uni urmaslik lozim edi.

— Bu itni otib tashlasak xayrli ish qilgan bo'lardik, — o'zinikini ma'qulladi Skott. — Baribir uni tarbiya qilolmaysiz.

— Janob Skott, bu boyoqishga imkon beraylik, nimalarga qodir ekanligini ko'rsatsin, axir. Bizga duch kelgunga qadar boshidan nimalar o'tgani yolg'iz xudoga ayon. Keling, bir sinab ko'ramiz. Agar o'zini oqlamasa o'zim otib tashlayman.

— Ochig'i uni o'ldiraman, deb ko'zim uchayotgani yo'q, — dedi Skott to'pponchasini cho'ntagiga solib qo'yarkan, — arqonsiz yuraversin, ko'raylik-chi, yaxshilikni bilarmikan. Hoziroq sinab ko'raman.

U Oq So'yloqqa yaqinroq borib, muloyim ohangda so'z qotdi.

— Ehtiyot shart tayoqni olvoling, — deya ogohlantirdi Mett.

Skott shart emas, degandek bosh chayqab, Oq So'yloq ishonchini qozonish uchun erkakashda davom etdi.

Oq So'yloq sergak tortdi. U xavf ostida edi. Chunki manavi odamning itini g'ajib tashladi, sherigini qopib oldi. Endi jazolashlari turgan gap! Shunday bo'lsa ham u bo'ysunishni istamasdi. Junlari tikka bo'lib, butun badani taranglashdi-da, tishlarini irshaytirib ro'parasidagi odamning xatti-harakatini hushyorlik bilan kuzatib turardi. U har qanday nogahoniy hamlaga tayyor edi. Skottning qo'lida tayoq yo'qligini ko'rgan Oq So'yloq uning o'z yoniga yaqin kelishiga qarshilik ko'rsatmadni. Odamzod qo'llari uning boshiga yaqinlasha boshladi. Oq So'yloq junjayib yerga qapishgudek yotib oldi. Mana xavf-xatar bilan allov qayerga yashiringan. Qudratli va ayyor odamlarning qo'li nimalarga qodirligini Oq So'yloq yaxshi bilardi. Undan tashqari u hamon badaniga qo'l tekkizishlariga chidayolmasdi. U battaroq g'azab bilan irilladi va yanayam yerga qapishib oldi, barmoqlar esa hamon yaqinlashib kelardi. Oq So'yloq bu qo'lni qopishni istamadi, biron jiddiy xavf tug'ilmaguncha xavotir ichida kutib turdi.

Uidon Skott birdan tashlanib qolsa qo'limni tortib olishga ulguraman degan ishonchda edi. Ammo, o'zining hushyorligiga bunchalar ishongandan pushaymon edi, u Oq So'yloqning ilonday tez va aniq sapchiy olishiga amin bo'ldi.

U kutilmaganda it qopib olgan qo'lini ushlagancha dodlab yubordi. Mett boloxonador so'kinib, uning yoniga yugurdi. Oq So'yloq tishlarini g'azab bilan taqillatib, irillab yeb qo'ygudek odamlarga tikilgan ko'yi ortiga tisarildi. Ana endi Xushro'y Smitdan besh battar kaltaklashlari aniq.

— Nima qilyapsiz? — deya baqirib yubordi Skott. Bu orada Mett hujsradan miltiq olib chiqishga ulgurgan edi.

— Hech narsa, — deya javob qildi u atay sovuqqonlik bilan. — So‘zimni ustida turmoqchiman. Aytdimmi, otib tashlayman deb, endi otaman.

— Yo‘q, otmaysiz.

— Yo‘q, otaman dedimmi, otaman.

Endi bir necha daqqa avval it qopgan Mettga o‘xshab Oq So‘yloqning yonini olish navbatি Uidon Skottga kelgan edi.

— Uni sinab ko‘rishni taklif qilgan o‘zingiz, endi sinab ko‘ring. O‘zi endi kirishgan bo‘lsak, darrov qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urish insofdan emas. Ayb o‘zimda... Keyin... uni qarang!

Kulba ortidan qarab turgan Oq So‘yloq shunday vahshiyona tarzda o‘kirdiki, eshitgan odamning quti uchardi. Uning g‘azabi Skottga emas, haydovchiga qaratilgan edi.

— Xo‘s, bu yog‘i qalay bo‘ldi, — dedi Mett.

— Qarang, baloga aqli yetadi, — deya so‘zida davom etdi Skott. — Qurol nimaligini bizdan kam bilmasa keragov. Bunaqa itga sarf bo‘lgan mehnating bekor ketmaydi. Miltiqni yo‘qoting.

— Bo‘pti. Sinab ko‘ramiz. —Mett miltiqni sarjinga suyab qo‘ydi. Voy tavba! Buni qarang!

Oq So‘yloq g‘ingshishdan to‘xtab tinchlandi.

— Yana shunaqa qiling! Undan ko‘z uzmang.

Mett miltiqni qo‘liga olgandi — Oq So‘yloq yana irillay boshladи. Mett miltiqni qo‘ygandi Oq So‘yloq tinchlandi.

— Yana takrorlang! Bu juda g‘aroyib!

Mett miltiqni olib qo‘ndog‘ini yelkasiga tirab nishonga ola boshlagandi. Oq So‘yloq irillashga tushdi va miltiq yuqori ko‘tarilgan sari qattiqroq irillayverdi. Ammo Mett nishonga olishga ulgurmay bir sakrab kulba ortiga o‘tib g‘oyib bo‘ldi.

Haydovchi miltiqni tushirib, xo‘jayiniga yuzlandi.

— To‘g‘ri o‘ylabsiz, janob Skott. It o‘ta aqlli. Uni o‘ldirib uvoliga qoladi kishi.

## **Oltinchi bob**

### **YANGI SABOQ**

Yoniga kelayotgan Uidon Skottni ko‘rgan Oq So‘yloq osonlikcha jon bermasligini bildirib qo‘ymoqchidek hurpayib irilladi. Yangi xo‘jayinining qo‘lini tishlab olganidan buyon oradan bir necha kun o‘tdi. Skott qo‘lini bog‘lab bo‘yniga osib olgan edi. Odamlarning ba‘zan jazoni boshqa paytga qoldirish odati Oq So‘yloqning esidan chiqmagandi. Shu sababdan hozir qilmishiga yarasha jazo kutardi. Boshqacha bo‘lishi

ham mumkin emas, u shakkoklik qildi: o'zi xudodek bilgan insonni, buning ustiga oq tanli kishini qopdi. Odamlar qo'lida uzoq yillar yashab, olgan saboqlariga ko'ra o'zini qanday og'ir jazo kutayotganini bilardi.

Odam undan bir necha qadam narida to'xtab cho'kkaladi. Bu hali hech narsani bildirmasdi, chunki odatda ular tik turgan holda jazolaydilar. Qolaversa, bu xudoning qo'lida na tayoq, na qamchi, na miltiq bor, buning ustiga Oq So'yloq ham bog'lab qo'yilmagan. Na arqon, na zanjir urra qochib ketishga monelik qilardi. Hozircha buyog'iga nima bo'lishini kutish lozim edi.

Skott hech narsa bo'lmagandek tinchgina o'tirar, o'rnidan turishni xayoliga ham keltirmasdi. Pirovardida, Oq So'yloqning g'azab bilan o'kirishlari sekin-asta pasayib, uzuq-yuluq irillashga aylandi va bora-bora irillamay ham qo'ydi. Shunda xo'jayini gapira boshladi. Uning ovozini eshitgan zahoti Oq So'yloqning junlari yana tikka bo'lib, yana bo'g'ilgudek irillay boshladi. Odamzod bironta nojo'ya harakat qilmay muloyim ohangda gapiraverdi. Xuddi unga jo'r bo'lgandek gap ohangi va ovozining o'zgarishiga muvofiq Oq So'yloqning irillashi dam ko'tarilar yoki dam susayardi. Odamning ovozi bilan itning irillashi o'rtasida uyg'unlik hosil bo'ldi. Biroq, Skott timmay gapirardi. U Oq So'yloqqa shunday muomala qilar ediki, it bu taxlit muomalani hech kimdan ko'rmagan edi. Uning mayin, allalovchi ohangida mehr va shafqat sezilar va bu Oq So'yloqqa ozmi-ko'pmi ta'sir qilardi. Oxiri it o'zi istamagan holda yangi xo'jayiniga nisbatan ishonch tuydi. Shu choqqacha odamzod tomonidan behad jabr ko'rgan va aldangan bo'lishiga qaramay, hozir xavf-xatardan butkul xoli ekaniga ishondi.

Skott uzoq gapirdi, so'ng o'rnidan turib g'oyib bo'ldi. U yana kulba ostonasida paydo bo'lganda, Oq So'yloq xavotirlanib unga tikildi. Uning qo'lida hech narsa – na qamchi, na tayoq, na qurol bor edi. U kelib boyta o'tirgan joyiga cho'nqaydi-da, Oq So'yloqqa bir bo'lak go'sht uzatdi. Birdan sergak tortgan Oq So'yloq avvaliga shubhalanib go'shtni ko'zdan kechirdi, shuning barobarida odamdan ham diqqatini uzmadi, u biron xavf tug'ilgudek bo'lsa sakrab qochishga shay turardi.

Lekin negadir jazo hamon orqaga surilardi. Inson unga yegulik berdi – bor-yo'g'i shu. Oddiygina go'sht, buning hech qanaqa qo'rqinchli yeri yo'q. Ammo, Oq So'yloq hanuz shubhalardan xalos bo'lolmayotgani uchun insonning go'sht tutgan qo'li tumshug'i tagiga kelib qolgan bo'lsa-da, qayrilib qaramadi. Inson har narsaga qodir-da, kim bilsin beozor va beminnatdek tuyulayotgan bu g'amxo'rlik zamirida qanday makr-hiyla bor? O'tmish saboqlariga, ayniqsa, xotin-xalajga ro'baro' kelgan chog'laridagi tajribasiga ko'ra Oq So'yloq go'sht uzatilgan yerda jazo borligini va bu ikki tushuncha hammavaqt bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lishini bilardi.

Nihoyat, inson go'shtni Oq So'yloqning oyoqlari ostiga irg'itdi. It odamzoddan ko'z uzmay turib go'shtni obdon iskadi. Biron ko'ngilsiz hodisa ro'y bermadi. Shundan so'ng u go'shtni yeyishga tushdi. Yana hammasi tinch-xotirjam o'tdi. Skott unga ikkinchi bo'lakni uzatdi. Oq So'yloq bu gal ham go'shtni uning kaftidan olib yeyishga unamadi, odam go'shtni yana uning oyoqlari ostiga irg'itdi. Bu bir necha bor takrorlandi. Oxiri odam go'shtni irg'itishdan voz kechdi. U go'sht bo'lagini kaftida tutgancha Oq So'yloqni olib yeyishga undadi.

Go'sht xushxo'r, Oq So'yloq esa ochiqqan. Natijada u ming shubha-gumon bilan bo'lsa ham sekin-sekin yaqin bordi va oxiri odam kaftidan go'shtni olishga botindi. U cho'zilib go'shtni olar ekan, odamni ko'zdan qochirmas, go'yo aqling bo'lsa hozir o'ynashma, deb qo'rqtib qo'ymoqchidek tahdid bilan irillab qo'yar edi. Oq So'yloq go'shtning bir qismini yedi, biron noxush voqeа yuz bermadi. Shu alpozda oz-ozdan go'shtni yeb bitirdi, baribir biron yomonlik sezmadи. Demak, jazolash qoldirilgan.

Oq So'yloq labini yalab, endi nima bo'ladi, degandek kuta boshladи. Odam gapirishni davom ettirdi. U mehr bilan erkalayotgandek gapirardi. Oq So'yloq mehr bilan gapirish nimaligini shu choqqacha bilmasdi. Mana shu shirin muomala unga ta'sir etar, allaqanday yoqimli hislar vujudini qamrab olmoqda edi. G'alati, u o'zini behad osoyishta sezар, bamisli qandaydir talab-ehtiyojlari qondirilayotgandek, hayotidagi allaqanday bo'shliq o'rni to'ldirilayotgandek bo'lardi. Sal o'tmay yana ixtiyor o'zidan ketib, o'tmisht tajribalari junbushga keldi-yu, xavotirga tushdi. Odamzod o'ta ayyor — nimaga qasd qilgan, ko'nglida nima gap bor, bilish qiyin.

Mana oqibati! Odam makkor, gap orasida sekin qo'lini uzatishdan tortinmayapti. Uning qo'li Oq So'yloqning boshiga tegay, deb qoldi. Ammo u bir nafas to'xtamay gapirishda davom etardi. U mayin, alla-lagudek ovozda so'zlardi. Oq So'yloq qo'lni ko'rib xavotirlansa, ovozini eshitib dadillanardi. Ayni chog'da, mayin ovozini eshitib xotirjam bo'lsa, qo'lini ko'rib dahshatga tushardi. Oq So'yloqning vujudida qarama-qarshi his-tuyg'ular oqimi kurashardi. U bu vaziyatda bor kuchini sarflagani bilan o'zini qo'lga ololmas, borgan sari tinka-madori qurib, holsizlanib borardi.

Oxiri Oq So'yloq o'z ixtiyorini jilovlashga majbur bo'ldi: u tahdid bilan irillab, qulqlari dikkaydi, ammo Skottga hamla qilmadi va undan qochishga urindi. Qo'l pastlashib, pastlashib, nihoyat, uning hurpaygan junlariga tegdi. Oq So'yloq yerga yotib oldi. Ammo odamzod qo'lini tortib olmadi, aksincha tobora tig'izroq ushslashga talpinardi. Junjayib esxonasi chiqib ketgan Oq So'yloq arang o'zini bosib turardi. Bu qo'lining badaniga tegishidan u azob chekardi. Xohish-istiklarini poymol etayotgan inson qo'llari yetkazgan son-sanoqsiz jabr-zulmni bir kunda unutib

yuborishga u qodir emasdi. Ammo odamzod uning unutishini xohlar, shu sababli itni o'z irodasiga bo'ysundirish uchun bor imkoniyatni ishga solardi.

Odamzod uni erkalab, silab-siypash uchun dam ushlar, dam qo'lini tortib olardi. Bu bir necha bor takrorlandi, ammo u qo'lini tortib oldi deguncha Oq So'yloqning junlari hurpayardi. Har gal qo'llari badaniga tekkanida o'takasi yorilar va bo'g'zidan irillash toshib chiqardi. Oq So'yloq irillab, jonini og'ritgandan o'ch olajagini bildirib qo'ymoqchi bo'lardi. Odamning ko'nglida nima g'arazi borligini kim unga ayta oladi? Bu qadar mayin gapirayotgan inson istagan lahzada o'dag'aylashi, bu qadar mehribonlik bilan erkalayotgan qo'llar har lahzada iskanjaga olishi va qaqshatishi mumkin.

Ammo inson hamon muloyim gapirar va mayin qo'llari bilan boyagidek Oq So'yloqni silab-siypalar edi. Oq So'yloq ikkilanardi. Sezgi-hissiyoti bunday muomalaga qarshilik qilardi, negaki bu taxlit muomala malol kelar, ixtiyorini cheklab, ozodligiga burov soladigandek edi. Lekin ming qilmasin, joniga ozor bermayapti. Bil'aks, barmoqlarning harorati, siylab-siypashi yoqimli edi. Sekin-asta egasi quloqlarining orqasini beozorgina qashishga o'tdi: endi Oq So'yloq yana ham ko'proq huzurlana boshladi. Ammo xavotiri baribir arimadi; u hamon sarosimaga tushar, bu hissiyot kuchaygan chog'da qiyinalar, allaqanday ko'ngilsizlik yuz beradigandek bo'lar, goh bu xavotir tumandek tarqalib ketganda yana huzurlana boshlardi.

— Hah, jin ursin!

Iflos suvni to'kkani tog'ora ko'tarib chiqqan Mett Uidon Skottning Oq So'yloqni silab-siypayotganini ko'rib o'zini tutolmay beixtiyor qichqirib yubordi.

Uning tovushini eshitar-eshitmas Oq So'yloq ortiga sakradi-da, g'azab bilan irilladi.

Mett ma'qullamay boshini sarak-sarak qilib xo'jayiniga qaradi.

— Meni kechiring-u, janob Skott, lekin xudo haqqi, farosat bobida sizga havas qilmagan bo'lardim hozir.

Undan Skott g'olibona qiyofada jilmayib o'rnidan turdi-da, Oq So'yloq tepasiga borib engashgancha bir nimalarni gapira boshladi. So'ngra qo'lini uzatib yana uning boshi, qulog'ining orqasi aralash silab-siypay boshladi. Oq So'yloq indamay turib berdi, biroq, u erka-layotgan kimsa qolib kulbaning ostonasida turgan Mettdan ko'z uzmasdi.

— Ehtimol, siz ajoyib injenerdirsiz, — dedi mahmadonalik qilib Mett. — Meni nazarimda, siz hayotda ko'p narsa yo'qtgansiz, bolaligingizdayoq uydan ketib sirkka kirib ishlappingiz lozim edi.

Mett ovozini eshitgan Oq So'yloq irillab qo'ydi, lekin bu safar o'zini erkalab-siypalayotgan qo'ldan yulqinib chiqib ketmadi.

Bu o'tgan hayotining barham topganligi va avvalgi nafrat saltanating tanazzuli boshlanganidan darak berardi. Oq So'yloq boshlanajak yangi, mislsiz go'zal hayot arafasida edi. Bu yog'i endi Uidon Skottning rag'bati, sabr-toqatiga bog'liq. Faqat Oq So'yloq mayl-istiklari amriga bo'ysunmasligi, yuragida chuqur ildiz otgan qasos tuyg'usi, kek, shafqatsiz hayot saboqlarini unutishi, ulardan voz kecha olmog'i lozim edi.

O'tmishni Oq So'yloq endi-endi tushunib yetayotgan edi, yangiliklarni o'ziga singdirish u yodqa tursin, ochiqdan-ochiq inkor qilardi. Qisqasi, endi u Shimol o'lkalaridan kelib o'z ixtiyori bilan Kulrang Qunduz izm-u ixtiyoriga o'zini topshirgan chog'laridan ko'ra hayotni atroflicha va chuqurroq tushunishga intilishi lozim edi. Holbuki o'sha paytda ko'p narsaning farqiga bormaydigan tajribasiz, oddiy bir kuchukcha edi. Endi esa hamma-hammasi o'zgarib ketgandi. O'tmishdag'i hayot Oq So'yloqni astoydil tarbiya qilgan edi, uni shafqatsiz, yovuz va sarkash, urushqoq, hech kimga mehr ko'rsatmaydigan va barchanining nafratiga sazovor bo'lган bo'rige aylantirgan edi. U bamisli qayta tug'ilishi kerak edi, u kechagi odatlari, tushunchalaridan, tajribasi va egallagan bilimlaridan voz kechmagan holda yoshligi o'tib, mushak-paylari qayishqoqligini yo'qotib, dag'allashib, yaroqsiz holga kela boshlagan chog'da mayl-istiklari talab qilgan qonun-qoidalarga itoat etmog'i shart edi.

Ming qilganda ham, Oq So'yloqqa nasib etgan yangi muhit uni o'z tarbiyatiga oldi. Shu muhit ta'sirida uning tiynatidagi shafqatsizlik o'rnini yumshoqlik egallay boshladи. Ochig'ini aytganda hammasi Uidon Skottga bog'liq edi. U Oq So'yloq tabiatida mavjud bo'lган botiniy olamning teran qatlamlarida yashirinib yotgan, allaqachon quriyozgan yaxshilik chechaklariga, mehr-muhabbat naychasi orqali obi hayot baxsh etar va niyatining ulug'ligi va beminnatligi tufayli ko'p narsalarga erishayotgan edi. Oq So'yloq shu tariqa chinakam mehr-muhabbat nimaligini tushunib yetdi. Xudolar bilan kechirayotgan hayotida eng haroratli va eng tushunarli bo'lган bu tuyg'u uning vujudida muqim bo'lган mayl-istiklar o'rnini egalladi.

Biroq, mehr-muhabbat bir kunda tirik jon vujudini qamrab ololmaydi. Mayl-istik urug'laridan hosil bo'lgach, u juda sekinlik bilan unib-o'sadi. O'ziga xo'jayinlik qilayotgan yangi xudosini Oq So'yloq yaxshi ko'rardi, shu sababli, kun-uzzukun ozodlikda yursa ham qochib ketmasdi. Bu yerda yashash Xushro'y Smitning qafasida yashashdan ming marotaba afzal edi, qolaversa, Oq So'yloq xo'jayinsiz yasholmasdi. Inson qo'li ostida yashash uning uchun bir zaruratga aylangan edi. Insonga tobe bo'lib yashash qismati, ho'v o'sha, Shimoliy hududlarni tashlab chiqib jazolashlarini itoatkora kutib Kulrang Qunduz oyoqlari ostiga sudralib borgan kundan e'tibor unga taqdir etilgan edi. Ikkinchи

marta ocharchilikdan keyin Shimol o'lkasidan qaytib kelib Kulrang Qunduz qishlog'ida baliq hidini tuygan mahal ana shu qismat izm-u ixtiyorida edi.

Oq So'yloq yangi xo'jayini uyida muqim qolganining sababi, avvalo, u xudolarsiz yashay olmas, undan tashqari Uidon Skott Xushro'y Smitdan o'lsa o'ligi ortiq edi. O'z sadoqatini oshkora qilish uchun u xo'jayinning mol-mulkini qo'riqlash vazifasini uhdasiga oldi. Chana tortadigan itlar uyquni urayotgan mahal uy atrofida aylanib yurar, bitta-yarimta kech qolgan mehmonning sho'ri qurirdi, to uydan Skottning o'zi yugurib chiqmaguncha Oq So'yloq yo'lini to'sib irillagancha o'takasini yorardi. Biroq, ko'p o'tmay Oq So'yloq o'g'ri bilan halol odamlarni ajratishni o'rganib oldi, odamlarning qadam tashlashi bilan xulq-atvorida gap ko'p ekan. Shaxdam odimlar bilan eshik yoniga kelgan kishiga tegmas, lekin to eshik ochilguncha va ichkaridan birov chiqib ichkariga olib kirib ketgunicha ko'zdan qochirmasdi. Aylanma yo'llardan kelib o'g'rincha ichkariga kirmoqchi bo'lган kimsa Oq So'yloqning g'azabiga duchor bo'lar va pirovardida sharmandalarcha juftakni rostlar edi.

Uidon Skott boshidan kechirgan jamiki azob-uqubatlar evaziga Oq So'yloqni taqdirlashni, to'g'rirog'i inson bolasining uning oldidagi gunohollarini yuvmoqni niyat qilgandi. Uidon Skott uchun bu jiddiy ornomus masalasiga aylangandi. Uning nazarida odamlar Oq So'yloqdan qarzdordir, bu qarzni to'lamoq zarur – shuning uchun iloji boricha Oq So'yloqqa e'tiborini qaratar, har kuni erkalar, silab-siypashni kanda qilmasdi.

Boshida bunday munosabatdan Oq So'yloq xavotirga tushdi va buni yomonlik alomati deb bildi, biroq, vaqt o'tgan sayin, sekin-asta bunga ko'nikdi, pirovardida huzurlana boshladi. Ming qilganda Oq So'yloq ham baribir bitta odatidan qutulolmasdi, odamizod qo'li badaniga tegdi deguncha irillay boshlar, to Skott nari ketmaguncha tinchiyolmasdi. Biroq bu irillashlarida yangi ohanglar paydo bo'la boshladiki, begona kishilar buni payqamasligi, ular uchun har doimgidek vahshiyona odatdek tuyulishi mumkin.

Bir zamonlar Oq So'yloq onasi bilan g'orda yashayogan chog'da ilk bor g'azabdan o'kirganlarida bo'g'zi o'ta bo'g'iq va o'kirikdan dag'allashib o'z hissiyotini boshqacha tarzda ifoda qilolmaydigan bo'lib qolgandi. Shunga qaramay bu vahshiyona irillash zamirida Oq So'yloqning huzurlanayotganidan darak berayotgan yangi ohanglar paydo bo'lганини Uidon Skottgina juda yaxshi his qilar edi.

Kunlar ketidan kunlar o'tar, mayl-ishtiyoydan tug'ilgan mehr-muhabbat kuchaygandan kuchayib borardi. Oq So'yloq o'zi tushunmagan holda shuni sezardi. Bu mehr-muhabbat buloq suvlari ko'zachani to'ldirgani kabi intizor, tashna vujudini qoniqtirayotgani bilan namoyon

bo'lmoqda edi. Bu mehr, bu muhabbat o'zi bilan barcha iztirob va xavotir keltirgan, xo'jayini erkalay boshlagandagina bundan xalos bo'lardi. Shunday damlarda mehr-muhabbat beixtiyor Oq So'yloq jismijonini qamrab oluvchi shod-u xurramlikka, adoqsiz quvonch va halovatga aylanardi. Xo'jayini o'rnidan turib nari ketishi bilanoq azob va xavotirdan Oq So'yloq yana qiyntala boshlar, ochlik xuruj qilayotgandek qiyinalar, o'zini qo'ygani joy topolmasdi.

Oq So'yloq sekin-asta asliga qaytayotgan edi. Yoshi ulg'ayib, shafqatsiz hayot ta'sirida toblanganiga qaramay uning fe'l-atvorida hamon yangi-yangi xususiyatlar paydo bo'lardi. Vujudida hali o'zi ko'nikib ulgurmagan mayl-istiklar va tuyg'ular uyg'onib kelardi. Endi Oq So'yloq o'zini butunlay boshqacha tutardi. Ilgari o'ziga yetkazilayotgan jabr-u zulmga toqat qilolmas, qanday bo'lmasin undan saqlanish, qutulish yo'llarini topishga harakat qilar edi. Endi esa aksincha, yangi xo'jayini deb Oq So'yloq ko'pincha jabrlanar va qiyinalardi. Mana, masalan, ertalablari yegulik topish umidida chor-atrofni kezib chiqish yoki biron xilvat kunjakda maza qilib yeyish o'rniqa zax yo'lakda soatlab Skottni kutib yotardi. Yoki yarim kechasi xo'jayini ko'chadan kirib kelsa Oq So'yloq uning haroratlari kaftlarini his qilmoq yoki mehr to'la so'zlarini eshitish uchun issiqqina uyachasini tashlab chiqardi. U xo'jayini yonida bo'lib, uning erkalashlaridan bahramand bo'lish yoki u bilan birga shaharga borish uchun yeb turgan luqmasini ham unutib yuborar edi.

Mana nihoyat mayl-ishtiyooq o'rnini mehr-muhabbat butunlay egalladi. Bu tuyg'u shunchalar kuchli ediki, mayl-ishtiyooq hech qachon bu darajaga chiqmagan edi. Oq So'yloq mehrga mehr bilan javob qaytarardi. U bamisli nur yog'ilib turadigan benazir xilqatga erishgan va o'zi shu xilqat mehrobida quyosh nurlari ostida yashnagan giyoh singari ko'rkmashib, yashnab borardi. Oq So'yloq his-tuyg'ularini izhor etolmasdi. U endi yosh emas, buyog'i tabiatan toshbag'ir edi. Yolg'izlik, damduzlik uni bosiq botindagini zohiriga chiqarmaydigan qilib qo'ygan edi. Bunday toshbag'irlik ko'rgan-kechirganlari va og'ir hayotning samarasini edi. U angillashni bilmasdi va afsuski xo'jayiniga erkalanib peshvoz chiqolmasdi ham. U hech qachon unga talpinmas, iloji boricha uning ko'zidan nariroq bo'lishga harakat qilar, sadoqatini namoyish etishga oshiqmas, peshvoz chiqib ko'nglini ovlashdan saqlanar, aksincha bir chekkada kutib o'tirar, lekin har daqiqa unga intizor bo'lardi. Uning mehr-muhabbatini so'zsiz, sidqidildan sevishning namunasi edi go'yo. Oq So'yloqning ichidagisini, xo'jayinini har bitta harakatini kuzatayotgan ko'zlarigina fosh qilib qo'yardi. Uidon Skott unga tikilib, erkalay boshlaganda esa u butun vujudini qamrab olgan mehrini qay tarzda ifoda etishni bilolmay qiyinalib ketardi.

Oq So'yloq shu yangi hayotga moslasha boshladi. Shu tariqa xo'jayining itlariga tegmaslik lozimligini tushunib yetdi. Biroq, shaddodligi goh-goh yuzaga chiqib qolar, itlar yangi sardorining ustunligiga amalda ishonch hosil qilishdi. Unga itoat etishni tan olishgach ular Oq So'yloqni bezovta qilmay qo'yishdi. Uni ko'rib qolishganda itlar chiyillashib yo'l bo'shatishar va uning xohish-ixtiyoriga bo'ysunishar edi.

U xo'jayiniga tegishli bo'lgani uchun Mettga ham ko'nikdi. Uidon Skott Oq So'yloqqa kamdan-kam hollarda ovqat berar, bu vazifa Mett zimmasiga yuklangan edi va Oq So'yloq o'zi yeyayotgan yegulik aslida xo'jayiniga tegishli, Mett uning buyrug'i bo'yicha g'amxo'rlik qilayotganini tushundi. Ana o'sha Mett bir kuni Oq So'yloqni boshqa itlar qatori chanaga qo'shmoqchi bo'ldi. Biroq, Oq So'yloq buning uddasidan chiqolmadidi. Shaxsan Uidon Skotning o'zi kelib abzal urmaguncha chana tortishdan bosh tortib turaverdi. Oxiri xo'jayini chanaga o'tirganda, boshqa itlar qatori o'zi ham Mettga itoat etish lozimlini u tushundi.

Klondaykdagi chanalar Makkenzi chanalaridan farq qilardi, ularning tag qismiga temir tasma o'rnatilgan bo'lib itlarni chanaga qo'shish usuli ham boshqacharoq edi. Qo'shqayish bilan bog'langan itlar yelpig'ichdek yoyilib emas. turnaqator bo'lib chanani tortishar edi. Bu yerda Klondaykda, yetakchi chin ma'nosi bilan yetakchi edi. Eng oldinga butun to'da qo'rqa digan va itoat etadigan o'ta ziyrak va baquvvat it qo'shiladi. Mo'ljaldagidek ko'pam o'tmay Oq So'yloq ana o'sha yerni egalladi. Ancha tashvishlardan so'ng Oq So'yloq bundan kamiga ko'nmasligiga Mett amin bo'ldi. Oq So'yloq o'zi borib shu joyni egalladi. Mett birinchi sayrdan keyinoq uning to'g'ri qilganini tasdiqlab, ko'klarga ko'tarib maqtadi. Kun bo'yi chana tortib yurgan Oq So'yloq kechasi xo'jayinining mol-mulkini qo'riqlash lozimligini unutmadi. Xullas u xo'jayiniga ixlos va sidqidildan xizmat qilar, Uidon Skott esa Oq So'yloqday bebaaho iti borligidan faxrlanardi.

— Ichimda qolib ketmasin, — deya gap ochib qoldi bir kuni Mett, — o'g'il bola gap, shu itga yuz ellik dollar berib juda yaxshi ish qilgansiz. Xushro'y Smitni rosa chuv tushirdingiz-da, basharasini teskari qilib yuborganingiz u yoqda tursin.

Uidon Skotning ko'kish ko'zları g'azabdan yondi va u g'ijinib «Ablah!» deb to'ng'illadi.

Ko'klamning oxiriga borib Oq So'yloq boshiga musibat tushdi, kutilmaganda xo'jayini g'oyib bo'ldi. Ochig'ini aytganda, ogohlan-tirishgan edi, faqat Oq So'yloq bunaqa ishlarda tajribasi yo'q, g'alcha edi, lash-lushlarini jomadonga joylayotgan odamdan nima kutish mumkinligini bilmasdi. Keyinroqqa borib, buyumlarni jomadonlarga joylash xo'jayinining biron yerga otlanayotganidan darak berishini bilib

oldi, lekin o'sha paytda bu xayoliga ham kelmagandi. Kechqurun har doimgidek Oq So'yloq uning kelishini kutardi. Yarim kechasi kuchli shamol turdi, u sovuqdan yashirinib kulbaning orqa tomoniga o'tdi va tanish qadam tovushi kelib qolarmikin, deb quloq solib anchagacha yotdi. Kec hasi ikkilarda bezovtaligi oshib, kulba ortidan chiqib keldi va peshayvonda g'ujanak bo'lib yotdi-da, o'sha yerda kuta boshladi.

Xo'jayini kelmadi. Ertalab eshik ochildi-yu, peshayvonda Mett ko'rindi. Oq So'yloq mung'ayib unga qaradi, nechog'lik bilgisi kelayotganini shu tariqa izhor qildi. Kunlar ketidan kunlar o'tdi, xo'jayinidan hamon darak yo'q edi. Shu choqqacha kasallik nimaligini bilmagan Oq So'yloq dardga chalindi. Uning ahvoli shu darajada og'irlashib qoldiki, Mett uni ichkariga olib kirib yotqizishdan boshqa iloj topolmadi. Undan tashqari u Uidon Skottga yozgan xatida Oq So'yloq haqida yozib ham yubordi.

Serklda yurgan Uidon Skott xatni oldi-da quyidagini o'qidi:

«*La'nat bo'ri hech narsa qilmay qo'ydi. Suv ham ichmayapti, juda shashti past. Itlar unga yo'l bermay qo'yishdi. Sizni qayerga ketganin-gizni bilgisi kelyapti, men unga tushuntirib berolmayman. O'lib qolmasa deb qo'rqaman*».

Mett aldamayotgan edi. U nihoyatda ezilib ketgan, hech narsa yemas, o'ziga tashlanib qolgan itlarga qarshilik ko'rsatmasdi. Kun-uzzukun hamma narsani unutib pechka yonida yotar, ovqatga qayrilib qaramas, Mett bilan ishi bo'lmash, yotgani-yotgan edi. Mett uni erkalashga urinib ko'rди, baqirib ko'rди — foydasi bo'lmadi. Oq So'yloq xira tortgan ko'zlarini ochib qarar, so'ng yana shilqillab, boshini old panjalariga qo'yib olardi.

Bir kuni kechqurun Mett stolda kitob o'qib o'tirar ekan, birdan Oq So'yloqning zorlanib g'ingshigani diqqatini bo'ldi. Oq So'yloq qulqlarini ding qilib, eshikka qadalib qoldi. Bir daqiqa o'tar-o'tmas Mett qadam tovushlarini ilg'adi, eshik ochilib Uidon Skott kirib keldi. Ular quchoqlashib salomlashishdi. Keyin Skott atrofga alangladi:

— Qani bo'ri! — deb so'radi u hayajonlanib.

Oq So'yloq pechkaning yonida turardi. U birdan o'zini otmadni, boshqa har qanday it shunday qilgan bo'lardi, balki xo'jayinidan ko'z uzmay turaverdi.

— Ana xolos! — deya qichqirayozdi Mett. — Dumini likillayotibdimi?!

Uidon Skott xona o'rtasiga chiqib Oq So'yloqni chaqirdi. Oq So'yloq unga o'zini otmadni lekin o'sha zahoti yoniga bordi. U qimtinib-tortinar, ko'zlarida yangi — g'ayrioddiy bir ifoda paydo bo'ldi, mehr va sadoqat nurlari ila yoshlandi.

— Siz yo'g'ingizda menga bir marta bo'lsin bunaqa qaramagandi, — dedi Mett.

Uidon Skott uning gapini eshitmadi. Oq So'yloq qarshisida chordona qurib o'tirdi-da, qulqlarining orqasi, bo'yin-yelkalarini asta silab, erkalay boshladi, orqasiga beozorgina qoqib-qoqib qo'ydi. Bunga javoban Oq So'yloq ohista irillab qo'ydi. Ammo bu hali hammasi emas. O'zidan ogoh qilayotgan tuyg'uning ayon bo'lishi uchun quvonch qay tariqa yordam berdiykin?! Daf'atan Oq So'yloq bo'ynini cho'zib boshini xo'jayinining quchog'iga yashirdi, bu ahvolda uning faqat ikkita qulog'i ko'rindari. U endi qattiqroq irillar va xo'jayinining pinjiga tobora mah-kamroq suqlardи.

Yigitlar ko'z urishtirib olishdi. Skottning ko'zlaricha charaqlardi.

— Ana xolos! — deya xitob qildi lol qolgan Mett. So'ng so'zini davom ettirdi, — men doim aytganman, bu it emas, bo'ri deb. Bag'rin-gizga bosing yaxshilab endi.

Uni sevish va ardoqlashga o'rgatgan xo'jayini kelib Oq So'yloq juda tez sog'aya boshladi. Kulbada u yana ikki kecha-yu ikki kunduz yotdi, so'ng peshayvonga chiqdi. Itlar uning jasoratini unutib yuborishgan, keyingi paytda ojiz va kasal ekanidan xabarlari bor edi — peshayvonga chiqdi deguncha har tomondan unga qarab huriy boshlashdi.

— Ana to'polon-u mana to'polon! — deya to'ng'illadi mammun qiyofada Mett ostonada turib. — Ular bilan adi-badi aytishib o'tirma, qashqir! Ularning bir dodini bergin. Qani, yana, yana!..

Oq So'yloq daldaga muhtoj emasdi. Suyukli xo'jayinining kelganini o'zi kifoya. Rangin va jo'shqin hayot yana tomirlarida jo'sh ura boshladi. U jang chog'idagina zavq-shavqdan mast bo'lardi. Bu olishuvlarning hammasi bir xilda, g'animplarning mag'lubiyati va urra qochishlari bilan yakunlanardi. Itlar qorong'i tushgandan keyingina qaytib kelishar hamda itoat etishlarini bildirib qo'rqa-pisa zorlanib g'ingshir edilar.

Xo'jayinining pinjiga boshini suqib o'z sadoqatini izhor etishni o'rgangan Oq So'yloq bundan buyon shu odatdan tez-tez foydalananidan bo'ldi. Bu so'ngi chorasi edi, undan uyog'ini bilmasdi. Hammadan ham u boshini ehtiyyot qilar, kimda kim teginsa chidab turolmasdi. Shimol o'liasi shunday deb o'rgatgandi: tuzoqdan, ozor berish mumkin bo'lgan hamma narsadan saqlan, mana shu narsa uning uchun qonun edi. Boshini asrash, boshini ehtiyyot qilish — tabiatning asosiy talabi edi bu. Endi bo'lsa xo'jayinining pinjiga bosh suqar ekan Oq So'yloq o'z ixtiyori bilan o'zini nochor ahvolga solardi. Shu orqali u xo'jayiniga cheksiz mehri va beminnat sadoqatini namoyish etar va bu bilan go'yo: «O'zimni seni ixtiyoringga topshirayapman. Xohlaganining qil, ixtiyor o'zingda», der edi.

Kunlardan bir kun kechqurun yotishdan oldin, Skott Mett bilan kribbej o'ynab o'tirardi.

— O'n besh-u ikki, o'n besh-u to'rt va yana ikki, — deya hisoblardi Mett. Shunda daf'atan tashqaridan birovning jonholatda qichqirgani va irillash eshitildi.

Ular bir-biriga qarab qolishdi-da, so'ng sakrab o'rnilaridan turib ketishdi.

— Bo'ri bitta-yarimtasini qopdi shekilli! — dedi Mett.

Jon achchig'ida chinqirgan ovozni eshitib ular tashqariga otilishdi.

— Fonusni ola chiqing! — deya qichqirdi Skott yugurgancha peshayvonga chiqarkan. Mett fonusni ola uning ortidan yugurdi, fonus yoruq'ida qorda yuz tuban yotgan kimsaga ko'zi tushdi. O'sha odam Oq So'yloqning o'tkir tishlaridan himoya qilgandek yuz-ko'zini, boshini qo'llari bilan to'sib olgan edi. U shunday qilishga majbur edi, chunki Oq So'yloq g'azabdan quturib ketgan, qanday bo'lmasin notanish kishining kekirdagidan olishga zo'r berardi, uning ko'k paxmoq ko'ylagi, kamzulining yengi va ichki kiyimi parcha-parcha osilib yotar, g'ajib tashlagan qo'lidan tinmay qon oqardi.

Skott bilan Mett buni ko'rgan zahotlari Oq So'yloqni bo'ynidan tortib ajratib olishdi. Oq So'yloq irillab ularning qo'lidan chiqib ketishga zo'riqar, lekin xo'jayinini tishlamasdi, aksincha uning bitta baqirishidan darhol uni o'chdi.

Mett o'sha kimsaning turishiga yordamlashib yubordi. O'rnidan turayotganda u qo'lini tushirgan edi, Mett uning shumshuk basharasini ko'rib qichqirib yuborayozdi-da, ortiga tisarildi. Bu Xushro'y Smit edi. U chiroq nuridan ko'zları qisilib atrofga alanglardi. Oq So'yloqni ko'rib, o'takasi yorilganidan uning aft-basharasi qiyshayib ketdi.

Shu choq Mett qorda nimadir yotganini ko'rib qoldi. Fonusni yaqinlashtirib etigining tumshug'i bilan zanjir va yo'g'on tayoqni tepib qor ichidan chiqardi. Uidon Skott tushunarli, degandek boshini sarak-sarak qildi. Birontasi churq etmasdi. Mett Xushro'y Smitning yelkasidan ushlab o'girdi-da ketiga qarab bir tepdi. Xushro'y Smit orqa-oldiga qaramay qochdi.

Xo'jayini Oq So'yloqni silab-siypab o'zicha tushuntirardi:

— Seni olib ketmoqchi bo'ldimi, a? Sen bunga yo'l qo'ymagansan, to'g'rimi?! Shunaqa gaplar, bu shovvoz chuchvarani xom sanagan ekan-da!

— Jon-poni chiqib ketgan bo'lsa kerak, o'ziyam, — deya iljayib qo'ydi Mett.

Oq So'yloq hamon irillashdan to'xtamasdi, biroq, sekin-asta hurpaygan junlari tekis bo'lib yoyildi va g'azabnok irillash qa'rida eshitilmay qolgan beozor ohanglar yanayam tiniqlashib, tobora balandroq eshitila boshladi.



## Birinchi bob

### OLIS SAFAR

Bugunmi-ertami shunday bo'lishi aniq edi. Oq So'yloq bu ko'ngil-sizlikni oldindan ancha ilgariroq sezdi. Tez kunlar ichida yuz berishi muqarrar o'zgarishni u allaqanday noma'lum va sirli tarzda ilg'agan edi. Qanday qilib va nima sababdan shunday bo'layotganini bilmasa ham, odamlarning xatosi tufayli sezib qoldi va xavotirga tushdi. Odamlar esa o'zлari istamagan holda muddaolarini fosh etib qo'yishgan va o'sha lahzalardan e'tiboran it kulba ayvonchasidan bir qadam nari ketmas va xonaga kirmasa ham odamlar qandaydir taraddudga tushganlarini sezardi.

— Eshityapsizmi? — deb qoldi Mett bir kuni kechki payt ovqatlanib o'tirganlarida.

Uidon Skott quloq soldi. Eshik ortidan itning yig'iga o'xshagan zorlanib ingrashi keldi. Zum o'tmay, egasining shu yerda ekani, o'tgan galdagidek sirli ravishda g'oyib bo'limganiga ishonch hosil qilish uchun Oq So'yloqning eshikni iskayotgani eshitildi.

— Hammasini sezayapti, — dedi Mett.

Uidon Skott nima qilarini bilmay Mettga tikildi. Lekin, sir boy bermadi.

— Boshimga uramanmi Kaliforniyada qashqirni? — dedi u qo'rslik bilan.

— Men ham shuni aytayapman-da, — uning gapini tasdiqlagan bo'ldi Mett. — Boshingizga urasizmi Kaliforniyada uni.

Biroq, bu gapdan Uidon Skottning ko'ngli taskin topmadi, nazarida Mett kesatayotgandek edi.

— Itlarimizni ko'zim qiymaydi, — deya so'zini davom ettirdi Skott. — Bitta-bitta g'ajib tashlaydi. Agar jarima to'layman, deb xonavayron bo'lmasam ham politsiya uni baribir mendan olib qo'yadi. Ana unda ko'r tomoshani.

— Nimasini aytasiz, uchiga chiqqan qonxo'r bu! — uning gapini tasdiqladi Mett.

Uidon Skott hamon ishonqiramay Mettga qaradi.

— Yo'q, olib ketishning sira iloji yo'q, — dedi u qat'iy.

— Albatta, iloji yo'q, — deya quvvatladi Mett. — Unga qarab turish uchun maxsus nazoratchi tayinlashingizga to'g'ri keladi.

Shu gapdan keyin Skotning ikkilanishlari barham topib, u picha yengil tortdi. Jimjit xonada Oq So'yloqning yana zorlanib g'ingshiyotgani va eshikni iskayotgani eshitilardi.

— Lekin ochig'i, sizga juda o'rganib qolgan, — dedi Mett.

Uidon Skott birdan tutoqib ketdi.

— Jin olsin sizni, Mett! Nima qilish kerakligini o'zim yaxshi bilaman.

— Men e'tiroz bildirayotganim yo'q, faqat...

— Nima «faqat»? — deya cho'rt kesdi Skott.

— Faqat... — deya Mett muloyimlik bilan tushuntira boshladi-yu, lekin birdan dadillashib achchig'i chiqayotganini yashirib o'tirmadi: — Nega tutoqasiz hadeb? Sizni ko'rgan odam chindan nima qilishini bilmayapti deb o'yashi mumkin.

Uidon Skott bir daqiqa o'ylanib qoldi, so'ng hovuridan tushib yon berdi:

— To'g'ri aytdingiz Mett. Nima qilishga boshim qotayapti. Hamma balo shundaki... — u og'ir so'lish olib davom etdi: — Yo'q, yo'q, itni o'zim bilan olib ketishim tentaklikdan boshqa narsa emas.

— Mutlaqo fikringizga qo'shilaman, — dedi Mett.

Ammo bu safar ham uning so'zлari Skottni qanoatlantirolmadi.

— Bir narsani sira tushunolmayapman, ketayotganingizni qayerdan biliishi mumkin? — hech nima bo'limgandek davom etdi Mett.

— O'zim ham hayronman, — dedi Skott xo'rsinib.

So'ngra bir kuni eshik lang ochilgan chog'da Oq So'yloq xo'jayini buyumlarini o'sha kasofat jomadonga joylayotganini ko'rib qoldi, Skott bilan Mett to'xtovsiz qayoqqadir borib kelishar, natijada kulbada hukm surgan osoyishta hayotga putur yetdi. Oq So'yloqning hech qanday gumoni qolmadi. Musibat yaqinlashayotganini sezganiga ancha bo'lgan, endi esa bu g'am-alam nimadan iborat ekanini tagiga yetdi: Xo'jayini yana uni tashlab ketishga hozirlanayapti. Modomiki birinchi safar birga olib ketmadimi, bas, endi ham olib ketmaydi.

O'sha kuni kechasi Oq So'yloq hammayoqni boshiga ko'tarib, bo'rilar singari cho'zib-cho'zib uv soldi. U miltillayotgan hissiz yulduzlarga tumshug'ini ko'tarib nola chekar, xuddi bir zamonlar Shimoldan qochib kelib, zir yugurib ham qishloqni topolmay Kulrang Qunduz chaylasining o'rnida bir uyum axlatni ko'rgan damlaridek hasrat musibatlarini to'kib solardi.

Kulbadagilar endigina yotishgan edi.

— U yana ovqat yemay qo'ydi, — dedi Mett.

Uidon Skott bir nimalar deb to'ng'illadi-da, boshini choyshabga o'rab oldi.

- O'tgan safar rosa kuyikkandi, endi o'lib qolsa kerak.
- Ovozingizni o'chirasizmi, yo'qmi — deb baqirib berdi Skott. — Xotinlarga o'xshab hadeb bir gapni chaynayveradimi odam!
- Xo'p bo'ladi, — dedi Mett, buni eshitgan Skott pismiqlik bilan piching qilayapti, deya o'ylamay iloji yo'q edi.

Ertasiga Oq So'yloqning bezovtaligi kuchayib battar xavotirlana boshladi. U xo'jayinidan bir qadam bo'lsin nari jilmas, Skott xonaga kirib ketsa ayvonchada sho'ppayib kutib turardi. Qiya ochiq eshikdan yoyib tashlangan buyumlar ko'rinaldi. Jomadon yoniga yana ikkita bahaybat tugun bilan sandiq ham qo'shilgan edi. Mett choyshab bilan xo'jayininining paxmoq ko'ylagini brezent qopga joylardi. Bu taraddudni ko'rgan Oq So'yloq uvillab yubordi.

Ko'p o'tmay kulba oldida ikki nafar hindu paydo bo'ldi. Ular yuklarni orqalab jomadon bilan brezent qopni ko'tarib olgan Mettga ergashib tepalikdan tushib ketishdi. Tez orada Mett qaytib keldi. Xo'jayin esa ayvonchaga chiqib Oq So'yloqni chaqirdi.

— Voy bechora-ey! — dedi u muloyimlik bilan Oq So'yloqning quloplari orqasini silar ekan. — Ilojimiz qancha qariya, bunaqa olis safarga seni olib ketib bo'lmasa. Qani, ketar jafosiga bir uvillagin-chi! Kuching boricha uvillagin!

Ammo, Oq So'yloq uv solmadi. Buning o'mniga xo'jayiniga g'amgin, sinovchan termuldi-da, so'ng uning pinjiga suqildi.

— Vaqt bo'ldi! — deya ogohlantirdi Mett.

Yukon tarafdan kema sirenasingh chiyillagani eshitildi.

— Xayrlashishni bas qilinglar! Eshikni mahkam berkitishni unutmang. Men orqa eshikdan chiqaman, bo'lagoling!

Ikkala eshik baravar qarsillab yopildi. Skott ayvonchada Mettni kutib turdi. Ichkarida Oq So'yloq zorlangudek g'ingshir edi. Zum o'tmay u ostonaga tumshug'ini suqib tez-tez jon-jahdi bilan iskay boshladi.

— Uni ehtiyyot qiling Mett, — dedi Skott tepalikdan tushib borayot-ganlarida. — Uning ahvoli haqida yozib turing.

— Albatta, — deb javob qildi Mett. — To'xtang!.. Eshityapsizmi?

U to'xtadi. Oq So'yloq xuddi aziz kishisining murdasi ustida nola chekayotgandek uvlardi. Goh yurakni larzaga soladigan yig'iga, goh ayanchli zorlanishga monand, goh o'ta mungli ohangda falakka ko'tarilayotgan bu uvillash benihoya mahzun taralardi.

«Avrora» kemasni bu yil birinchi bo'lib Kaliforniyadan jo'nab ketayotgani uchun uning palubasida yo'lovchilar tirband edi. Kemada oltin qidirishdan omadi kelganlar ham, oltin vasvasasiga giriftor bo'lib, xonavayron bo'lganlar ham bor edi — hammalari bir vaqtlar bu o'lkaga nechog'liq oshiqqan bo'lsalar, endi tezroq jo'nab ketish payiga tushgan edilar.

Ko'tarma ko'prikda Skott Mett bilan xayrashdi. Haydovchi sohilga tushmoqchi bo'lib endi orqaga o'girilaman, degan edi, daf'atan, paluba ichkarisidagi bir nimaga ko'zi tushib, Skottning qo'l silkib xayrasha-yotganiga e'tibor ham qilmadi. Skott o'girilib qaradi: ulardan bir necha qadam narida xo'jayinidan mungli nigohini uzmay Oq So'yloq cho'q-qayib o'tirardi.

Mett «voy shayton-ey», deb yubordi. Skott ko'zlariga ishonmay itga qaradi.

— Old eshikni yopgandingizmi?

Skott bosh irg'adi va:

— Siz-chi, siz, orqa eshikni yopganmidingiz? — deb so'radi.

— Albatta, yopgandim! — dedi ishonch bilan Mett.

Oq So'yloq gunohkorona bosh egib, qulqolarini chimirdi, ammolarning oldiga kelishga botinolmay o'sha yerda o'tiraverdi.

— Uni olib ketishingizga to'g'ri keladi.

Mett Oq So'yloq tomonga ikki qadam tashlagan edi, it nari ketdi. Haydovchi uni quvdi, ammol Oq So'yloq lip etib yo'lovchilarining oyoqlari orasidan o'tib ketdi. U chaqqonlik bilan chap berar va paluba bo'y-lab qochar, Mettga sira tutqich bermas edi. Ammol xo'jayin chaqirgan edi, Oq So'yloq indamay uning yoniga keldi.

— Shuncha payt boqsam ham yoniga yo'latmadi-ya! — deya ko'ngli og'rib ming'irladi haydovchi. — Siz o'sha birinchi kundan beri aqalli bir marta ovqat berdingizmi? Xo'jayini men emas, siz ekaningizni qaydan bilaqoldi, sira aqlim yetmaydi.

Oq So'yloqni siylab-siypalab erkalayotgan Skott tuyqus engashdi-da, itning tumshug'i bilan ko'zları o'rtaсидаги jarohatni ko'rsatdi.

Mett itning qornini paypaslab chiqdi.

— Derazani unutibmiz-ku! Buni qarang, qornida tilinmagan joyi qolmabdi. Oynani sindirib chiqqanga o'xshaydi.

Ammo Mettning nima degani Uidon Skottning qulog'iga kirmadi. U o'zicha bir nimalarni fikran mulohaza qilardi. Kema so'nggi bor gudok chaldi. Kuzatuvchilar shosha-pisha sohilga tushdilar. Mett bo'ynidagi ro'molchan niyechib, Oq So'yloqni bog'lamoqchi bo'lgandi, Skott uning bilagidan ushlab qoldi.

— Bo'pti Mett! Yaxshi boring do'stim. Nachora, endi qashqir haqida xat yozishingizga to'g'ri kelmaydi shekilli... Men... Men...

— Nima? — qichqirib yuborayozdi Mett. — Nahotki siz uni...

— Xuddi shunday. Ro'molchangizni yashiring. Sizga u haqda o'zim yozib turaman.

Mett ko'tarma ko'prikda ushlanib qoldi.

— U iqlimni ko'tarolmaydi. Jazirama issiqda dumini qirqishingizga to'g'ri keladi.

Ko'tarma ko'prikni palubaga tortib olishdi-yu, kema sohildan qo'zg'aldi. Uidon Skott qo'l silkib, Mett bilan xayrlashdi-da, yonida turgan Oq So'yloqqa yuzlandi.

— Qani endi bir irillagin, yaramas, irillamaysanmi?! — dedi u oyoqlariga surkalayotgan Oq So'yloqning qulqolarini piypalay turib.

## Ikkinchи bob

### JANUBDA

Oq So'yloq San-Frantsiskoda kemadan tushdi.

U hayratdan qotib qoldi. Qodirlik tushunchasi uning uchun hammavaqt ilohiylik bilan chambarchas bog'langan edi. Oq tanlilar, hozir San-Frantsiskoning sirg'anchiq yo'lkalaridan ketayotgan paytidachalik itga hech qachon qudratli bo'lib tuyulmagan edi. Odatdagi to'sinlardan qurilgan kulbalar o'rniga ikki tarafda bayabat binolar qad rostlagan. Ko'chalar har turli xavf-xatar — izvoshlar, soyabonli aravalari, avtomobillar, ulkan faytunlarga qo'shilgan otlar bilan to'lgan edi, bularning orasida ora-chora Oq So'yloq o'takasini yorib bamisli Shimol o'rmonlarida uchratgan qoplondek chinqirib dahshatli tramvaylar o'tib qolardi.

Tevarak-atrofidagi jamiki narsalar inson qudratidan dalolat berardi. Har bir buyum, harakat, inshootda odamlarning irodasi, hukmi va aloqadorligi sezildi. Oq So'yloq bu manzaradan hayratlanar va ayni chog'da esankirar ham edi. U qo'rqardi. O'z ojizligini his qilayotgan baquvvat, shiddatli va mag'rur it bamisli qaytadan, o'sha Shimol o'lkasidan Kulrang Qunduz qishlog'iga qochib kelgan kuchukchaga aylanib qolgandek bo'lardi. Bu yerdagi odamlarning ko'pligi-chi! Ularga qarab Oq So'yloqning ko'zlarini jimirlashib ketardi. Ko'cha shovqinidan esi og'ib, to'xtovsiz harakat oqimi va ko'z oldidan lipillab o'tayotgan odamlar tufayli gangib qolardi. U xo'jayini izmida ekanini har qachongidan ko'ra ko'proq his qilar, uni ko'zdan qochirmaslik uchun izma-iz borardi.

Bu shovqin-suron, bu manzaralar aloq-chaloq tush kabi daf bo'ldi, ammo Oq So'yloq uzoq vaqtgacha unuta olmadidi. O'sha kuni xo'jayini uni yuk vagonining bir burchagiga, turli-tuman jomadonlar va qutilar orasiga bog'lab qo'ydi. Bu yerdagi itlarni miqtidan kelgan, haddan tashqari azamat kimsa boshqarardi. U sandiqlar bilan jomadonlarni gumbirlatib u yoqdan-bu yoqqa surar, vagonlarga joylar, ularni ustma-ust taxlar yoki ichkaridagi ikki kishiga uzatar edi.

Mana shu jahannamdan farq qilmaydigan yerda xo'jayini Oq So'yloqni tashlab gumdon bo'ldi, har holda Oq So'yloq to xo'jayinining yulkari shu yerda ekanini ilg'amaguncha o'zini tashlab ketilgan deb

hisobladi va egasining yuklarini ilg‘agach esa ularning yonidan ketmay hech kimni yaqin yo‘latmay poyloqchilik qilishga tutindi.

— Ayni paytda keldingiz-da, — deb to‘ng‘illadi miqtidan kelgan kishi bir soatdan so‘ng paydo bo‘lgan Uidon Skottga. — Bu it jomadon-laringizga yaqin yo‘latmayotgandi.

Oq So‘yloq vagondan ochiq yerga tushdi. Ana xolos! Aloq-chaloq tush o‘tib ketdi. U vagonni har tomondan shahar o‘rab turgan uy xonalaridan biri deb o‘ylagan edi. Ammo bir soat ichida shahar g‘oyib bo‘libdi. Endi gumbirlashlar uning qulog‘ini qomatga keltirmasdi. Itning ko‘z o‘ngida quyosh nurlariga belangan, xushmanzara, osoyishta yurt yastanib yotardi. Ammo hozir bu o‘zgarishdan hayratga tushishning mavridi emas. Oq So‘yloq inson qadami yetgan yerda uchratgan barcha mo‘jizalar kabi bunisiga ham darhol ko‘nikdi.

Ularni izvosh kutib turgan ekan. Xo‘jayinining oldiga bir kishi bilan bir ayol keldi. Ayol xo‘jayinini bo‘ynidan quchdi. Bu dushman! Zum o‘tmay Uidon Skott ayolning bag‘ridan chiqib, irillaryotgan va g‘azabdan o‘zini qo‘yarga joy topolmayotgan Oq So‘yloqni ushlab oldi.

— Hechqisi yo‘q, oyi! — dedi Skott Oq So‘yloqni tinchitishga urina turib. — Nazarimda, u sizni menga yomonlik qilmoqchi deb o‘playapti. Hechqisi yo‘q! Vaqt kelib hammasini tushunib oladi.

— Ungacha o‘g‘limning yonida it bo‘lmagandagina qanchalar sog‘inganimni izhor etib yuraman, shekilli, — deya jilmaydi Skott xonim. U hamon hurpayib o‘zidan ko‘z uzmay irillaryotgan Oq So‘yloqqa tikildi.

— Tez orada hammasini tushunib oladi oyi, mana ko‘rasiz, albatta tushunib oladi! — dedi Skott.

U Oq So‘yloqni erkalab, gapira boshladi va uzil-kesil tinchlan-tirgandan so‘ng jiddiy ohangda o‘shqirdi.

— Yot! Senga aytayapman!

Bu so‘zlarning mazmunini Oq So‘yloq juda yaxshi tushunardi.

— Salomatligingiz yaxshimi, oyi!

Skott itdan ko‘zini olmay onasiga qo‘lini uzatdi.

— Jim yot! — deya o‘shqirdi u yana.

Oq So‘yloq tishlarini irshaytirib o‘rnidan turishga chog‘landi, lekin yana joyiga yotib notanish kishilarning shubhali tuyulayotgan xatti-harakatlarini kuzata boshladi. Boyagi ayoldan so‘ng quchoqlab ko‘rishgan boshqa ayollar ham, erkaklar ham u kutganchalik xo‘jayiniga yomonlik qilmadilar. Xo‘jayini notanish odamlar bilan birgalikda qoplarini izvoshga ortishdi, so‘ng hammalari aravaga chiqib o‘tirishdi. Oq So‘yloq izvosh ortidan yo‘rg‘alab yo‘lga tushdi. U go‘yo egasini g‘izillatib olib ketayotgan otlarga men shu yerdaman, deya ogohlantirib qo‘ymoqchidek dam-badam ular bilan yonma-yon lo‘killab borardi.

Chorak soatdan so'ng izvosh tosh darvozadan kirib, ikki tomoni zinch yong'oqzor xiyobon bo'ylab ketdi. Xiyobonning har ikki yog'i o'tloq bo'lib, unda-bunda bahaybat eman daraxtlari ko'zga chalinardi. Jazirama oftob nurlari kuydirgan qizg'ish maysazor tufayli bir tekis qirqilgan yam-yashil o'tloq yanada ravshanroq ko'rinaldi, undan naryog'i yon-bag'ri yaylovlardan iborat tepaliklar. Xiyobon adog'idagi tepalikda peshayvonli, serderaza muhtasham uy qad rostlagan edi.

Ammo, Oq So'yloq bu manzarani durustroq tomosha qilishga ulgurmadi. Izvosh endi xiyobon tarafga burilishi bilanoq g'azabdan va norozilikdan ko'zları o'tdek yonayotgan ovcharka unga hamla qildi. Oq So'yloq xo'jayinidan orqada qolib ketdi. U hurpayib oldi-da, odati bo'yicha shovqin ko'tarmasdan imi-jimida keskin zarba berishga chog'-landi, ammo endi sapchishga chog'langan yerida qoqqan qoziqdek turib qoldi va orqa oyoqlariga cho'kib, bir daqiqa oldin gavdasi bilan urib ag'darmoqchi bo'lган it bilan iloji boricha to'qnashmaslik payiga tushdi. Bu urg'ochi it edi. Oq So'yloq nasl-nasabining qonunlari esa urg'ochi itni muhofaza etardi. Urg'ochi itga tashlanish Oq So'yloq uchun o'z tabiatiga qarshi borishdan o'zga narsa emasdi.

Ammo urg'ochi itga instinct mutlaqo boshqa narsalarni o'rgatgan edi. Ovcharka bo'lGANI uchun o'zi istamagan holda Shimol tabiatini va ayniqsa, o'sha o'lkalarda yashovchi mana bunday bo'rilardan u behad qo'rqardi. Oq So'yloq zoti qadim-qadim zamonalardan ilk bor qo'ylarni qo'riqlash o'z ajodolariga topshirilgandan buyon ovcharkalarining azaliy dushmani bo'lib kelgan edi. Shu sababli u olishishdan bosh tortib to'xtagan zahoti ovcharkaning o'zi unga tashlandi. Ovcharkaning qayroq tishlari yelkasiga xanjardek botganda Oq So'yloq beixtiyor irillab yubordi, lekin shunda ham qarshilik ko'rsatmay ortiga chekindi va raqibini aylanib o'tishga qaror qildi. Ammo uning bu urinishi ham zoye ketdi, ovcharka ochishga yo'l qo'ymadidi.

— Kolli, qayt, qayt! — deya qichqirib yubordi izvoshda o'tirgan notanish kishi.

Uidon Skott jilmaydi.

— Hechqisi yo'q, dada, bu unga saboq bo'ladi. Hali ko'p narsalarga ko'nikishi lozim, qo'yavering, bir yo'la o'rgangani ma'qul, o'lib qolmaydi.

Izvosh ancha uzoqlashib ketdi, Kolli esa hamon Oq So'yloqni o'tkazib yubormasdi. Oq So'yloq undan ochish uchun ortiga burilib, o'tloq orqali yugurdi, ammo ovcharka ham bo'sh kelmadi — davra yasab, quvishga tushdi. Shunda Oq So'yloq qarama-qarshi tarafdagi o'tloqqa yugurdi, ammo ovcharka bu yerda ham unga yetib oldi.

Xo'jayini o'tirgan izvosh sekin-asta daraxtzor orasiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'la boshladi. Oq So'yloq qiyin ahvolda qoldi. U ochish uchun yana bir urinib ko'rni, foydasi bo'lmasdi. Shunda u shartta to'xtab,

kutilmaganda ovcharkaga o'girildi-da, o'zining eski sinalgan usulini qo'llashga chog'landi va itni ko'kragi bilan urib ag'dardi. Ovcharka shunchalik tez yugurib kelayotgan ekanki, nogahoniy zarbdan yiqilibgina qolmay, ikki-uch o'mbaloq oshib tushdi. U g'azabdan uv solib yubordida, alamiga chidayolmay yer timdalab tuproq socha boshladi.

Oq So'yloq endi paysallab o'tirmadi. Uning yo'li ochiq edi. Ayni chog'da undan boshqa narsa uni qiziqtirmas edi. Shuning uchun u hamon akillashdan to'xtamayotgan ovcharkaga qaramay shamoldek yelib ketdi. Kolli ham o'rnidan tura Oq So'yloqning ortidan yugurdi. Yugurishga kelganda Oq So'yloq har qanday ovcharkani dog'da qoldirardi. Ovcharka tinmay akillagancha yugurar, Oq So'yloq esa oldinda qilt etmay bamisli maysalararo shamoldek yelib borardi.

Qo'rg'ondan o'tgach, Oq So'yloq eshik qarshisida izvoshdan tushayotgan xo'jayiniga ko'zi tushdi. Xuddi shu payt unga qarshi yana bitta hujum tayyorlanayotgan edi. Uning ustiga shotland ovchi iti yugurib kelardi, Oq So'yloq uni boplab ta'zirini bermoqchi bo'lди-yu, lekin uddasidan chiqolmadidi. Birinchidan u o'zini to'xtatolmay qoldi, ikkinchidan, ovchi it yoniga juda yaqin kelib qolgan edi. U yugurgancha kela solib, yon tarafdan Oq So'yloqqa sakradi. Buni kutmagan Oq So'yloq o'mbaloq oshib tushdi. Sakrab o'rnidan turganida uning vajohatidan iblis ham qo'rqardi, qulqlari kallasiga yopishib qolgan, lablari bilan tumshug'i asabiy uchar, qayroq tishlari qonsirayotganday takillardi. Xo'jayini yordamga shoshildi, biroq, u itlardan ancha-muncha uzoqda edi. Shu sababli ovchi itni u emas, ovcharka Kolli saqlab qoldi. Oq So'yloq birdan sapchishga chog'langan soniyada yetib kelgan Kolli unga o'zini otdi. Kolli o'qdek uchib keldi va qadr-qimmati yerga urilgan ovcharka boyaga epchillik bilan chap berib qochgani yetmay tuproqqa qorishtirib ketgan itga nisbatan yuragida bemisl adovat uyg'ongan edi. U ovchi itga tashlangan Oq So'yloqqa otildi-da, ko'kragi bilan ikkinchi marta yiqitdi.

Yetib kelgan Uidon Skott Oq So'yloqni ushlab oldi, otasi esa itlarni chaqirdi.

— Qoyil, Arktikadan kelgan bu bechora bo'rini boplab kutib olishdi-da! — dedi Skott, Oq So'yloqni tinchlantira turib. — Umri bino bo'lib bir marta yiqilgan edi, bu yerda esa yarim minut ichida ikki marta oyog'ini osmondan qilishsa.

Izvosh qaytib ketdi, uydan yana notanish odamlar chiqdi. Ayrimlari xo'jayinidan xiyol narida to'xtashdi-yu, ikki nafar ayol esa uning yoniga kelib yana bag'riga bosib ko'rishdi. Oq So'yloq ularning bunday ko'ngilsiz qiliq'iga oz-moz ko'nika boshlagan edi. Bunday xatti-harakatga qarshi xo'jayini qilcha ham monelik ko'rsatmadidi, zotan, bunga arzigulik xavf-xatar ham sezilmasdi. Notanish odamlar Oq So'yloqqa yaqinlashmoqchi

bo‘lganlarida u ogohlantirmoqchidek irillab qo‘ydi, xo‘jayin esa uning po‘pisasini tushuntirib berdi. Oq So‘yloq kelib xo‘jayinining oyoqlariga suykaldi, Uidon Skott esa uni silab-siypab tinchlantirgan bo‘ldi.

«Dik! Qani, jo‘na!» degan buyruq berilishi hamono ovchi it yugura zinadan ko‘tarilib, peshayvonga chiqди. Ammo o‘sha yerdan turib irillashini qo‘ymadi va Oq So‘yloqdan ko‘zini uzmay uzala tushib yotdi. Ayollardan biri Kollini bo‘ynidan quchib, yupatgan kabi silab-siypalay boshлadi. Ammo Kolli ham sira tinchlanolmas, hamda odamlar bo‘rini bu yerga keltirib, qattiq yanglishayotganlardan norozi bo‘lib zorlanar edi.

Odamlar peshayvonga ko‘tarilishdi. Oq So‘yloq xo‘jayiniga ergashdi, buni ko‘rib Dik o‘rnidan turdi-da, unga qarab irilladi, Oq So‘yloq ham junlarini hurpaytirdi-da, irillab javob qaytardi.

— Kollini olib keting, bu ikkovi bir cho‘qilashib olishsin, — dedi Skottning otasi. — Uriшиб-urishib yarashib oladilar.

— Unda o‘z sadoqatini izhor etgani Oq So‘yloq Dikni ko‘mish marosimida asosiy go‘yanda sifatida qatnashishiga to‘g‘ri keladi, — deya kuldii Uidon Skott.

Otasi ishonqiramay avval Oq So‘yloqqa, so‘ngra Dikka va oxiri o‘g‘liga qaradi.

— Nahotki, shunga ishonching komil...

Uidon bosh irg‘adi.

— Mutlaqo komil. Dik ko‘z ochib-yumguncha narigi dunyoga ravona bo‘ladi.

U shunday deya Oq So‘yloqqa yuzlandi.

— Qani, ketdik. Kollini emas, seni uuga olib kirish lozimga o‘xshaydi.

Oq So‘yloq ehtiyyotlik bilan zinalardan ko‘tarildi-da, Dikdan ko‘zini uzmay, ayni chog‘da ichkarida duch kelishi mumkin har qanday tasodifga chog‘langan ko‘yi peshayvonning narigi boshiga bordi. U yerda xavotirlanishga arzigulik narsa yo‘q edi. Ichkariga kirgach, u hamon qayerdadir falokat kutib turgandek hammayoqni sinchiklab tekshirib chiqди. So‘ng xotirjam ko‘yi g‘ingshib, xo‘jayinining oyoqlari ostiga kelib yotdi. Ammo shunday bexavotir yerda yotganiga qaramay bezovtalalar va baribir bu notanish yerda cho‘g‘ ustida yotgandek tiq etgan tovushdan seskanib ketardi.

## **Uchinchi bob**

### **XO‘JAYINNING MULKI**

Uzlksiz bir joydan-ikkinci joyga ko‘chib yurishlar natijasida Oq So‘yloqning tabiat ato etgan yangi sharoitga tez moslashish qobiliyati taraqqiy etdi va uning o‘zi ham buning nechog‘li muhim ekanini sezdi.

Siyerra-Visteda hukm surgan (sudya Skottning mulki shunday deb atalardi) hayotga tez ko'nikdi. Itlar bilan oralarida boshqa nizo chiqmadi. Bu yerda itlar o'z xo'jayinlarining odatini unga nisbatan yaxshiroq bilishar ekan. Egalari uyga kirishga ruxsat berishdimi, bas shuni o'ziyoq Oq So'yloqning bu yerda yashashga haqli ekanidan darak berardi. Shu choqqacha Kolli bilan Dik bo'ri zotini ko'rмаган edilar, lekin modomiki, egalari uni oldilariga qo'yishayotgan ekan, ikkovining itoat etmasdan o'zga iloji yo'q edi. Avvaliga Dik Oq So'yloqdan ehtiyot bo'lib yurdi, ammo ko'p o'tmay Siyerra-Vistega mansub bo'lgani uchun ham u bilan chiqishib ketdi. Bordi-yu, hammasi yolg'iz Dikning o'ziga bog'liq bo'lganda edi, ular juda ahil bo'lib ketishardi, ammo Oq So'yloq buning uchun biror zarurat sezmas, ulardan nariroq yurardi. U o'zini xoli qo'yishlarini istardi. U umr bo'yi o'z hamzotlariga qo'shilmay keldi va hozir ham bu odatiga sodiq qoldi. Dik surkalaverib bezorijon qilib yuborar, u esa g'azablanib uni haydagani-haydagan edi. Hali Shimolda yashayotgan kezlaridayoq Oq So'yloq xo'jayinining itlariga ozor yetkazmaslik lozimligiga tushungan va hozir bu yerda ham o'sha saboqni unutmagan edi. Ammo u hamon o'zga itlarga qo'shilishni istamas va yolg'iz o'zi yurardi. Qolaversa, u Dikni shu qadar nazar-pisand qilmas ediki, alal-oqibat bu beozor ko'ppak bo'ri bilan ahil bo'lish umidini butunlay uzishdan o'zga chora topolmadi.

Ammo, Kolli bilan ahvol xiyla o'zgacha edi. Kolli egasining bo'riga o'z uyida yashashga ruxsat berganiga ko'nikdi-yu, ammo Oq So'yloqni qarovsiz qoldirish yoki o'z holiga tashlab qo'yishlariga sira chidayolmasdi. Kollining xotirasidan bo'rilar va ularning avlodlari o'z avlod-ajdodlariga qarshi o'tkazgan beshumor jabr-u zulmlari o'chib ketmagan edi. Gala-gala bo'lib qo'tonga qilgan hujumlarini aslo unutish mumkin emas, zero bu xotiralar o'ch olishga chorlar va nafaqat chorlar, balki undar ham edi. Kolli Oq So'yloqqa o'z uylaridan joy bergen xo'jayinlarining irodasiga qarshi borolmasdi, ammo xuddi shu narsa uning hayotini zaharlashiga xalal ham bermasdi. Ularning o'rtasida azaliy adovat mavjud edi va Kolli buni Oq So'yloqqa muttasil eslatib turishga chog'langan edi.

Ba'zi bir ustunligidan foydalanim u har turli yo'llar bilan Oq So'yloqning jig'iga tegar va uni tinimsiz ta'qib etardi. Tug'ma sezgilar Kolliga hujum qilishiga yo'l qo'ymas, ammo uning uzlusiz xiraliklariga chidamoq ham oson emasdi. Ovcharka tashlangan chog'da Oq So'yloq quyuq jun qoplagan yelkasini unga tutib berar va sipolik bilan o'zini chetga olardi, agar bu ham yordam bermasa u holda diqqati oshib, alamin ichiga yutib, chap bera boshlardi. Mabodo Kolli orqa oyog'idan tishlab qolgudek bo'lsa har qanaqa sipolikni yig'ishtirib, zudlik bilan qochishiga to'g'ri kelardi. Ammo aksar hollarda Oq So'yloq sir boy bermas va o'zini yo'qotib ham qo'ymasdi. Ilojini topsa u Kollini

ko'rmaganga olar hamda doim undan nariroq yurishning payida bo'lardi, basharti ko'rib qolsa yoki yaqin atrofda ekanini ovozidan eshitib qolsa darhol ketib qolardi.

Oq So'yloq Siyerra-Visteda ancha-muncha narsalarni o'rganishi darkor edi. Bu yerdagi hayot Shimoldagiga nisbatan xiyla og'ir va murakkab edi. Dastlab u xo'jayinning oila a'zolari bilan tanishdi, ammo bu uning uchun yangilik emasdi. Mit-Sa bilan Klu-Kuch Kulrang Qunduz qaramog'ida edi, ular Kulrang Qunduz keltirgan go'shtni yeishar, u yoqqan gulxan yonida isinishar va uning choyshablarini yopinib uxlashar edi, xuddi shuningdek, Siyerra-Visteda istiqomat qilayotganlarning bari Oq So'yloq xo'jayini qaramog'ida kishilar edi. Ammo shu narsada ham keskin tafovut sezilar edi. Kulrang Qunduzning kulbasi qayda-yu, Siyerra-Vistedagi uylar qayda! Sharoit taqozosi bilan Oq So'yloq bu yerda juda ko'p odamlarga yuzma-yuz keldi. Siyerra-Visteda sudyu Skott umr yo'ldoshi bilan istiqomat qilardi. Ulardan boshqa bu yerda yana Uidon Skottning Bet bilan Meri degan singillari hamda xotini Elis va nihoyat biri to'rt yashar, ikkinchisi olti yashar farzandlari – Uidon bilan Mod yashashardi. Bu odamlarning hayoti haqida hech kim Oq So'yloqqa hikoya qilib berolmas, ularning qarindosh-urug' ekanini va o'zaro munosabatlari haqida u hech narsa bilmas va hech qachon bilolmas ham edi, shunday bo'lsa ham bu odamlarning xo'jayini qaramog'ida ekanini u tez orada tushunib oldi. So'ngra ularning yurish-turishlari, fe'l-atvorlarini kuzatib, gap-so'zları va ovozlarining ohangini tinglayverib, sekin-asta Siyerra-Visteda yashovchi har bir kishining xo'jayiniga kim u qanchalar yaqinligi, uning huzuridagi e'tibor-u mavqeini ajratib oldi. Shularga qarab, Oq So'yloq o'sha odamlarga muomala qiladigan bo'ldi, xo'jayin nimani qadrlasa, o'sha narsani qadrlar, xo'jayinga aziz bo'lgan narsa unga ham aziz edi.

Xo'jayinning farzandlari ham shu toifaga kirardi. Umri bino bo'libdiki, Oq So'yloq bolalarni yoqtirmas, ulardan hayiqar hamda silab-siypashlariga toqat qilayolmasdi. Hindular qishlog'ida bolalar yetkazgan jabr-u jafoni hali unutmagan edi. Uidon bilan Mod ilk bor uning yoniga kelganlarida u tahdidona irillab, ko'zlarini chaqchaytirib oldi. Xo'jayinning kaltagi va o'dag'aylashidan keyingina Oq So'yloq bu bolalarning erkalashiga turib berishga majbur bo'ldi. Lekin ular jajji qo'llari bilan silab-siypayotgan chog'da sira o'zini bosolmasdi. Keyinchalik, aka-singil bolalar xo'jayiniga aziz ekanini sezgach, u kaltak va o'shqirishlarini kutib o'tirmay erkalashlariga qarshilik qilmaydigan bo'ldi.

Ming qilganda ham Oq So'yloq tuyg'ularini oshkora namoyish etolmasdi. U xo'jayinning bolalariga o'lganining kunidan itoat etar va ularning tegajoqliklarini ming azob bilan ko'tarardi. Bordi-yu, bolalar

haddidan oshib, bezor qilib yuborsalar, u sapchib o'rnidan turardi-yu, norozi qiyofada ketib qolardi. Garchi, hanuz ularga ro'yxush bermayotgan bo'lsa ham tez orada bolalar itni o'zlariga moyil qilib oldilar. Oq So'yloq o'z ixtiyori bilan sira bolalarga yaqin yo'lamasdi, endi bo'lsa ulardan qochmas va hatto yoniga kelishlarini kutar edi. Bora-bora kattalar bolalarni ko'rghan Oq So'yloqning ko'zlarida mamnuniyat ifodalari balqiyotganini, o'yinga berilib uni unutib ketib qolishganda esa bu ifodalalar o'rnini afsus ifodalari egallayotganini payqab qolishdi.

Oq So'yloq juda ko'p narsalarni o'rganishiga to'g'ri keldi. Yuz berayotgan voqeа va hodisalarni tushunib yetish uchun juda ko'p vaqt kerak edi. Bolalardan ortgan vaqtini Oq So'yloq sudya Skott yonida o'tkazishga sarf qilardi. Buning ikkita sababi bor edi. Birinchidan, xo'jayini uni nihoyatda qadrlar, ikkinchidan, sudya Skott bosiq, vazmin odam edi. U keng bahavo ayvonda gazeta o'qib o'tirgan kezlar Oq So'yloq uning oyoqlari ostida erkalanib yotishni hush ko'rardi. Shunday paytda sudya ora-chora Oq So'yloqqa so'z qotib yoki ko'z tashlab qo'yar va o'zicha shu yerdaligingni his qilib turibman, degandek bo'lardi. Ba'zan xo'jayini uzoq safarga jo'nab ketar, shunda Oq So'yloq uni qattiq sog'inardi. U qaytib kelgach esa, Oq So'yloq dunyodagi hamma narsani unutib uning atrofida girdikapalak bo'lardi.

Oq So'yloq Skott xonadoni a'zolariga o'zini erkabal siypalashlariga yo'l qo'yar edi-yu, ammo ulardan birontasiga astoydil erkalanmas edi. Hech qanday mehr, erkakash uni erib, taltayib irillashga majbur qilolmasdi. Skottning tug'ishganlari har qancha urinishmasin, baribir Oq So'yloq ularning pinjiga suqilib erkalanmasdi. U bunday chuqur ishонч, itoatkorlik va fidoyiligini yolg'iz xo'jayiniga izhor etardi. Ochig'i, oilaning boshqa a'zolariga u xo'jayinining mulkiga qaragandek qarardi. Xuddi shuningdek, xo'jayinning oila a'zolari bilan xizmatkorlar orasidagi farqni ham Oq So'yloq tez ilg'ab oldi. Xizmatkorlar Oq So'yloqdan qo'rqiшар, u esa xo'jayini qaramog'ida bo'lganlari uchungina ularga hamla qilishdan o'zini tiyardi. Ularning Oq So'yloq bilan ishlari yo'q edi, o'z navbatida Oq So'yloq ham ularga mutlaqo qiziqmasdi. Klondaykda Mett nimaiki qilgan bo'lsa, bu xizmatkorlar ham xo'jayinlariga ovqat tayyorlashar, idish-tovoq yuvishar va umuman, bir daqqa bo'sh qolishmasdi. Qisqasi, Siyerra-Vistedagi barcha xizmatni mana shu xizmatkorlar bajarishardi.

Oq So'yloq sudya Skottning qo'rg'oni tashqarisidan ham ko'p narsa o'rgandi. Xo'jayinning mulki haddan tashqari katta bo'lgani bilan uning ham chegarasi bor axir. Siyerra-Viste yonidan katta yo'l o'tgan edi. Yo'Ining naryog'idan barcha odamlarga baravar tegishli yo'llar va ko'chalar boshlanardi. Ularning xususiy hovli-joylari esa chetan devorlar ortida edi. Bularning hammasini son-sanoqsiz qonun bilan boshqarishar,

holbuki, odamlarning tilini tushunmagani va ular joriy etgan tartib-qoidalardan bexabar ekaniga qaramay xuddi shu qonunlar Oq So'yloqqa o'zini qanday tutishi lozimligini o'rgatardi, u to odamlarning qonun-qoidalardan birontasiga duch kelmaguncha tug'ma sezgilariga muvofig harakat qilardi. Bir necha bor shunday to'qnashuvlardan keyin Oq So'yloq gap nimadaligini tushunib yetar va qaytib sira bu qoidani buzmasdi.

Ammo, hammasidan ham xo'jayinning o'shqirishi va jazolashlari Oq So'yloqqa qattiq ta'sir qilardi. Oq So'yloq xo'jayinini benihoya yaxshi ko'rardi, shuning uchun uning qattiqko'lligidan behad ozor chekardi. Na Kulrang Qunduz, na Xushro'y Smitt unga bunchalik ozor yetkaza olmagandi. Ularning kaltaklashlari badaniga sezilarli ta'sir qilar, sarkash, mag'rur ruhi esa bamisli bo'rondek tinchimasdi. Yangi xo'jayini haddan ziyod sekin, og'ritmay ursa ham baribir bu beozor zarbalar uning suyak-suyagidan o'tib ketardi. Egasi biron aybini topib, noroziligini bildirsa, bu Oq So'yloqqa og'ir botardi.

Ochig'ini aytganda, xo'jayini Oq So'yloqni deyarli urmasdi, desa ham bo'ladi. Unga xo'jainining bir og'iz gapi kifoya edi, shunga qarab Oq So'yloq to'g'ri ish qilyaptimi, yo'qmi, anglab olardi. Xo'jainining ovozi uning uchun bamisli qiblanamo edi, shunga qarab nima qilish lozimligini belgilab olardi, shunga qarab muayyan vaziyatda o'zini qanday tutish lozimligini ajratib olardi.

Shimolda faqatgina itlar qo'lga o'rgatilardi. Boshqa hayvonlar ozodlikda yashar va har bir it uchun, agar u shunga qodir bo'lsa, ular bir o'ljadek gap edi. Ilgari Oq So'yloq jonivorlarni tutib yeyish bilan kun kechirardi, Janubda esa sharoit butunlay o'zgacha ekanligi tamoman qorong'u edi. Bunga u Santa-Klara vodiysiga kelgan dastlabki kunlardayoq ishonch hosil qildi. Bir kuni ertalab uylari yonida qafasdan qochib chiqqan tovuq yo'liqdi. Tabiiyki, o'z-o'zidan uni tutib yegisi keldi. Buning uchun bir hamla kifoya qildi, o'takasi yorilgan tovuq uning o'tkir tishlaridan qutulish umidida qaqqollagancha tipirchilay-tipirchilay joyirostonga ravona bo'ldi. Tovuq yaxshi boqib semirtirilgan, go'shti yog'li, semiz edi. Oq So'yloq lablarini yalab, o'zicha mammun bo'lib qo'ydi.

O'sha kuni u otxona yonida yana bir adashgan tovuqni uchratib qoldi. Tovuqning baxtiga otboqar yugurib keldi. U Oq So'yloqning fe'lidan bexabar ekan chog'i, uni qo'rqtish uchun xivich ko'tarib olgandi. Otboqar xivich bilan bir urganini biladi, it tovuq qolib, unga tashlandi. Oq So'yloqni xivich bilan emas, so'yil bilan urib to'xtatsa bo'lardi. Otboqar o'ziga sapchigan chog'da itni yana urdi, ammo bu Oq So'yloqqa kor qilmadi. Otboqar chinqirib yubordi-da, ko'ksiga kelib urilgan itning og'irligidan gandiraklab ketdi. Qo'lidagi xivichni qo'ymay, bo'ynini ushlab qoldi. Oqibat, uning tirsagidan kaftiga qadar go'shti ko'rinib qoldi.

Otboqarning o'takasi yorildi. U Oq So'yloqning g'azabidan ko'ra, tovush chiqarmay, irillamay tashlanishidan esankirab qolgandi. U it g'ajigan va qon to'xtamayotgan qo'llari bilan aft-basharasи va tomog'ini to'sib omborxona tomon chekina boshladi. Agar Kolli yetib kelmaganda otboqarning holiga maymunlar yig'lardi. Bir vaqtlar Dik hayotini saqlab qolgan Kolli bu safar otboqarning joniga oro kirdi. G'azabdan ko'ziga hech narsa ko'rinxmayotgan ovcharka kela solib Oq So'yloqqa sapchidi. U laqma odamlardan ko'ra sezgirroq ekan. Barcha gumonlari tasdiqlandi, bu it bosqinchi! U yana o'zining eski odatini qilyapti! U tuzalmaydi!

Otboqar oshxonaga qarab qochdi. Oq So'yloq esa dam o'ng, dam so'l yelkasini tuta-tuta Kolli tevaragida aylanib-qochib o'zini mudofaa qilardi. Ammo Kolli bu gal odatdagidek ta'zirini berish bilan kifoyalanmay tinkasini qurita boshladi. Uning vajohati daqiqa sayin vahshiyona tus olayotganini ko'rgan Oq So'yloq oxiri sipolikni unutib ura dalaga qochdi.

— U tovuqlarga boshqa tegmaydi, — dedi xo'jayin, — lekin avval o'zim uni qo'lga tushirishim kerak.

Ikki kundan so'ng shu hol ro'y berdi. Ammo xo'jayini Oq So'yloq bu darajada karomat ko'rsatadi, deb o'ylamagan edi. Oq So'yloq tovuqxonani yaxshilab kuzatgan. Kechqurun tovuqlar qo'nokqa joylashib olgan chog'da u kuni kecha keltirilib taxlab qo'yilgan taxta tepasiga chiqib, undan tovuqxona tomiga o'tdi-da, qiynalama-qiynalama tomni oshib narigi tarafdan sakrab yerga tushdi. Zum o'tmay tovuqxonada qirg'in boshlandi.

Ertalab ayvonga chiqqanda xo'jayini antiqa manzaraning guvohi bo'ldi. Otboqar chim ustiga ellikka yaqin bo'g'izlangan parrandani qator terib qo'ygan edi. Skott avvaliga ishonqiramadi, keyin qoyil qolgandek hushtak chalib yubordi. Oq So'yloq esa pinagini buzmay xuddi aybi yo'qdek bir chekkada turardi. U go'yo chindan ham maqtovga arzirli ish qilgandek mag'rur edi. Xo'jayini bajarishga majbur bo'lgan ko'ngilsiz vazifa xayolidan o'tib labini tishladi, so'ngra hech narsa bo'limgandek betashvish qiyofada turgan itga o'shqirdi, uning ovozida g'azab ohangi sezildi. Boz ustiga xo'jayini Oq So'yloqning tumshug'ini bo'g'izlagan tovuqlarga ishqadi va boshiga musht tushirdi.

O'shandan buyon Oq So'yloq tovuqxona yaqiniga yo'lamaydi. Tovuqlar qonunan himoya qilinishini u tushungandi. Ko'p o'tmay xo'jayini uni parrandalar boqiladigan hovliga olib bordi, sho'rlik it tovuqlardan birontasi tumshug'i tagidan o'tib qolganda, beixtiyor sapchishga chog'lanardi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, ammo xo'jayini bir o'dag'aylab esiga solib qo'ydi. Ular parrandaxonada yarim soat bo'lishdi. Har safar Oq So'yloq nogohon parrandaga tashlangudek bo'lsa

xo'jayini baqirib to'xtatardi. Shu tariqa u yana bir qoidani o'zlashtirib oldi va shu yerning o'zida, parrandaxonadan chiqib ketishga ulgurmasdanoq, bu yerda yashovchilarga ahamiyat bermaslikka o'rgandi.

— Bunaqa tovuqxo'rlar tuzalmaydi, — dedi sudya Skott nonushta paytida o'g'li Oq So'yloq olgan saboq haqida gap ochganda, afsus bilan bosh chayqab. — Tovuqxonaga borib, qon ta'mini tatib ko'rdimi, tamom... Shunday degancha u yana afsus bilan bosh chayqab qo'ydi.

Ammo Uidon Skott otasining fikriga qo'shilmadı.

— Bilasizmi nima qilmoqchiman? — dedi u oxiri. — Oq So'yloqni bir kun tovuqxonaga qamab qo'yaman.

— Tovuqlarning holi nima kechadi? — dedi norozi bo'lib sudya Skott.

— Qolaversa, — deya davom etdi o'g'li, — har bir bo'g'izlangan tovuq uchun bir dollar tilla to'layman.

— Dadamga ham biron ta'limatlar jarima solish kerak, — deya gapga aralashdi Bet.

Singlisi Betning taklifini ma'qulladi, dasturxon atrofida o'tirgan-larning barchasi bunga qo'shildi. Sudya Skott e'tiroz bildirib o'tirmadi.

— Xo'p! — Uidon Skott bir daqiqqa o'ylanib qoldi. — Basharti kun botgunga qadar Oq So'yloq bitta jo'jaga ham tegmasa, tovuqxonada o'tirgan vaqtning har o'n minuti uchun, xuddi sudda, hukm o'qiladigan paytdagidek hammamiz tantanali ovozda: «Oq So'yloq, men o'ylagandan ko'ra aqlliyoq, ekansan», deya aytamiz.

Oila a'zolari xoliroq joyga yashirinib voqealarni o'z ko'zlarini bilan kuzatadigan bo'lishdi. Ammo ularning hafsalasi pir bo'ldi. Egasi tovuqxonadan chiqib ketdi deguncha Oq So'yloq uxbab qoldi. Keyin uyg'onib suv ichgani bordi. U tovuqlarga tariqcha ahamiyat bermas, hatto ularni ko'rmayotganga o'xshardi. Soat to'rtda u yugura kela sakrab tovuqxonaning tomiga chiqdi, narigi tarafiga o'tib yerga tushdi-da, lo'killaganicha uyg'a jo'nadi. U o'zlashtirgan yangi qonunni unutmagan edi. Sudya Skott, oila a'zolarining bahri-dilini ochish uchun ayvonga chiqib ketma-ket o'n olti marta «Oq So'yloq, men o'ylagandan ko'ra aqlliyoqdır», deya takrorladi.

Ammo xilma-xil qonun-qoidalar Oq So'yloqni gangitib qo'yar va goho joniga ham tegib ketar edi. Alaloqibat u boshqa odamlarning ham tovug'iga tegmaslik kerakligini aniqlab oldi. Bu mushuklar, quyonlar-u kurkalarga ham taalluqli edi. Ochig'i bu qonuniyatga ilk bor ro'para bo'lgach, barcha tirik mavjudotning hayoti daxlsiz ekan, degan tushuncha uyg'ongan edi. O'tloqda tumshug'i tagidan bedanalar pirillab ko'tarilar va ziyon-zahmat ko'rmay uchib ketishardi. Oq So'yloqning a'zoi-badani yonib ketar, ammo qushni tutib olishdan o'zini tiyardi. U inson irodasiga tamoman bo'ysungandi.

Ammo kunlardan bir kun Dik o'tloqda quyon hurkitib yuborganining guvohi bo'ldi. Buni xo'jayini ham ko'rdi va aralashish u yodqa tursin, balki Oq So'yloqni ham qo'shilib quvishga undadi. Shu bahonada Oq So'yloq yangi qonunning quyonlarga aloqasi yo'qligini tushundi va uzil-kesil o'zlashtirib oldi. Uy hayvonlariga tegmasa bo'lgani. Mabodo ular bilan ahil yasholmasa, hechqisi yo'q, harholda, urishmay-netmay yursha kifoya. Ammo qaysiki o'rmonda istiqomat qilib odamlarga bo'ysun-maydigan olmaxon, quyon va bedana singari boshqa jonivorlarni tutib yeish mumkin. Odamzod o'rgatilgan jonivorlarnigina asrar va ularning o'zaro dushmanlik qilishlariga ham yo'l qo'ymas edi. O'z qaramog'idagi uy hayvonlarining hayot-mamoti insonga bog'liq edi va u bu huquqni jon-jahdi bilan qizg'anar edi.

Siyerra-Vistedagi hayot Shimoldagi hayotdan murakkabroq edi. Taraqqiyot Oq So'yloqdan avvalo mustaqil bo'lishni va matonatni talab qilardi. Bu yerdagi hayot ming bir tusda jilvalanar va Oq So'yloq shu rango-rang hayot qo'ynida yashardi. Xo'jayini o'tirgan izvosh ortidan San-Xose ko'chalari bo'ylab yugurishga to'g'ri kelganda yoki biron yerda kutib turganda ko'z oldida g'ala-g'ovur jo'shqin hayot qaynar va uni o'z domiga tortar, bu qaynab-toshgan hayot vujudida jo'sh urgan g'ayrat-shijoat, jo'shqinlik alangasini qanday bo'lmasin so'ndirishga majbur etardi.

Ko'rsaki, shahardagi do'konlarda shundoqqina tumshug'i ostida go'shtlar osilib yotibdi. Ammo bu go'shtlarga tegish man etilardi. Xo'jayini kirgan uylarning deyarli barchasida mushuklar yashar, ammo ularga ham tegish mumkin emas, har qadamda itlar uchrardi, Oq So'yloqni ko'rdi, deguncha, irillab g'azabini qo'zg'ardi, afsuski, ular bilan olishish mumkin emas. Undan tashqari yo'llarda odamlar gavjum edi, Oq So'yloq ularning diqqatini tortardi. Odamlar to'xtab, barmoqlarini nuqib uni bir-biriga ko'rsatishar, tomosha qilishar, bir nimalar deb so'z qotishar, eng yomoni silab-siypagani qo'l cho'zishardi. Begona odamlarning xiraligiga chidash lozim, zero, Oq So'yloq sabr-toqatga o'rganib bo'lgan edi. U hatto o'rin-noo'rin tortinib-qimtinish odatini tashlagan, begona kishilarning iltifotiga bepisand qarardi. Odamlar unga lutf ko'rsatishar, u ham shunga yarasha munosabatda bo'lardi. Shunga qaramay Oq So'yloq zohirotida bir nima bor edi va shu bir nima unga nisbatan betamizlik qilishga yo'l qo'ymasdi. Yo'lovchilar uning boshini silab-siypashar va o'z dovyurakliklaridan mammun qiyofada yo'lda davom etishardi. Ammo Oq So'yloq har doim osonlikcha qutulavermasdi. Xo'jayini tushgan dilijon San-Xose atrofidagi qishloqlardan o'tayotganda bolalar uni toshbo'ron qilishardi. Oq So'yloq ularni quvlash va boplab ta'zirini berish mumkin emasligini bilardi. O'zini himoya qilgisi kelgan taqdirda

ham tug'ma mayl-istiklariga qarshi borishga to'g'ri kelar va buning oqibatida u asta-sekin o'rgatilgan oddiy xonaki itga aylanib qolayotgan edi.

Oq So'yloq adolat va halollik nima ekanini bilmasa ham bunaqa hayot uni qanoatlantirmas edi. Har bir tirik jon ma'lum chegaraga qadaradolatsizlikka chidaydi, shunga ko'ra Oq So'yloq anovi bolalardan o'zini himoya qilishiga yo'l qo'y mayotganlariga qoni qaynardi. U odamlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan ular o'zini boqishi va lozim bo'lganda himoya qilishlari shartligini unutgan edi. Nihoyat bir safar xo'jayini dilijondan sakrab tushdi-da, qamchisi bilan shumtakalarining po'stagini qoqqdi. Shundan keyin ular tosh ot maydigan bo'lishdi, hammasini sezgan Oq So'yloq esa o'zicha mammun bo'ldi.

Ko'p o'tmay shunga o'xshash yana bir voqeа ro'y berdi. Shaharga boradigan yo'l yoqasidagi hammom oldida hamisha uchta it izg'ib yurar va Oq So'yloq ko'rindi, deguncha unga hamla qildi. Oq So'yloq itlar bilan olishgudek bo'lsa bu nima bilan tugashini oldindan bilgan xo'jayini urish-janjalni man etuvchi qonun-qoidani unga uqtirgani-uqtirgan edi. Bu qonun-qoidani a'lo darajada o'zlashtirgan Oq So'yloq hammom oldidan o'tayotganda hamisha noqulay ahvolga tushardi. Uning tahdidli irillashlarini eshitib, uchala it nariga qochar, ammo o'sha yerdan turib akillashar, uning izzat-nafsiga tegishar edi. Uzoq paytgacha shunday davom etdi. Hammom mijozlari esa hatto itlarni olkishlashardi. Bir kuni ochiqdan-ochiq Oq So'yloqqa olkishladilar. Buni ko'rgan xo'jayini dilijonni to'xtatdi-da:

— G'us Oq So'yloq! — deya xitob qildi.

Oq So'yloq qulqlariga ishonmadi. U bir xo'jiniga, bir itlarga qaradi. So'ng xo'jiniga savol nazari bilan yana qaradi.

— Ol ularni, azamat! Boplاب adablarini berib qo'y!

Gumonsirashga o'rin qolmadi. Oq So'yloq keskin o'girildi-da, tovush chiqarmay raqiblariga qarab yugurdi. Itlar chekinishmadi. To's-to'polon boshlandi. Itlar akillar, irillar, tishlarini irshaytirar edilar. Maydonni chang-to'zon qopladi. Ammo hash-pash deguncha itlarning ikkitasi yiqlib jon talvasasida tirishib, tipirchilab qoldi, uchinchisi esa orqa-oldiga qaramay urra qochdi. Oq So'yloq chinakam bo'riga o'xshab tovush chiqarmay shitob bilan uni ham quvib ketdi. Dalaning o'rtasiga borganda yetib olib, uni ham tinchitdi.

Shu voqeadan keyin Oq So'yloq bilan begona itlar o'rtasidagi nizo-janjallar barham topdi. Uch nafar itning o'ldirilgani haqidagi mishmishlar butun vodiya tarqaldi va odamlar jangovar bo'riga ilakishib yurmasin degan xavotirda itlaridan ko'z-qulqoq bo'lib turadigan bo'lishdi.

## To'rtinchi bob

### ASLIGA QAYTISH

Oylar ketidan oylar o'tdi. Janubda hayot farovon edi, bu yerda Oq So'yloqni ishlatischmas, buning oqibatida u semirib ketdi. Umuman Oq So'yloq o'zini behad baxtiyor sezardi. U janub iqlimiga moslashibgina qolmay, balki bu yerning shart-sharoitiga ham ko'nikdi. Oftob nurlari unumdar yerga ekilgan ko'chatga qanday ta'sir qilsa, inson mehr-muhabbati Oq So'yloqqa shunday ta'sir etardi.

Shunday bo'lsa ham Oq So'yloq bilan itlar orasida allaqanday tafovut yaqqol sezilardi. U tartib-intizomni o'zgacha sharoitda yashab ko'rmagan hamzotlariga qaraganda yaxshiroq bilar va boshidan-oyoq amal qilardi, shunga qaramasdan vahshiylig uning vujudini tamomila tark etmagan va bamisoli hamon kimsasiz Shimol izm-u ixtiyorida yashayotgandek va xuddi hamon vujudida yashab kelayotgan bo'ri aslida vaqtinchalik uyquga ketgandek edi.

Oq So'yloq itlarga elakishmasdi. U birontasiga qo'shilmas, doim bir o'zi yurar bundan keyin ham ular dan nariroq yurishni xohlardi. Hayotining ibtidosida Lip-Lip bilan kuchukchalar galasi hayotini zahar-zaqqumga aylantirgandan e'tiboran Xushro'y Smit qo'lida chekkan azob-uqubatlar haqqi Oq So'yloq itlarni behad yomon ko'rib qolgan edi. Uning hayoti izdan chiqqan va u o'z hamzotlaridan uzoqlasha-uzoqlasha insonga yaqinlashgan edi.

Buning ustiga Janubdag'i itlar Oq So'yloqqa mutlaqo ishonishmasdi: itlar uni ko'rganda beixtiyor tahlikaga tushar va nafrat bilan akillab shovqin ko'tarishardi. Oq So'yloq esa buning uchun ularni jazolash shart emasligini tushunardi. U tishlarini irshaytirib, vahshiyona irillab qo'ysa tamom, har qanday g'azabga mingan it o'sha zahoti pusib qolardi.

Ammo taqdir Oq So'yloqni sinash uchun Kollini unga yuborgan edi. Ammo shu Kolli bir daqqa ham uni holi-joniga qo'ymasdi. Insonning talabi yoki hukmi unga Oq So'yloqchalik qudrat kasb etmas, shu sababli Kolli o'zlarini yaqinlashtirish uchun xo'jaynining astoydil urinishlariga qarshilik ko'rsatardi. U tahdidona, jazavakov irillashlari bilan har qadamda Oq So'yloqni ta'qib etardi: Kolli tovuq voqeasidan keyin uni sira kechirolmas va uning niyati faqat jinoyat qilishdan iborat deb hisoblardi. U yo'q yerdagi gunohlarni unga ag'darardi! Xuddi ayg'oqchi kabi bosgan izini sinchiklab kuzatish orqali Oq So'yloq hayotini zaharlar edi, u kaptargami, tovuqqami qiziqsini qarab qo'ysa bas, Kolli darhol dunyonni boshiga ko'tarib hurishga tushardi. Oq So'yloq undan qutulish uchun boshini panjalariga qo'yib o'zini uxlaganga solib yotardi. Shunday paytda Kolli hamisha o'zini yo'qotib qo'yar va darhol nafasi o'chardi.

Kolli bilan bog‘liq dilmiralikni aytmasa hamma ishlar joyida edi. Oq So‘yloq o‘zini tiyishga o‘rgandi, tartib-intizomni qat’iy o‘zlashtirdi. U ancha quyulib qolgan, bo‘lar-bo‘lmasga qoni qaynamasdi. Endi u hamma narsadan yomonlik kutmasdi. Tahlika, kaltak yeyish hamda o‘lim vahimasidan asar qolmagandi. Hayoti osoyishta o‘zaniga tushgan, vahimadan, adovatdan xoli bir me'yorda davom etardi.

U faqat qorni sog‘inar, ammo buni o‘zi sezmasdi. Agar Oq So‘yloq fikr yuritishga qodir bo‘lganda edi ehtimol: «Yoz mucha ham cho‘zilmasa edi!» deya o‘ylagan bo‘lardi. U o‘zi ham anglamagan holda qor yog‘ishini istardi. Yozning jazirama quyoshi ayovsiz qizdirgan kunlar u zamharir Shimol tabiatini qo‘msardi. Ammo bu sog‘inch sababi o‘ziga ham nomalum bezovtalikda namoyon bo‘lardi, xolos.

Oq So‘yloq hech qachon haddidan oshmasdi. U tumshug‘i bilan xo‘jayiniga suykalar, erkalanib g‘ingshir va yolg‘iz shu yo‘sinda o‘z mehr-sadoqatini izhor etardi. Lekin ko‘p o‘tmay u buning yana bir yo‘lini kashf etdi. Odamlar kulgusi unga yomon ta’sir qilardi. Kulgu uni quturtirib yuborar, g‘azabi toshib o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolardi. Biroq, u xo‘jayinidan achchig‘lanayolmasdi, shuning uchun kunlardan bir kun xo‘jayini hech qanday zararsiz hazil qilib ustidan kula boshlaganda u o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Bir paytlardagidek g‘azabi qaynab toshdi, ammo bu safar g‘azab mehr-sadoqatdan ustun kelolmadi. U g‘azablana olmasa nima qilsin? Oq So‘yloq o‘zini sipo tutishga uringan edi, xo‘jayini kulib yubordi. U yana ham jiddiy qiyofaga kirgandi, xo‘jayini o‘zini tiyolmay qah-qah urib yubordi. Pirovardida Oq So‘yloq taslim bo‘ldi. Uning yuqori labi uchdi, quvlikdanmi, mehrdanmi ko‘zlar shu‘lalandi. Qisqasi Oq So‘yloq kulishni o‘rganib oldi.

U egasi bilan o‘ynashishni ham o‘rgandi: o‘zini yiqitishga, chalqancha yotqizishga, ko‘ngli siqqancha tegajaklik qilish va hazillashishga qarshilik qilmas, o‘zi esa go‘yo yolg‘ondan g‘azablanar, junlarini hurpaytirib irillar va tishlarini irshaytirib xo‘jayiniga hamla qilmoqchi bo‘lardi. Ammo ish hech qachon bungacha yetib bormasdi: uning tishlari Skottga yaqinlashmay havoda shaqillardi, mana shunday gurpanglashlardan so‘ng yengilgina zarblar, turtishlar, tishlarni taqillatish hamda irillashlar avjiga chiqqan chog‘da inson bilan it tuyqus qarama-qarshi tarafga yugurib qolishar va to‘satdan to‘xtab bir-birlariga termulib qolishardi. Keyin esa nogahon, bamisli quturgan dengiz tepasida quyosh jilva qilgandek kula boshlashardi. O‘yin-kulgu odatda egasining Oq So‘yloqni bo‘ynidan quchib olishi-yu, itning erkalanib cho‘zib-cho‘zib uvlashi bilan tugardi.

Ammo egasidan o‘zga hech kim Oq So‘yloq bilan bu taxlit gurpanglashishga botinolmasdi. U bunga yo‘l qo‘ymasdi. Birov yurak yutib u bilan o‘ynashgani jur‘at qilsa bormi, darhol tahdidona irillab o‘sha

dovyurakning ishtiyoqini so'ndirar edi. Mobodo Oq So'yloq egasining ko'ngli tusagancha o'zi bilan o'ynashishga yo'l qo'yar ekan, bu istagan odam bilan shunday qilishga tayyor, qadr-qimmatini bilmastikdan emasdi. U faqat bitta odamni yaxshi ko'rар va undan boshqasiga ko'ngli ilimasdi.

Xo'jayini tez-tez otta sayrga chiqardi. Bunday paytda uni kuzatib borishni Oq So'yloq o'z burchi deb hisoblardi. Shimolda abzal urishlariga indamay turib berish orqali odamlarga nechog'li sadoqatli ekanini namoyon etardi, biroq Janubda hech kim chanada yurmas va bu yerda itlarga og'ir yuk ham torttirishmasdi. Shu bois Oq So'yloq egasi safarga chiqqan kezlar hamisha yonida bo'lish orqali o'z sadoqatini namoyish etish ilojini topgan edi. Kun bo'yиегасининг ортдан yugurib yurish unga malol kelmasdi. U zo'riqmay, charchoq nimaligini bilmay bir me'yorda yugurar va ellik mil bosib o'tgandan keyin ham toliqqani bilinmas, shitob bilan ot oldida yelib borardi.

Egasining shunaqa sayrlari Oq So'yloqqa o'z tuyg'ularini izhor etishning yangi usulini kashf etish imkonini berardi. Qizig'i shundaki, umri davomida u bundan bor-yo'g'i ikki marta foydalandi. Birinchi marta Uidon Skott egardan tushmay darvozani ochib-yopishga ayg'irni odatlantirayotganda yuz berdi. U qayta-qayta darvozaga yaqinlashar, lekin darvozani yopmoqchi bo'lganida qo'rqib ketgan ot ortiga tisarilar yoki u yoqdan-bu yoqqa irg'ishlar edi. Ot borgan sari kuchanib oldingi tuyoqlarini ko'tarib sapchir, egasi poshnasidagi tepki bilan niqtab cho'kkalashga majbur qilganda esa shox tashlardi. Oq So'yloq ularni xavotir ichida kuzatib turdi va oxiri chidab turolmay bir sakrab otning oldiga bordi-da, g'azab bilan hurishga tushdi.

Ot voqeasidan keyin u dam-badam hurishga urinar, egasi uni rag'batlantirardi, biroq u bor-yo'g'i yana bir martagina buning uddasidan chiqqa oldi, xolos. Bunga quyidagi voqea sabab bo'ldi, xo'jayini ekinzor yoqalab otta kelardi, tuyoqlari ostidan irg'ib chiqqan quyondan cho'chigan ot bir sapchidi-yu, egasi egardan uchib tushib, oyog'i lat yedi. Quturib ketgan Oq So'yloq otning bo'g'zini yorib tashlamoqchi bo'lib chog'lanayotganda, egasi to'xtatib qoldi.

— Jo'na uygа! Jo'na deyapman! — deb baqirdi u suyagi singaniga ishonch hosil qilgach.

Oq So'yloq egasini yolg'iz tashlab ketishga ko'zi qiymadi. Uidon Skott ikki enli xat yozmoqchi bo'ldi-yu, ammo cho'ntagidan na qog'oz, na qalam topolmagach, yana Oq So'yloqqa «Jo'na!» deb buyurdi.

Oq So'yloq unga ma'yusona termuldi, so'ng ketishga chog'lanib bir necha qadam yurdi-da, iziga qaytib zorlanganicha uv soldi. Egasi uni yupatib bir nimalarni jiddiy ohangda tushuntira boshladи, Oq So'yloq sergak tortib tinglay boshladи.

— Tashvish chekma, qariya, sen uygа bor, — derdi Uidon Skott. — Uygа borib nima gapligini tushuntir. Endi jo'na! Bor deyapman! Qani!

«Uyga jo'na!» degan so'zning ma'nosini Oq So'yloqqa tushunarli edi, shu sababli egasining boshqa so'zlarini tushunmasa-da, nima demoqchi bo'lganini sezdi. U istar-istamas ekinzor bo'ylab yugurib ketdi. Nariroq borgach, ikkilangandek to'xtadi va ortiga o'girilib qaradi.

— Jo'na uyga! — degan qat'iy buyruq eshitildi, bu safar it itoat etdi.

Oq So'yloq uyga yetib kelganida oila a'zolari peshayvonda salqinlab o'tirishar edi. U boshdan-oyoq, tuproqqa belangan, tinmay harsillardi.

— Uidon kelyapti, — dedi Skottning onasi.

Oq So'yloqni ko'rgan bolalar qiy-chuv ko'tarib yugurishdi. It bolalarga chap berib peshayvonning narigi boshiga qochdi, ammo kichik Uidon bilan Mod uni arg'amchi bilan panjara orasidagi ayvon kunjagiga quvib borib qamab oldilar. Oq So'yloq chiqib ketmoqchi bo'lib irilladi. Skottning rafiqasi xavotirlanib o'sha yoqqa yuzlandi.

— Oq So'yloqning yonida o'ynayotgan bolalarni ko'rsam yuragim taka-puka bo'laveradi, — dedi u. — Bir kunmas bir kun itligini qiladi baribir, deya qo'rqaman.

Oq So'yloq vahshiyona o'kirkancha yo'lini to'sgan bolalarni yiqitib burchakdan qochib chiqdi. Bolalarning onasi ularni chaqirib olib yupatishga tushdi, itni o'z holiga qo'yinglar, deb dashnom berdi.

— Bo'ri baribir bo'rilingini qiladi, — dedi sudya Skott. — Unga ishonib bo'lmaydi.

— Ammo u haqiqiy bo'ri emas-da, — gapga aralashdi Bet akasi yo'g'ida yonini olgan bo'lib.

— Sen Uidonga orqa qilib shunday deyapsan, — deya e'tiroz bildirdi sudya. — Uning aytishicha Oq So'yloq tomirida itning qoni oqayotganligi bu shunchaki taxmin. Siyohidan esa...

Sudyaning gapi og'zida qoldi. Oq So'yloq uning oldiga kelib jonjahdi bilan irilladi.

— Joyingga bor! Bor! — deya o'shqirdi sudya.

Oq So'yloq xo'jayinining xotiniga yuzlandi-da, etagidan tishlab tortqiladi, bir parchasini uzib olganda ayol qo'rqqanidan chinqirib yubordi.

Hamma Oq So'yloqqa yuzlandi. U boshini baland ko'tarib, odamlarga tikilib qarardi. Uning kekirdagi tortishib-toritishb qo'yar, ammo g'iq etmasdi. It bir nimani tushuntirmoqchi bo'layotganga o'xshardi.

— Quturmadimikin? — dedi Uidonnaing onasi. — Men Shimolning itlari jazirama issiqni ko'tarolmaydi deb Uidonga aytgandim.

— U bir nima demoqchiga o'xshaydi! — dedi hayajonlanib ketgan Bet.

Shu choq Oq So'yloq qulqoqni qomatga keltirgudek huriy boshladı.

— Uidonga bir nima bo'lgan, — dedi ishonch bilan Skottning rafiqasi.

Hamma sakrab o‘rnidan turdi. Oq So‘yloq esa zinapoya tomon yugurdi. U zinalardan tushib borar ekan, dam-badam ortiga qarab odamlarni yurishga undar edi. U umrida ikkinchi va so‘nggi marta hurib nima gapligini tushuntirishga erishgandi.

Shu voqeadan so‘ng oila a‘zolarining Oq So‘yloqqa munosabati keskin o‘zgardi: hatto it ozor yetkazgan otboqar, vahshiy bo‘lsa ham Oq So‘yloq aqlii it ekan, degan qarorga keldi. Sudya Skott ham shu fikrni bildirdi. U o‘z fikrini asoslash uchun hammaning ko‘nglini ozdirib qomusdan va hayvonot dunyosiga bag‘ishlangan har turli kitoblardan dalil-hujjatlar keltirardi.

Bir-birini quvalashib Santa-Klara vodiyisini quyosh nurlariga to‘ldirgan kunlar o‘tardi. Qish yaqinlashgan kezlar Oq So‘yloq g‘alati o‘zgarishni payqab qoldi – Kollining o‘tkir tishlari o‘tmashlashganday sho‘xlik qilsa beozor tishlari endi unchalik ta’sir qilmayotganday tuyuldi. Oq So‘yloq bir paytlar ovcharka o‘z hayotini zahar-zaqqumga aylantirib yuborganini unutdi, endi mabodo u o‘ynashmoqchi bo‘lsa sho‘xlik bilan javob qaytaradigan bo‘ldi.

Bir kuni Kolli o‘tloqda uzoq yelib-yugurib yurdi, keyin Oq So‘yloqni o‘rmonga ergashtirib ketdi. Xo‘jayini tushlikka dovur otda sayr qilmoqchi edi. Egarlangan ot yo‘lakda turardi. Oq So‘yloq ikkilandi. O‘zlashtirgan hamma qonun-qoida, odatlardan, xo‘jayiniga bo‘lgan sadoqatidan, yashash istagidan ham kuchliroq, allanima vujudini larzaga solayotganini payqadi-yu, ovcharka beozorgina tishlab qochganda bu shubha-gumonlarni yengib Kolli ortidan yugurdi. O‘sha kuni egasining bir o‘zi sayrga chiqdi, bir zamonlar kimsasiz Shimolning sokin changalzorlarida onasi Kichi Birko‘z bilan yelib yugurgani kabi Oq So‘yloq Kolli bilan yonma-yon yugurib yurar edi.

## Beshinchi bob

### MUDRAYOTGAN BO‘RI

Taxminan o‘sha paytlarda gazetalarda o‘zining yovuzligi bilan dong taratgan bir mahbusning San-Kventin qamoqxonasidan qo‘chganligi haqidagi xabar e‘lon qilingandi. Bu onasining qornidan rasvo bo‘lib tug‘ilgan va hayotda zarracha ro‘slnolik ko‘rmay – jamiyatning rahm-shafqatsiz changalida o‘sgan kimsa edi. Ayni chog‘da uning taqdiri inson nechog‘li buzilib ketishi mumkinligini ko‘rsatuvchi hayratangiz namuna vazifasini ham o‘tardi. Bu borib turgan vahshiy – inson qiyofasidagi vahshiy edi.

San-Kventin qamoqxonasida uni odam bo‘lmaydigan mahbuslar qatoriga qo‘shishar edi. Hech qanaqa jazo uni tuzatishga qodir emasdi. U so‘nggi nafasigacha olishsa-olishardiki, biroq aslo bo‘ysunmas edi. U

qanchalik qutursa, jamiyat shunchalik ayovsiz jazolar, bu berahmlik, uning yuragida xusumat va kek o'tini yondirardi, xolos. Jinnilar ko'ylagi, ochlik, ayovsiz kaltaklashlar natija bermas, Jim Xoll esa hayotdan bo'lak narsa kutmasdi. San-Fransiskoning xarob, jinko'chalarida o'tgan bolaligidayoq, ya'ni jamiyat qaysi tomonga istasa o'sha tomonga egishi mumkin bo'lgan navnihol davridan boshlaboq uning ko'rgan kuni shu edi.

Uchinchi marta jazo muddatini o'tayotganida Jim Xoll qamoqda o'ziga o'xshagan itfe'l soqchiga yo'liqdi. Soqchi har xil yo'llar bilan uni ta'qib etar, nazoratchiga yomonlar, tuhmat qilar, shu sababli qamoqxonaning eng oxirgi, arzimagan yengilliklaridan mahrum etilgan edi. Jim bilan soqchi o'rtasidagi farq shundan iborat ediki, soqchi bir shoda kalit bilan to'pponcha ko'tarib yurar, Jim Xollning esa qo'llari bilan tishidan boshqa narsasi yo'q edi. Ammo kunlardan bir kun Jim soqchiga tashlanib changalzordagi vahshiylardek uning kekirdagini uzib tashladi.

Shundan so'ng Jim Xollni bir kishilik xonaga qamab qo'yishdi. O'sha yerda u uch yil tutqunlik azobini tortdi. Xonaning poli, devorlari va hatto shiftiga ham tunuka qoplangan edi. Shu uch yil maboynida u tashqariga chiqish tugul, biror marta na osmonni, na quyosh nurini ko'rdi. Kamera hamisha zimiston edi. Jim Xoll bamisli tiriklayin temir qabrga ko'milgandi. U inson turqini ko'rmas, inson ovozini eshitmasdi. Maxsus tuyrukdan ovqat uzatishganda u vahsiy yirtqichdek o'kirib yuborardi. U borliq olamdan hazar qilardi! Jim Xoll kecha-yu kunduz chinqirishi, so'ng yurak-bag'ini o'rtab yuborgan zulmatxonada haftalab, oylab churq etmay yashashi mumkin edi.

Oxiri u bir kun kechasi qochib ketdi. Nazoratchi avvaliga ishonmadi, lekin xona kimsasiz, ostonada esa soqchining murdasi yotardi. Qamoq-xona devoridan oshib o'tguncha Jim Xoll yana ikki kishini o'ldirgan edi.

O'ldirgan soqchilarning qurolini olib Jim Xoll toqqa yashirindi. Uning boshi uchun juda katta mukofot belgilandi. Ochko'z fermerlar miltiq ko'tarib uning ortidan quvib yurishardi. Ular uning boshiga ajratilgan mo'maygina pul evaziga mol-mulk sotib olish yoki o'g'lini kollejga yuborib o'qitish umidida yonardilar. Burchini ado etgani oddiy fuqarolar ham qo'lga quroq olib Xollga qarshi chiqishgan edi. Gala-gala ayg'oqchilar uning qonli izlaridan qidirib yurishardi. Hukumatdan maosh oladigan izquvarlar esa qo'ng'iroq qilishar, telegrammalar jo'natishar, maxsus poyezdlar buyurishar, qisqasi tun-kun izlashdan charchamasdilar.

Goho-goho Jim Xoll ta'qibchilarga duch kelib qolardi. Shunda odamlar uning ustiga qo'rqmasdan tikka bostirib borishar yoki ko'rganlaridan tum-taraqay qochishardi. Nonushta vaqtida bu taxlit xabarlarni butun xalq qiziqib o'qirdi. Shunday to'qnashuvlardan so'ng o'ldirilgan va yaralanganlar kasalxonaga olib ketilar, ularning o'rniga odam ovlashga ishqiboz yangi ovchilar yollanardi.

Ko‘p o’tmay Jim Xoll dom-daraksiz g‘oyib bo‘ldi. Izquvarlar uni axtarib behuda ovora bo‘lishardi. Qurollangan odamlar begunoh fermerlardan gumonsirab hujjatlarini tekshirishardi. Jim Xollning boshi uchun belgilangan mukofotni olish ishtiyoyqida yongan kimsalar tog‘lardan uning murdasini topib charchashmasdi.

Shu o’tgan davr ichida Siyerra-Vistadagilar ham bir-biridan hayratmuz xabarlarni o‘qishar, ammo bu yerda ko‘pincha xavotirga tushishardi. Ayollar vahima ko‘tarishardi. Sudya Skott maqtanar va o‘rin-noo‘rin ularni mazax qilardi. Iste’foga chiqmasdan avvalroq, sudya Jim Xollni sud qilgan va kesib yuborgan edi. O‘scha yerda, sud zalida Jim Xoll bir kunmas-bir kun shu hukmni chiqargani uchun sudyadan o‘ch olaman, deb oshkora ont ichgan ekan.

Bu safar Jim Xoll chindan ham begunoh edi. Uni nohaq jazolashdi. Jinoyatchilar va politsiyachilar orasida bunga «Yesa ham, yemasa ham bo‘rining og‘zi qon», degan aqida bilan qarashardi, Jim Xollni bekordan bekorga qamashgandi. Ilgari ham ikki marta qamalganini inobatga olgan sudya Skott uni 50 yil muddatga qamagandi.

Sudya Skott bu ishni yaxshi bilmas, politsiyachilar fitnasiga uchganligi, guvohlarning ko‘rsatmalari esa uyuşhtirilgan va buzib ko‘rsatilgani hamda Jim Xollning bu jinoyatga mutlaqo aloqasi yo‘qligi xayoliga ham kelmagandi, o‘z navbatida Jim Xoll ham sudya Skott hech narsadan bexabarligi tufayli shunday qilganini bilmasdi. U sudya Skott hammasini ko‘ra-bila turib politsiya bilan til biriktingani uchun haddan tashqariadolatsiz hukm chiqardi, deb o‘ylardi. Shu sababli sudya Skott 50 yil ozodlikdan mahrum etish haqidagi hukmni e‘lon qilganda, alamzada Jim Xoll sakrab o‘rnidan turdi-da, g‘azabiga chidayolmay to‘polon qilishga tushdi, ko‘k mundir kiygan soqchilar qo‘lini bog‘lab qo‘yishdi. Sudya Skottniadolatsizlikning bosh sababchisi deb bilgan Jim Xoll o‘ch olaman deya qo‘rqitardi. Keyin esa Jim Xollning bir o‘zini yakka xonaga qamab qo‘yishgandi... mana o‘scha yerdan qochibdi.

Ro‘y bergen voqealar haqida tabiiyki, Oq So‘yloq hech vaqo bilmasdi. Biroq, Oq So‘yloq bilan xo‘jayinning rafiqasi Elis o‘rtasida boshqa hech kim bilmaydigan sir bor edi. Har kuni kechasi hamma uyquga ketgandan so‘ng, Elis Oq So‘yloqni dahlizga kiritib qo‘yardi. Oq So‘yloq xonaki it bo‘lmay uyda qolishi mumkin emasdi, shu sababli ertalab hamma shirin uyquda yotgan chog‘ida Elis pastga tushardi-da, uni hovliga chiqarib yuborardi.

Ittifoqo bir kuni oila a‘zolari dong qotib uxlab yotganida Oq So‘yloq uyg‘onib ketdi, lekin jim yotaverdi. U tumshug‘ini ko‘tarib, havoni iskadi-yu, uyga begona odam kirganini ilg‘adi. Zum o’tmay qadam tovushlari eshitildi. Oq So‘yloq dabdurustdan hurib yubormadi. Uning bunaqa odati yo‘q edi. Begona kimsa pusib, oyog‘ining uchida yurar,

Oq So'yloq esa undan ham ohistaroq qadam tashlardi. Uning badaniga tegib shitirlaydigan libosi bo'lmanidan sassiz ilgarilardi. Xuvillagan Shimolda hurkak hayvonlarni ovlayverib o'ljaga noxos hujum qilib esankiratib qo'yish naqadar muhim ekanini u yaxshi bilardi.

Begona kimsa zina yonida to'xtab atrofga qulqoq sola boshladı. Oq So'yloq toshdek qotdi. U qilt etmay kutardi. Zina orqali xo'jayini bilan unga qadrdon bo'lib qolgan odamlar uxlayotgan xonalar joylashgan yo'lakka chiqsa bo'lardi. Oq So'yloqning junlari hurpaydi, ammo u jimgina kutib turaverdi. Begona kimsa zinaga oyoq qo'yib, yuqoriga ko'tarila boshladı...

Xuddi mana shu daqiqada Oq So'yloq o'zini unga otdi. U, hatto irillab ham o'zini sezdirmadi. U butun og'irligi bilan begona kishining ustiga tushdi. Uning yelkasiga osilib olgan Oq So'yloq bo'ynidan g'archcha tishladi. Kutilmaganda ustiga kelib tushgan og'irlikni ko'tarolmagan begona kimsa qaddini tutib turolmadi. Ikkovi gursillab yiqildi. Oq So'yloq chetga sakradi-da, begona kishi o'rnidan turishga chog'langanida yana unga otilib ikkinchi marta bo'ynidan oldi.

Siyerra-Vista xonadoni a'zolari cho'chib uyg'onishdi. Zinapoya tomonda shovqin-suron ko'tarilib, bir gala vahshiyalar olishayotgandek edi. O'q ovozi yangradi, keyin ketma-ket ikkinchi va uchinchi marta o'q uzildi. Allakim og'riqqa chidayolmay chinqirib yubordi. Ketidan o'kirgan ovoz eshitildi. Bu tovushlarga oynalarning chil-chil singani va ag'darilayotgan javonlarning gursillashi qo'shildi.

Shovqin-suron qanday boshlangan bo'lsa, xuddi shunday, birdan tindi. Bu bor-yo'g'i uch daqiqacha davom etdi. O'takalari yorilgan oila a'zolari zina tepasida to'planib turishardi. Pastdan, qorong'ulik qo'ynidan suv yuziga havo pufakchalari qalqib chiqayotgandek bilqillagan tovushlar eshitilardi. Goh-goh bu tovush vishillashga aylanar, xuddi birov hushtak chalgandek bo'lardi. Ammo hash-pash deguncha bu tovush ham tindi, zulmat qo'ynida xuddi kimdir arang nafas olayotgandek harsillash eshitildi.

Uidon Skott zina bilan qabulxonaning chirog'ini yoqdi. Keyin otabola to'pponchalarini ko'tarib ehtiyot shart sekin-sekin pastga tushishdi. Ularning ehtiyot bo'lishlari ortiqcha ekan, Oq So'yloq hammasini tinchitgan edi. Ag'darilgan va sinib yotgan javonlar orasida aft-basharasini qo'llari bilan berkitib olgan bir kimsa yotardi. Uidon Skott engashib uning qo'lini olib tashladi-da, yuzini shiftga qaratib qo'ydi. Uning kekirdagi uzib tashlangan edi.

— Jim Xoll! — deb yubordi sudya Skott.

Ota-bola ma'noli ko'z urishtirib olgach, ikkovi Oq So'yloqqa yuzlandi. It g'ujanak bo'lib yotardi. Uning ko'zlarini yumuq edi, ammo engashib qaraganda u ko'zlarini ochdi va bilinar-bilinmas dumini

qimirlatdi. Uidon Skott uni siladi, bunga javoban Oq So'yloq ohista, eshitilar-eshitilmas g'ingshidi. Uning ovozi nihoyatda past — birov yo eshitar yo eshitmas edi. Shundan so'ng Oq So'yloqning qovoqlari uchdi va ko'zi yumildi, butun tanasi shalpayib birdan bo'shashib, yotgan joyida cho'zilib qoldi.

- Boyoqish, tamom bo'ldi, — dedi xo'jayini.
- Bunday deyishga hali erta, — dedi sudyva sim qoqish uchun yurdi.
- Ochig'i, tuzalishiga umid yo'q, — dedi yarim soat Oq So'yloqni tekshirib ko'rgan doktor.

Bolalardan boshqa hamma doktorni o'rav olgan va Oq So'yloq haqida nima derkin, deya kutishardi.

— Orqa oyog'i lat yegan, — deya davom etdi tabib. — Uchta qovurg'asi singan. Hech bo'limganda bitta qovurg'a o'pkaga shikast yetkazgan. Ko'p qon yo'qtotgan. Etimol uning boshqa ichki a'zolari ham lat yegandir, chunki rosa tepkilashganga o'xshaydi. Men hali badanini ilmateshik qilib o'tgan uchta o'qni aytayotganim yo'q. Ahvoli haddan ziyod og'ir, tuzalishiga imkon bor, lekin o'n ming imkoniyatdan bitta...

— Ammo shu imkoniyatni yo'qtomaslik kerak! — dedi yolvorgudek bo'lib sudyva Skott. — Aytgan pulingizni beraman! Nur bilan yoritib ko'rish kerak, foydasi tegishi mumkin, nimaiki bo'lsa hammasini qiling... Uidon, hoziroq San-Frantsiskoga, doktor Nikolsga xabar qil. Ko'nglingizga olmang doktor, biz sizga ishonamiz, ammo itning tuzalishi uchun hamma chorani ko'rish kerak.

— Nimalar deyapsiz, albatta, albatta! Tushunaman, it bunga arziydi. Uni parvarish qilish lozim. Haroratini o'lchab turinglar. Men soat o'nda kelib xabar olaman.

Oq So'yloqni dardga chalingan odamdek parvarish qilishardi. Sudyaning qizlari hamshira chaqirish kerak, degan taklifni rad qilib, unga o'zimiz qaraymiz deyishdi. Doktorning umidsizligiga qaramay Oq So'yloq tirik qoldi.

Buning uchun jarrohni ayblash to'g'ri emas. Chunki u shu choqqacha ota-onalari paxpaxlab o'stirgan odamlarni davolab, muolaja qilib kelgan edi. Oq So'yloqqa nisbatan ularning hammasi nimjon, darmonsiz hamda dardga yengil edilar. Oq So'yloq esa noziklashishiga yo'l qo'ymaydigan va nimjonlar darhol nobud bo'ladigan Shimoldan chiqqan edi. Uning ota-onasi ham, avlod-ajdodlari ham nimjon bo'limgandi; shimol tabiat Oq So'yloqni temirdek baquvvat, yashovchan qilib tarbiyat qilgan va u qadim zamonalarda barcha jonzotga xos jism-u jahoni bilan hayotga talpinardi.

Tang'ib bog'langan va gips tufayli loaqlal qimirlashga imkonli yo'q Oq So'yloq bir necha hafta o'lim bilan olishib yotdi. U juda ko'p

uxlar, behisob tushlar ko'rар, tushiga Shimolda kechgan hayoti kirardi. Bu o't mishning jonlanib Oq So'yloqni ta'qib eta boshlaganini bildirardi. Ana u yana g'orda Kichi bilan hayot kechirayapti. Titrab-qaqshab yana Kulrang Qunduz oldiga bosh egib sudralib borayapti, Lip-Lipdan va uv solib quvayotgan kuchukchalar galasidan qochayapti.

Ochlik xuruj qilgan kunlar Oq So'yloq sokin o'rmon bo'ylab yana o'lja ilinjida yugurib ketayapti, o'zini yana chana tortar itlar yetakchisi sifatida ko'rdi, chanalar daraga kirayotib, ensiz so'qmoqda itlar safi toraygan chog'da Mit-Sa bilan Kulrang Qunduzning qamchinlarini qarsillatib «Raa! Raa!» deb qiyqirganlarini eshitdi. Xushro'y Smitt uyida yashagan davrlar, o'zi ishtirok etgan janglar birma-bir uning ko'z oldidan o'tdi. Shunday paytlarda u g'ingshib irillar va uning tepasida o'tirgan odamlar Oq So'yloq alahsirayapti, deb o'ylashardi.

Ammo mudhish bir voqeа qayta-qayta tushiga kirib uni qiyndardi: tushiga tramvaylar kirar va xuddi qulog'ini qomatga keltirib chinqirayotgan bahaybat qoplonlar singari guldilos solib, g'ijirlab uning ustiga bostirib kela boshlardi. Mana, Oq So'yloq olmaxonning daraxtdan tushishini kutib, butalar orasida pusib yotibdi... Mana u o'ljaga sakrayapti... Ammo olmaxon ko'z ochib yunguncha tramvayga aylanadi va uning tepasida ulkan qoyadek osilib qoladi, tahdidona chiyillaydi, guldiraydi va unga olov purkaydi. Qирг'иy bilan ham shunday bo'ldi. Qирг'иy ham tepadan toshdek tushib kelayotib birdan tramvayga aylanib qolardi. Oq So'yloq o'zini Xushro'y Smittning qafasida ko'rdi. Uni olomon o'rab olayapti, u tez orada jang boshlanishini sezib turibdi. U raqibini ko'rish uchun eshik tomon qarayapti. Eshik taraqlab ochiladiyu, dahshatli tramvay uning ustiga bostirib kela boshlaydi. Shunaqa bosinqirashlar kecha-yu kunduz takrorlanar va har safar Oq So'yloq uyqusida vahimaga tushardi.

Nihoyat ajoyib kurnarning birida so'nggi gipsni yechib oldilar. Bayram bo'lib ketdi o'sha kuni! Oq So'yloqni ko'rgani butun Siyerra-Vista keldi. Xo'jayini uning qulog'i orqasini silab-siypalar, u esa g'ingshib o'zining diydiyosini qilardi. Xo'jayinning xotini uni «Bebaho bo'ri» deb chaqirardi. Bu laqab hammaga yoqdi va xotin-xalajlar «Bebaho bo'ri!» deb takrorlay boshlashdi.

Oq So'yloq o'rnidan turib yurishga urindi, ammo muolaja cho'zilganidan uzoq yotaverib mushaklari uvishib, madori qolmagan edi. Xuddi odamlar oldida ayb ish qilib qo'ygandek nimjonligi uchun izza tortdi. Oxiri bor kuchini to'plab chayqala-chayqala o'rnidan turdi.

— Bebaho bo'ri! — deya zavqlanib qichqirishdi ayollar.

Sudya Skott ularga g'olibona nazar tashladi.

— To'g'ri aytayapsizlar! — dedi u. — Men hamisha shunday deb ishontirardim. Oq So'yloqqa bironta it bas kelolmaydi. Uning zoti bo'ri!

- Bebaho bo'ri! — deya uning gapini to'g'riladi Skott xonim.
- Ha, bebaho bo'ri! — deya ma'qulladi sudya. — Bundan buyon uni faqat shunday deb chaqiraman.
- U juda sekin oyoqqa turadi, xuddi yurishni boshqatdan o'rganishiga to'g'ri kelgandek, — dedi vrach. — Hozirdan boshlab o'rganaversin. Zarari yo'q. Uni hovliga qo'yib yuboringlar.

Oq So'yloqni hovliga qo'yib yuborishdi, bamiqli mo'tabar mehmonni kuzatib chiqqandek Siyerra-Vistadagi hamma uning ortidan chiqdi. U behad nimjon edi, o'tloqqa borganda chimga yotib bir necha daqiqa dam oldi.

Keyin bu tantanali yurish davom edi. Sekin-asta har bir qadamidan so'ng Oq So'yloqning qoni yurishib mushaklariga quvvat quyulardi. U otxonaga yetib bordi, u yerda darvoza yonida Kolli yotar, yon-verida esa oftob nurida durkungina oltita kuchukchalar g'imir-g'imir qilardi.

Oq So'yloq hayron bo'lib ularga tikilib qoldi. Kolli tahdidona irilladi va Oq So'yloq unga yaqinlashmaslikni lozim topdi. Xo'jayini chimda dumalab o'ynayotgan kuchukchani oyog'i bilan dumalatib uning yoniga keltirdi, Oq So'yloqning junlari hurpaydi, lekin xo'jayini uni yupatdi. Bet ushlab turgan Kolli xavotirlanib Oq So'yloqdan ko'z uzmay, ogohlantirmoqchidek irilladi.

Kuchukcha Oq So'yloq yoniga keldi. Oq So'yloq sergak tortdi-da, qiziqsinib uni ko'zdan kechirdi. Shundan so'ng ular tumshuqlarini bir-biriga tegizishdi va kuchukcha haroratlari tilchasi bilan Oq So'yloqning tumshug'ini yalab qo'ydi. Hech narsani tushunmay Oq So'yloq ham kuchukchaning tumshug'ini yaladi.

Buni ko'rgan odamlar quvonchdan chapak chalib yubordilar. Oq So'yloq hayron bo'ldi va garangsib ularga qaradi. Keyin holsizgina uzala tushib yotdi va boshini kuchukchalarga burib ularga termuldi. Boshqa kuchukchalar ham Kollini norozi qilib, uning yoniga sudralib kelishdi, Oq So'yloq kuchukchalarning tirmashib ustiga chiqib chimga sakrab o'ynashlariga qarshilik qilmay jim turdi.

Odamlarning olqishi uni xijolatga solgan va u yana ilgaridek o'zini noqulay sezaga boshlagandi. Ammo bu holat darrov o'tib ketdi. Kuchukchalar hamon g'imirlashishni qo'ymas, ko'zlarini yarim yumgancha yaslanib yotgan Oq So'yloqni esa quyosh nurlari elita boshladi.

# MUNDARIJA

Kutilmagan voqealar jozibasi .....	3
<b>BIRINCHI QISM</b>	
Birinchi bob. O'lja ortidan .....	6
Ikkinchchi bob. Urg'ochi bo'ri .....	12
Uchinchi bob. Ochlik zo'ri .....	19
<b>IKKINCHI QISM</b>	
Birinchi bob. Jang .....	27
Ikkinchchi bob. Bo'ri uysasi .....	34
Uchinchi bob. Kulrang bo'ri bolasi .....	40
To'rtinchchi bob. Dunyo devori .....	43
Beshinchchi bob. O'lja qonuni .....	52
<b>UCHINCHI QISM</b>	
Birinchi bob. Olovni yaratganlar .....	57
Ikkinchchi bob. Tutqunlikda .....	65
Uchinchi bob. Yakkamoxov .....	71
To'rtinchchi bob. Xudolar ortidan .....	75
Beshinchchi bob. Shartnomma .....	78
Oltinchchi bob. Ocharchilik .....	85
<b>TO'RTINCHI QISM</b>	
Birinchi bob. Dushman .....	91
Ikkinchchi bob. Telba xudo .....	98
Uchinchi bob. Nafrat saltanati .....	104
To'rtinchchi bob. Ajal sirtmog'i .....	108
Beshinchchi bob. Sarkash .....	116
Oltinchchi bob. Yangi saboq .....	120
<b>BESHINCHI QISM</b>	
Birinchi bob. Olis safar .....	131
Ikkinchchi bob. Janubda .....	135
Uchinchi bob. Xo'jayinning mulki .....	139
To'rtinchchi bob. Asliga qaytish .....	148
Beshinchchi bob. Mudrayotgan bo'ri .....	152

**JEK LONDON**

**OQ SO‘YLOQ**

*Qissa*

Muharrir *Shoyim Bo‘tayev*

Musavvir *Akrom Bahromov*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Musahhih *Dono To‘chiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Jamila Turg‘unova*

IB № 4975

Nashr.lits. №154. 14.08.09. Bosishga 27.10.10-y. da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Tayms garniturası. Ofset bosma.

10,0 shartlı bosma toboq. 11,8 nashr tobog'i.

Adadi 3000 nusxa. 351 raqamli buyurtma.

109–2010 raqamli shartnama. Bahosi shartnama asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100128. Toshkent, Shayxontohur ko‘chasi, 86.

**Bizning internet manzilimiz: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)**

**E-mail: [iptdgulom@sarkor.ru](mailto:iptdgulom@sarkor.ru)**